

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**



**IJTIMOY FANLAR KAFEDRASI
“KASBIY PEDAGOGIKA”
FANIDAN**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 500000 - Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot
100000-Gumanitar soha

Ta‘lim sohasi: 510000 - Sog‘liqni saqlash
110000-Pedagogika

Ta‘lim yo‘nalishi: 5111000 – Kasb ta‘limi (5510500- Farmatsiya
(farmatsevtika ishi))



Toshkent 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI**

**“KASBIY PEDAGOGIKA”
FANIDAN**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 500000 - Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
100000-Gumanitar soha

Ta’lim sohasi: 510000 - Sog‘liqni saqlash
110000 -Pedagogika

Ta’lim yo’nalishi: 5111000 – Kasb ta’limi (5510500- Farmatsiya
(farmatsevtika ishi))

Umumiy o‘quv soati -246 soat

shu jumladan:

Ma’ruza – **82** soat (9 semestr – **36** soat, 10 semestr – **46** soat)

Amaliy mashg‘ulot – **82** soat (9 semestr – **36** soat, 10 semestr – **46** soat)

Mustaqil ish – **82** soat (9 semestr – **34**soat, 10 semestr - **48**soat)

Toshkent 2020

O'quv Uslubiy Majmua O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi
2019 yil "12" 09 dagi "231"-sonli buyrug'i bilan (buyruqning 1-ilovasi) tasdiqlangan
"Kasbiy pedagogika" fani dasturi asosida tayyorlangan.


Tuzuvchilar:

A.S.Kaldibekova Pedagogika fanlari nomzodi, Ijtimoiy fanlar
kafedrasi dotsenti
D.O.Kamalova Ijtimoiy fanlar kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

B.X.Xadjayev - Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika
Universiteti "Umumiy pedagogika" kafedrasi
Pedagogika fanlari doktori., professor
G.M.Qurbonova - Nizomiy nomidagi TDPU "Umumiy pedagogika"
kafedrasi Pedagogika fanlari nomzodi., dotsenti

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Ijtimoiy fanlar soha uslubiy
Kengashining 2020 yil 30.06 dagi 20-sonli yig'ilishida muhokama
qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.


Soha uslubiy kengash raisi:  K.K. Ismailov

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi institut Markaziy uslubiy
kengashida ko'rib chiqildi va tasdialandi

2020 yil 07.07 dagi 12-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va
tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi:  Z.A. Yuldashev

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi institut Kengashida 2020 yil 09.
07dagi 12-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya
etilgan.

Kengash kotibi:  V.R. Xaydarov

MUNDARIJA

I.1-semestr nazariy ma'lumotlari

1. "Kasbiy pedagogika" fan sifatida.....	6
2. Kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi.....	16
3. O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'lim tizimi islohatlari.....	27
4. Kasbiy ta'limning dolzarb pedagogik muommalari.....	33
5. Kasb-hunar pedagogikasining huquqiy- me'yoriy asoslari.....	40
6. O'zbekiston xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari. O'MKHK.....	47
7. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xosligi..	58
8. Ta'limni standartlashtirish. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni, maqsad va vazifalari.....	65
9. Kasbiy ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili (chet el tajribasi sifatida).....	94
10. O'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashuvi.....	102
11. Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish jarayonlari...	110
12. Kasbiy ta'lim pedagogikasining didaktik tamoyillari.....	127
13. Kasbiy ta'limda qo'llaniladigan metodlar, shakllar va vositalar.....	132

2-semestr nazaariy ma'lumotlari

1. Kasb ta'limi dual tizimi.....	141
2. O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi mazmuni. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi kasblari va mutaxassislarini turkumlash.....	146
3. Kasbiy ta'limda nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi. Nazariy darslarni loyihalashtirish va rejalashtirish.....	149
4. Amaliy mashg'ulotlarni loyihalashtirish va rejalashtirish.....	161
5. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish.....	169
6. O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash.....	171
7. Kasb-hunar ta'limi o'qituvchining asosiy faoliyat sohalari va unga qo'yiladigan talablar.	177
8. Kasb-hunar ta'limi o'qituvchining asosiy faoliyat sohalari.....	157
9. Pedagogik faoliyat va pedagogik qobiliyat.....	186
10. O'qituvchining pedagogik va kasbiy mahorati.....	190
11. Kasb ta'limi o'qituvchisining tashkiliy metodik ishlari.....	193
12. Mustaqil ishlarni tashkil etish, o'tkazish va baholash.....	196
13. Kasb-hunar kollejlari o'quv xona, laboratoriya hamda o'quv ustahonalarini jihozlash va unga qo'yiladigan talablar.....	200
14. Kasb-hunar ta'limini boshqarish.....	202
15. Kasb-hunar ta'limida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilish.....	206
16. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni tarbiyalash.....	210
17. Kasb-hunar ta'limida innovatsion texnologiyalar. Kasb-hunar ta'limida modulli o'qitish texnologiyalari.....	217
18. Kasbiy ta'limda keys ta'lim texnologiyasi.....	220

II. Amaliy mashg'ulotlar

1. "Kasbiy pedagogika" fan sifatida.....	223
2. Kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi.....	227
3. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi.....	234
4. Kasbiy ta'limning dolzarb pedagogik muammolari.....	236
5. Kasb-hunar pedagogikasining huquqiy- me'yoriy asoslari.....	239

6.O'zbekiston xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari.O`MKHK.....	240
7.O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xosligi...	242
8.Ta'limni standartlashtirish.O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni, maqsad va vazifalari.....	245
9.Kasbiy ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili (chet el tajribasi sifatida).....	248
10.O'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashuvi.....	252
11. Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish jarayonlari.....	255
12.Kasbiy ta'lim pedagogikasining didaktik tamoyillari.....	257
13.Kasbiy ta'limda qo'llaniladigan metodlar, shakllar va vositalar.....	259
2-semestr	
1.Kasb ta'limi dual tizimi.....	263
2.O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi mazmuni. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi kasblari va mutaxassislarini turkumlash.....	265
3.Kasbiy ta'limda nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi. Nazariy darslarni loyihalashtirish va rejalashtirish.....	267
4. Amaliy mashg'ulotlarni loyihalashtirish va rejalashtirish.....	269
5.Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish.....	278
6.O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash.....	280
7.Kasb-hunar ta'limi o'qituvchining asosiy faoliyat sohalari va unga qo'yiladigan talablar.....	281
8.Kasb-hunar ta'limi o'qituvchining asosiy faoliyat sohalari.....	282
9.Pedagogik faoliyat va pedagogik qobiliyat.....	284
10.O'qituvchining pedagogik va kasbiy mahorati.....	285
11.Kasb ta'limi o'qituvchisining tashkiliy metodik ishlari.....	288
12.Mustaqil ishlarni tashkil etish, o'tkazish va baholash.....	290
13.Kasb-hunar kollejlari o'quv xona, laboratoriya hamda o'quv ustahonalarini jihozlash va unga qo'yiladigan talablar.....	291
14.Kasb-hunar ta'limini boshqarish.....	294
15.Kasb-hunar ta'limida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilish.....	295
16.Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarni tarbiyalash.....	298
17.Kasb-hunar ta'limida innovatsion texnologiyalar. Kasb-hunar ta'limida modulli o'qitish texnologiyalari.....	300
18.Kasbiy ta'limda keys ta'lim texnologiyasi.....	301
III.Glossary	303
IV.ILOVALAR	
1.Fan dasturi.....	433
2.Ishchi dasturi.....	434
VADABIYOTLAR	RO'YXATI
	383

NAZARIY MATERIALLAR



1-mavzu: “Kasbiy pedagogika” fan sifatida. (2soat)

Reja:

1. Kasbiy pedagogikasi fanining maqsadi.
2. Kasbiy pedagogikasi fanining vazifalari

Tayanch soʻz va iboralar: kasb taʼlimi, pedagogika, taʼlim-tarbiya, kasb hunar kolleji, akademik litsey, maʼlumot, madaniyat, mentalitet, insonning rivojlanishi, oʻqitish, pedagogik faoliyat, muhit, axloqiy tarbiya, xuquqiy tarbiya.

1. Kasbiy pedagogikasi fanining maqsadi.

Kasbiy mahorat va layoqat shaxsning shunday sifatlariki, ular boʻlajak mutaxassisning hayotiy va mehnat muvvafaqiyatlarini belgilab beradi. Mustaqil Respublikamizda taʼlimni rivojlantirishning yangi bosqichida ***kasb taʼlimi pedagogikasi fanining asosiy vazifasi*** sifatida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, mamlakatimiz iqtisodiyotini buyuk davlat darajasiga koʻtaradigan mutaxassislarni tayyorlash, va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondoshuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tadbiiq qilish sifatlarini tarbiyalashga eʼtibor qaratish lozim. SHu sababli bugungi kunda barcha fan sohalari boʻyicha, jumladan kasb taʼlimiga oid darsliklar, oʻquv qoʻllanma va tavsiyalarning yangi avlodini yaratish muhim ahamiyatga ega boʻlmokda.

Kasbiy taʼlim pedagogikasi kasb-xunar taʼlimi oʻquv yurtlari oʻquvchilarining taʼlimi, tarbiyasi, oʻqishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganadi, taʼlim va tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalarini qoʻllash mezonlarini ishlab chiqadi, kasb taʼlimi muassasalari turlarini va ularni boshqarish tizimi asoslaydi. U pedagogik nazariyalar toʻgʻrisidagi bilimlarni, innovasion texnologiyalarni loyihalash uslublarini umumlashtiradi. ***Kasbiy taʼlim pedagogikasi*** fani insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, yangi avlodni kasbiy tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borishni koʻzda tutadi.

Kasbiy taʼlim pedagogikasi jahon miqyosida tan olingan eng ilgʻor metodlar va yoʻnalishlar bilan boyib bormoqda. Bugungi kunda oʻzining keng tadbiiqini

kutib yotgan, fannshg boshqa sohalari bilan bog'liq ravishda ishlab chiqilgan yangi konsepsiyalar va nazariyalar rivojlantirilmoqda.

Kasbiy ta'lim pedagogikasi umumiy pedagogika fanining tarmog'i sifatida kasbiy - texnik ta'lim tizimining takomillashish jarayonida shakllanib boradi. U nisbatan yangi fan sohasi sanalib, bugungi kunda ko'plab tushunchalari shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Har qanday fan sohasida bo'lgani kabi kasbiy ta'lim pedagogikasi o'z kategoriyalari va tushunchalariga, sifat ko'rsatkichlariga egaki, bular fanning asosini tashkil qiladi.

2. Kasbiy pedagogikasi fanining vazifalari

Kasbiy ta'lim pedagogikasi fani boshqa fanlar bilan birgalikda kasbiy ta'limning turli tizimlarida quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- * o'quvchilarning yangi, yanada murakkab vazifalarni amalga oshirishlarini ta'minlash uchun ularning kasbiy mahoratini oshirishi;
- * kasbiy-texnik ta'limning yangi konsepsiyalarini amalga oshirish vosita va yo'llarini yaratishga e'tiborni qaratish, faol-ijodkor shaxsni tarbiyalash;
- * pedagogik bilimlarni egallashga yangicha yondoshuvlarni ishlab chiqish.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi quyidagi talablar asosida tashkil etiladi va rivojlantiriladi

- * - akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;
- * - soxa uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat soxasining mutaxassislarini jalb etgan xolda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;
- * - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;
- * - akademik liseylarning o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;
- * - kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish.

Kasb pedagogikasining ilm sifatidagi o'rni XXI asr bo'sag'asida ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. SHuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosidagi huquqiy, demokratik davlat erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida (1997 y.) ta'lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida usutuvor deb e'lon qilinishi Pedagogika fani zimmasiga juda katta mas'uliyatli ulug'vor vazifalarni yukladi. Juda boy ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimizni qayta tiklanishi ularni zamon ruhi talabi bilan uyg'unlashtirib faqat shaxsiy, milliy manfaat kasb etilib qolmasdan umumjahon ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ulkan hissa bo'lib qo'shilmogda.

Har bir mustaqil fan o'zining predmeti (mavzusi) va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, Kasb pedagogikasi ham fan sifatida shakllanib o'zining predmetiga ega bo'ldi. Boshqa fanlar kabi Kasb pedagogikasi ham fan sifatida paydo bo'lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo'ldi.

SHu sababli tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim, chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957 yil 1 oktyabrdagi sessiyasida "O'zbekiston SSRda majburiy etti yillik ta'limni to'liq amalga oshirish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo'ldi.

Yangi Qonunga ko'ra umumta'lim maktabi hamma uchun majburiy bo'lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab xaqiqiy hayotdan ajralib qoldi, o'quvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga to'g'ri kelmasdi. Shuning uchun ham 1959 yil martda O'zbekiston Oliy Soveti "Maktab xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo'lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo'lida to'g'anoq bo'lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta'limida ahvol o'zgarmadi.

O'zbekistonda maktabning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlash to'g'risidagi 1959 yilda respublika hukumati qabul qilgan qonunga asosan o'qishni ishlab chiqarish bilan qo'shib olib borish talab etildi. Ushbu munosabat bildn o'n yillik o'rta maktablar qayta tashkil etilib, o'n bir yillik o'rta maktablarga aylantirildi, ularda o'quvchilar fan asoslari bilan birga ishlab chiqarish kasblarini ham o'rgana boshladilar, O'quvchilarga kasb ta'limi berishga yuzlab korxonalar, xo'jaliklar jalb qilindi, maktablarda minglab o'quv kabinetlari, laboratoriyalar, ustaxonalar, o'quv-tajriba, yer uchastkalari tashkil etildi. Shunga qaramay, ishlab chiqarish ta'limini maktablarda joriy qilish katta kiyinchiliklarga duch keldi. Korxonalar, xo'jaliklar bu ishga tayyor emas edilar. Maktablarda ustaxonalarni zarur asbob-uskuna bilan jihozlashga mablar yo'q edi. Mehnat ta'limi o'qituvchilari yetishmasdi. Buning oqibatida islohot kutilgan natijani bermadi va majburiy kasb o'rganish bekor qilindi.

Bu davrda respublika maktablari o'qituvchi kadrlar bilan son jihatidan yetarlicha ta'minlandi. Biroq oliy ma'lumotli pedagog kadrlar 60-yillarda respublikadagi barcha o'qituvchilarning uchdan bir qismini

tashkil qilardi, xolos. Ayniqsa, qishloqlarda ahvol og'ir edi. Qishloq maktablarida fizika, matematika, rus tili va chet tili o'qituvchilari yetishmasdi. Aksariyat hollarda o'qituvchilar o'z mutaxassisligiga kirmagan fanlardan dars berardilar.

Sovetlar davrida maktablarning o'quv-tarbiya ishlarida katta nuqsonlar mavjud edi. O'zbek tiliga davlat maqomi berilmaganligi, davlat idoralarida ish yuritish asosan rus tilida olib borilganligi tufayli maktablarda ona tili chuqur o'rgatilmadi. Ona tilini o'rganishga ajratilgan dars soatlari rus tiliga ajratilgan dars soatlarining yarmini ham tashkil qilmas edi. Yoshlar maktabni o'zbek adabiy tilining yozma va og'zaki shakllarini puxta o'zlashtirmay, bitirib chiqib ketardilar. Shuningdek, O'zbekiston tarixi va ma'naviy madaniyati ham maktabda deyarli o'rgatilmadi. Sovetlar davrida "SSSR tarixi" deb nomlangan, aslida Rossiya tarixidan iborat fan o'qitilardi. Unga ilova sifatida "O'zbekiston SSR tarixi" bir necha soatgina o'qitilar, ko'p hollarda bu kurs o'tilmay qolib ketardi.

Maktablarda iqtidorli bolalarni o'qitishga e'tibor berilmas edi. Maktab bolalari qalbida ona-Vatan tuyg'usi, ulug' allomalarimiz va ular qoldirgan ma'naviy meros, o'z ona tili, urf-odatlar bilan faxrlanish hissi shakllantirilmadi.

Maktablarda ayniqsa, ijtimoiy fanlarni o'qitish o'ta siyosatlashtirildi. Ko'zdan kechirilayotgan davrda maorif sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, yoshlarni milliy an'analar va ma'naviy madaniyat manbalaridan uzoqlashtirish an'anasi ko'zga tashlanib bordi. Ta'lim va tarbiya ishlariga partiyaviylik va sinfiylik prinsiplari asosida yondashish yoshlarning umumbashariy, milliy-madaniy qadriyatlarni, urf-odatlarini o'rganishiga to'sqinlik qildi.

70-yillarga kelib respublikamizda ijtimoiy sohada ro'y bergan kamchilik va muammolar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Shunday bo'lsada, bu borada katta qadam tashlandi. O'zbekiston yalpi savodxonlar respublikasiga aylandi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar soni va shunga yarasha maktablar soni ham yildan-yilga ortib bordi, ularning soni 1985 yilga kelib 7000 dan ortiqni tashkil etdi.

Jamiyatdagi turg'unlik holatlari, ijtimoiy turmush sharoitining yomonlashuvi, iqtisodiyotdagi kiyinchiliklar, ma'naviy va madaniy soha muammolari maorif tizimiga ham jiddiy ta'sir o'tkazdi. Umumta'lim maktablarining ahvoli yomonlashdi. Ayniqsa, 70-yillarda va 80-yillarning boshlarida respublikamiz turmushining boshqa sohalarida bo'lgani kabi, xalq maorifi ishiga ham dabdababozlik, haqiqatni bo'yab

ko'rsatish hollari salbiy ta'sir qildi. Yaqin o'tmishda keng yoyilgan ijtimoiy adolat prinsiplarining buzilishi, dinimiz, milliy g'ururimizning kamsitilishi yosh avlod tarbiyasiga ma'naviy zarar yetkazdi. Ularning aksariyat qismida mudroqlik, hafsalasizlik, loqaydlik kayfiyatlari ko'proq kuzatildi.

Yoshlarning zamonaviy texnologiyani yetarli o'zlashtirib olmaganliklari sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyatni yanada taraqqiy ettirishga xalaqit berardi. Bunga asosiy sabab maorifning keng tarmoqli tizimi vujudga keltirilmaganligi, o'qish-o'qitishda sifat o'zgarishining ro'y bermaganligida edi. Masalan, 1980-81 o'quv yilida respublikamizda mavjud 7000dan ortiq umumta'lim maktablarining 60 foizi nobop binolarda joylashgan, 700 tasi avariya holatida edi. Ayniqsa, qishloq maktablarida ahvol og'ir bo'ldi. Ularning 75 foizga yaqini vodoprovod va kanalizatsiyaga, yarmidan ko'prori markaziy isitish moslamalariga, oshxona va sport zallariga ega emas edi. Joy tanqisdigi sababli 5800 ta maktabda o'qish ikki smenada olib borilardi. Madaniy-ma'rifiy soha uchun resurslarni taqsimlash «qoldiq» prinsipida amalga oshirilganligidan maktablar uchun bino yetishmasdi, ular jihozlar, yangi asbob-uskunalar bilan sust ta'minlangan edi. Bu soha uzoq yillar davomida diqqat-e'tibordan chetda qolib keldi, hayotimizning eng ortda qolgan sohalaridan biriga aylandi. Fan, madaniyat va xalq ta'limiga qilinadigan sarf-xarajatlarni qo'shib hisoblaganda ular byudjet mablag'darining 2,7 foizidan ortmas edi. Respublikamiz xalq ta'limi oldida turgan asosiy ta'lim-tarbiya ishlari ko'p tomondan o'qituvchi kadrlar sifatiga bog'liq edi. 80-yillarning o'rtalariga kelganda shaharlardagi kunduzgi umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilarning 80 foizga yaqini oliy ma'lumotli edi. Qishloqlarda axvol birmuncha yomonroq bo'ldi, ularda ma'lumotli pedagoglar yetishmas edi. Pedagoglar yetishmasligidan bir soha o'qituvchisi boshqa fandan ham dars berishga majbur edi. Bunday hol o'quvchilar bilimlari sifatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. O'quvchilarning 3-4 oylab qishloq xo'jalik ishlariga jalb etilishi ta'lim saviyasining pasayib ketishiga, bilimlarning sifati qoniqarsiz ahvolga tushib qolishiga olib keldi.

1985-1990 yillar xalq ta'limi tizimida ayrim siljishlar ruy berdi. Ammo bu davrda ta'lim va tarbiya sohasidagi ziddiyatli holatlar yanada keskinlashdi. Maktab, o'rta maxsus va oliy ta'limda rivojlanishning ekstensiv yo'li o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanib bo'ldi. O'qituvchi va talabalarning ijtimoiy faolligi ortgani sari sovet ta'lim tizimining chirishi kuchaya bordi.

80-yillarning o'rtalaridan boshlangan xalq maorifidagi islohotlar mavjud muammolarni xalq ko'zidan yashirishga o'rinishdan bo'lak narsa emasdi. Islohotdan ko'zlangan maqsad «sovet tizimi»ni yuqori darajaga ko'tarish, mutaxassis va o'quvchilar bilim saviyasini oshirish, ta'limni demokratlashtirishdan iborat edi. Biroq mazkur maqsadga sovet mafkurasi va u olib borayotgan kommunistik yondashuv asosida erishish mumkin emasdi. 80-yillarning o'rtalaridan boshlangan islohotlar moddiy jihatdan ta'minlanmaganligi uchun ham oxiriga yetmadi.

Chunonchi, 1985-1990 yillarda O'zbekistonda 3693 ming o'quvchiga mo'ljallangan yangi o'quv yurtlari talab qilingan holda, Markazning topshirig'i bilan bu raqam 920 ming o'ringa tushirildi. Respublika qishloqlaridagi maktablarning 80 foizi esa moslashtirilmagan binolarda joylashgan edi.

1985 yilda respublika maktablarida o'quvchilar soni 2684 mingga yetdi. Bu raqam 1990 yilga kelib 245 mingga kamaydi. Buning boisi o'qituvchilarni ijtimoiy himoyalash, ularning obro'sini orttirishda davlat rasmiy siyosatidagi xato va kamchiliklarda edi. 1985-1990 yillarda respublikadagi 14 pedagogika instituti va 38 o'rta maxsus bilim yurtlarida yiliga o'rtacha 17 mingdan yosh o'qituvchilar tayyorlangani holda, maktabda faoliyat ko'rsatuvchilar sonining muttasil kamayishi ta'lim tizimi va hukmron mafkuradagi jiddiy cheklanganlik oqibatida yuz berdi.

1945-1991 yillarda hunar-texnika va oliy ta'lim tizimi. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston sanoati uchun malakali ishchi kadrlar hunar-texnika bilim yurtlarida va bevosita ishlab chiqarish jarayonida yakka tartibda hunar kurslarida tayyorlandi. Respublikadagi xunar maktablari, temir yo'l, binokorlik o'quv yurtlari, yirik korxonalar qoshidagi fabrika-zavod ta'limi (FZO) maktablari sanoatni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. 1940-1955 yillarda xalq xo'jaligi uchun jami 143 ming malakali ishchilar tayyorlab berildi. Ishchi kadrlarga ehtiyoj yildan-yilga ortib bordi. Malakali kadrlar tayyorlash ham o'sib bordi. 1966-1970 yillarda hunar-texnika o'quv yurtlari xalq xo'jaligiga 172 ming nafar ishchilarni tayyorlab berdi.

Shu bilan birga, respublika hunar-texnika ta'limida katta kamchiliklar mavjud edi. O'quv yurtlarida o'zbeklar va boshqa tub aholi vakillari, xotin-qizlar soni kam edi. Korxonalarda turar joy va zarur maishiy sharoitlarning yo'qligidan yosh ishchilarning ko'pchiligi ishlab chiqarishda o'rnatilgan qolmasdi. 1962 yilda oziq-ovqat, engil, trikotaj,

gaz va neft sanoatidagi o'zbek va boshqa yerli aholidan bo'lgan ishchi va xizmatchilar soni 30 foizdan sal ortiqni tashkil qilardi. Mashinasozlik, metall ishlash sanoati va og'ir sanoatning boshqa sohalarida o'zbek va mahalliy millat vakillari soni juda oz edi. 1963 yili Toshkent asbobsozlik zavodidagi ishchi va xizmatchilar orasida o'zbeklar va boshqa tub millat vakillari ulushi 20 foizni tashkil etdi.

Sanoatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri muxandis-texnik kadrlar edi. Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari tayyorlovchi malakali mutaxassislar soni ortib bordi. 1960-1970 yillarda sanoat, qurilish, transport va aloqa sohalari bo'yicha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi talabalar soni 20 mingdan 63 mingga, ya'ni 3 baravardan ziyod ko'paydi.

Oliy maktabning asosiy vazifasi xalq xo'jaligi va madaniyatning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlab berishdan iborat. Urushdan keyingi yillarda respublika oliy o'quv yurtlari Markaz ko'rsatmasi, dasturlari asosida o'quv-tarbiya ishlarini olib bordi. Bu davrda oliy maktabda mutaxassis kadrlar tayyorlash soni jihatdan o'sdi, lekin ularning sifati talab darajasida bo'lmay keldi.

Talabalar doirasi ancha kengaydi. 1960-61 o'quv yilida O'zbekiston oliy maktablarida 100 ming nafar talaba ta'lim olgan bo'lsa, 1970-71 o'quv yilida ularning soni 230 mingga etdi. Bu davr ichida oliy maktab respublika xalq xo'jaligi uchun etkazib bergan diplomli mutaxassislar soni 2,5 baravar ortgan.

Oliy o'quv yurtlari soni 1940 yildagi 30 tadan 1970 yilda 38 taga ko'paydi. Xalq xo'jaligining rivojlanishi yangi oliy o'quv yurtlarini ochishni talab qildi. Urushdan keyingi yillarda Toshkent elektrotexnik aloqa instituti, Toshkent avtomobil yo'llari instituti, Andijon paxtachilik instituti, Andijon tibbiyot instituti, Andijon tillar pedagogika instituti, Buxoro oziq-ovqat va engil sanoat texnologiya instituti, Farg'ona politexnika instituti va boshqa oliy o'quv yurtlari malakali kadrlarga bo'lgan talabni kondirdi. Maorif, sanoat, qurilish, transport, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, san'at va boshqa soxalarda mutaxassis kadrlar tayyorlandi.

Oliy o'quv yurtlaridagi professor va o'qituvchilar soni ham yildan-yilga oshib bordi. Oliy maktablarda 1958 yili 5 ming ilmiy-pedagog xodim ishlagan bo'lsa, 1965 yilda bu son 8 mingtaga etdi. Oliy o'quv yurtlari olimlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ijodiy hamkorlikda fan, iqtisodiyot va

madaniyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan talay ilmiy ishlar, salmoqli asarlar yaratdilar.

Biroq oliy maktab ham totalitar tartibot ta'siridan chetda qolmadi. Buning natijasida oliy maktabda qator salbiy hodisalar ruy berdi. Miqdoriy, yalpi ko'rsatkichlar ketidan quvish, xalq xo'jaligi talab-ehtiyojlariga mos kelmaydigan mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish shular jumlasidandir. Oliy maktabning moddiy-texnik bazasi ham juda zaif bo'lib qoldi.

Respublika oliy o'quv yurtlarida sirtqi va kechki ta'lim keng rivojlandi. Ayniqsa, 1959 yilgi maktabning hayot bilan bog'liqligini mustahkamlash to'g'risidagi qonun asosida ta'limning bu shakllari yanada kengaydi. Respublikaning barcha institutlarida sirtqi va kechki bo'limlar ochildi.

1940 yilda sirtqi va kechki ta'lim tizimida o'qiyotgan talabalar respublika oliy o'quv yurtlaridagi jami, talabalarning 20 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 1966 yilda ularning salmog'i 62 foizga etdi. O'sha vaqtda sirtqi va kechki bo'limlardagi talabalarning soni jihatidan mamlakatimiz birinchi o'rinda deb maqtanish rasm bo'ldi. Lekin bu aslida achinarli hol eli. Sirtqi va kechki bo'limlarda ta'lim olgan talabalar ixtisosliklari bo'yicha yetarli nazariy bilimga ega bo'lmasdilar. Ular ko'proq bilim olish uchun emas, diplom uchun o'qirdilar. Bu yillarda oliy o'quv yurtlari va ular tayyorlagan mutaxassislar soni ko'paydi, biroq sifati pasaydi.

Respublika oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlari mafkuralashtirib yuborilganligi sababli kunduzgi bo'limlarda o'qigan talabalarning ko'p vaqti mutlaqo keraksiz bo'lgan ilmiy kommunizm, KPSS tarixi, siyosiy iqtisod, markscha-lenincha falsafa, ilmiy ateizm kabi «fanlar»ni o'rganishga sarflanar edi. Bu hol talabalarning asosiy ixtisosligi bo'yicha fanlarni chuqur, o'zlashtirishiga xalaqit berardi.

Oliy maktablarda milliy kadrlar tayyorlash talab darajasida emas edi. Ko'p fanlardan, ayniqsa, tabiiy fanlardan darsliklar rus tilida chiqarilgandi. Ularni o'zbek tiliga tarjima qilishga ongli ravishda e'tibor berilmasdi. O'zbek talabalari rus tilidagi darslik va qo'llanmalardan foydalanishga majbur edilar. Ayniqsa, qishloqlardan kelgan, rus tilini bilmaydigan talabalar qiynalardilar. Ular ko'pincha rus tilida o'qitiladigan fanlarni o'zlashtira olmay, o'qishni tashlab ketishga majbur bo'lardilar. Bir amallab institutni bitirib chiqqan mutaxassislarning bilim darajalari past bo'lardi. Institutlarda o'zbek

guruhlarida rus tilida dars o‘tish Markazning O‘zbekistonda olib borgan ruslashtirish siyosati natijasi edi.

70-yillarga kelib respublikamizda Respublikaning oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari xalq xo‘jaligi va madaniyat talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashda muayyan natijalarni qo‘lga kiritdilar. Yildan-yilga talabalar soni ortib bordi. 1971-1975 yillarda oliy o‘quv yurtlarini tug‘allagan diplomli 182 ming nafar mutaxassis kadrlar respublika xalq xo‘jaligiga etkazib berildi. Oliy o‘quv yurtlarining soni 1985 yilda 42 taga etdi.

80-yillarning o‘rtalarida respublika o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida 282 ming nafar o‘quvchi ta’lim oldi. Bu har yili necha o‘n minglab malakali mutaxassislar bilan respublika xalq xo‘jaligini ta’minlashga imkon berdi. Xalq xo‘jaligining boshqa sohalari uchun ham ko‘plab mutaxassislar tayyorlandi. Masalan, 1970 yilda oliy maktabni bitirganlar soni 334 mingni tashkil etgan bo‘lsa, bu raqam 1990 yilga kelib 508 mingga yetdi. Biroq bular faqat son ko‘rsatkichlari edi, xolos. Mutaxassislar saviyasi nuqtai nazaridan mamlakat boshqa davlatlardan ortda qolib kelardi.

Siddiq Rajabov hayoti va faoliyati hamda uning pedagogika fani rivojiga qo‘shgan hissasi. Siddiq Rajabov 1910 yili 1-aprelda Qozog‘iston Respublikasining Avliyoota (hozirgi Taroz) shahrida tavallud topdi. U shu shaharda to‘liqsiz o‘rta maktabni tugatib, 1926 yili Farg‘ona pedagogika texnikumiga o‘qishga kiradi. Texnikumni 1930 yili tugatadi. Shu oraliqda, 1928-29 yillarda Qashqadaryoning G‘uzor tumanidagi olis bir qishlog‘ida ochilgan maktabda o‘qituvchilik qiladi. 1930 yili Farg‘ona pedagogika institutiga o‘qishga kiradi. Institutni tugatgach, 1934-37 yillarda O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti aspiranturasida o‘qiydi. 1935 yili yangidan ochilgan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika insitutining pedagogika kafedrasiga o‘qituvchi qilib ishga qabul qilinadi. Urush yillarida “Qizil O‘zbekiston” gazetasining ma’sul kotibi bo‘lib ishlaydi.

Siddiq Rajabov 1947-1963 yillarda Nizomiy nomidagi TDPIning pedagogika kafedراسi mudiri lavozimida, 1960-1966 yillarda esa O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining direktori lavozimida ishlaydi. 1966 yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutiga ishga qaytadi va shu institutning umumiy pedagogika kafedrasiga 1990 yilgacha mudirlik qiladi.

S.Rajabov XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borib, 1941 yili nomzodlik

dissertatsiyasini himoya qildi. Siddiq Rajabov pedagogika fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan birinchi o'zbek olimidir. 1917-1957 yillardagi O'zbekiston maktablari tarixini o'rgangan olim, shu mavzuga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini Moskvada himoya qildi va 1958 yili birinchilardan bo'lib pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi.

Olimning qalamidan chiqqan ilmiy maqolalarda yoshlarni insoniylikka, mehnatga, vatanparvarlikka tarbiyalash mavzusi keng o'rin oldi. Pedagog-olim birqancha risolalarida K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, N.K.Krupskaya, A.S.Makarenko va H.H.Niyoziyning pedagogik qarashlari va faoliyatlarini yoritib berdi. 1960 yili unga professor ilmiy unvoni berildi.

1968 yili professor Siddiq Rajabov Pedagogika fanlari akademiyasining akademigi bo'lib saylandi. S.Rajabov pedagogika sohasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tarixidagi yagona akademikdir.

Akademik Rajabov Sharq donishmandlarining pedagogik merosini o'qib-o'rganish va keng ommaga tanitishda juda katta ishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, o'zi boshi-qoshida yurib, 1986 yili rus tilida "O'zbek pedagogik fikrlar antologiyasi" kitobini Moskvaning "Pedagogika" nashriyotida chop ettirishi O'zbekiston fanida juda katta yutuq bo'ldi. Hamdo'stlik davlatlaridan birnechtasigina bunday salmoqli pedagogik asarni chop ettira olganini hisobga olsak, Siddiq Rajabov pedagogika fani tarixini beqiyos manbalar bilan to'ldirgan juda katta vatanparvar olimdir.

Olimning yana bir katta mehnati YA.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarini rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishni tashkil etishi bo'ldi. S.Rajabovning mas'ul muharririgida professor Malla Ochilov bu kitobni tarjima qilib, 1975 yili nashr ettirdi.

Siddiq Rajabov butun umri davomida pedagogika fanining rivojlanishiga xizmat qildi. Olimning O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga qo'shgan eng katta hissasi, bu albatta, pedagogika oliygohlari talabalari uchun "Pedagogika" darsligini chop ettirishi bo'ldi. Olim darslikning redaksiyasini boshqardi, birnecha qismlarini o'zi yozdi, 1962, 1966 va 1981 yillarda qayta-qayta to'ldirib, nashr ettirdi.

O'zining ilmiy-pedagogik faoliyati davomida olim yosh tadqiqotchilarga hamisha yordam berib keldi. S.Rajabov o'zoq yillar davomida pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy daraja beradigan

ixtisoslashtirilgan Kengashni boshqarib, nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham olimlar tayyorlab berishda juda katta xizmat qildi. Akademik Rajabov 7 nafar fan doktori, 130 nafar fan nomzodini tayyorladi.

1.O‘zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga qo‘shgan juda katta xizmati uchun S.Rajabovga 1964 yilda“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvoni berildi. Birqancha orden va medallar bilan taqdirlandi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Yevropa olimlarining pedagogik qarashlari haqida tushuncha?
 2. Sinf-dars tizimi kim tomonidan ishlab chiqilgan?
 3. O‘zbekiston tarixida qanday siyosiy voqea ro‘y bo‘ldi?
 - 4.O‘rta Osiyoda qanqay xonliklar mavjud bo‘lgan?
 - 5.O‘rta Osiyoda xonliklar davrida qanday ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatgan?
 - 6.O‘rta Osiyoda xonliklar davrida qurilgan qanday madrasalarni bilasiz?
 - 7.O‘rta Osiyoda qizlar maktabini ochgan qaysi otinlarni bilasiz?
 - 8.Tarix fanidan olgan bilimlaringizga asoslanib, madrasalardagi o‘qitish tizimi haqida qanday fikrlarni bayon eta olasiz?
 - 9.Quyida keltirilgan jadval bilan tanishing va ko‘rsatilgan ta’lim muassasalaridagi o‘qitish mazmunini qisqacha bayon eting;
 - 10.O‘zbekistonda qachon arab yozuvidan lotin yozuviga, so‘ngra kirill yozuviga o‘tildi?
 - 11.“Savodsizlikni tugatish” kompaniyasi haqida nimalarni bilasiz?
 - 12.O‘zbekistonda sobiq sho‘rolar davrida mavjud bo‘lgan qanday bosqichlardan iborat maktablar haqida bilasiz?
 - 13.O‘zbekistonda birinchi universitet qachon tashkil etilgan?
 - 14.Kasbiy pedagogikasi fanining maqsadi,vazifalari nimalardan iborat?.
 - 15.Kasbiy pedagogikaning falsafiy-uslubiy asoslari nimalardan iborat?
 - 16.Kasbiy pedagogikaning ilm sifatidagi o‘rnini izohlab bering?
 - 17.Ma’lumot, madaniyat, mentalitet tushunchalarini ta’riflang?
 - 18.Malakaviy bilim berishda asosiy rivojlanish tizimining yo‘nalishlari nimalardan iborat?
 - 19.Kasb pedagogikasiga qachondan boshlab asos solingan?
- Ushbu savollarga amaliy mashg‘ulot uchun tayyorlaning!**

Asosiy adabiyotlar
Darsliklar vao`quv qo`llanmalar

1. Sayfullayev B., Isakulova N., Kasbiy pedagogika. Darslik.-T.: 2014y. 225 bet
2. Avazboev.A.I., Ismadiyarov.Ya.U.Kasbiy pedagogika. O`quv qo`llanma. – T.: “Fan va texnologiya” nashiryoti,2014y. 284 bet
3. O.A.Qo`ysinov, va boshq. Kasbiy pedagogika fanidan labarator ishini tashkil etish bo`yicha. Metodik qo`llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013y. 88 bet
4. R.A.Movlonova va boshq., Umumiy pedagogika. Darslik. –T.:“Fan va texnologiya” nashiryoti, 2018y. 529 bet
- 4..B.X.Xodjaev Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017 Darslik
6. Tojiboeva D, .Yuldashev A, Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi (darslik)lotin T.,2009 yil.
7. Omonov X.T, Xo`jaev N.X, O`quv qo`llanma.. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”. T.,2009 yil.
- 8.M.X.Toxtaxodjayeva, S Nishonova, J. Hasanboyev. “Pedagogika” .T.; 2010yil. Darslik
9. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. “Iqtisod-moliya” T.2011yil.

2-mavzu: “Kasbiy pedagogika” fan sifatida. (2soat)

Reja:

1. Kasbiy pedagogika fanining tarmoqlari
2. Kasbiy pedagogikaning asosiy tushunchalari

Tayanch so`z va iboralar: insonning rivojlanishi, o`qitish, pedagogik faoliyat, muhit, axloqiy tarbiya, xuquqiy tarbiya.

1. Kasbiy pedagogika fanining tarmoqlari: maktabgacha tarbiya pedagogikasi, umumiy pedagogika, pedagogika tarixi, maxsus pedagogika, harbiy pedagogika, kasbiy ta`lim pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, axloq tuzatish, davolash pedagogikasi, solishtirma qiyosiy pedagogika, fanlarni o`qitish metodikasi, hamkorlik pedagogikasi, madaniy-oqartuv pedagogikasi – ma`aviy-ma`rifiy ishlar, injenerlik pedagogikasi, oliy ta`lim pedagogikasi, boshqaruv pedagogikasi, yangi pedagogik ta`lim.

Pedagogika amaliyotning istiqbollarini bashorat qilish va amaliyotga joriy etish uchun pedagogika fani tizimidagi fanlarning o`qitilishi holatini chuqur taxlil qilish zarur. Quyida pedagogika tarmoqlarining ayrim xususiyatlari haqida qisqacha to`xtalib o`tishni zarur deb hisobladik. Bular pedagogikaga oid kitoblarda atroflicha berilgan. Biz esa o`qituvchiga eslatish maqsadida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish haqida baxs yuritadigan fan.

Milliy ta'lim-tarbiyani aks ettiruvchi, davr talablarini o'zida singdirgan pedagogika fanlari (nazariyasi) bo'yicha o'quv darsliklari, xrestomatik adabiyotlar yaratish zarur. Hozirgi kunda Respublikada 100 ga yaqin pedagogika fanlari doktorlari, profesoqlar faoliyat ko'rsatmoqdalar, ana shularning kuchiga tayangan holda, umumiy pedagogika muammolarini tahlil qilib, eng muhimlarini echish zarur.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi - maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug'ullanuvchi fan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tushuncha, tafakkur, dunyoqarashlarini shakllantiruvchi, ularni fikrlashga o'rgatuvchi, dasrlklarni, qo'llanmalarni yaratib, amaliyotga tadbiiq etish muhim pedagogik vazifadir? Buning uchun bolalarning xususiyati (yosh xususiyati, bilim darajasi, qiziqishi ijtimoiy muhiti)ni yaxshi anglash zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ikki guruhga bo'linadi.

Yasli davri: 1-3 yosh; maktabgacha davr: 3-7 yosh.

Bolaning o'sishi: har yili bo'yi 6 smga, og'irligi esa Rq 1-2kgga o'sadi. Ammo bu o'sish oilaviy sharoit, muhitga bog'liqligini unutmashlik zarur.

V.A.Suxomlinskiy yozadi: «Odam ikki marta tug'iladi»: birinchi marta tirik jon, ikkinchi marta fuqaro va faol fikr yurituvchi, harakat qiluvchi, mustaqil shaxs dunyoga keladi.

Insonni aqliy qobiliyati umumiy rivojlanishining teng yarmi dastlabki 3-4 yoshida, 30 foizi 4-8 yoshlik davrida, qolgan 20 foizi esa 8-17 yoshlarida ro'y beradi.

K.D.Ushinskiy fikricha, 6 yoshli bolaning bir oy davomidagi jismoniy va aqliy kamoloti 10 yashar bolaning bir yillik o'sishidan ustun turadi.

5 yoshdagi bolada paydo bo'lgan biron bir hissiyotni u ko'pincha umrbod esidan chiqarmaydi. 7 yoshdagi odat 70 yoshida ham saqlanadi.

Bolada bilimga qiziqish 1,5-2 yoshdan boshlanadi.

Olti yoshli bolalarni maktabga jalb qilish mumkinmi?

Bola 6 yoshga to'lmagan bo'lsa, ya'ni 3-4 oy etmasa, bu holat bolani ijobiy o'qishiga salbiy ta'sir etadi; 6-7 yoshli bola har kuni, har soatda o'sadi. Bu davr uchun bir hafta ham muhim omil hisoblanadi. Bundan keyin bolaning yoshi bir tekis rivojlanadi. Masalan: 10,11,13 va 14 yoshli; 15-16 yoshli o'smirlarga umumiy psixologik xarakteristika berish mumkin, 6-7 yoshli bolalarga bunday qilib bo'lmaydi.

- 6 yoshli bolani 7 yoshli boladan farqi nimada?

- 6 yoshli bolani o'quvchi deb hisoblasa bo'ladimi?

Bola 6 yoshdan maktabga borgani ma'qulmi yoki 7 yoshdan?

Tarbiyaning vazifasi yoshlarni o'z-o'zicha fikrlashga o'rgatiishdan iborat bo'lmog'i darkor, - deb maslahat bergan I.P.Pavlov.

Bolalarning rivojlanishi: bolalarni rivojlanishi har xil bo'ladi. Oddiy rivojlanish (normal), tez rivojlanish; sekin rivojlanish.

Pedagogika tarixi – o'tmish ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlarini o'rganuvchi fan.

O'tmishda ta'lim-tarbiya qanday bo'lganligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o'zgarishi tufayli pedagogik g'oyalari, tarbiya ishlarining mazmuni, usullarining yangilanib borganligini, o'tmishda ijod etgan olimlar: Abu Nasr Farobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Maxmud Qoshg'ariy, YUsof Xos Xojib, Umar Hayyom, Az-Zamahshariy va boshqa olimlarning pedagogik qarashlari, faoliyatlari natijasidan bilim olish mumkin.

Bugungi kun talabi asosida Avesto, Qur'oni Karim, Xodislarda aks etgan pedagogik g'oyalarni ilmiy-metodik jihatdan ochib berilmog'i zarur.

Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'laoladi (Konfusiy)

Ta'lim-tarbiya, pedagogika fani tarixini bilmasdan o'qituvchilik qilish mumkin emas.

Pedagogika fani tarixini yaratish zamon talabi.

Maxsus pedagogika – pedagogika faqat sog'lom o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi bilan emas, balki nogiron bolalar (kar, ko'r, aqli zaif) ta'lim-tarbiyasini ham o'rganadi. Bunday pedagogikani maxsus pedagogika deb ataladi:

Oligofrenopedagogika – aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta'lim-tarbiya beradi.

Tiflopedagogika – ko'r bolalarni tarbiyalaydigan fan.

Surdopedagogika – kar va soqov bolalarni tarbiyalaydigan fan.

Nogiron bolalarga ta'lim-tarbiya berish o'ziga xos xususiyatga ega. Bu sohada maxsus tadqiqot ishlarini olib borilayotganligini inkor etmagan holda davr talablariga javob bera oladigan darslik, qo'llanmalar yaratilishini yanada takomillashtirish zarur.

Nogiron bolalar nimani bilishi, nimani uddasidan chiqishi kerakligini kasbiy nuqtayi nazardan aniqlash lozim.

Bu borada chet el tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq emasmikan. Nima sababdan chet davlatlarda nogiron bolalar umumiy ta'lim bolalari bilan birga o'qishadilar. Bizda esa alohida. (Angliya, 2000y).

Harbiy pedagogika – armiya sardorlari va askarlarini vatanimizning shon-sharafi va or nomusi uchun etuk kurashchi, zamonaviy harbiy qurol-yarog'lardan samarali foydalana oladigan yoshlarni tarbiyalaydigan fan. Bu sohani takomillashtirishda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek hamda umumjahondagi ilg'or g'oyalardan unumli foydalanish lozim.

Kasbiy ta'lim pedagogikasi – ta'lim-tarbiya oluvchilarga aniq yo'nalishdagi kasbiy ma'lumotlarni o'rgatuvchi fan.

Ijtimoiy pedagogika – bolalar va o'smirlarning maktabdan tashqari sharoitdagi ta'lim-tarbiyasiga oid masalalarni o'rganadigan fan.

Ijtimoiy munosabatlar chuqurlashib borayotgan bir sharoitda mazkur pedagogika asoslarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan ishlab chiqish zarur. Bu esa, bolalarni bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishlariga imkon yaratadi.

Axloq tuzatish – mehnat pedagogikasi – huquqbuzarlik holatlariga yo'l qo'ygan, jazoni o'tash muassasalaridagi shaxslarni qayta tarbiyalashning nazariy hamda amaliy asoslari to'g'risida ma'lumot beruvchi fan.

Terrorizm va diniy ekstremizm, hududiy ayirmachilik, giyohvandlik muammolarining xalqaro maydonda o'sib borishi ularga qarshi kurashni talab etadi. Bunday sharoitda axloq tuzatish, mehnat pedagogikasi fani o'z vazifasini talab darajasida ado etishi zarur.

Axloq tuzatish, mehnat pedagogikasining nazariy amaliy asoslarini batafsil ochib berilishiga erishish uchun pedagog, psixolog, huquqshunoslik olimlarining hamkorligi zarur. Bu boradagi hamkorlikni yaratish, huquqni buzgan yoki huquq buzarlikka moyil bolalar va o'smirlar o'rtasida kriminogen holatlarga qarshi immunitet hosil qilishda axloq tuzatish pedagogikasining ahamiyati muhim. Bunday muammolarni hal etish umuminsonimy ahamiyatga ega.

Davolanish pedagogikasi – jismoniy jihatdan nogiron bolalarni bevosita ijtimoiy faoliyatga tayyorlash asoslarini o'rgatuvchi fan.

Maxsus tayyorlangan mutaxassislar ishtirokida fan asoslarini, texnika va texnologiyaning rivoji nuqtai nazaridan yaratilishiga erishish maqsadga muvofiq.

Solishtirma qiyosiy pedagogika – jahon mamlakatlari ta'lim-tarbiya tizimlari asosini qiyosiy o'rganadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar ish tarjibasini o'rganib amaliyotga tadbiq etish, ta'lim tizimining rivojlanishiga asos bo'ladi.

Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid ma'lumotlarning etib kelmasligi ta'lim tizimining rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Bu sohada alohida tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq...

Fanlarni o'qitish metodikasi – har bir fanning mazmunini aniqlab, ketma-ketligini belgilab, tanlangan materiallarni o'rganishning shakl va metodlarini hal etadi. Masalan, fizika, kimyo, biologiya va h.k.

Hamkorlik pedagogikasi – bola tarbiyasi murakkab jarayon. U o'qituvchidan mas'uliyat, tinimsiz izlanishni talab qiladi. Biroq shunday omillar ham borki, ular ham bevosita bola kelajagini belgilash imkoniyatiga qodir. Bu omillardan biri oiladagi tarbiya bo'lsa, ikkinchisi tashqi muhit, ya'ni mahalla-kuy ta'siri.

Bola tarbiyasiga: maktab, oila, mahalladagi muhit kuchli ta'sir etadi.

Bola tarbiyasida ana shu uchta omil (muhit)ni mushtarak holda olib borilishi, bolaning kelajakda etuk va komil inson bo'lib voyaga etishida etakchi ahamiyat kasb etadi.

Oila muhiti. Jamiyat qurilishining birinchi bosqichi oiladir. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari ijtimoiy muhitni belgilaydi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi», degan xalq maqoli oila muhiti mohiyatini ifodalab beradi.

Madaniy-oqartuv pedagogikasi – ma'naviy-ma'rifiy ishlarni boshqarish muammolarini o'rganadi.

Injenerlik pedagogikasi, oliy o'quv yurtlari pedagogikasi; boshqaruv pedagogikasi ham mavjud.

Umumiy o'rta ta'limda ta'lim-tarbiyani yaxshilash uchun muhim pedagogik tadqiqot izlanishlarni amalga oshirish zarur.

Pedagogik izlanishlar. Pedagogika fani muammolarini hal etish uchun quyidagi savollarga javob izlashga to'g'ri keladi:

- Umumiy ta'lim nimani talab qiladi?
 - O'quvchilarga yondashish va ularga ta'lim-tarbiya berish yo'llari qanday bo'lishi kerak?
 - Pedagogik jarayon qanday bo'lishi lozim?
 - Qachon o'qish oson bo'ladi?
 - O'qitib tarbiyalash mumkinmi?
 - Qanday qilib bolani erkin ijod qilishga o'rgatish mumkin?
 - Ta'lim jarayonining tuzilishi qanday bo'lmog'i kerak?
 - O'qituvchi kim, uning pozitsiyasi nimadan iborat?
 - Darsga qo'yilgan talab va uni amalga oshirish yo'llari nimadan iborat?
 - Hozirgi zamon darsi qanday bo'lishi kerak?
 - Muomla san'ati qanday bo'lishi kerak?
 - YOsh o'qituvchilarga amaliy yordam qandayo bo'lishi kerak?
 - O'quvchilarda fuqarolikni qanday shakllantirish lozim?
 - O'qituvchilar kasbiy mahoratini takomillashtirishning pedagogik usullari qanday bo'lishi kerak?
 - Ilg'or pedagogik tajribalar o'rganilib, umumlashtirilib, amaliyotga joriy etilayaptimi?
 - Ilg'or pedagogik tajribani belgilovchi mezon nima?
 - Ta'lim jarayonida o'qituvchini o'rni qaerda bo'lmog'i zarur?
- O'qituvchiga qanday talablar qo'yiladi?

Pedagogika fani tizimining rivojlanishida bu kabi muammolarga bo'linish quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Uzluksiz ta'lim mazmunining takomillashuvi, yaratilayotgan o'quv manbalarining mazmun va sifat jihatdan yuksak daorajada bo'lishiga qo'yilayotgan talablar, maxsus tadqiqot ishlarning olib borilishini talab etadi.

2. Pedagogika fanlari ijtimoiy-madaniy hayot bilan bevosita bog'liq. SHu bois jamiyatda ijtimoiy-madaniy sohalarning barchasiga amalga oshirilayotgan islohotlarni ijobiy yakun toptirish pedagogika fani rivojini ta'minlaydi.

3. Bilimlarni o'rganish, metod va vositalarni ishlab chiqish, shaxs ta'lim-tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlarni kuchaytiradi.

4. Ta'limiy xizmat ko'rsatish bozorini shakllantirish, uning sifatini oshirish, axborotli texnologiya imkoniyatlarini hamda masofadan o'qitishni ta'minlash.

5. ta'lim jarayonida uzluksiz ravishda mustaqil bilim olishni yo'lga qo'yish.

6. Fanlar mazmunini to'g'ri, to'liq va qiziqarli bo'lishi, uzviylikni ta'minlash.

Kasbiy ta'limni tashkil etish jarayoni. Kasbiy pedagogika umumiy pedagogika faning tarmog'i sifatida kasbiy - texnik ta'lim tizimining takomillashishi jarayonida shakllanib boradi. U nisbatan yangi fan sohasi sanalib, bugungi kunda ko'plab tushuncha va ma'lumotlar bilan boyib, rivojlanib kelmoqda. Qar qanday fan sohasida bo'lgani kabi kasbiy pedagogika o'z kategoriya, tushuncha, va sifat ko'rsatkichlariga egaki, bular fanning asosini tashkil qiladi.

Kasbiy ta'lim vazifalari:

Kasbiy pedagogika fanining asosiy tushunchalari, uning mazmuni kasbiy ta'limni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalarning bajarilishi uchun xizmat qiladi:

* o'qituvchilarning yangi, yanada murakkab tadbirlarni amalga oshirish maqsadida o'z kasbiy mahoratlarini oshirishlari uchun sharoit yaratish;

* kasbiy-texnik ta'limning yangi konsepsiyalarini amalga oshirishning yangi yo'l va vositalarini yo'llarini yaratishga e'tibor qaratish, faol-ijodkor shaxsni tarbiyalash;

* pedagogik bilimlarni egallashga yangicha yondoshuvni yuzaga keltirish;

* ta'lim tarbiyaning yangi, yanada samarali shakl va metodlarini yaratish;

* rivojlanib boruvchi yangi pedagogik jarayonlarni loyihalash, ta'lim oluvchilarning barcha imkoniyatlari va qobiliyatlarini ishga solish uchun sharoit yaratish, kasbiy mahoratni egallashlari uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirishga erishish.

2.Kasb ta'limi pedagogikasida asosiy tushunchalar

Kasbiy ta'lim pedagogikasi fanining asosiy tushunchalariO'zbekistonda milliy mafkurasi shakllanib bormoqda. Pedagogika ilmidagi tushunchalar, ta'riflar milliy mafkuraga mos, umuminsoniylik ruhida tushuntirilmog'i maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Albatta ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o'ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega.

Yana bir tomondan ta'lim nazariyasshsh, ta'lim-tarbiya mazmunini, shaklini va uslublaripnng asosiy jihatlari Sharqda ishlab - chiqarilib, Ovrupo orqali o'zgarib, rivojlanib yana Sharqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini xisobga olinsa quida kshtiriladigai tushuichalarda xususim milliylikdan ko'ra umuminsoniylik jihatlarning ko'pligi ko'zga tashlanib turadi.

Kasbiy ta'lim pedagogikasinpng muxim tushunchalariga to'xtalamiz.

Ma'lumot - o'qitish jarayoni va uning natijasi xisoblanib, o'quvchida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning o'zlashtprilganligini, bilish qobiliyati o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyokarash, shaxsiy sifatlar shakl-langanligini, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi.

Ta'lim - ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan "o'qituvchi - o'quvchi -o'qituvchi" muloqoti bo'lib, uning natijasida o'quvchida ma'lumot, tarbiya va umumiy shakllanish, rivojlanish amalga oshadi. Odamlarning ma'lumoti faqat ta'limninggina natijasi bo'lib qolmay, balki ota-ona va oila tarbiyasi o'z-o'zini tarbiyalash va ommaviy axborot vositalarining (kino, radio, zangorn ekran va hokazo) ta'sirida amalga oshiriladi.

Insonning rivojlanishi -tashqi va ichki, boshqariluvchi va boshqarilshiga berilmaydigai omillar tomonidan shaxsning shakllaiish jarayonidir. Ularning tarkibida albatta, maqsadga ysialtirilgai tarbnya asosiy rol o'ynaydn.

Maktabdagi o'qitish jarayonida ta'lim, tarbiya va ma'lumot o'zaro xmustahkam bog'lpk «ravishda amalga oshiriladi. O'qituvchi qaysi fanni o'kitishdan qat'i nazar, o'sib kelayotgan avlodga fan asoslarnpn o'rgatadi, bilimlarni bayon kiladi. SHu materiallarning mazmuniga qarab tarbiya masalalarnni xam hal qiladi, bolalarda ilmiy dunyokarashni tarkib toptiradi, madanny xulq-atvor ko'nikmalarini tarbpyalaydi, ularping ongi-ga ilg'or madannyatlilpk prinspplarini spngdirib boradi. Demak, ta'lim nazariyasining mavzu baxsi tarbiya va ta'lim masalalaridan tashkil topib, ularning xammasi bir vaqtda, bir jarayonda amalga "oshirib bori,ladi.

Inson shaxsining shakllanishida ma'lum maqsadga qaratilgan o'zi tushunib etib orzu qilgan (o'zi mustaqil tarbiyalay oladigan) fazilatlar, sifatlar" va xulqlarning shakllantirnlishi katta rol o'ynaydi.

O'qitish - o'rgatish - bolalarning maxsus tashkil etiladigan faol mustaqil, bilish - tanish, mehnat, estetik, jisimoimy faoliyati bo'lib, tabiiy qobiliyatlarini va psixik jarayonlarini rivojlantirish, tajriba-lar, ko'nikmalar hamda bilimlarni egallash, o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Pedagogik faoliyat - estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodpi hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir.

Tarbiyaning ob'ektiv qonunlari - o'quv - tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotnng shaxsni, uni o'ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirishdek talablaridagi turg'un bo'lgan an'analardir.

Tarbiyaning asosiy qonuni - o'sib borayotgan yosh avlodni katta yoshdagilar ijtimoiy tajribasining egasi qilish uchun, ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishini ta'minlab berish uchun amalga oshiriladigan zaruriy va majburiy faoliyatdir. Jamiyatning hayotiyiligini ta'minlash, alohida olingan bir inson va har bir shaxsning mohiyatini tashkil etuvchi kuchlarning rivojlanishini, avlodlar orasidagi vorisligini amalga oshirish demakdir.

Pedagogika printsipi - ijtimoiy munosabatlarning tekshirilgan amaliy va barqaror yo'nalishlarini o'zida aks ettiradigan nazariy umumlashtiruvchidir. SHuningdek, o'quv-tarbiyaviy jarayonni, bolalarning jismoniy» badii, ijodiy, mehnat va boshqa har qanday faoliyatiga pedagogik rahbarlikni tashkil etishga bog'liq bo'lgan qonuniy aloqalardir.

Pedagogik tajriba - o'qituvchi tomonidan pedagogikaning prinsiplari va amaliy qonunlarini ijodiy va faol ravishda o'zlashtirish xamda real shart-sharoitlarni, bolalarning, bolalar jamoasiing, shaxsning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda amaliyotga tatbik etishidir.

Pedagogik qarama-qarshiliklar (kelishmovchiliklar)-pedagogika amaliyoti jarayonida vujudga keladigan eskirgan pedagogik ko'rsatmalar, qarashlar, konsepsiyalar va pedagogik jarayoniing tarbnyaviy sama-radorligini pasaytiradigan, shaxsni shakllantirish tizimlari bilan vujudga kelgan nomuvofqlikdir,

Yangi taraqqiy etib borayotgan, o'sib borayotgan yosh avlodga hayot talablarining murakkablashib borishi, umuman bu tarzida vujudga keladigan extiyoj ta'lim va tarbiyaning yangi mazmunga, shaklga ega bo'lgan uslublari bilangina qanoatlantirnlishi mumkin.

Tarbiyaniig maqsadi - jamiyating alohida bir olingan shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirsh, unipg mohiyati, ideal talablarini, o'znga xosligi va fazilatlarini, xayotga munosabatining, akliy, jismoniy, axlokiy va estetik rivojlanishini nazariy umumlashtirishdir.

SHaxsning har tomonlama kamolotga etishi - ma'lum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan Qobiliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarining to'liq, va batamom rivojlanishidir.

Pedagogik jarayon - ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkilpy shakllantirilgai va mazmunan boyitilgai hamda tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli -natijasida bolaning o'z-o'zii taraqqiy ettirishidir.

Bolalarni tarbiyalovchi jamoa - bir butun o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib, jamoaviy yuqori darajadagi axloqiy, estetik xamda ijtimoiy munosabatlarni tarbiyalaydigan, maxsus tashkil etilgan sistema, bolalar muhitida muloqot olib borishdir.

Havaskorlik - bolalarniig mustaqil, ixtiyoriy, o'z xohishiga ko'ra amalga oshiradigan ichki faoliyatidir.

Tarbiyaviy muxit - inson shaxsini shakllantnruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlarning sistemasi, ijtimoiy tafakkur, turmush va shaxslararo munosabatlarning doirasi kabi omillarping bir-birini boyitishi va muvofiq kelishidir.

Pedagogik muxit - pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar sistemasidir.

Ichki muxit - yuqori darajadagi o'ziga xos asabiy faoliyatlarning, xarakterlar o'ziga xoslngining, hayotiy tajribaning, irsiy tafakkur ko'nikmalari tizimining hamda bola uchun, odatdagi ruhii xolatlarda o'zini namoyon etadigan ta'sirchanlik va xakiqatga munosabatlar majmuasining o'zaro bir-birnga muvofpq keinsni, bir-byrini to'ldirishi va boyitishidir,

Irsiylik - bolaning shakliy o'ziga xosliklarini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik tashkiliy jihatlarni, qobiliyatlarini va iqtidorlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, bolalarga ota-onalari tomonidan o'tkazilgan irsiy belgilardir.

Ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirish - psixologik diqqat hamda e'tiborning markazida insonning muxim masalasi va muammosi, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho bo'yluk sifatidagi munosabatini shakllantirishdek muhim faoliyat yotadi.

Ta'limni gumanitarlashtirish - texnokratizmga va noinsoniy qiyofa va xususiyatlarga qarama-qarshi turish, inson shaxsining ma'naviy boyligini oshirish va taraqqiy ettirish maqsadida ta'limning gumanitar hamda tabiiy-matematik davriyligi orasida garmonik muvozanatni o'rnatish.

Aqliy tarbiya - bolalarning ongi va tafakkurini -bilimlar, ongli ko'nikmalar hamda malakalar bilan boyitish. Aqliy kuchlar, sezgilar, ruhiy jarayonlar, iqtidorlar, biluvchanlik maqsadlari, dunyoqarash va faoliyat ozodligini shakllantirish.

Huquqiy tarbiya - huquqiy madaniyatni, o'quvchilarda qonunga bo'ysunuvchanlik xatti-harakatini shakllantirish.

Politexnik ma'lumot - hozirgi zamon ishlab chikarishini tashkil etishning asosiy prinsiplari bilan, chiqindisiz va ekologik toza texnologiya bilan tanishish. SHu bilan birga kompyuter texnikasi, mexanizatsiyalashtirilgan hamda avtomatlashtirilgan mehnatning hozirgi davrdagi jihozlari bilan ishlash malakasi bilan qurollantirish.

Mehnat tarbiyasi - bolalarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan hurollantirish. SHu bilan birga, mehnatssvarlik, mehnat kishisining psixologiyasini rivojlantirish, mulkning har xil shakldagi turlarida mehnatipig xar xnl shakllarini tashkil etish qobiliyatini namoyon etib muvaffaqiyatga erishish, tadbirkorlik va ijodii yondoshuvni namoyon etish xususiyatlarining egasi sifatida shakllantirishdir.

Iqtisodiy tarbiya-o'quvchilarni asosiy iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish jarayoni bo'lib, ularni ishlab chiqarishni tashkil etish sohasidagi oddiy harakatlar, qilishi lozim bo'ladigai ishlar ko'nikmasi, malakasi bilap, taqsimot va talimot bilan, iqtisodiy tafakkurning rivojlanipsh bilan qurollantirish.

O'zbekiston Respublikasi sosial-iqtisodiy rivojlainshning asosiy tamoyillarini chuqur o'zlashtirish.

Ekologik tarbiya - o'quvchilarni ekologik (atrofmuxit muxofazasi) bilimlari bilan qurollantirish, shuningdek tabiatga nisbatan axlokiy-estetik, okilona ekologik xatti-harakatlar ko'nikmalarini, ekologik ta-fakkurini hamda ekologiya uchui faol kurashish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Axloqiy tarbiya - o'quvchilarda umuminsopiy axloqiy prinsiplarga sodiq bo'lishdek, jamiyat axloqiy talablari va me'yorlarini hisobga olgan holda o'z xatti-

harakaglarini tanlay olish maxoratini, axlokiy tafakkur va kundalik odatdagi axloki! xatti-xarakatlarinig mustahkam tizimini shakllantirish.

Jismoniy tarbiya - bolaning xamma jismoniy xususiyatlarini: anatomik, fiziologik, asab va boshka sistemalarini xar tomonlama rivojlaitirish, sog'lom xayot kechirishning afzalliklari, shart-sharoitlari, asoslari xamda jismoniy madaniyatning odatdagi zarur elementlarini mustahkam tarzda shakllaitirish.

Estetik tarbiya-badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish, real hayotda san'atdagi estetik hodisalar» ko'rinishlar, xolatlarni xis qila olish, qabul qila olish, baholay olish kobiliyatlarini shakllantirish shuniigdek, pjodiyotda faol ishtirok etish.

Tarbiyalash uslublari (metodlari)- katta yoshdagilar bilan bolalar o'rtasidagi pedagogik, aklan o'ylab ko'rib, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ta'sirlarining jamiyat tomonidan shart sifatida qo'yilgai usullari bo'lib, bolalik davri, faoliyati, muloqoti, munosabatlarini tashkil etishga yordam beradi, ularning faolligini rag'batlantiruvchi xamda xatti-harakaglarini boshqarish asoslari hmsoblanadi.

Nazorat savollari:

- 1.Kasbiy pedagogikasi fanining maqsadi,vazifalari nimalardan iborat?.
- 2..Kasbiy pedagogikaning falsafiy-uslubiy asoslari nimalardan iborat?
- 3.Kasbiy pedagogikaning ilm sifatidagi o'rmini izohlab bering?
- 4.Ma'lumot, madaniyat, mentalitet tushunchalarini ta'riflang?
- 5.Malakaviy bilim berishda asosiy rivojlanish tizimining yo'nalishlari nimalardan iborat?
- 6.Kasb pedagogikasiga qachondan boshlab asos solingan?

3-mavzu:Kasbiy ta`lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi (2 soat)

Reja:

- 1.Insoniyat rivojlanishi tarixining turli davrlarida kasbiy ta'lim.
- 2.O'rta Osiyo hududida kasbiy ta'lim tizimi,O'rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta'lim haqida.

Tayanch so'z va iboralar:

Movoraunnahr madaniyati, halq pedagogikasi, kasbiy ta'lim tizimi, talim, tarbiya, hunarmandchilik, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, diniy tarbiya, rivojlanish bosqichlari, xorijiy ta'lim..

1.Insoniyat rivojlanishi tarixining turli davrlarida kasbiy ta'lim.Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi qisqa vaqt

ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li asrlarga tatigulik mazmun va samara kasb etmoqda.

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda yagona mafkura hukmronligi ostidagi pedagogik tizim sharoitida yashadik, faoliyatimizni sobiq markazdan yuborilgan tavsiyalar asosida tashkil etdik. Natijada shaxs manfaatlari va ularning ma'naviy ehtiyojlari maktab devorlari ortida qoldi. Amalda maktab bitta yo'nalishga - kommunistik mafkurani mustahkamlashga xizmat qildi. Pedagogik ijod, ona tili va Vatan tarixi, geografiyasi, tabiati, milliy urf-odatlar, an'analar, ma'naviyat va qadriyatlarni o'z o'quvchilariga o'rgatishdan deyarli mahrum etilgan o'qituvchi unga buyurilganlarnigina o'rgatuvchiga aylandi. Ta'lim-tarbiya ishlarining 70 yil davomida shakllanib qolgan ana shu illatlardan xalos qilish ta'limdagi islohotlarning tub mohiyatini tashkil qildi.

2.Evropa olimlarining asarlarida kasbiy ta'limi.

Buyuk chex pedagogi YA.A.Komenskiy«Kishilik jamiyati ishlarini yaxshilash haqida hammaga talluqli maslahat» nomli 7 jildli katta asar yozdi (U hayot ekanligi vaqtida hammasi bo'lib 2 jildi bosilib chiqdi, qolgan jildlari esa faqat 1935 yilda topildi va CHexoslovakiyada chop qilindi). Bu asarida «Hammani va hamma narsada har tomonlama tuzatish»ning insonparvarlik va demokratik dasturini belgilab chiqdi va kishilik jamiyatini isloh qilish rejasini ilgari surdi.

«Buyuk didaktika» asarida «**pan sofiya g'oyasini**» (*pan* gerkcha — butun, hamma, *sofiya* — donolik, aqllilik) **hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish**» demakdir. Pan sofiyada u tabiat va jamiyat bilimlarining yig'indisini beradi. Maktab — bu muassasa, u erda «Hammani har narsaga o'rgatmoq kerak» degan fikr ko'p marta takrorlanishini ko'ramiz.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadini ko'rsatadi. Tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin:

- 1.Aqliy tarbiya.
- 2.Axloqiy tarbiya.
- 3.Diniy tarbiya.

Bu maqsad bolaning tug'ilganidan to 24 yoshigacha amalga oshadi, bu davr ichida bola to'rt maktabni o'qib tugatishi, har birida 6 yil o'qishi kerak, deb hisoblaydi.

K.D.Ushinskiyning pedagogika nazariyasi xalqchilik g'oyasi asosida qurilgandir. «Har bir mamlakatda bolalarni tarbiyalash tizimi,— deb aytgan edi u, — xalqning rivojlanish sharoitlari, uning ehtiyoj va talablari bilan belgilangan». «Hamma uchun umumiy bo'lgan birgina tug'ma moyillik borki, tarbiya hamisha shunga tayanishi mumkin; bu biz xalqchilik deb atagan narsadir. Xalqning o'zi tomonidan yaratilgan va xalqchilik asosiga qurilgan tarbiya shunday tarbiyaviy kuchga egaki, bunday kuch abstrakt g'oyalarga asoslangan yoki boshqa xalqlardan olingan eng yaxshi tizimlarda ham yo'qdir»

Ushinskiy xalqchilik deb har bir xalqning o'ziga xosligini tushunar ediki, bu o'ziga xoslik o'sha xalq yashashi va mehnat qilishi lozim bo'lgan tarixiy taraqqiyot, geografik va tabiiy sharoitlar bilan ifodalanadi.

Uning fikricha «agar tarbiya kishini baxtli qilmoqchi bo'lsa, uni baxt uchun tarbiyalamaslik kerak, balki hayotdagi mehnat uchun tayyorlashi lozim». Tarbiya kishida mehnatga muhabbat va odatni o'stirish kerak. Ushinskiy kishi o'z faoliyatida jismoniy mehnat bilan aqliy mehnatni birlashtirsa, juda foydali bo'lur edi, deb hisoblaydi. U o'quvchilar mehnati haqida gapirib, «O'qish mehnatdir va mehnat bo'lib qolishi, ammo to'la ma'noli mehnat bo'lishi lozim», — deydi.

3.O'rta Osiyo hududida kasbiy ta'lim tizimi,O'rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta'lim haqida.Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da ham kasb-hunar ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda: «tarbiya xayotining eng muxim tirtgagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avval yaxshi o'qishni, keyin esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin» deyilgan.

Imom al-Buxoriyning tarbiya xaqidagi qarashlarida jaxolat kishiga o'lim keltiruvchi fojea sifatida qoralanadi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga da'vat etib, munofiq kishining uchta belgisini ko'rsatadi, ular yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytgan Imom al-Buxoriyning ta'lim-tarbiya xususidagi ta'limotida axloqiy qarashlar muxim o'rin tutadi.

Yoshlarimizni tarbiyalash ularga kasb-hunar o'rgatish uchun birinchi galda sharq mutafakkirlarining duru-javhariga teng ma'naviy meroslari misol bo'lla oladi. Abu Nasr Farobiy, Axmad YAssaviy, Baxouddin Naqshbandiy, Imom al-Buxoriy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Firdavsiy, Amir Temur, Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli va shular singari boshqa aql egalarining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'limotlariga tayanib ish ko'rilsa tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Farobiy nomi bilan bog'liq bo'lib uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya soxasida katta ahamiyatga ega. Mashhur Yunon faylasufi Arastotel keyin Sharqda o'z bilimi, fikr dorasining kengligi bilan nom chiqargan yirik mutafakkir Farobiyni «muallim us-soniy» («ikkinchi muallim») deb ataydilar. Farobiy o'z asarlarida ta'lim-tarbiyaning muximligi, o'qituvchi kasb-hunar i, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya berish usullari haqida fikr yuritadi.

«Fozil odamlar shahri», «Baxt va saodatga erishuv to'g'risida», «Ilmning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida kasb-hunar qilish asosida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

SHarqda mashhur bo'lgan allomalardan biri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'lim-tarbiyada quyidagi tamoyillarga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

- yoshlarga ta'lim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;

- ta'limda engildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- jamoa bo'lib maktabda o'qishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini xisobga olish;
- o'qishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

4.Kasbiy ta'lim rivojlanish bosqichlarining asosiy xususiyatlari

O'rta Osiyoda, (SHu davrda O'zbekiston ham O'rta Osiyo deb yuritilgan) 1905 yildan so'ng yangni usul maktablari deb atalgan maktablar ko'paydi. YAngi usul yoki jadid maktablarn deb nomlangan bu maktablar eski usul maktablardan butunlay fark qilar edi. Keyinchalik Gimnaziya, kadet korpusi, muallimlar tayyorlaydigan seminariya, realniy bilim yurtlari va tijorat maktablarining ochildi O'rta Osiyo shaharlarida va viloyat markazlarida ta'limni rivojlantirish yo'lida qo'yilgan navbatdagi qadam bo'ldi. Biroq, bunday o'quv yurtlarida mahalliy millatlarning bolalari juda kam o'qir edi. Birinchi marta bunday o'quv yurtlari Toshkentda ochildi, bundan tashqari, Toshkentda maxsus maktablar – Toshkent qishloq xo'jalik maktabi va gidrotexnika maktabi ham bor edi. Samarqandda bog'dorchilik, uzumchilik va vi-nochilik maktabi ochildi. O'lka iqtisodiyotini rivojlantirish uchun bu maktablarning ahamiyati juda katta bo'ldi. Bu davrda Turkiston o'lkasida mehnatkash xalq uchun oliy o'quv yurtlari yo'q edi.

Ikkinchi bosqichning dastlabki yillaridayoq xukumat qarorlarida hunar-texnika ta'limiga qo'yiladigan asosiy talablar belgilab berilgan edi. Bu talablar quyidagilar edi:

- hunar-texnika ta'limining asosli bo'lishi mayda hunarmandchilik harakteriga ega bo'lmasligi;
- umumiy va texnikaviy bilimlarga asoslanishi;
- ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob berishi;
- ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'lab yoshlarning jamiyat qurilishi ishida ishtirok etishiga asoslanishi lozimligi.

Hunar-texnika (kasb) talimi muhim omillaridan biri sanoat korxonalarida va muassasalarida ishlayotgan, 15 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlarga majburiy ta'limning joriy etilganligi edi. Usmirlar haftada olti marta ikki soatdan mashg'ulotga qatnashishlari lozim edi. 1917 yil 29 oktyabrda hukumat 8 soatlik ish kuni haqida dekret chiqardi. 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun 6 soatlik ish kuni beltilanib, 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning mehnat qilishi taqiqlangan edi.

To'rtinchi bosqichda hunar-texnika kurslari malakali ishchi-kadrlar tayyorlashning eng ko'p tarqalgan formalaridan biri edi. Ular o'zlarining vazifalari, o'qish muddati, tuzilish shakllari va boshqalariga ko'ra farqlanardi. Ularni quyidagi uch tipga bo'linardi:

- sanoatning u yoki bu aniq turi uchun shu sohada ishlamaydigan kishilardan transport uchun tayyorlov kurslari;
- ish tajribasiga ega bo'lsa-da, o'z bilim va malakasini oshirish istagi bo'lgan kishilar uchun malaka oshirish kurslari;

- ustalar, ishboshilar tayyorlash bo'yicha ((biror maqsadga qaratilgan) uzoq muddatli kurslarga ajratish mumkin.

Beshinchi bosqichda o'rta ta'limning rivojlanishi munosabati bilan mehnat rezervlari sistemasida o'rta maktabni tugatgan yoshlar uchun bir va ikki yillik texnika bilim yurtlari barpo etildi. Bilim yurtlarida yuqori umumta'lim saviyasini talab qiladigan kasblar bo'yicha malakali ishchilar va kichik texnik xodimlar tayyorlanar edi. 1941-1958 yillar mobaynida mehnat rezervlariga qarashli o'quv yurtlari 10245 ming, shu jumladan sanoat uchun 5489 ming, qurilish uchun 1220 ming qishloq xo'jaligi uchun 1655 ming va xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun 1881 ming malakali yosh ishchilar tayyorlab berdi.

Ettinchi bosqichda o'rta hunar-texnika va texnika bilim yurtlariga o'quvchilar qabul qilish 2 baravardan ziyod ko'paytirildi. Hunar-texnika ta'limi tizimida taxminan 11 million malakali ishchi tayyorlandi. Hunar-texnika bilim yurtlarida o'rta ma'lumotli ishchilar tayyorlash 2,5 baravar ko'paytirildi. 1,1—1,2 million o'rinli hunar-texnika bilim yurtlari, shuningdek, o'quvchilar uchun zarur miqdorda yotoqxonalar foydalanish uchun topshirildi.

Hunar-texnika bilim yurtlarini tugatgan va o'rta ma'lumot olgan -o'quvchilar ishchilar sinfiniig munosib o'rinbosarlariga aylangan edi.

Hunar-texnika ta'limi tizimi o'quv yurtlarini birinchi kosmonavt YU. A. Gagarin, kosmik kemalarning mashhur ixtirochisi S. P. Korolyov, kosmonavt-uchuvchi P. R. Popovich, aviasiya marshali A. I. Pokrishkin kabi ko'plab taniqli arboblari bitirib chiqqanlar.

1984 yil "Umumta'lim maktablarini isloh qilish to'g'risida" gi xukumat qaroai bilan umumta'lim maktablari isloh qilindi, umumta'lim maktablari 10 yillikdan 11 yillikka o'tkazildi. SHundan so'ng umumta'lim maktablarining IX - XI – sinflarida o'quvchilarning xaftada bir kun 6 soat maktablararo o'quv ishlab-chiqarish kombinatlarida bevosita tanlagan kasblari bo'yicha ta'lim olishi yo'lga qo'yildi.

Mamlakat xalq xo'jaligi uchun malakali ishchi – mutaxassislar tayyorlashda hunar-texnika ta'limi tizimii o'quv yurtlari bilan bir qatorda maktablararo o'quv ishlab-chiqarish kombinatlari (UPK) lar katta o'rin tutdi.

Ma'lumki 1991 - yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e'lon qilindi va 1- sentiyabr O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi kuni qilib belgilandi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi va qator chora-tadbirlar ko'rishni:

- «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni joriy etishni (1992 yil, 1997 yil);

- yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarini joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni; o'quv yurtlarini atgestasiyadan o'tkazishni va akkreditasiyalashni, yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni takozo etdi.

Kasb - hunar ta'limni yo'lga qo'yishni takomillashtirish kasb-hunar ta'limi rivojlanishining barcha bosqichlarida asosiy maqsad qilib qo'yilgan va bu

maqsadlarni amalga oshirish uchun bir qator vazifalar belgilangan. Bu maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun 1972 yil iyunda qabul qilgan «Hunar-texnika ta'limi sistemasini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi xukumat qarorida quyidagilar zarur deb belgilandi:

- yosh ishchilar sinfni tayyorlashning istiqbol shakli sifatida qaralgan va yoshlarni kasbiy daraja va umumiy o'rta ta'lim bo'yicha bilim bilan ta'minlovchi o'rta XTBYU larini kengaytirish va mustahkamlash;

- o'rta umumta'lim maktablarini tugatgan yoshlarga ishchi malakasini beruvchi texnik bilim yurtlarini rivojlantirish;

- kasbiy ta'lim tizimida ularning rolini oshirish;

- ko'plab kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlovchi XTBYU larining ishini yaxshilash.

O'tgan asrning 80-90 yillarda hunar bilim yurtlarini tugatgan o'quvchilar kelib ishlaydigan o'quv ustaxonalari, o'quv joylari va ishlab chiqarish amaliyotiga ega bo'lgan hududlar muxim ahamiyat kasb eta bordi. Nazariy ta'lim berishni tashkil qilishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogika va psixologiyaning ilg'or g'oyalari vujudga kela boshladi. Kasb-hunar ta'limi jarayonida bu g'oyalardan, amaliy-labaratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishning texnik vasitalari, dasturlashtirilgan ta'lim va boshqa ta'lim vasitalaridan foydalanila boshlandi. SHu jihati bilan bu bosqich kasb-hunar ta'limi rivojlanishining barcha bosqichlari orasida alohida o'rin tutadi.

Oxirgi yillari XTBYU larida o'quv ishlari shakl va metodlarini mukammallashtirish bo'yicha ko'zga ko'rinarli ishlar olib borildi. Nazariy va ishlab chiqarish ta'limi darslarini istiqbolli mavzuli rejalar asosida amalga oirish yo'lga qo'yildi. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida korxonalarining asosiy mahsuloti bo'lgan mashina uzal va qismlarini tayyorlash bo'yicha keng amaliy ishlar olib borildi, o'quvtuvchilar ta'limning turli metodlarini o'zlashtirdilar va ta'lim jarayoniga tadbiiq qildilar, kasb-hunar ta'limi bilim yurtlari moddimy texnika bazasini va o'quv materiallarini yaxshilash ustida ishlar keng amalga oshirildi.

O'quvchilarni kasbga tayyorlash, mehnat, aqliy. ahloqiy va jismoniy tarbiya ishlari darsdan tashqari ishlar bilan birga qo'shib olib borildi. O'quv yurtlarida turli xil to'garaklar - texnik ijodkorlik to'garaklari, badiiy xavaskorlik, sport to'garaklari va boshqalar keng faoliyat yurita boshladi. O'quvchilarning umumiy ta'limi, g'oyaviy - siyosiy va kasbiy tayyorgarligi, ta'limni ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lab olib borish - bularning biri oxir - oqibat yoshlarning ma'lum bir kasbni tanlashiga qratilgan edi.

5. O'zbekistonda kasb ta'limini rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi ta'lim va tarbiyaning milliy shakllarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Keyingi yillarda respublikamizda ochilgan lisey, gimnaziyalarda va ayrim umumiy maktablarda tashkil etilgan pedagogikadan ixtisoslashtirilgan kurslarda Vatan tarixi va madaniyatini,

o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifa qilib qo'yildi. SHunga ko'ra, hozirgi kunda pedagogikadan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida darslik, qo'llanmalar yaratishga kirishildi. Bu ishda o'quvchi va talabalar hamda bo'lg'usi o'qituvchilarning umumiy madaniyati va ma'naviyatini, pedagogik bilim va pedagogik madaniyatini, pedagogik tafakkurini o'stirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Bu maqsad pedagogik fikrlashga doir bilim va diniy-axloqiy, tarbiyaviy g'oyalar umumbashariy va milliy-madaniy qadriyatlarni puxta o'rganish bilan amalga oshirilmoqda.

O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi bilan ona tilini chuqur o'rganish - maktab va boshqa o'quv yurtlari ta'limining asosi qilib qo'yildi. Ona tilida beriladigan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi-talabalarning mantiqiy tafakkurini o'stirish; ularda ona tilidan ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni o'zbek adabiy tilining yozma va og'zaki shaklini puxta o'zlashtirgan madaniyatli va savodli qilib etishtirish nazarda tutildi.

Ta'limda test usuli qo'llandi, iqtidorli bolalarni aniqlashga, o'qitishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mingdan ortiq iqtidorli bolalar Amerika, Angliya, SHvesiya va Turkiyada ta'lim olib, mustaqil respublikamiz xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan bilim va kasblarni egallamoqdalar.

Ma'lumki, pedagogika tarixi ham boshqa xalqlar, mamlakatlar pedagogika tarixi bilan aloqada rivojlandi va rivojlanmoqda. SHu sababdan hozir Markaziy Osiyo pedagogika tarixini tadqiq etishda xorijiy SHarq va Evropa mamlakatlari ta'lim tizimi ham o'rganilmoqda. Bu sohada respublika fan va texnika qo'mitasining «Milliy ruh», «Qadriyat» nomidagi va O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari uchun ilg'or pedagogik qo'llanmalar va o'quv darsliklarini ishlab chiqish bo'yicha uyushtirgan tanlovlari bu sohada muhim ahamiyat kasb etdi.

T.N.Qori-Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining ana shu tanlov asosida respublikada taniqli faylasuf, tarixchi va adabiyotshunos, pedagog va islomshunos olimlar va shu soha tadqiqotchilari bilan hamkorlikda «O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar» nomli qo'llanma va «Pedagogika tarixi» darsligini yaratdilar. Endilikda o'quvchi va talabalar Rossiya va G'arbiy Evropa pedagogika tarixidan iborat bo'lgan «Pedagogika tarixi»ni emas, balki Markaziy Osiyo ulug' mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va nazariyalari tadqiq etilgan yangi darslik bo'yicha yangicha pedagogik bilimni egallaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzurida Oliy attestasiya komissiyasining tashkil etilishi — mustaqillikning muhim timsolidir. Bu Oliy attestasiya komissiyasi o'z zimmasiga yuklangan ulkan vazifalarni, ya'ni «yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash yangi tizimini shakllantirish, ularni respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotining ustivor muammolarini hal qilishga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlar

va ishlanmalarni davlat yo'li bilan ekspertiza qilishni ta'minlash bilan etuk ilmiy-pedagogik kadrlar etishtirishga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Oliy pedagogika o'quv yurtlarida ilmiy daraja beruvchi ixtisoslashtirilgan kengash tashkil etilishi bilan respublikamizda pedagogika tarixi va nazariyasi, fanlarni o'qitish usullari bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertasiyalarini o'zbek tilida, turli millat vakillarining o'z ona tillarida himoya qilishga keng imkoniyat yaratildi, bu kengashlar milliy pedagog olimlar safining o'sishida muhim omil bo'lmoqda. Bu tadbir respublikada sifatli, ilmiy-pedagogik asarlar, o'quv-metodik qo'llanmalarning yaratilishiga, maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumiy o'rta maktablarda, o'rta va maxsus oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiyaning yuksak saviyada bo'lishiga, ta'lim tizimi mazmunining takomillashuviga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasi kasbiy ta'limining rivojlanishini qanday bosqichlarga ajratib ko'rsatish mumkin?
2. Kasbiy ta'lim rivojlanish bosqichlarining asosiy xususiyatlari nimada?
3. Kasbiy ta'limning turli bosqichlari rivojlanishidagi tarixiy o'xshashliklar nimada?
4. Kasbiy ta'limning turli bosqichlari rivojlanishidagi farqlar nimalarda namoyon bo'ladi?
5. O'zbekiston Respublikasi mustaqilliqqa erishgandan keyingi kasbiy ta'lim rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

4-mavzu: Kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi

(2 soat)

Reja:

1. Evropa olimlarining asarlarida kasbiy ta'limi.
2. O'zbekistonda kasb ta'limini rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish

Tayanch so'z va iboralar:

Movoraunnahr madaniyati, halq pedagogikasi, kasbiy ta'lim tizimi, talim, tarbiya, hunarmandchilik, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, diniy tarbiya, rivojlanish bosqichlari, xorijiy ta'lim..

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaerda ta'lim va tarbiyaga e'tibor katta bo'lsa, o'sha erda taraqqiyot, yuksalish bor. SHuning uchun respublikamizning istiqboli uzluksiz ta'limni qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq. Uzluksiz ta'lim barcha fuqarolarni tinimsiz o'qishini, izlanishini, shaxsni yuqori malakali bo'lishini talab etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining hayotga tatbiq etilishi respublikada xalq ta'limi faoliyatini tubdan o'zgartiradi xamda respublikaning yuktimoiy-iqtisodiy rivojiga muhim hissa qo'shadi. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida pedagogik xodimlar tayyorlash pog'onali ravishda amalga oshiriladi.

Oliy o'quv yurtlariga qabul O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan qoidalarga muvofiq, pedagogika oliy o'quv yurtlariga qabul esa O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan qoida bo'yicha amalga oshiriladi. 1993 yildan respublikaning barcha oliy o'quv yurtlariga test sinovlari orqali abituriyentlar qabul qilinmoqda.

Ular oliy o'quv yurtlarida ikki bosqichli tahlil asosida «bakalavr» va «magistr» darajalarini egallashlari mumkin.

Uzluksiz pedagogika ta'limning ajralmas qismlaridan biri - ilmiy, ilmiy-pedagogik xodimlarni tayyorlash, aspiranturada va doktoranturada o'qitish - ta'limning yuqori (oliy o'quv yurtidan so'ng) bosqichlari hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan uzluksiz pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda belgilangan qoidalar asosida hayotga tatbiq etildi va amaliyotga keng joriy qilindi.

O'tkazilgan islohotlar, samarali tajribalar respublikada ta'limning davlat standartlarini ishlab chiqish va tatbiq etish davr talabi ekanligi, bu ishni kechiktirmay amalga oshirish zarurligini taqozo etadi. Chunki ta'lim standartlari shaxs ma'lumotlilikining davlat me'yorlarini ta'minlaydi. Ta'lim standartlari vositasida talabdagi ma'lumotlilik darajasi muvozanati saqlanadi, rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyoti istiqbollarga muvofiqligi ta'minlanadi.

Davlat ta'lim standartlari o'quv jarayonini qat'iy chegaralangan qolipga solib qo'ymaydi, balki, aksincha pedagogik ijodkorlikka, ta'lim mazmunining yagona negizi atrofida turli-tuman tabaqalashtirilgan dasturlar, o'quv qo'llanmalari, o'qitish uslubiyatlariga katta yo'l ochadi.

Respublikamizda lotin yozuvi asosidagi alifboning joriy etilishi ta'limi muassasalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Har qanday mamlakat va xalq taqdiri, uning kelajagi, taraqqiyotining asosi elat va millatlarning tili, yozuvi va ta'lim-tarbiya maskani bo'lgan maktab bilan bog'liqdir. SHu sababli o'zbek milliy maktabini yaratish va uning asosida hozirgi kunda xalq ta'limi tizimida to'planib kolgan muammolarni ijobiy hal etish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan vazifasidir.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy qayta ishlash intellektual salohiyat darajasini saqlab qolishga qilinadigan sarflar moddiy-ashyoviy ishlab chiqarish sarflaridan sezilarli darajada ko'p, zero yaqin kelajakda xo'jalik, ijtimoiy, madaniy va boshqa hayotiy muhim sohalarda etakchilik intellektual salohiyati nisbatan rivojlangan mamlakatlarga tegishli bo'ladi

Jahon miqyosida oliy ta'lim sohasida ham sezilardi muvaffaqiyatlarga erishildi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra XX asr 90-yillari oliy ta'lim muassasalariga kiruvchilar miqdori Ispaniyada 15 marta oshdi, Avstraliyada 9,4

marta, Fransiyada 6,7 marta. Bu hol rivojlanayotgan mamlakatlarga ham xos bo'ldi, Masalan, Indoneziyada talabalar soni 36 marta, Venesuelada 63 marta, Nigeriyada esa, hatto 112 marta.

Tanlash darajasi qancha yuqori bo'lsa, etuklik darajasi ham shaxsning tarbiyalanganligi ham shuncha yuqori bo'ladi. Mana shuning uchun ham har bir ta'lim tizimi tarbiyalanganlikning u yoki bu darajasini, shuningdek, uzluksiz ta'limdagi tarbiyaviy va ta'limiy vorislikni ta'minlaydi. Bu jamiyatni rivojlantirishning aniq ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Umuman olganda, mamlaktimizda mustaqillik tufayli «... biz umumbashariy qadriyatlarning eng birinchi asosi bo'lgan xalq insonparvarligi chashmalaridan qadamma-qadam bahramand bo'lmoqdamiz» (I. A. Karimov). SHu bahramandlik tufayli yosh avlodda mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, iymon-e'tiqodlik, halollik, axloqiy poklik, odillik, bilimlilik, onglilik, do'stlik, bay-nalmilallik kabi insoniy fazilatlar shakllanib, rivoj topmoqda, o'z ona tili, milliy urf-odatlarini, diyorimizning tabiat boyliklari bilan faxrlanish tuyg'usi kamol topmoqda.

Germaniya va Fransiyada kasb ta'limining tuzilmasi.

Dunyo kasbiy ta'limini o'rganmay turib, bu sohada yangi shakllarni tuzib bo'lmaydi. Bu sohada bizga uzluksiz ta'lim tizimini olib boruvchi davlatlar tajribasi, ularning ishlab chiqqan ta'lim standartlari juda zarurdir. Bugungi kunda Buyuk-Britaniyada uzluksiz ta'lim va kasb ta'limining yangi tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim turli xil yo'nalishlardagi mutaxassislarni, shuningdek, boshlang'ich o'rta maktablarning bitiruvchilarini tayyorlashni nazarda tutgan.

Jahondagi ko'plab mamlakatlarda oliy o'quv yurtlari o'rta umumiy ta'lim tizimidan keyingi, navbatdagi ta'lim bosqichi hisoblanadi. Oliy ta'lim maktablarining ko'pchiligida o'qish muddati 2 yil yoki undan ko'proq bo'lib, uch siklda yoki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich ta'limi 3-4 yil (yoki ko'proq) davom etadi va bitiruvchilarga bakalavr diplomi beriladi (AQSH, Angliya, YAponiya, Avstraliyada). Fransiyada birinchi bosqich oliy maktabni bitiruvchilariga metriz, Belgiyada lisans unvoni beriladi. Ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablariga birinchi siklni tugatgan bitiruvchilarning 10-25 foizi qabul qilinadi. Masalan, bu ko'rsatkich AQSHda -20, Buyuk Britaniyada -15, Avstriyada-10, Avstraliyada-7, YAponiyada -6 foizni tashkil qiladi. Bu davrda tanlangan yo'nalish bo'yicha ixtisoslashtirilmagan, umumiy, fundamental bilimlar o'qitiladi (Angliya, Ispaniya. AQSH). GFR, Fransiya, Belgiya kabi mamlakatlarda esa ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablari talabalarini ancha mukammal va muayyan maqsadga yo'naltirilgan bilimlarni egallaydilar. Lekin hali ular tor profildagi yuqori malakali mutaxassis unvonini olish uchun ikkinchi sikldagi o'qishlarini yana ixtisoslashtirilgan kurslarda 1-2 yil davom ettirishlari lozim.

Ta'limning bunday tizimi o'rta va oliy ta'lim maktablari faoliyatini muvofiqlashtirishga tanlangan soha bo'yicha oliy ta'limdagi izchillikni

ta'minlashga samarali ta'sir qiladi (S.Sudzuki, 1992: 89; Naibolee prestijnye universiteti i kolledji SSHA, 1986; D.Bligh, 1990: 102-108; J.Ledgar, 1996: 102-108; J.Spring, 1994: 148-159).

Muayyan ixtisosliklar bo'yicha maxsus imtihonlar 3 yillik amaliy ish faoliyatidan keyin ham topshirilishi mumkin.

Oliy ta'lim maktablarining ikkinchi bosqichida o'qish 1-2 yil davom etadi. Bu siklni bitirgan talabalarga magistr unvoni beriladi. (AQSH, Buyuk Britaniya, YAponiya, Avstraliya).

Fransiya va Belgiyada magistr unvoni ma'lum mutaxassisliklarni chuqur o'rganuvchi kurslarning bitiruvchilariga xam beriladi. Magistrlik ta'limining uzigacha xos xususiyatlaridan biri - o'quv dasturlarining individuallashtirilganligidir. Bunda o'quv dasturlari talabalar va ularning ilmiy raxbarlari tomonidan tuziladi va kafedralar, dekanatlar tomonidan tasdiqlanadi. Magistraturani bitirgan yoshlar doktoranturaga kirish xuquqiga ega buladilar. (Sanyaev, 1998: 210-211; A.A.Barbariga, N.V.Fedorova, 1979: 78-87).

Oliy ta'limning uchinchi bosqichi, bu –doktoraturadir.

Doktoranturaga, asosan, ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablarini muvaffaqiyatli bitirgan talabalar qabul qilinadi. O'qish muddati mutaxassislik turiga ko'ra 1-3 yil. Doktoranturaga birinchi sikl oliy ta'lim maktablarini bitirganlar ham kirishi mumkin. Lekin bu holda o'qish muddati 3-5 yilgacha uzaytiriladi.

Birinchi sikl oliy ta'limi qoidalariga binoan mutaxassislik bo'yicha umumiy bilimlar berishga yo'naltirilgan. Ta'limni alohida ixtisoslarga bo'lib tashkil qilish, odatda, 3-kursdan boshlanadi. Tor mutaxassislar bo'yicha kadrlar tayyorlash faqat uchinchi sikldagina amalga oshiriladi.

Ko'p bosqichli oliy ta'lim tizimining bunday o'ziga xos xususiyatlari anglo-amerikancha va fransuzcha modellarda jahon bo'yicha keng tarqalgan (J.Spring, 1994: 3-24). Oliy ta'limning anglo-amerikancha tizimi AQSH, Buyuk Britaniya, Xindiston, Avstraliya, YAangi Zelandiya, YAponiya, Isroil va boshqa mamlakatlarda mavjud (qarang: J/ Leadgar, 1996: 102-103; Sravnitel'naya xarakteristika razvitiya obrazovaniya v stranax Azii, Afriki i Latinskoy Ameriki. 1991).

Birinchi sikl oliy o'quv yurtlaridagi o'qish muddati turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, AQSHda 4 yil, Buyuk Britaniyada 3 yil. Magistrlik darajasini olish uchun yana 2 yil o'qish lozim (ayrim ixtisosliklar bo'yicha 1-1,5 yil). AQSHdagi qator muhandislik oliy maktablarida bakalavrluk diplomini 5 yillik ta'limdan keyin olish mumkin. Tibbiyot sohasidagi birinchi doktorlik diplomini (stomatologiya, veterinariya sohalari bo'yicha) olish uchun esa 8 yillik ta'lim joriy qilingan. YAponiyada esa bakalavrluk darajasini 4 yillik ta'limdan s'ung olish mumkin (tibbiyot mutaxassisliklari bundan mustasno), magistrlik darajasiga teng diplomni olish uchun yana 2 yillik ta'lim dasturini o'tash lozim (qarang: S.Sudzuki, 1992).

Germaniyada kasb ta'limi tizimi

Germaniyada bir necha murakkab tuzilmaga ega bo'lgan ta'lim tizimi qabul qilingan bo'lib, ta'lim oluvchilarni mutaxassislikka yo'llashda 3 ta bosqichdagi maktablar tashkil etilib, ular o'z faoliyatini boshlang'ich ta'limdan keyin davom ettiradi.

O'quv jarayonining turli jabhalarida o'zining javobgarliklari bo'lib, u turli bosqichlarda turlichadir.

Germaniyada kasbiy ta'limning tuzilmasi

1-bosqich: Kasbiy ta'limga tayyorgarlikning birinchi yili (nazariy bilimlar berilib, ushbu kasbga yo'naltiriladi).

2-bosqich: O'quvchilar nazariy va amaliy oiladosh kasblar bilan ham tanishib boradilar (tugatilganidan so'ng, birinchi sinov olinadi).

3-bosqich: Mutaxassislashtirish jarayoni bo'lib, u imtihon bilan tugallanadi. Bu tizimda ta'lim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarga hamda kasblar haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak.

1-2 bosqich keng ma'noda ishchilar tayyorlab berib, ular oddiy ish jarayonlarini bajarib, murakkab jarayonlarda 3-bosqichga suyanadilar.

Germaniyada esa oliy ta'lim keng miqyosda biron kasbga yo'naltirilgani bilan (xuddi Rossiyadagidek) anglo-amerikacha va fransuzcha modellardan farq qiladi. Bu erda, hatto oliy ta'limning sikllarga bo'linishi ham mavjud emas. Ta'lim jarayoni 4 yildan 6 yilgacha muddatda amalga oshirilib, bularning hammasi anglo-amerikacha va fransuzcha oliy ta'lim tizimi talablariga unchalik mos kelmaydi. Olmon oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladigan 5-6 yillik ta'lim xalqaro standart normalariga ko'ra anglo-amerikacha va fransuzcha oliy ta'lim tizimining birinchi sikliga (bakalavr darajasiga) mos keladi, xolos. SHu sababli keyingi yillarda german oliy o'quv yurtlarining diplomlari ahamiyatini ko'tarish maqsadida oliy ta'limning dastlabki bosqichini qisqartirish, ya'ni 4 yillik qilib belgilash haqida takliflar kiritilyapti.

Kasbiy ta'limning fransuz modeli

Fransiyada maktabni bitirgach, kollejlarda o'qitish tizimi hukmronlik qiladi. Bu esa o'z navbatida erta kasb egallashdan asrab qoladi. Fransiyada boshlang'ich ta'lim asosan 11 yoshgacha bo'lib, keyin o'quvchi kollejda ta'lim oladi. Undan keyingi ta'limni o'quvchi umumta'lim yoki texnik liseylarda davom ettirishadi. Bugungi kunda texnik liseylar texnik bilimlarni berib, u asosida bakalavr unvonini olish mumkin. O'quv muassasining ixtisosligiga qarab, bakalavrlar fransuz tilini, sosiologiya asoslarini, matematika, tabiiy fanlar va texnologiya fanlarini yaxshi egallaydilar.

Texnologiya yo'nalishidagi bakalavrlar chet tillarini, kompyuter va tijorat bilimlariga ega bo'ladilar, barcha bakalavrlar oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish huquqiga egadirlar.

Malakali ishchi-xodimlarni tayyorlashda davlat va xususiy liseylar faoliyat ko'rsatib, ularning hammasi davlat nazorati ostida bo'ladi. Kasbiy ta'limga o'qish jarayonini Ta'lim vazirligi ishlab chiqib, uni moddiy ta'mirlash javobgarligi davlat zimmasidadir. Umumiy kasbiy ta'limda o'qitish jarayoni Fransiyada bepuldir.

Oliy ta'limning fransuz modeli Fransiyadan tashqari Belgiya, SHveysariya, Avstriya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda joriy qilingan. Bu tizim talabalarni sinchiklab tanlash asosida qabul qilishni ko'zda tutadi. Talabalar dastlabki 1-3 yilda umumiy dasturlar orqali ta'lim olish bilan bir qatorda bo'lajak tor ixtisosliklarni tanlashda faol ishtirok etadilar.

Ko'p bosqichli fransuz oliy ta'lim modelining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Fransuz universitetida ta'limning dastlabki 2 yilida qator mutaxassisliklar uchun yagona o'quv dasturlari mavjud.

2. Universitetning 2-kursini tugatib, tegishli guvohnoma olgan talaba shu universitetning 3-kursida o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha o'qishni davom ettirishi yoki boshqa universitetga o'tishi yoki o'qishni elitar oliy o'quv yurtlari (Grande Ecole – Katta maktab, Ecole Normale – Oddiy maktab)da davom ettirishi mumkin.

3. Universitetning 3-kursini bitirgan talabalar «lisans» diplomini oladilar. Bunday diplomni olgan talabalar o'qishlarini 4-kursda davom ettirish yoki uqishni tashlab o'z mutaxassisliklari bo'yicha amaliy ish bilan shug'ullanish huquqlariga egadirlar. 4-kursni tamomlagan talabalar esa «metriz» diplomini oladilar.

4. «Metriz» diplomi uning egasiga to'liq oliy ma'lumot olganligidan dalolat beradi.

Fransiyada magistrlik diplomining yagona nusxasi yo'q.

SHuningdek, fransuz oliy ta'lim tizimidagi ikkinchi sikl ta'limning maxsus atamasi, nomi ham yo'q. Ikkinchi sikl deyilganda, odatda, 4 yillik birinchi sikl oliy ta'limdan so'ng keladigan navbatdagi bosqich tushuniladi, xolos. Fransuzcha oliy ta'lim modelining ikkinchi sikli 1-2 yillik ta'limni o'z ichiga olib, uni bitiruvchilar tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha chuqur bilimlarni o'rganganliklari haqida maxsus ixtisos diplomini oladilar.

5. Mutaxassislikni bildiruvchi diplom (masalan, 2 yillik o'qishdan keyin beriladigan texnologiya sohasidagi universitet diplomi) oliy ta'lim tizimidagi 3 siklli ta'lim tizimining birinchi bitirganlikdan dalolat beradi. Masalan, ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtining 5 yillik kursini bitirgan talaba muhandislik diplomini olsa, universitetning dastlabki 1 siklini tamomlagan talaba yana 3 yillik kursni bitirgandan so'nggina shunday diplom egasi bo'lishi mumkin (L.M.Makarova, 1986: 71-73).

6. Ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida ma'lum soha mutaxassislik diplomini beruvchi yoki doktoranturaga kirish huquqini beruvchi 1 yillik qayta tayyorlov kurslarining keng tarmog'i faoliyat ko'rsatadi.

Oliy ta'lim tizimini tashkil qilishdagi va tarkibidagi qator milliy xususiyatlar boshqa Evropa mamlakatlarida ham mavjud:

Daniya universitetlari 4 yillik oliy ta'limdan so'ng o'z bitiruvchilariga asosiy daraja hisoblangan nomzodlik diplomini beradilar. Lekin bunday diplom muhandislik mutaxassislarini egallovchilarga 5 yillik ta'limdan so'ng, tibbiyot

mutaxassislariga 8 yillik oliy ta'limdan keyin beriladi. Magistr diplomini olish uchun yana 1-2 yil o'qish lozim bo'ladi. Oliy texnika maktabi bitiruvchilariga (3-4 yil) muhandislik ixtisosligi bo'yicha diplom beriladi (lekin muhandis-quruvchi diplomini olish uchun 5 yil o'qish lozim bo'ladi).

Irlandiyada gumanitar fanlar va tijorat sohasida 3 yillik, tabiiy fanlar va turli muhandislik mutaxassisliklari uchun 4 yillik, qishloq xo'jaligi, stomatologiya, veterinariya sohalari uchun 5 yillik, tibbiyot bo'yicha 6 yillik o'quv dasturlarini o'zlashtirib bakalavrluk darajasiga ega bo'lish mumkin. Magistraturaga bakalavr diplomi bilan kirilib, u erdagi ta'lim muddati quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi: gumanitar fanlar va tijorat – 1 yil; pedagogik fanlar – 2 yil; muhandislik fanlari -1,5-2 yil; tabiiy fanlar (kimyo) va tibbiyot – 4-6 yil.

Gresiyada oliy ta'lim asosan 4 yillik bo'lib, ayrim sohalar bo'yicha o'qish muddati bir oz uzunroq: muhandislik va stomatologiya – 5 yil, tibbiyot – 6 yil. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari universitet maqomida bo'lmagan Pedagogik Akademiya deb ataladigan 4 yillik oliy o'quv yurtlarida tayyorlanadi. O'rta maktab o'qituvchilari esa universitetlarda tayyorlanadi.

SHunday qilib, oliy ta'limni tashkil qilishdagi Evropa mamlakatlari o'rtasidagi bir xil yondashuv uning ko'p bosqichlilikida, ta'lim muddatlarini belgilashda, oliy ta'limga asosan yoshlarni jalb qilishda ko'zga tashlanadi. Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarning oliy siyosatlarini quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi:

1. Xususiy oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish, ularni rivojlantirish borasidagi amaliy ishlar davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bunday yondashuv, ayniqsa, AQSH, Yaponiya va Fransiyada ko'zga yaqqol tashlanadi.

2. Oliy o'quv yurtlari davlat tasarrufida bo'lgan davlatlar alohida ajralib turadi. Bu davlatlarda xususiy oliy o'quv yurtlari cherkov tasarrufida bo'lib, ular 2-3 foizni tashkil qiladi.

3. Xususiy oliy o'quv yurtlar tizimi keng rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning mavjudligi davlat tasarrufidagi oliy o'quv yurtlari obro'siga putur etkazmaydi.

4. YUqoridagi barcha mamlakatlardagi xususiy oliy o'quv yurtlar moliyaviy jihatdan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

5. Xususiy oliy o'quv yurtini tashkil qilish - bu ko'p sarmoya talab qiladigan tadbirdir. Bu borada to'plangan tajribalarning dalolat berishicha, faqat iqtisodiy baquvvat ijtimoiy tashkilotgina o'rta darajadagi xususiy oliy ta'lim maktabi faoliyatini tashkil qila oladi.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasi kasbiy ta'limining rivojlanishini qanday bosqichlarga ajratib ko'rsatish mumkin?

2. Kasbiy ta'lim rivojlanish bosqichlarining asosiy xususiyatlari nimada?

3. Kasbiy ta'limning turli bosqichlari rivojlanishidagi tarixiy o'xshashliklar nimada?
4. Kasbiy ta'limning turli bosqichlari rivojlanishidagi farqlar nimalarda namayon bo'ladi?
5. O'zbekiston Respublikasi mustaqilliqqa erishgandan keyingi kasbiy ta'lim rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

5-mavzu: Kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi (2 soat)

Reja:

1. Kasbiy ta'lim rivojlanish bosqichlarining asosiy xususiyatlari
2. Kasb ta'limining shakllanish bosqichlari.

Tayanch so'z va iboralar:

Movoraunnahr madaniyati, halq pedagogikasi, kasbiy ta'lim tizimi, talim, tarbiya, hunarmandchilik, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, diniy tarbiya, rivojlanish bosqichlari, xorijiy ta'lim..

Kasbiy ta'lim rivojlanish bosqichlarining asosiy xususiyatlari

O'rta Osiyoda, (SHu davrda O'zbekiston ham O'rta Osiyo deb yuritilgan) 1905 yildan so'ng yangi usul maktablari deb atalgan maktablar ko'paydi. Yangi usul yoki jadid maktablarni deb nomlangan bu maktablar eski usul maktablardan butunlay fark qilardi. Keyinchalik Gimnaziya, kadet korpusi, muallimlar tayyorlaydigan seminariya, realniy bilim yurtlari va tijorat maktablarining ochildi O'rta Osiyo shaharlarida va viloyat markazlarida ta'limni rivojlantirish yo'lida qo'yilgan navbatdagi qadam bo'ldi. Biroq, bunday o'quv yurtlarida mahalliy millatlarning bolalari juda kam o'qir edi. Birinchi marta bunday o'quv yurtlari Toshkentda ochildi, bundan tashqari, Toshkentda maxsus maktablar – Toshkent qishloq xo'jalik maktabi va gidrotexnika maktabi ham bor edi. Samarqandda bog'dorchilik, uzumchilik va vi-nochilik maktabi ochildi. O'lka iqtisodiyotini rivojlantirish uchun bu maktablarning ahamiyati juda katta bo'ldi. Bu davrda Turkiston o'lkasida mehnatkash xalq uchun oliy o'quv yurtlari yo'q edi.

Ikkinchi bosqichning dastlabki yillaridayoq xukumat qarorlarida hunar-texnika ta'limiga qo'yiladigan asosiy talablar belgilab berilgan edi. Bu talablar quyidagilar edi:

- hunar-texnika ta'limining asosli bo'lishi mayda hunarmandchilik harakteriga ega bo'lmasligi;

- umumiy va texnikaviy bilimlarga asoslanishi;
- ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob berishi;
- ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'lab yoshlarning jamiyat qurilishi ishida ishtirok etishiga asoslanishi lozimligi.

Hunar-texnika (kasb) talimi muhim omillaridan biri sanoat korxonalarida va muassasalarida ishlayotgan, 15 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlarga majburiy ta'limning joriy etilganligi edi. Usmirlar haftada olti marta ikki soatdan mashg'ulotga qatnashishlari lozim edi. 1917 yil 29 oktyabrda hukumat 8 soatlik ish kuni haqida dekret chiqardi. 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun 6 soatlik ish kuni beltilanib, 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning mehnat qilishi taqiqlangan edi.

To'rtinchi bosqichda hunar-texnika kurslari malakali ishchi-kadrlar tayyorlashning eng ko'p tarqalgan formalaridan biri edi. Ular o'zlarining vazifalari, o'qish muddati, tuzilish shakllari va boshqalariga ko'ra farqlanardi. Ularni quidagi uch tipga bo'linardi:

- sanoatning u yoki bu aniq turi uchun shu sohada ishlamaydigan kishilardan transport uchun tayyorlov kurslari;
- ish tajribasiga ega bo'lsa-da, o'z bilim va malakasini oshirish istagi bo'lgan kishilar uchun malaka oshirish kurslari;
- ustalar, ishchilar tayyorlash bo'yicha ((biror maqsadga qaratilgan) uzoq muddatli kurslarga ajratish mumkin.

Beshinchi bosqichda o'rta ta'limning rivojlanishi munosabati bilan mehnat rezervlari sistemasida o'rta maktabni tugatgan yoshlar uchun bir va ikki yillik texnika bilim yurtlari barpo etildi. Bilim yurtlarida yuqori umumta'lim saviyasini talab qiladigan kasblar bo'yicha malakali ishchilar va kichik texnik xodimlar tayyorlanar edi. 1941-1958 yillar mobaynida mehnat rezervlariga qarashli o'quv yurtlari 10245 ming, shu jumladan sanoat uchun 5489 ming, qurilish uchun 1220 ming qishloq xo'jaligi uchun 1655 ming va xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun 1881 ming malakali yosh ishchilar tayyorlab berdi.

Ettinchi bosqichda o'rta hunar-texnika va texnika bilim yurtlariga o'quvchilar qabul qilish 2 baravardan ziyod ko'paytirildi. Hunar-texnika ta'limi tizimida taxminan 11 million malakali ishchi tayyorlandi. Hunar-texnika bilim yurtlarida o'rta ma'lumotli ishchilar tayyorlash 2,5 baravar ko'paytirildi. 1,1—1,2 million o'rinli hunar-texnika bilim yurtlari, shuningdek, o'quvchilar uchun zarur miqdorda yotoqxonalar foydalanish uchun topshirildi.

Hunar-texnika bilim yurtlarini tugatgan va o'rta ma'lumot olgan o'quvchilar ishchilar sinfiniig munosib o'rinbosarlariga aylangan edi.

Hunar-texnika ta'limi tizimi o'quv yurtlarini birinchi kosmonavt YU. A. Gagarin, kosmik kemalarning mashhur ixtirochisi S. P. Korolyov, kosmonavt-uchuvchi P. R. Popovich, aviasiya marshali A. I. Pokrishkin kabi ko'plab taniqli arboblari bitirib chiqqanlar.

1984 yil "Umumta'lim maktablarini isloh qilish to'g'risida" gi xukumat qaroai bilan umumta'lim maktablari isloh qilindi, umumta'lim maktablari 10 yillikdan 11 yillikka o'tkazildi. SHundan so'ng umumta'lim maktablarining IX -

XI – sinflarida o'quvchilarning haftada bir kun 6 soat maktablararo o'quv ishlab-chiqarish kombinatlarida bevosita tanlagan kasblari bo'yicha ta'lim olishi yo'lga qo'yildi.

Mamlakat xalq xo'jaligi uchun malakali ishchi – mutaxassislar tayyorlashda hunar-texnika ta'limi tizimii o'quv yurtlari bilan bir qatorda maktablararo o'quv ishlab-chiqarish kombinatlari (UPK) lar katta o'rin tutdi.

Ma'lumki 1991 - yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e'lon qilindi va 1- sentiyabr O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi kuni qilib belgilandi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi va qator chora-tadbirlar ko'rishni:

- «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni joriy etishni (1992 yil, 1997 yil);

- yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarini joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni; o'quv yurtlarini atgestasiyadan o'tkazishni va akkreditasiyalashni, yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni takozo etdi.

Kasb - xunar ta'limni yo'lga qo'yishni takomillashtirish kasb-hunar ta'limi rivojlanishining barcha bosqichlarida asosiy maqsad qilib qo'yilgan va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun bir qator vazifalar belgilangan. Bu maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun 1972 yil iyunda qabul qilgan «Hunar-texnika ta'limi sistemasini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi xukumat qarorida quyidagilar zarur deb belgilandi:

- yosh ishchilar sinfni tayyorlashning istiqbol shakli sifatida qaralgan va yoshlarni kasbiy daraja va umumiy o'rta ta'lim bo'yicha bilim bilan ta'minlovchi o'rta XTBYU larini kengaytirish va mustahkamlash;

- o'rta umumta'lim maktablarini tugatgan yoshlarga ishchi malakasini beruvchi texnik bilim yurtlarini rivojlantirish;

- kasbiy ta'lim tizimida ularning rolini oshirish;

- ko'plab kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlovchi XTBYU larining ishini yaxshilash.

O'tgan asrning 80-90 yillarda hunar bilim yurtlarini tugatgan o'quvchilar kelib ishlaydigan o'quv ustaxonalari, o'quv joylari va ishlab chiqarish amaliyotiga ega bo'lgan hududlar muxim ahamiyat kasb eta bordi. Nazariy ta'lim berishni tashkil qilishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogika va psixologiyaning ilg'or g'oyalari vujudga kela boshladi. Kasb-hunar ta'limi jarayonida bu g'oyalardan, amaliy-labaratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishning texnik vasitalari, dasturlashtirilgan ta'lim va boshqa ta'lim vasitalaridan foydalanila boshlandi. SHu jihati bilan bu bosqich kasb-hunar ta'limi rivojlanishining barcha bosqichlari orasida alohida o'rin tutadi.

Oxirgi yillari XTBYU larida o'quv ishlari shakl va metodlarini mukammallashtirish bo'yicha ko'zga ko'rinarli ishlar olib borildi. Nazariy va ishlab chiqarish ta'limi darslarini istiqbolli mavzuli rejalar asosida amalga oirish yo'lga qo'yildi. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida korxonalarining asosiy mahsuloti

bo'lgan mashina uzal va qismlarini tayyorlash bo'yicha keng amaliy ishlar olib borildi, o'quvtuvchilar ta'limning turli metodlarini o'zlashtirdilar va ta'lim jarayoniga tadbiriq qildilar, kasb-hunar ta'limi bilim yurtlari moddimy texnika bazasini va o'quv materiallarini yaxshilash ustida ishlar keng amalga oshirildi.

O'quvchilarni kasbga tayyorlash, mehnat, aqliy. ahloqiy va jismoniy tarbiya ishlari darsdan tashqari ishlar bilan birga qo'shib olib borildi. O'quv yurtlarida turli xil to'garaklar - texnik ijodkorlik to'garaklari, badiiy xavaskorlik, sport to'garaklari va boshqalar keng faoliyat yurita boshladi. O'quvchilarning umumiy ta'limi, g'oyaviy - siyosiy va kasbiy tayyorgarligi, ta'limni ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lab olib borish - bularning biri oxir - oqibat yoshlarning ma'lum bir kasbni tanlashiga qratilgan edi.

1945-1991 yillarda hunar-texnika va oliy ta'lim tizimi. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston sanoati uchun malakali ishchi kadrlar hunar-texnika bilim yurtlarida va bevosita ishlab chiqarish jarayonida yakka tartibda hunar kurslarida tayyorlandi. Respublikadagi xunar maktablari, temir yo'l, binokorlik o'quv yurtlari, yirik korxonalar qoshidagi fabrika-zavod ta'limi (FZO) maktablari sanoatni ri-vojlantirishga katta hissa qo'shdi. 1940-1955 yillarda xalq xo'jaligi uchun jami 143 ming malakali ishchilar tayyorlab berildi. Ishchi kadrlarga ehtiyoj yildan-yilga ortib bordi. Malakali kadrlar tayyorlash ham o'sib bordi. 1966-1970 yillarda hunar-texnika o'quv yurtlari xalq xo'jaligiga 172 ming nafar ishchilarni tayyorlab berdi.

Shu bilan birga, respublika hunar-texnika ta'limida katta kamchiliklar mavjud edi. O'quv yurtlarida o'zbeklar va boshqa tub aholi vakillari, xotin-qizlar soni kam edi. Korxonalarda turar joy va zarur maishiy sharoitlarning yo'qligidan yosh ishchilarning ko'pchiligi ishlab chiqarishda o'rnashib qolmasdi. 1962 yilda oziq-ovqat, engil, trikotaj, gaz va neft sanoatidagi o'zbek va boshqa yerli aholidan bo'lgan ishchi va xizmatchilar soni 30 foizdan sal ortiqni tashkil qilardi. Mashinasozlik, metall ishlash sanoati va og'ir sanoatning boshqa sohalari o'zbek va mahalliy millat vakillari soni juda oz edi. 1963 yili Toshkent asbobsozlik zavodidagi ishchi va xizmatchilar orasida o'zbeklar va boshqa tub millat vakillari ulushi 20 foizni tashkil etdi.

Sanoatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri muxandis-texnik kadrlar edi. Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari tayyorlovchi malakali mutaxassislar soni ortib bordi. 1960-1970 yillarda sanoat, qurilish, transport va aloqa sohalari bo'yicha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi talabalar soni 20 mingdan 63 mingga, ya'ni 3 baravardan ziyod ko'paydi.

Oliy maktabning asosiy vazifasi xalq xo'jaligi va madaniyatning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlab berishdan iborat. Urushdan keyingi yillarda respublika oliy o'quv yurtlari Markaz ko'rsatmasi, dasturlari asosida o'quv-tarbiya ishlarini olib bordi. Bu davrda oliy maktabda

mutaxassis kadrlar tayyorlash son jihatdan o'sdi, lekin ularning sifati talab darajasida bo'lmay keldi.

Talabalar doirasi ancha kengaydi. 1960-61 o'quv yilida O'zbekiston oliy maktablarida 100 ming nafar talaba ta'lim olgan bo'lsa, 1970-71 o'quv yilida ularning soni 230 mingga etdi. Bu davr ichida oliy maktab respublika xalq xo'jaligi uchun etkazib bergan diplomli mutaxassislar soni 2, 5 baravar ortgan.

Oliy o'quv yurtlari soni 1940 yildagi 30 tadan 1970 yilda 38 taga ko'paydi. Xalq xo'jaligining rivojlanishi yangi oliy o'quv yurtlarini ochishni talab qildi. Urushdan keyingi yillarda Toshkent elektrotexnik aloqa institut, Toshkent avtomobil yo'llari instituti, Andijon paxtachilik instituti, Andijon tibbiyot instituti, Andijon tillar pedagogika instituti, Buxoro oziq-ovqat va engil sanoat texnologiya instituti, Farg'ona politexnika instituti va boshqa oliy o'quv yurtlari malakali kadrlarga bo'lgan talabni kondirdi. Maorif, sanoat, qurilish, transport, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, san'at va boshqa soxalarda mutaxassis kadrlar tayyorlandi.

Oliy o'quv yurtlaridagi professor va o'qituvchilar soni ham yildan-yilga oshib bordi. Oliy maktablarda 1958 yili 5 ming ilmiy-pedagog xodim ishlagan bo'lsa, 1965 yilda bu son 8 mingtaga etdi. Oliy o'quv yurtlari olimlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ijodiy hamkorlikda fan, iqtisodiyot va madaniyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan talay ilmiy ishlar, salmoqli asarlar yaratdilar.

Biroq oliy maktab ham totalitar tartibot ta'siridan chetda qolmadi. Buning natijasida oliy maktabda qator salbiy hodisalar ruy berdi. Miqdoriy, yalpi ko'rsatkichlar ketidan quvish, xalq xo'jaligi talab-ehtiyojlariga mos kelmaydigan mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish shular jumlasidandir. Oliy maktabning moddiy-texnik bazasi ham juda zaif bo'lib qoldi.

Respublika oliy o'quv yurtlarida sirtqi va kechki ta'lim keng rivojlandi. Ayniqsa, 1959 yilgi maktabning hayot bilan bog'liqligini mustahkamlash to'g'risidagi qonun asosida ta'limning bu shakllari yanada kengaydi. Respublikaning barcha institutlarida sirtqi va kechki bo'limlar ochildi.

1940 yilda sirtqi va kechki ta'lim tizimida o'qiyotgan talabalar respublika oliy o'quv yurtlaridagi jami, talabalarning 20 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 1966 yilda ularning salmog'i 62 foizga etdi. O'sha vaqtda sirtqi va kechki bo'limlardagi talabalarning soni jihatidan mamlakatimiz birinchi o'rinda deb maqtanish rasm bo'ldi. Lekin bu aslida achinarli hol eli. Sirtqi va kechki bo'limlarda ta'lim olgan talabalar ixtisosliklari bo'yicha yetarli nazariy bilimga ega bo'lmasdilar. Ular ko'proq bilim olish uchun emas, diplom uchun o'qirdilar. Bu yillarda oliy o'quv yurtlari va ular tayyorlagan mutaxassislar soni ko'paydi, biroq sifati pasaydi.

Respublika oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlari mafkuralashtirib yuborilganligi sababli kunduzgi bo'limlarda o'qigan talabalarning ko'p vaqti mutlaqo keraksiz bo'lgan ilmiy kommunizm, KPSS tarixi, siyosiy iqtisod, markscha-lenincha falsafa, ilmiy ateizm kabi «fanlar»ni o'rganishga sarflanar edi. Bu hol talabalarning asosiy ixtisosligi bo'yicha fanlarni chuqur, o'zlashtirishiga xalaqit berardi.

Oliy maktablarda milliy kadrlar tayyorlash talab darajasida emas edi. Ko'p fanlardan, ayniqsa, tabiiy fanlardan darsliklar rus tilida chiqarilgandi. Ularni o'zbek tiliga tarjima qilishga ongli ravishda e'tibor berilmasdi. O'zbek talabalari rus tilidagi darslik va qo'llanmalardan foydalanishga majbur edilar. Ayniqsa, qishloqlardan kelgan, rus tilini bilmaydigan talabalar qiynalardilar. Ular ko'pincha rus tilida o'qitiladigan fanlarni o'zlashtira olmay, o'qishni tashlab ketishga majbur bo'lardilar. Bir amallab institutni bitirib chiqqan mutaxassislarning bilim darajalari past bo'lardi. Institutlarda o'zbek guruhlarida rus tilida dars o'tish Markazning O'zbekistonda olib borgan ruslashtirish siyosati natijasi edi.

70-yillarga kelib respublikamizda Respublikaning oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari xalq xo'jaligi va madaniyat talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashda muayyan natijalarni qo'lga kiritdilar. Yildan-yilga talabalar soni ortib bordi. 1971-1975 yillarda oliy o'quv yurtlarini tug'allagan diplomli 182 ming nafar mutaxassis kadrlar respublika xalq xo'jaligiga etkazib berildi. Oliy o'quv yurtlarining soni 1985 yilda 42 taga etdi.

80-yillarning o'rtalarida respublika o'rta maxsus o'quv yurtlarida 282 ming nafar o'quvchi ta'lim oldi. Bu har yili necha o'n minglab malakali mutaxassislar bilan respublika xalq xo'jaligini ta'minlashga imkon berdi. Xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun ham ko'plab mutaxassislar tayyorlandi. Masalan, 1970 yilda oliy maktabni bitirganlar soni 334 mingni tashkil etgan bo'lsa, bu raqam 1990 yilga kelib 508 mingga yetdi. Biroq bular faqat son ko'rsatkichlari edi, xolos. Mutaxassislar saviyasi nuqtai nazaridan mamlakat boshqa davlatlardan ortda qolib kelardi.

Siddiq Rajabov hayoti va faoliyati hamda uning pedagogika fani rivojiga qo'shgan hissasi. Siddiq Rajabov 1910 yili 1-aprelda Qozog'iston Respublikasining Avliyoota (hozirgi Tarozi) shahrida tavallud topdi. U shu shaharda to'liqsiz o'rta maktabni tugatib, 1926 yili Farg'ona pedagogika texnikumiga o'qishga kiradi. Texnikumni 1930 yili tugatadi. Shu oraliqda, 1928-29 yillarda Qashqadaryoning G'uzor tumanidagi olis bir qishlog'ida ochilgan maktabda o'qituvchilik qiladi. 1930 yili Farg'ona pedagogika institutiga o'qishga kiradi. Institutni tugatgach, 1934-37 yillarda O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti aspiranturasida o'qiydi. 1935 yili yangidan ochilgan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika insitutining pedagogika kafedrasiga

o'qituvchi qilib ishga qabul qilinadi. Urush yillarida "Qizil O'zbekiston" gazetasining ma'sul kotibi bo'lib ishlaydi.

Siddiq Rajabov 1947-1963 yillarda Nizomiy nomidagi TDPIning pedagogika kafedrasini mudiri lavozimida, 1960-1966 yillarda esa O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining direktori lavozimida ishlaydi. 1966 yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutiga ishga qaytadi va shu institutning umumiy pedagogika kafedrasiga 1990 yilgacha mudirlik qiladi.

S.Rajabov XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, 1941 yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Siddiq Rajabov pedagogika fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan birinchi o'zbek olimidir. 1917-1957 yillardagi O'zbekiston maktablari tarixini o'rgangan olim, shu mavzuga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini Moskvada himoya qildi va 1958 yili birinchilardan bo'lib pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi.

Olimning qalamidan chiqqan ilmiy maqolalarda yoshlarni insoniylikka, mehnatga, vatanparvarlikka tarbiyalash mavzusi keng o'rin oldi. Pedagog-olim birqancha risolalarida K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, N.K.Krupskaya, A.S.Makarenko va H.H.Niyoziyning pedagogik qarashlari va faoliyatlarini yoritib berdi. 1960 yili unga professor ilmiy unvoni berildi.

1968 yili professor Siddiq Rajabov Pedagogika fanlari akademiyasining akademigi bo'lib saylandi. S.Rajabov pedagogika sohasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tarixidagi yagona akademikdir.

Akademik Rajabov Sharq donishmandlarining pedagogik merosini o'qib-o'rganish va keng ommaga tanitishda juda katta ishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, o'zi boshi-qoshida yurib, 1986 yili rus tilida "O'zbek pedagogik fikrlar antologiyasi" kitobini Moskvaning "Pedagogika" nashriyatida chop ettirishi O'zbekiston fanida juda katta yutuq bo'ldi. Hamdo'stlik davlatlaridan birnechtasigina bunday salmoqli pedagogik asarni chop ettira olganini hisobga olsak, Siddiq Rajabov pedagogika fani tarixini beqiyos manbalar bilan to'ldirgan juda katta vatanparvar olimdir.

Nazorat savollari

- 1.O'zbekiston Respublikasi kasbiy ta'limining rivojlanishini qanday bosqichlarga ajratib ko'rsatish mumkin ?
- 2.Kasbiy ta'lim rivojlanish bosqichlarining asosiy xususiyatlari nimada?
- 3.Kasbiy ta'limning turli bosqichlari rivojlanishidagi tarixiy o'xshashliklar nimada?
4. Kasbiy ta'limning turli bosqichlari rivojlanishidagi farqlar nimalarda namayon bo'ladi?

5. O'zbekiston Respublikasi mustaqilliqqa erishgandan keyingi kasbiy ta'lim rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

6-mavzu: O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'lim tizimi islohatlari (2soat)

Reja:

1. Kasbiy ta'lim tizimi.

2. Kasbiy ta'lim berish muassasalari turlari.

3. O'rta maxsus kasb –hunar ta'lim berish muassalari.

4. Ta'lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish, tadrijiylik Milliy pedagogik merosga tayanish.

5. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.

Tayanch iboralar: milliy pedagogik meros, kadrlar tayyorlash tizimi, ta'lim tizimi, ta'lim tizimini isloh qilish, Maktabgacha ta'lim vazirligi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keying talim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

1. Ta'lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish, tadrijiylik Milliy pedagogik merosga tayanish.

Ta'lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimimiz juda katta milliy pedagogik merosga ega. Jahon tarixiy-pedagogik jarayoni va uning hozirgi bosqichi umuminsoniy hamda milliy masalalami chuqur va har tomonlama o'rganishini ta'qozo etadi. Sharqning buyuk olimlarining pedagogik qarashlari bu borada katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, al-Forobiy, Ibn Sino, al-Beruniy, al-Xorazmiy va boshqalarning g'oyalari hamda pedagogik qarashlari ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotining dunyoviy jarayoniga, xususan, Yevropaga ko'p darajada ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga o'z navbatida uning ta'sirini ham o'ziga ola bildi.

O'rta asrlarda sharq qomusiy oiimlari tomonidan Turonda yangi davrning (I—III asrlar) ko'pgina ilmiy tasavvurlari asoslari yaratilgan edi. Ular qadimgi sharq na antik dunyoning boy ilmiy merosiga suyanib turib bir qator fan tarmoqlarining: falsafa, jo'g'rofiya, tarix, riyoziyot va falakiyot ilmini

snakllanishiga, ishlab chiqilishiga hissa qo'sha oldilar.

Bunday fikrni tasdiqlash uchun bir necha dalillarning o'zi kifoya. Bu borada sharq ulug' mutafakkirlarining g'oyalari ahamiyatga molikdir. Al-Forobiy, ibn Sino, Beruniy, al-Xorazmiy va boshqalarning g'oyalari dunyo ijtimoiy-pedagogik jarayoniga ko'p jihatdan ta'sir etib, ma'lum darajada uyg'onish davrining asosiy shart-sharoitlarini yaratib bergan. Abu Ali ibn Sinoning pedagogik g'oyalarga to'la «Ziyrakli - tirik o'g'lon» asari al-Forobiyning «Fanlar sanog'i» asari ispan olimlarining adibi Ibn Tufaylning ispan pedagog olimi Gundisalvalaming pedagogaik qarashlariga asos bo'lgan.

Oksford universitetining professori Rodjer Bekon (XII asr) al-Forobiy va Ibn Sinolarning xulosalarini chuqurlashtirib, o'zining «katta», «o'rtacha» yoxud «kichik» qomusiy kitoblarini yozadi. Bu asarlar, shubha yo'qki. Yevropoda tarqaladi va ma'lum darajada XV - XVI asrlarda pedagogikadagi pansofik harakatga turtki beradi. Pansofik harakatining yorqin namoyandalaridan biri chet el pedagogi Yan Amos Komenskiy edi. XVI asrda yashab ijod qilgan Ya. Komenskiy pedagogikaning didaktikasini rivojlantirishga, ta'limda mas'ul o'quv rejasi, o'quv yili, sinf-dars tizimini tatbiq etishga katta hissa qo'shgan. Albatta, hozirgi mutaxassisلامي ommaviy tayyorlash sharoitida ta'limni tashkil etishning sinf-dars tizimidan boshqa shakli taklif etilgani yo'q. Lekin O'rta sharqda, IX asrda hali Yevroponing ko'p joylarida, jumladan, Rossiyada husnixat ishlatilmagan bir vaqtda ko'hna Xivada - Ma'mun akademayasida qancha-qancha tibbiy, tabiiy, astronomiya, matematika, koinot ilmlari bo'yicha yirik fan namoyandalarini al-Beruniy rahbarligida sinf-dars tizimisasi tayyorlanganligi kishini hayratga soladi. Bundan ko'rinadiki sharq mutafakkirlarining ta'lim- tarbiya borasidagi ishlari hozirgi zamon ta'lim tizimiga asos bo'lganligi bilan birga, hozirda va kelgusida ta'lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlari xulosalarining o'ziga xosligi shundan iboratki, ular ilgari surayotgan pedagogik g'oyalar bevosita o'rganilayotgan fan mantiqidan ajratilmagan ta'lim-tarbiya maqsadi, prinsiplari, mazmuni va uslublariga xos g'oyalar alohida kitoblarda berilmay, balki bevosita amalda, bironta fanda aniq bilim, iqtidor va ko'nikmalami shakllantirish jarayonida yoritiladi.

Ularning ushbu yaratuvchilik ishlarida pedagogik jihatda ahamiyatli bo'lgan ko'plab g'oyalar va qoidalar aytib o'tilgan. Masalan, ular tomonidan birinchi bo'lib riyoziyot fani, umuman olib qaralganda arifmetika belgilab, aniqlab berildi.

Qomusiy olimlar bilish jarayoniga hayotiy-amaliy yo'nalish bag'ishladilar. Qurshab turgan olamdagi hodisalar va narsalarning mohiyatini bilish insonlarga ularning kundalik ishlarida, kosiblik, va savdo-sotiq faoliyatlarida, dehqonchilikda, dengizda suzishda, davlatni boshqarish hamda huquqiy masalalarni hal etishda

xizmat qilishi lozim. Ular fanni va ilmiy tuzilmasini shaxs shakllanishining muhim omillari sifatida qarar edilar. Fan bilan shug'ullanish, ilmiy bilimlarni egallash ular tomonidan odamni haqiqatga etish uchun har doim intilishga undovchi, shuningdek, fan bilan shug'ullanishni kishilar o'rtasida haqiqiy insoniy munosabatlarni o'rnatishga yo'llovchi qudratli kuch sifatida tushuntirib, izohlab o'tganlar. Fanni va ilmiy tuzilmaning ushbu vazifasiga berilgan yuqori baho qomusiy olimlarning pedagogik kategoriyalari maqsadlarining asoslariga, mazmuniga, ta'lim va tarbiyaning uslublariga, prinsiplariga qiziqishlarini belgilab berdi.

Ularning qoidalari va xulosalarining o'ziga xosliklari, o'ziga xos xususiyatlari ular tomonidan ilgari surilgan pedagogik g'oyalar fanning o'z mantiqidan ajralgan emas edi. Tarbiya va ta'limning usullari, prinsiplari, mazmuni, maqsadlari kabi masalalar yuzasidan ular o'z fikr- qarashlarini taomil bo'yicha o'zlarining maxsus asarlarida emas, balki fanning bir aniqlangan tarmog'iga oid aniq bilimlarni bayon etish bilan bog'liq ravishda keltirib o'tganlar. O'rta asr buyuk donishmandlarining g'oya va qoidalari hozirga qadar o'zining ahamiyatini yo'qotmagan, o'tkinchi bo'lmagan tarixiy, umuminsoniy boylikdir. Tarixiylik jihatidan ijodiy yondoshilganda ular hozirgi zamon pedagogikasini boyitishi mumkin.

Sharq olimlarining quyidagi milliy meroslaridan hozirgi kunda ham keng foydalaniladi:

1. Al-Forobiy Platon va boshqa yunon faylasuf-donishmandlarining pedagogik g'oyalariga amal qilib borib, o'zida shaxsni iqtidoriy, aqliy va nazariy tarbiyalashni aks ettiradigan ma'naviy tarbiyaga juda katta ahamiyat beradi. Aristotelning izdoshi al-Forobiy ham insonning aqliy kuchi bilan dunyoni bilish mumkinligini tan oladi va himoya etadi, ya'ni mantiqiy mashqlar va mashg'ulotlar yordamida rivojlanadigan va mukammallashtiradigan iqtidomi tan oladi.

2. Al-Forobiyning fikricha, nazariy bilimlar «ular qanday va qayerdan paydo bo'lganlari» noma'lum bo'lgan fanlar bilimlarini o'zida namoyon etadi. Al-Forobiyda fanni egallashning metodologik va metodik masalalari o'zaro bog'lanib ketganidir, chunki har qanday fanning boshlanishiga, manbalariga, metodlar majmuasini: fikrlash, o'rganish, tadqiq etish, o'rgatish va ta'limni qo'llash yordamida erishiladi. Bu o'zining ahamiyatini hozirgi davrning didaktikasi uchun ham yo'qotmagan bunyodkorona yondashuv edi.

Ta'lim tizimini isloh qilishdagi yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish, tadrijiylik.

Ta'lim tizimini isloh qilishdagi yangi maqsad va vazifalar 1997- yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy darturi» da belgilab berilgan.

Ta'lim tizimini isloh qilishning **maqsadi** - mavjud ta'lim tizimini o'tmishdan

qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar ta'lim tizimi darajasiga yetkazish va shu asosda yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni, ro'yobga chiqarish uchun quyidagi **vazifalar** belgilangan:

- «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy - ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni yo'lga qo'yish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar jarayonlariga moslash;

- ta'lim tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik kadrlaming nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- ta'lim tizimini isloh qilish yo'nalishi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda belgilash;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, uni isloh qilishni ta'minlovchi normativ, moddiy texnika va axborot bazasini yaratish va undan ta'limni isloh qilish jarayonida foydalanish.

Ta'lim tizimini isloh qilishdagi vazifalar quyidagi yo'nalishlarda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

- ta'lim tizimidagi kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, ularning kasbiy nufuzini oshirish;

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;

- ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi yutuqlarini hisobga olgan holda kasb-hunar ta'limi dasturlarini tubdan o'zgartirish;

- majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga to'liq o'tilishini ta'minlash.

Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish. Kadrlami o'qitish va tarbiyalash milliy tiklanish prinsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning mazmuni davlat ta'lim standartlari asosida isloh qilinadi. Ta'lim oluvchining shaxsiga, unda ta'lim va bilimlarga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil ish tutishni, iftixor va insoniy qadriyat tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi.

Pedagog kadrlaming obro'-e'tibori, mas'uliyati va kasb ko'nik-masini oshirish yuzasidan sobitqadam davlat siyosati olib boriladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limning yangi shakl va uslublari, o'quv, shu jumladan

differensiyalashgan dasturlar amaliyotga joriy etiladi.

1.1. 1.2 «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi

(Uzbekistan Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida O'zbekistan Respublikasi **taraqqiyotida xalqning** boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining **so'nggi** yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Ta'limning «O'zbek modeli» dunyoga keldi, bu model xalqaro miqyosda eng obroMi mutaxassislar tomonidan tan olinmoqda.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» «Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faolikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mojilni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlaming yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun mohiyati

Qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun beshta bo'lim 34 ta moddadan iborat bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini amalga oshirishning huquqiy asoslari to'liq belgilab berilgan.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining mohiyati.Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyatini anglash uchun bu - dastumi qabul qilishga qanday sabab va oqibatlar turtki bo'lganligini qarab chiqmog'imiz, 1997-yilgacha mavjud bo'lgan eski ta'lim-tarbiya tizimining kamchiliklari va muammolarini tahlil qilib ko'rmog'imiz kerak. Eski kadrlar tayyorlash tizimining kamchilik va muammolari quyidagilardan iborat edi:

-kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlarini talablariga muvofiq emasligi;

-o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlaming yetishmasligi;

- sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallaming kamligi;

-ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi.

- ta'lim tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibi, bosqichlarini bir- biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilinmaganligi.

- amaldagi ta'lim tizimi zamonaviy, taraqqiyot topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmayotganligi;

- mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog'lanmaganligi.

Yuqoridagi kamchilik va muammolarni hal qilishni ko'zda tutgan quyidagi omillar mavjud kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishga turtki bo'ldi:

- respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganligi;

- mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgartirishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xomashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'lga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayotganligi;

- davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi;

- milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;

- O'zbekistorming jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» haqida hukumat darajasidagi bu fikmi O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonning 1996-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yakunlari hamda 1997-yildagi iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari» ga bag'ishlangan majlisidagi nutqida bayon etdi:

«1997-yilda biz yaxshi, zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor berishimiz kerak.

Ta'lim tizimi tubdan qayta ko'rib chiqish vaqti yetdi, professional bilimlarni egallash imkoniyatlarini kengaytirish, ma'mur-menejerlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish, yangi sharoitlarda, yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlashga qobil ishchi va mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'yish lozim.

Biz bugun shunga tayyormizmi? Buning uchun zarur kuch va resurslarimiz bormi?

Mana shu minbardan turib, qat'iy aytamanki, ha O'zbekiston ana shunday kuch-quvvat va resurslarga ega» («Ma'rifat» gazetasi, 1997-yil 1-mart).

3. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan yangi islohotlar.

2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasi o](#)‘rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta‘lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirildi. Ta‘lim tizimini xalq bilan muloqot va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida isloh qilishga asosiy e‘tibor qaratildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» PQ-3305-son qarori asosida respublikamizda ilk bor Maktabgacha ta‘lim vazirligi tashkil etildi.

Maktabgacha ta‘lim vazirligi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-son [Farmoni](#) va «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son [qaroriga](#) muvofiq amalga oshiradi.

Uzluksiz ta‘lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta‘lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog‘ ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta‘lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma‘naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5198-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib belgilandi:

birinchidan, maktabgacha ta‘lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

ikkinchidan, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

uchinchidan, respublikada davlat va nodavlat maktabgacha ta‘lim muassasalari orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta‘lim muassasalariga bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta‘minlash, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish, byudjetdan subsidiyalar ajratish, shuningdek, bolalarning maktabgacha ta‘limi va tarbiyasining muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq etish;

to'rtinchidan, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini ta'lim-tarbiya jarayoniga, shu jumladan nodavlat sektorida joriy etish;

beshinchidan, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'minlash;

oltinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

yettinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va tajribali yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish;

sakkizinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ratsional va belgilangan me'yorlar asosida sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash uchun munosib sharoitlar yaratish, ko'ngilochar va bilim beruvchi mashg'ulotlar elementlari bo'lgan, hajmlari va intensivligi asosiy tibbiy taqdimnomalar bilan belgilanuvchi serharakat o'yinlar va mashqlar uyushtirish;

to'qqizinchidan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-3304-son Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3304-son Qarori asosida O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyati takomillashtirildi.

Mazkur qarorga muvofiq, quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilansin:

birinchidan, xalq ta'limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni har tomonlama rivojlantirish, o'quvchilarning bilimi va ma'naviy-axloqiy darajasini yanada yuksaltirish;

ikkinchidan, o'rta ta'lim maktablari hamda o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi muassasalari o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlash orqali 11 yillik o'rta ta'limni joriy etish bo'yicha tashkiliy-metodik tadbirlar tizimini amalga oshirish;

uchinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilariga kasb-hunar o'rgatish hamda umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlariga va maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq xalq ta'limi muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda o'quvchilarga kasb-hunar o'rgatishda metodik rahbarlik qilish;

to'rtinchidan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va mehnat ta'limini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

beshinchidan, o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, o'quvchilarning o'quv, psixologik va jismoniy yuklamasini optimallashtirishni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

oltinchidan, mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda yangilangan o'quv reja va dasturlarga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodi yaratilishi va nashr etilishini tashkil qilish;

yettinchidan, mehribonlik uylari faoliyatini takomillashtirish, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasini va huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, ularning ijtimoiy-mehnat ko'nikmalarini hosil qilishiga va jamiyatga uyg'unlashuviga ko'maklashish;

sakkizinchidan, rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarning (shu jumladan inklyuziv) ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya olishlari uchun moslashuv muhitini yaratish, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) faoliyatini muvofiqlashtirish;

to'qqizinchidan, xalq ta'limi muassasalarida O'zbekiston yoshlar ittifoqi bo'limlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g'oyalari yanada chuqur singdirish, «ommaviy madaniyat» ko'rinishidagi yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash;

o'ninchidan, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tomonidan davlat ta'lim standartlari va talablari bajarilishining tizimli monitoringini olib borish;

o'n birinchidan, ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni hamda byudjet intizomiga rioya etishni ta'minlash;

o'n ikkinchidan, ta'lim muassasalarida bino va inshootlardan samarali foydalanish ishlarini muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish.

“Maktabning maqsadi insonlarga kasbiy va avocotsional maqsadlariga erishishda yordam berishi kerak, qaysiki o‘zlarining hohishdagi qobiliyatga mos ravishda ushbu jarayonni o‘zida mujassamlashtiraolgan insonlar o‘zlarini ko‘proq band, mahoratli hisoblaydi va jamiyatni barpo etuvchi bo‘lib tarbiyalanadi.”¹ - degan edi Gardner.

Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta‘lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta‘lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5313-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab majburiy umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim umumta‘lim maktablarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktab-internatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzluksiz va 11 yillik muddatda; 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab kasb-hunar kollejlariga o‘qishga qabul qilish umumta‘lim maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari hisobidan, ixtiyoriylik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo‘lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo‘lgan o‘qitish muddatlarida amalga oshirilishi belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5313-son Farmoniga muvofiq, majburiy umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim umumta‘lim maktablarida, kasb-hunar ta‘limi ixtiyoriylik asosida kasb-hunar kollejlarida amalga oshiriladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilari ta‘lim olishlari bilan birgalikda ularga kasb-hunar o‘rgatish, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning ta‘limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish, o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish va ularni zarur jihozlar bilan ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi «Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilariga kasbiy ta‘lim berishga ixtisoslashgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 868-son qarori qabul qilindi.

¹Teaching and learning: Pedagogy, Curriculum And Culture. Alex Moore.148-bet.

O'quv-ishlab chiqarish majmuasi - o'quvchilarga kasbiy bilimlar berish, tadbirkorlik, ishbilarmonlik asoslarini, mehnat va kasb ko'nikmalarini egallashlari, shuningdek ularning o'ziga xos kasbiy qobiliyatlari va sifatleri rivojlantirilishini ta'minlaydigan ta'limni tashkil etish shakli.

O'quv-ishlab chiqarish majmuasida kasbiy ta'lim berishning vazifalari etib quyidagilar belgilab qo'yildi:

o'quvchilar tomonidan kasb-hunar ko'nikmalarining o'zlashtirilishini ta'minlash, maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan kasblarni o'rgatish orqali ularning kasb-hunar olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish;

kasbiy ta'lim berish jarayonida «usta-shogird» an'analari, mahalliy va xorijiy ilg'or tajribani o'rgangan holda eng maqbul usullardan foydalanish hamda kasblarning malaka talablari va kasbiy ta'lim berish jarayonining metodik ta'minotini takomillashtirib borish;

kasbiy ta'lim berish jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali kasbiy ta'lim berish sifatini ta'minlash;

o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlagan holda mehnat jarayonini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularning mehnat faoliyati bilan faol shug'ullanishi imkonini beruvchi kasb egasi bo'lishlarini ta'minlash;

mehnat bozori uchun maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlik talab etilmaydigan kasblar bo'yicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlash.

Akademik litsey - o'rta maxsus o'quv yurti. Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydi. Akademik litseyda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va b. sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda fanlarni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydi.

Akademik litseylarning faoliyatini ular joylashgan hududning demografik, iqtisodiy va boshqa omillarini hamda bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish natijalari nuqtai nazaridan olib borilgan tahlillar bu sohadagi ishlarning qoniqarli emasligini ko'rsatmoqda. Hozirgi paytga kelib akademik litseylar sonini optimallashtirish, ulardagi ta'lim sifatini oshirish va mazmunini yangilash, ularni bitirib chiqayotgan yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichlarini tubdan yaxshilash bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Mazkur sohadagi mavjud muammolarni hal etish hamda akademik litseylarda o'quv jarayoni sifati va samaradorligini tubdan oshirish, akademik litseylarda umumta'lim maktablarining eng qobiliyatli bitiruvchilarini jamlash, umumta'lim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallab olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlar maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14 martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2829-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning 2-bandida akademik litseylarning muhim vazifalari va faoliyati yo'nalishlari belgilab berildi:

umumta'lim maktablarining eng iste'dodli o'quvchilarini tanlash, ularning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va o'qishni oliy ta'lim muassasalarida davom ettirishga maqsadli chuqur tayyorlash;

o'quvchilarning ijodiy salohiyati namoyon bo'lishi va faollashishiga ko'maklashuvchi, individual iste'dodlarni va har bir o'quvchining qobiliyatlari hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni egallab olish jarayonida mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish;

ilg'or mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish va uning mazmunini doimiy ravishda yangilab borish.

Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori qabul qilindi.

Qabul qilingan qarorga ko'ra, quyidagilar oliy ta'lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari etib belgilandi:

har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi etakchi turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalb etish;

oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollarini inobatga olgan holda optimallashtirish;

yangi avlod o'quv qo'llanmalarini yaratish va oliy ta'lim tizimiga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;

pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini sifat jihatidan muntazam oshirib borish, pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovkadan o'tishini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o'qitish;

oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etish;

oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, talaba-yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqloq g'oyasini, xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'usini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo'lgan g'oyalarga nisbatan ularda mustahkam immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirish;

oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini ularning o'quv va ilmiy-laboratoriya binolarini, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalarini qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish orqali yanada mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan sohalarining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalar bazasini zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash, talabalar, o'qituvchi va yosh tadqiqotchilarning jahondagi ilg'or ta'lim resurslari, ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bo'yicha elektron kataloglarga kirish imkoniyatini kengaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son [Farmoni](#) ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-mayda «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutida ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi: tayanch doktorantura; doktorantura; mustaqil izlanuvchilik.

Tayanch doktorantura - O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o'rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

Doktorantura - O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o'rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

Mustaqil izlanuvchilik - ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida» 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-son [Farmoniga](#) muvofiq oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining o'qitish shakllari va usullarini, pedagog kadrlar tarkibining sifat darajasini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-avgustdagi «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 242-son qarori bilan «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-fevraldagi 103-son Qarori bilan mazkur Nizomga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi - yangi kasbiy bilimlar, mahoratlar, zamonaviy ko'nikmalar hamda boshqaruv va pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur hajmda va yetarli darajada hamda davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv-

ta'lim jarayoniga talab qilinadigan sifatni ta'minlaydigan darajada vakolatlarni nazarda tutadigan oliy ta'limdan keyingi o'qitish shakli.

Yuqorida qayd etib o'tilgan hujjatlarga asosan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi o'quv rejasining namunaviy tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan 288 soat hajmdagi o'quv dasturlari bo'yicha ikki oy davomida, ishdan ajragan holda amalga oshiriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilari o'qishni tugatgandan keyin attestatsiya komissiyalari tomonidan o'tkaziladigan attestatsiyadan o'tishlari kerak. Attestatsiya komissiyasi tegishli sohalardagi yetakchi olimlar va mutaxassislar, ilmiy kengash a'zolari, o'quv-uslubiy ishlar sohasidagi yirik mutaxassislar safidan kamida 7 kishidan iborat bo'lgan oliy

ta'lim muassasasi rektori yoki fan doktori ilmiy unvoni berish bo'yicha ilmiy kengash raisi boshchiligida shakllantiriladi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga qat'iy hisobda turadigan davlat namunasidagi hujjat hisoblanadigan malaka attestati beriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha attestatsiyadan o'tmagan oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari bir yil mobaynida pulli asosda o'qishning tegishli yoki turdosh yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha keyingi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yakunida attestatsiyadan o'tishadi.

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini takroran o'zlashtirishi asosiy ishdan ajralmagan holda kurslarning o'quv dasturlarini mustaqil ravishda yoki masofadan o'qitish usullari orqali o'zlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ravishda yoki masofadan o'qitish usullari orqali qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv dasturlari bo'yicha tayyorlanib kelgan tinglovchilar yakuniy attestatsiyaga kiritiladi. Yakuniy attestatsiya tegishli yo'nalishlar bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari huzuridagi attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha attestatsiyadan takroran o'tmagan yoki asosiy ish joyi bo'yicha belgilangan muddatda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan takroran o'tmagan taqdirda, ushbu xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatidan hamda bo'sh turgan pedagog lavozimini egallash tanlovi davrining tugagan muddatidan qat'i nazar, mehnat shartnomasi belgilangan tartibda ikki oy mobaynida bekor qilinadi. Bunda ular o'z pedagogik faoliyatini boshqa ta'lim

muassasalarida (oliy ta'lim muassasalaridan tashqari) davom ettirishi yoxud boshqa tashkilotlarda ishlashi hamda o'zining kasbiy malakasini mustaqil ravishda oshirishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari va ularning mazmuni nimalardan iborat ?
2. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ?
3. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning mazmun-mohiyati nimalardan iborat ?
4. Uzluksiz ta'lim tizimining isloh qilinishi qanday omillar bilan bog'liq?
5. 11 yillik majburiy ta'limga o'tilishining sabablarini izohlang.
6. O'quv-ishlab chiqarish majmuasining asosiy maqsadini tushuntirib bering.
7. Kasb-hunar ta'limini tashkil etishga yangicha yondashuvni qanday baholaysiz?

7-mavzu: Kasbiy ta'limning dolzarb pedagogik muammolari (2soat)

Reja:

1. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni, maqsadi va vazifalari.
2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi qonuni, qonuniyatlari va tamoyillari.

Tayanch iboralar: uzluksiz ta'lim, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim, oliy O'quv yurtidan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim.

6-модда. Таълим тизими

Таълим тизими:

давлат таълим стандартларини, давлат таълим талабларини, ўқув режалари ва ўқув дастурларини;

давлат таълим стандартларини, давлат таълим талаблари ва ўқув дастурларини амалга оширувчи таълим ташкилотларини;

таълим сифатини баҳолашни амалга оширувчи ташкилотларни;

таълим тизимининг фаолият кўрсатиши ва ривожланишини таъминлаш учун зарур бўлган тадқиқот ишларини бажарувчи илмий-педагогик муассасаларни;

таълим соҳасидаги давлат бошқаруви органларини, шунингдек уларнинг тасарруфидаги ташкилотларни ўз ичига олади.

Таълим тизими ягона ва узлуksиздир.

7-модда. Таълим турлари

Таълим турлари куйидагилардан иборат:

мактабгача таълим ва тарбия;

умумий ўрта ва ўрта махсус таълим;

професионал таълим;
олий таълим;
олий таълимдан кейинги таълим;
кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш;
мактабдан ташқари таълим.

8-модда. Мактабгача таълим ва тарбия

Мактабгача таълим ва тарбия болаларни ўқитиш ва тарбиялашга, уларни интеллектуал, маънавий-ахлоқий, этик, эстетик ва жисмоний жиҳатдан ривожлантиришга, шунингдек болаларни умумий ўрта таълимга тайёрлашга қаратилган таълим туридир.

Мактабгача таълим ва тарбия олти ёшдан етти ёшгача бўлган болаларни бошланғич таълимга бир йиллик мажбурий тайёрлашни ҳам назарда тутди.

Мактабгача таълим ва тарбияни ташкил этиш тартиби ушбу Қонун, шунингдек «Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни билан белгиланади.

9-модда. Умумий ўрта ва ўрта махсус таълим

Умумий ўрта ва ўрта махсус таълим умумтаълим ўқув дастурларини, зарур билим, малака ҳамда кўникмаларни ўзлаштиришга қаратилган.

Умумий ўрта таълим (I — XI синфлар) босқичлари қуйидагилардан иборат:

бошланғич таълим (I — IV синфлар);

таянч ўрта таълим (V — IX синфлар);

ўрта таълим (X — XI синфлар).

Умумий ўрта таълим ташкилотининг биринчи синфига болалар улар етти ёшга тўладиган йилда қабул қилинади.

Бошланғич таълим таълим олувчиларда умумий ўрта таълимни давом эттириш учун зарур бўлган саводхонлик, билим, малака ва кўникмалар асосларини шакллантиришга қаратилган.

Таянч ўрта таълим ўқув дастурига мувофиқ таълим олувчиларга билим, малака ва кўникмаларнинг зарурий ҳажмини беради, уларда мустақил фикрлаш ва таҳлил қилиш қобилиятини ривожлантиради.

Таянч ўрта таълим доирасида (VII синфдан сўнг) таълим олувчиларда касблар бўйича бирламчи билим ва кўникмаларни шакллантириш учун уларни профессионал ташхислаш ва касб-ҳунарга йўналтириш бўйича чоралар амалга оширилади.

Ўрта таълим ўқув дастурига мувофиқ таълим олувчилар томонидан зарур билим, малака ва кўникмалар ўзлаштирилишини, шунингдек таълимнинг кейинги тури танланишини ҳамда юқори малака талаб қилинмайдиган касблар эгалланишини таъминлайди.

Професионал ташхислаш ва касб-ҳунарга йўналтириш, шунингдек таълим олувчиларни юқори малака талаб қилинмайдиган касбларга тайёрлаш тартиби қонун ҳужжатларида белгиланади.

Умумий ўрта таълим умумий ўрта таълим ташкилотларида узлуксиз тарзда, мажбурий бўлган ўн бир йил давомида амалга оширилади.

Ўрта махсус таълим академик лицейларда тўққиз йиллик таянч ўрта таълим асосида икки йил мобайнида амалга оширилади ва таълим олувчиларнинг интеллектуал қобилиятларининг жадал ривожланишини, шунингдек чуқур, табақалаштирилган, касб-ҳунарга ва шахсга йўналтирилган таълим олишини таъминлайди.

Нодавлат таълим ташкилотларида умумий ўрта ва ўрта махсус таълим тўлов-шартнома асосида амалга оширилиши мумкин.

Иқтидорли ва истеъдодли болаларнинг қобилиятини ривожлантириш учун Президент, ижод ва бошқа ихтисослаштирилган мактаблар, шунингдек мактаб-интернатлар ташкил этилиши мумкин.

Жисмоний, ақлий, сенсор (сезги) ёки руҳий нуқсонлари бўлган болалар, шунингдек узоқ вақт даволанишга муҳтож бўлган болалар давлат ихтисослаштирилган

таълим муассасаларида, умумий ўрта ва ўрта махсус таълим ташкилотларида инклюзив шаклда ёки уй шароитларида яқка тартибда таълим олади.

Умумий ўрта таълим ташкилотларининг синфларида (гуруҳларида) таълим олувчилар сони ўттиз беш нафардан ошмаслиги керак.

10-модда. Профессional таълим

Профessional таълим эгалланадиган касб ва мутахассислик бўйича қуйидаги даражаларни ўз ичига олади:

бошланғич professional таълим;

ўрта professional таълим;

ўрта махсус professional таълим.

Бошланғич professional таълим касб-ҳунар мактабларида IX синф битирувчилари негизида бепул асосда кундузги таълим шакли бўйича умумтаълим фанларининг ва мутахассислик фанларининг икки йиллик интеграциялашган дастурлари асосида амалга оширилади.

Ўрта professional таълим коллежларда давлат буюртмаси ёки тўлов-шартнома асосида касблар ҳамда мутахассисликларнинг мураккаблигидан келиб чиққан ҳолда, давомийлиги икки йилгача бўлган кундузги, кечки ва сиртки таълим шакллари бўйича умумий ўрта, ўрта махсус таълим ҳамда бошланғич professional таълим негизида амалга оширилади.

Ўрта махсус professional таълим техникумларда умумий ўрта, ўрта махсус, бошланғич professional ва ўрта professional таълим негизида давлат буюртмаси ёки тўлов-шартнома асосида касблар ҳамда мутахассисликларнинг мураккаблигидан келиб чиққан ҳолда, давомийлиги камида икки йил бўлган кундузги, кечки ва сиртки таълим шакллари бўйича амалга оширилади.

Ушбу Қонун кучга киргунига қадар ўрта махсус, касб-ҳунар таълими (тўққиз йиллик умумий ўрта ва уч йиллик ўрта махсус, касб-ҳунар таълими) олган фуқаролар ҳам ўрта professional ва ўрта махсус professional таълим олиш ҳуқуқига эга.

Касб-ҳунар мактаблари, коллежлар ва техникумлар таълим олувчиларнинг ўзи танлаган касбга ва мутахассисликка эга бўлишини таъминлайди.

Фуқаролар шартнома асосида иккинчи ва ундан кейинги professional таълимни олиш ҳуқуқига эга.

11-модда. Олий таълим

Олий таълим бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича юқори малакали кадрлар тайёрланишини таъминлайди.

Олий маълумотли кадрларни тайёрлаш олий таълим ташкилотларида (университетлар, академиялар, институтлар, олий мактаблар) амалга оширилади. Умумий ўрта (ўн бир йиллик таълим), ўрта махсус (тўққиз йиллик таянч ўрта ва икки йиллик ўрта махсус таълим), бошланғич professional таълим (тўққиз йиллик таянч ўрта ва икки йиллик бошланғич professional таълим) олган шахслар, шунингдек ушбу Қонун кучга киргунига қадар ўрта махсус, касб-ҳунар таълими (тўққиз йиллик умумий ўрта ва уч йиллик ўрта махсус, касб-ҳунар таълими) олган шахслар олий маълумот олиш ҳуқуқига эга.

Олий таълим икки босқичга — бакалавриат ва магистратура босқичига эга.

Бакалавриат олий таълим йўналишларидан бири бўйича чуқурлаштирилган билим, малака ва кўникмалар берадиган, ўқиш давомийлиги камида уч йил бўлган таянч олий таълимдир.

Магистратура тегишли бакалавриат негизидаги аниқ мутахассислик бўйича ўқиш давомийлиги камида бир йил бўлган олий таълимдир.

Магистратура мутахассисликларининг ва уларга мувофиқ бўлган бакалавриат таълим йўналишларининг рўйхати таълим соҳасидаги ваколатли давлат бошқаруви органи томонидан белгиланади.

Фуқаролар шартнома асосида иккинчи ва ундан кейинги олий маълумотни олиш ҳуқуқига эга.

Nazorat savollari:

1. «Uzluksiz ta'lim» tushunchasining mazmuni qanday ?
2. Uzluksiz ta'lim tuzulishi qanday ?
3. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari nimalardan iborat ?
4. Kasbiy ta'lim turi va tizimi nimalardan iborat ?
5. Kasbiy ta'lim rivojlanishining asosiy omillari nimalardan iborat?
6. Uzluksiz ta'limi tizimida o'rta maxsus ta'limining o'mi va ahamiyati qanday?

8-mavzu: Kasb-hunar pedagogikasining huquqiy-me'yoriy asoslari (2soat)

Reja:

1. Kasb-hunar ta'limining huquqiy- me'yoriy asoslari.
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsadi vazifalari.
3. Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari.

O'zbekiston respublikasi prezidentining Farmoni **Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida** 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar [strategiyasida](#) belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, professional ta'lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashmaganligi, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlariga to'sqinlik qilmoqda.

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida:

1. 2020/2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o'rinlarda — Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etilsin.

2. Quyidagilar:

Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari ro'yxati [1-ilovaga](#) muvofiq;

Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari ro'yxati [2-ilovaga](#) muvofiq;

Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari ro'yxati [3-ilovaga](#) muvofiq;

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi — davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta'lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta'lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta'lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa;

davlat ta'lim standartlari — davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

malaka — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

mutaxassislik — malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta'lim tashkiloti — davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim kampusi — yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya

jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi — ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

4-modda. Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

ta'lim ustuvorligining tan olinishi;

ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;

ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;

ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi;

ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

5-modda. Ta'lim olish huquqi

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish;

oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Chet ellik fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'lim olish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

9-mavzu: O'zbekiston xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari. O'MKHK (2soat)

Reja:

- 1.Xalq xo'jaligi tarmoqlari, sanoat - qishloq xo'jaligi, kichik korxonalar, kichik biznes.
2. O'MKHT dagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi.
- 3.O'MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimi

Tayanch iboralar: Xalq xo'jaligi, moddiy ishlab chiqarish, nomoddiy ishlab chiqarish, ishlab chiqarish komplekslari, mehnat unumdorligi, kichik biznes, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar, ixtisosliklar, umumdavlat tasniflagichi, kichik mutaxassis, nazariy ta'limi, ishlab chiqarish ta'limi.

1. Xalq xo'jaligi tarmoqlari, sanoat - qishloq xo'jaligi, kichik korxonalar, kichik biznes

Xalq xo'jaligi mamlakatimizda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik asosida vujudga kelgan ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidir.

Ijtimoiy mehnat taqsimotiga muvofiq xalq xo'jaligi faoliyatning ikki katta sohasini - ishlab chiqarish (moddiy ishlab chiqarish) va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini o'z ichiga oladi.

Ana shu sohalarning tarkibi o'zaro munosabati va bir-biriga bog'liqligi mamlakatimiz xalq xo'jaligi strukturasi tashkil etadi.

qurishdir. Transport, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa qurilishlar bir-biridan farq qiladi.

Transport xalq xo'jaligi va aholini xilma-xil yuklarni tashish ehtiyojini uzluksiz hamda o'z vaqtida ta'minlaydi.

Aloqa jamiyatning ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatida, aholining madaniy maishiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. U axborotlarning uzatilishini ta'minlaydi va pochta, telegraf, telefon, radio, televideniyaning o'z ichiga oladi. Xalq xo'jaligi tarmoqlari strukturasi to'xtovsiz takomillashmoqda. Masalan, sanoatda atom energetikasi va atom mashinasozligi kabi yangi tarmoqlar, elektron, mikrobiologiya sanoati va hokozalar vujudga keldi. Xalq xo'jaligini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi uning tarmoqlar tarkibini takomillashtirish - tarmoqlararo xalq xo'jaligi komplekslarini vujudga keltirishdir. Bunday

komplekslarning bir nechta turlari bor.

Mashinasozlik kompleksi mamlakat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini mehnat vositalari bilan ta'minlaydi, shunga ko'ra ularning rivojlantirish sur'atini va ishlab chiqarish samaradorligini ham ko'p darajada belgilaydi. Bu kompleksga energetika, og'ir mashinasozlik va transport, kimyo va neft, qurilish, yo'l mashinasozligi, stanoksozlik va asbobsozlik, elektrotexnika, elektron sanoat, avtomobil sanoati va boshqa ayrim tarmoqlar kiradi.

Mashinasozlik kompleksini, birinchi navbatda stanoksozlik, hisoblash texnikasi ishlab chiqarish, kabi tarmoqlarni, elektrotexnika va elektron sanoatni jadal rivojlantirish mo'ljallangan. Fan texnika taraqqiyoti eng avvalo mana shularning rivojlanishiga bog'liqdir.

Konstruksion materiallar ishlab chiqarish kompleksiga qora va rangli metallurgiya, kimyo va neft, sellyuloza va yog'ochni qayta ishlash, qurilish materiallari kiradi.

Agrosanoat kompleksi - tarmoqlararo murakkab ishlab chiqarish iqtisodiy tizim bo'lib, uchta asosiy texnikaning sohasini o'z ichiga oladi. Birinchisi - ishlab chiqarish vositalari, unga takror va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, chorvachilik va yem-xashak tayyorlash mashinasozligi, yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi, kombikorm va mikrobiologiya sanoati va sanoat turlari kiradi.

Agrosanoat kompleksidagi kapital qurilish ham ana shu sohaga taalluqlidir.

Ikkinchisi - bevosita qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi (o'simlik- shunoslik va chorvachilik tarmoqlari, agrokimyo va veterinariya, sanitariya xizmati, mehnatkashlarning yordamchi xo'jaliklari).

Uchinchisi - qishloq xo'jalik xomashyolarini (oziq-ovqat, go'sht- sut, un-yorma va hokazolarni) tayyorlash, saqlash va qayta ishlashni ta'minlaydigan ishlab chiqarish tarmoqlari, shuningdek, mahsulotlarni realizatsiya qilish bilan bog'liq tashkilotdir. Agrosanoat kompleksining asosiy vazifalari qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishini uzluksiz o'stirishga erishish, mamlakatni oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo'jaligi xomashyolari bilan ishonchli ta'minlashdir.

Xalq xo'jaligi kompleksini dinamik va proporsional rivojlantirish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish tomon keskin burilish yo'liga o'tish, uning sifati va samaradorligini oshirish vazifasini qo'ydi. Bu vazifani amalga oshirishning asosiy vositalari fan texnika taraqqiyoti jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini tubdan o'zgartirish, fan va texnikaning eng yangi yutuqlari bazasida xalq xo'jaligini chuqur rekonstruksiyalashdir. Bunday rekonstruksiyalash barcha tarmoqlar va xalq xo'jaligi komplekslariga, birinchi navbatda mamlakat iqtisodiyotining poydevori - og'ir sanoatga taalluqli bo'lib, mashinasozlikning rivojlanishi birmuncha tezlashtirish chiqarilayotgan mahsulotlarning texnikaviy darajasini tubdan yuksaltirish talab qilinmoqda.

Agrosanoat kompleksi tarmoqlarini jadal va proporsional rivojlantirish qishloq xo'jaligini industrial bazasiga o'tishini tugallash, barcha tarmoqlarini xo'jalik ekinlarini hosildorligini va chorvachilik mahsuldorligini ta'minlashga mo'ljallangan.

Yengil sanoat va bevosita aholi ehtiyojlarini qondirish uchun ishlaydigan tarmoqlami, transport va aloqani jadal rivojlantirish zarur. Kapital qurilishni sifat jihatdan yangi industrial va tashkiliy darajaga ko'tarish rejalashtirilmoqdaki, busiz xalq xo'jaligini texnik rekonstruksiyalash mumkin emas.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirilishi eng kam mablag¹ sarflab, eng katta xo'jalik natijalariga erishish demakdir. Bu esa o'z navbatida xo'jalik ishlab chiqarishga qo'shilgan, ya'ni xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya ishchilarning mehnat haqi uchun sarflangan har bir so'm maksimal darajada foyda keltiradigan yo'sinda yuritish kerakligini bildiradi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirishning ikkita: ekstensiv va intensiv yo'llari bor.

Birinchi yo'l korxonaning, ulardagi yangi ishchilarni jalb qilish. Materiallar to'plash hisobiga ishlab chiqarishni kengaytirishdan iboratdir.

Ikkinchi yo'li esa yanada mukammal texnologiyadan, texnikadan foydalanish, ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil etish, intizomni mustahkamlash, mavjud resurslarni tejab ishlatish orqali ko'zlagan natijaga erishishdir.

Ishlab chiqarishni intensivlashtirishda, xo'jalik masalalarini oqilona hal qilishda rejalashtirish katta rol o'ynaydi. Rejalashtirish - zamonaviy sharoitda xalq xo'jaligini boshqarishning markaziy bo'limidir. Xalq xo'jaligi rejalarining bir qancha turlari mavjud bo'lib, besh yillik va yarim yillik rejalaridir. Har qanday korxonada faoliyati rejaga asoslanadi. Yuqori tashkilotlar (vazirliklar, idoralik) korxonalar rejalarining faqat eng zarur ko'rsatkichlarini: mahsulot ishlab chiqarish hajmi va muddati, buyumlarining asosiy turlari hamda boshqa ba'zi narsalarni tasdiqlaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun qishloq mahsulotlarini xarid qilishda erkinlik va davlat rejalarini belgilanadi. Xo'jalik va turli ekiladigan maydonlarini, chorva mollari boshini, har xil ishlarini amalga oshirish muddatlarini o'zlari mustaqil holda rejalashtiriladi.

Davlat har qanday korxonani tashkil qilishda uning ishlashi uchun zarur binolar, materiallar, texnika, pul mablag'lari ajratiladi. Korxonada esa bulardan foydalanib ishchilarini to'playdi, materiallar, asbob-uskunalar sotib oladi, o'z mahsulotlarini realizatsiya qiladi, boshqa korxonalar bilan shartnoma tuzadi, o'zining moliyaviy ishlari yuritiladi.

Har bir buyum korxonaga qanchadan tushadi? Korxonada o'ziga berilgan binolar, inshootlar, mashinalar, stanoklar uchun davlatga asta-sekin, qismlarga bo'lib qarzini to'laydi. Buni amortizatsiya (narxini qoplash) xarajatlari deyiladi.

Tayyorlangan mahsulotlarni tashish va realizatsiya qilishi uchun ham muayyan sarf-xarajatlarni taqozo etadi. Barcha ishchi va xizmatchilarning mehnati uchun haq to'lash kerak. Xarajatlarning bir qismi yoritish, isitish binolari uchun shu bilan bog'liqdir.

Korxonada foydani ko'paytirishdan manfaatdormi? Foyda nimalarga ishlatiladi? Foydaning qancha qismi davlat ixtiyoriga o'tadi (bu byudjetga ajratiladi). Ular yangi zavodlar, fabrikalar, turar joy binolari, maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar, yoilar qurishga, talabalarning ta'limiga, boshqarish apparati xodimlarining maoshlariga, barcha kishilar uchun tibbiy xizmat ko'rsatishga, vatanimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga sarflanadi.

Korxonada xo'jalik hisobi sharoitida muvaffaqiyatli ishlashi uchun mehnatni yaxshi tashkil etish, tejamkorlikning g'oyat jiddiy rejimi zarur. Bunday vazifa xomashyo, materiallar, yoqilg'i, elektro-energiya, yer- mulk va ishchilardan kam miqdorda foydalanib ko'p mahsulot olishdan iborat bo'lib, ishlab chiqarishdagi tejamkorlik rejimining ma'nosi ham shundadir. Bu rejim oddiy narsalardan vujudga keladi. Ishlab chiqarishda buyumlarni kam material ketadigan qilish, qimmat tabiiy materiallar o'miga sun'iy materiallar ishlatish, buyumlarning chidamliligini oshirish, kam chiqindiligi, resurslari iqtisod qiladigan texnologiyani joriy etish orqali materiallarni tejashga erishiladi.

Har bir ishchining ish vaqtidan ratsional va to'liq foydalanish - ishlab chiqarishdagi tejamkorlik rejimini kuchaytirishning asosiy shartlaridan biridir. Ish vaqti bunday foydalanish bir yo'la ko'p mahsulotlar tayyorlash, shu orqali uning tan narxini arzonlashtirish va korxonaning foydasini ko'paytirish imkonini beradi. Ish vaqti mehnat sarflanishning eng muhim o'lchovidir. Mehnat sarflashning samaradorligi - mehnat unumdorligidir. U vaqt birligi ichida tayyorlangan buyumning miqdorida o'z ifodasini topadi.

Mehnat unumdorligi anchagina omillarga, ya'ni texnika va ilg'or texnologiyani joriy etishga, ishlarni sifatli tashkil qilishga, mehnat intizomini mustahkamlash, ishchilarni malakasini oshirish va hokozalar orqali sarflanadigan ish vaqtini qisqartirishga bog'liq. Mehnat unumdorligini oshirish iqtisodiy o'sish va xalq farovonligini yuksalishining asosiy omillaridir.

Kichik biznesning davlat tomonidan qo'llab - quvvatlanishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: byudjet orqali bevosita yordam puli. Pul hajmi kichik biznes sug'urta qiliunagan zararlarni qoplash uchun belgilangan bo'lishi kerak. Yordam puli innovatsiyaning xavfli loyihalarini qoplaydi va katta biznes talab qilmaydigan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni kuchaytiradi.

Davlat bank kreditlarni olishda kafil sifatida chiqadi. Shuning uchun mayda biznesga kredit olish ancha yengilroq kichik biznes soliq imtiyozlariga ega bo'lishi kerak. Agar firma ijtimoiy tarmoqqa yoki ishlab chiqarish rivojlanishiga ajratilgan

mablag'ini ko'paytirsa, soliq solinadigan ulushni qisqartirishi mumkin.

MDH mamlakatlarida kichik biznesni davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlash byudjetda pul kam bo'lganligi uchun arzimagan miqdorda amalga oshiriladi.

Davlat pul mablag'laridan tashqari:

1. Qonuniy hujjatlarni ishlab chiqarish bilan;
2. Konsultativ xizmatlarni ko'rsatish bilan yordam beradi.

Tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish va uni keng targ'ib qilish va yoyish niyatida davlat axborot, maslahat, ilmiy-tadqiqot markazlari, innovatsion fondlar va boshqa tashkilotlar tuzib, iqtisodiyotning ushbu sohasini rivojlantirishga yordam beradi.

2. O'zMKHT dagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi

Tasniflagich loyihasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining Davlat ta'lim standartlari bo'limi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish instituti tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur tasniflagich loyihasi:

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot, moliya, qishloq va suv xo'jaligi, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, xalq ta'limi, madaniyat ishlari bo'yicha, ichki ishlar, favqulotda holatlar va adliya vazirliklarida;

- O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va davlat mulkini boshqarish, statistika, raqobatchilikni rivojlantirish va *monopoliyadan chiqarish*, soliq, davlat chegaralarini qo'riqlash qo'mitasi, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, mineral *manbalar* va geologiya, qurilish va arxitektura, jismoniy va sport, davlat kadastri va kartografiya, geodeziya, yer resurslari davlat qo'mitalarida;

- O'zbekiston Respublikasi tashqi aloqalari bo'yicha, iqtisodiy aloqalar, O'zbekiston Respublikasi axborotlashtirish va aloqalar, axborot, ar va matbuot standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish, O'z kommuna xizmat, avtomobil va daryo transport vositalari «O'zarxiv» agentliklari va O'zbekiston Respublikasi mualliflik huquqlari agentliklarida;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati markazida;

O'zbekiston Respublikasi: uchish xavfsizligini nazorat qilish, elektroenergiyani nazorat qilish, tog' va sanoat xavfsizlik ishlarini olib borishini nazorat qilish, yuklarni temir yo'l orqali tashish xavfsizligini nazorat qilish bo'yicha davlat inspeksiyalari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi katta va muhim suv xo'jalik obyektlarini va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Davlat inspeksiyasi, gaz va neft mahsulotlaridan foydalanishni nazorat qilish, davlat non inspeksiyalarida

ko‘rib chiqildi va ma‘qullandi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi O‘zbekiston Respublikasida texnikaviy-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo‘yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta‘lim tizimi uchun davlat ta‘lim standartlarining ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi 1998-yil 1 yanvardagi 5-sonli qarori asosida tayyorlangan.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonuniga, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ga hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim Vazirligining me‘yoriy hujjatlariga asoslanib tuzilgan.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari, tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklari tasniflagichning tasniflash obyektlari hisoblanadi.

Mazkur tasniflagichda tayyorlash yo‘nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlov yo‘nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar nomi va kodi hamda ixtisosliklar ro‘yxati keltirilgan.

Qo‘llanish sohasi

Mazkur tasniflagich o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muta- xassislarini ish bilan ta‘minlovchilar, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limida davlat ta‘lim standartlari, o‘quv rejalari, dasturlari va boshqa me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiquvchilar, ta‘lim muassasalari rahbarlari, respublika va mahalliy boshqaruv tashki lotlari mutaxassislari, vazirliklar, muassasalar va boshqa respublikamiz xo‘jaliklarini rivojlantirishda faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur tasniflagichni ishlab chiqishda quyidagi me‘yoriy hujjatlarga asoslangan:

O‘z DST 1.02-92 O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar.

GOST 1.5-93. Davlatlararo standartlashtirish bo‘yicha ish yuritish qoidalari. Standartlarning tuzilishi, bayon qilinishi, rasmiylashtirilishi va mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar.

O‘z DST 1.8-94. O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Rahbariy hujjatlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi va tavsiyalar.

O‘z DST 6.01-95. O‘zbekiston Respublikasining texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarini kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Asosiy qoidalar.

O‘z DST 1.9-95. O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Soha standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi.

o‘z DST 6.01.2-95. O‘zbekiston Respublikasi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy

axborotlarni kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Tasniflagichlarni ishlab chiqish va yuritish tartibi.

Ta'limning xalqaro standart tasnifi (TXSK) YUNESKO, 1997.

Z DT 008: 2000 s 01.08.2000 O'zbekiston Respublikasi mashg'ulotlar milliy standart tasniflagichi.

Mazkur tasniflagichda quyidagi ta'riflar qo'llanilgan:

Tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi (TYKIUT) - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati.

Malaka-mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nik-malarning mavjudligi.

Mutaxassisning malakasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, toifa yoki diplomning mavjudligi hisoblanadi.

Kichik mutaxassis - bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

Kichik mutaxassis:

Nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega;

Mazkur jamiyatda o'zining muvoffaqiyatli hayot darajasini ta'minlaydigan umumiy va kasbiy madaniyatga, ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlarga va shaxsiy sifatlarga ega;

Kichik mutaxassislar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- kompyuter va boshqa texnikalardan, texnikaviy va fizikaviy fanlar sohasiga foydalanish usullarini qo'llash bilan bog'liq texnik topshiriqlarni bajaradi; texnik-jihoz va transportlarni ishlatadi; mashinalar, mexanizmlar, qurilmalar, moslamalar hamda muhandis- texnik jihozlar va asboblarga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash, metall-konstruksiyalarni o'rnatish, dastgohlarni o'rnatish va boshqa ishlarni amalga oshiradi;

- xomashyo qazib olish va qayta ishlash, metallurgiya, qurilish, binolar va inshootlarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish sohasida o'z kasbiy bilimlarini tatbiq etadi; bosish (qoliqlash) ishlarini bajaradi; oziq-ovqat mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, yog'och va metall buyumlar, shu jumladan badiiy hunarmandlik buyumlarini ishlab chiqaradi va qayta ishlaydi;

- bolalar bog'chasi va boshlang'ich maktablarda ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshiradi.

- sog'liqni saqlash, gigiyena, insonlarga g'amxo'rlik qilish, qishloq xo'jaligida o'simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish, yetishtirish bo'yicha zarur ishlarni

amalga oshiradilar;

- kadrlarni joy-joyiga qo'yish va ularning ijtimoiy ta'minoti, soliqqa tortish va turizmga aloqador davlat xizmatlari, buxgalteriya hisobi, huquqiy, statistik, ish yuritish korxonalarini boshqarish, tijorat, moliya va savdo-sotiq sohasidagi bilimlarni texnik qo'llash bilan bog'liq ma'muriy va ishlab chiqarish vazifalarini bajaradilar.

Odamlar va yuklarni milliy chegaralardan o'tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ijtimoiy masalalar bo'yicha yordam ko'rsatadilar va maslahat beradilar.

Sport va boshqa qiziqarli tadbirlarni tashkil etadilar va o'tkazadilar, madaniyat va san'at sohasida ijodiy faoliyat ko'rsatadilar;

Diniy marosimlarni o'tkazishda aholiga yordam ko'rsatadilar.

Kasbiy faoliyat sohasi (KFS) - kasbiy bilim, malaka va ko'nik- malaming qo'llanish doirasidir, uning nomlanishi iqtisodiy sohalari nomlari bilan moslashtiriladi.

O'MKHT ta'lim muassasalaridagi tayyorlov yo'nalishlari-aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislariga kasbiy ta'lim berish doirasidir. Mutaxassislarining kasbiy faoliyatining aniq sohasi bo'yicha tayyorlov yo'nalishlarining nomi mehnat faoliyatining mazmuni va xususiyati orqali aniqlanadi.

Kasb-maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg'ulotining) turidir.

Ixtisoslik - birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari va kasblar kodi - kasbiy faoliyat sohaslariga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan ro'yxatining raqamli belgisidir.

Tasniflagichda quyidagi bilim sohalari aazarda tutilgan:

100000 -ta'lim;

200000 - gumanitar fanlar va san'at;

300000 - ijtimoiy fanlar;

400000 - fan;

500000 - muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;

600000 - qishloq xo'jaligi;

700000 - sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;

800000 - xizmatlar;

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari va ta'lim sohalari, tayyorlov yo'nalishlari va

kasblar yettita raqamli kod bilan belgilanadi.

Ta'limning xalqaro tasnifiga binoan ta'lim bosqichi-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3-raqami bilan belgilanadi. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

Birinchi raqam - ta'lim dasturi bosqichi kodi;

Ikkinchi raqam - bilim sohasi kodi;

Uchinchi raqam - ta'lim sohasi kodi;

To'rtinchi va beshinchi raqamlar - tayyorlov yo'nalishi kodi;

Oltinchi va yettinchi raqamlar - kasblar kodi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim (bakalavriat)da uzviylikni ta'minlash maqsadida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari kodlari oliy ta'limining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

Tasniflagichdan quyidagi vazifalarni hal etishda foydalaniladi:

- hududiy bandlik dasturlarini ishlab chiqish;
- milliy va hududiy mehnat bozorlarida ijtimoiy mehnat sohasidagi jarayonlarni taxminlash va tartibga solish;
- ish kuchining samaradorligini va ish kuchiga ketadigan sarflarni aniqlash;
- mehnatga haq to'lashni tartibga solish va me'yorlashtirishni takomillashtirish;
- xalq xo'jaligining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash va asoslangan uzluksiz ta'lim dasturini ishlab chiqish;
- mehnat statistikasi sohasida axborotning xalqaro miqyosda taqqoslanishini ta'minlash.

«Kichik mutaxassis» malakasi toifasiga kirmaydigan shaxslarni mutaxassisliklarining belgilanishi.

Tasniflagichning 4-ustunida intellektual layoqati (aqliy rivojlanish xususiyatlari) buzilgan shaxslarni o'qitish mumkin bo'lgan birdan-bir ixtisosliklar bitta yulduzcha (*) bilan ko'rsatilgan. Ushbu mutaxassisliklar O'zbekiston Respublikasi mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi tomonidan tasdiqlangan aqliy va jismoniy jihatdan kamchilikka ega shaxslarni o'qitish mumkin bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar asosida belgilangan. O'qish muddati kasallik darajasiga qarab 1 yildan 2 yilgacha.

Tasniflagichning 4-ustunida ikkita yulduzcha (***) bilan jismoniy rivojlanish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va imkoniyatlari cheklangan shaxslarni o'qitadigan birdan-bir ixtisosliklar ko'rsatilgan. Mazkur mutaxassislar O'zbekiston Respublikasi Sog'Miqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan, jismoniy rivojlanishida kamchiligi bor va bolalikdan nogiron shaxslar uchun ino'ljallangan maxsus maktab- laming bitiruvchilari uchun tuzilgan hamda kasblar va

mutaxassisliklar ko'rsatilgan ro'yxat asosida belgilangan. O'qish muddati 2 yil.

Tasniflagichning 4-ustunida uchta yulduzcha (***) bilan akademik litseylarning bitiruvchilari egallaydigan kasbga yo'naltiruvchi ixtisosliklar belgilangan. O'qish muddati 3 yil (chuqurlashtirilgan umumta'lim tayyorgarligi bilan qo'shib olib borilgan holda).

Tasniflagichning 4-ustunida to'rtta yulduzcha (****) bilan 11 yillik umumta'lim maktablarining bitiruvchilari oliy o'quv yurtiga kirolmagan hollarda, yangi bozor munosabatlariga o'tish davrida ulami ijtimoiy himoya qilish maqsadida mo'ljallangan ixtisosliklar ko'rsatilgan. Tasniflagich bunday shaxslar toifasiga nisbatan to'qqiz yillik ta'limga to'liq o'tgunga qadar amal qiladi. O'qish muddati 1 yil.

O'qishni tugatadigan bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan namunada tasdiqlangan diplomlar va sertifikatlar beriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichiga o'zgartirishlar kiritish tartibi.

Mazkur tasniflagich tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning asos bo'luvchi ro'yxati bo'lib, u qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish uchun ochiqdir.

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markaziga taqdim etiladi.

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan amalga oshiriladi

3.O'MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimi

Hozirgi ishlab chiqarishga kelayotgan mutaxassislarning uchdan bir qismi avval maktabda mehnat va kasbgacha tayyorlanmoqdalar, keyin kasb-hunar kollej tizimida kichik mutaxassis darajasigacha tayyorgarlik ko'rmoqdalar. Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida fan- texnika taraqqiyotining jadallashuvi kichik mutaxassislar turli soha va ularning tarmoqlari bo'yicha madaniy texnik-texnologik saviyasini oshirishga, ularning tayyorgarligini tubdan yaxshilashga e'tibomi kuchaytirishga taqozo etmoqda. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va qarorlar, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi har bir kichik mutaxassis mehnatining mazmunini tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda. Ularning aqliy va jismoniy faoliyati elementlari o'rtasidagi nisbat ancha o'zgarmoqda. Hozirgi zamon kichik mutaxassis mehnati intellektual mazmun bilan tobora boyimoqda va ilmiy asosda tashkil topmoqda. Aqliy hamda amaliy ishlarning o'zaro uzviy bog'lanishi bilan xususiyatlidir. Kichik mutaxassis o'z

vazifalarini bajarishlari uchun shuningdek, ishlab chiqarishni amalga oshirishda ommaviy ravishda qatnashayotganlarida nazariy izlanishlari uchun chuqur va puxta bilimlarga ulami amalda qo‘llab olish mahoratiga ega bo‘lishlari kerak.

Shunga ko‘ra, kichik mutaxassislamining hozirgi ishlab chiqarishda ishtirok etishlari murakkab va tez o‘zgaradigan aniq mehnat sharoitlarida chuqur bilimlarini ijodiy qo‘llashlarini talab qilmoqda. Shuning uchun umumta’limiy va keng politexnik asosdagi kasb tayyorgarlikka ega bo‘lish majburiyati vujudga kelmoqda. Kasb-hunar kollej tayyorgarchilikka kadrlar ta’limi tizimini jiddiy qayta qurish jarayoni o‘tmoqda. Shuningdek, bu ish faqat bizda muayyan bilimlar majmuasini o‘zlashtirgan kishi sifatida emas, balki eng avvalo g‘oyaviy maqsadga, yuksak axloq va mehnat madaniyatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston mustaqil davlat va jamiyat fuqarosi hamda faol quruvchisi sifatida tarbiyalangan insonning o‘zini umumiy kamol toptirish bilan ham bog‘likdir.

Mehnat va kichik mutaxassis tayyorgarlik ta’limining o‘zaro bog‘lanish jarayoni o‘quvchilarga, xususan bo‘sh o‘zlashtiradigan va eng yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan o‘quvchilarga tabaqalashtirib va guruhiy yondashishni taqozo etadi.

Nazorat savollari:

1. Xalq xo‘jaligining qanday tarmoqlari mavjud ? Ulami izohlab bering.
2. O‘MKHT dagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi tuzilishi va mazmunini izohlab bering.
3. O‘MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimini izohlab bering.
4. Nazariy ta’limi mazmunini izohlab bering.
5. Ishlab chiqarish ta’limi mazmunini izohlab bering.

10-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelining o‘ziga xosligi. (2soat)

Reja:

1.O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning maqsadi vazifalari. 2.Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari.

Tayanch soz va iboralar:

Huquqiy- me`yoriy asoslar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standarti, ta’limning standartlashtiriladigan turlari,

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarining vazifalari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni, DTS, o'quv rejalari va dasturlari.

Ishdan maqsad: Talabalarda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni , Mazkur dasturning maqsadi , milliy modelning tarkibiy qismlari haqida tushuncha berish va bilimlarni chuqur o'zlashtirilishini ta'minlash.

1. Kasb-hunar ta'limining huquqiy- me'yoriy asoslari.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faolikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

2.Mazkur dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish qo'yidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

- “Ta'lim to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayoniga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni mam'naviy-ahloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestasiyadan o'tkazish va akkreditasiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror

rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarish samarali integrasiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mamblag'lar, shu jumladan chet- el investisiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro mamfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Dasturni amalga oshirish bosqichlari

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar) - mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofik, ta'lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta ko'rish va tubdan yangilash;

- pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

- ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy-ahlokiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish;

xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar tayyorlashda xalqaro donorlik tashkilotlari fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek respublika ta'lim sohasiga chet el investisiyalarini jalb etish bo'yicha real chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning monitoringini olib borish.

Ushbu bosqichda bolalarni olti-etti yoshdan maktabga qabul qilish, ularning jismoniy va akliy jihatdan rivojlanganligini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan, o'kuvchi o'rinlari zarur moddiy-texnika shartsharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta'minlangan holda izchil tayyorlanadi.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy, dasturni ro'yobga chiqarish, yo'nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) - Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Majburiy umumiy o'rta va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga

keltiriladi. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv - tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi.

Ta'lim xizmat ko'rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to'liq ishga solinadi. **Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar)** - to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi. Milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta'limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o'zini o'zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning asosiy tashkiliy chora-tadbirlari

Milliy dastur qabul qilingandan keyingi o'tgan davir mobaynida **quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi va oshirilmoqda:**

- Milliy dasturning yo'nalish va bosqichlarini amalga oshirishning aniq, mexanizmlari, muddatlari, ijrochilari, moliyaviy va resurslar ta'minoti ifodalangan echim va chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqish;
- Milliy dasturni bajarish yuzasidan davlat va jamoat institutlarining faoliyati hamda vazifalarini belgilsh;
- Milliy dasturning aniq, yo'nalishlarini ishlab chiqish jarayoniga malakali chet el ekspertlarini jalb etish;
- Milliy dasturni bajarishda davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyati muvofiklashtirilib, xalkaro tashkilotlar katnashuvini tashkil etish;
- Milliy dasturning monitoringi va bajarilishini ekspertiza qilish asosida uning ayrim qoidalari va tadbirlariga tuzatishlar kiritish;
- Ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda, kadrlar tayyorlash milliy modeli ro'yobga chiqarilishini ta'minlash masalalari yuzasidan seminarlar va konferensiyalar o'tkazish orqali Milliy dasturning prinsipial yondashuvlari hamda asosiy qoidalari keng ko'lamda tushuntirish ishlarini olib borish;
- Milliy dasturning maqsad va vazifalarini amalga oshirish jarayoniga jamoat birlashmalari va markazlari, respublika aholisi keng tabaqalarining faol ishtirokini ta'minlash;
- Ommaviy axborot vositalarida Milliy dasturning bajarilishini muntazam yoritib borish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yuzasidan **Respublika komissiyasi tashkil etildi**. Bu Komissiya tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshirildi va oshirilmoqda:

- uzluksiz ta'limning tegishli turlari uchun DTS lariga qo'yiladigan umumiy talablarni DTSlarini va boshqa zarur normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini, akademik lisey va kasb-hunar kollejlardan iborat ta'lim tizimini joriy etish dasturlarini ishlab chiqish;

- o'rta umumiy ta'limga ega bo'lgan o'quvchilarni akademik lisey va kasb-hunar kollejlari tizimi bilan to'la qamrab olish, o'qituvchilar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ta'lim muassasalarini tashkil etish hamda ularning samarali ishlashini ta'minlash;

- oliy ta'lim muassasalari tizimini Milliy dastur talablariga binoan isloh qilish, bu borada tegishli davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish va boshqalar.

Kadrlar tayyorlash miliy modelining tarkibiy qismlari

Kadrlar tayyorlash miliy modelining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish.

SHaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul olishning kafillari;

Uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limining barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarining kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojini, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslanuvchiligini ta'minlaydi.

Shaxs Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi qurish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

SHaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chikarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi va tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

Davlat va jamiyat. Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimi amal qilishi va rivojlanishining kafillari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Uzluksiz ta'lim. Uzluksiz ta'lim tiziminin faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli davrlardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

-maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

Fan Kadrlar tayyorlash milliy modeli salmoqli element sifatida fanni o'z ichiga oladi, bu sohada fan va texnologiyalar sohasidagi faoliyatni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish, talabalar va yosh olimlarning ilmiy yutuqlari uchun maxsus mukofotlar va sovrinlar ta'sis etish, maxsus stipendiyalar sonini ko'paytirish, yoshlar ilmiy-texnika ijodiyotining doimiy ishlaydigan ko'rgazma va ekspozitsiyalarini tashkil etish.

Ishlab chiqarish. Ishlab chiqarishning talab-ehhtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning muvoziy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsadi nima?
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning vazifalari
3. Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari qanday?
4. Miliy dasturning tarkibiy qismlari?

11-mavzu: Ta'limni standartlashtirish. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni, maqsad va vazifalari (2soat)

1. Standartlashtirish, ta'lim standarti, O'MKXT ta'lim standarti tushunchalari.
2. Standartlashtirishning me'yoriy elementlari. Standartlashtirish turlari.
3. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni (davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlari).

Tayanch soz va iboralar:

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti, ta'limning standartlashtiriladigan turlari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarining vazifalari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni, DTS, o'quv rejalari va dasturlari.

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti

Davlat ta'lim standartlari ta'lim tizimining eng zarur va etarli darajasi hamda o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablarini belgilab beradi.

Ta'lim mazmunining zaruriy o'zagi hisoblanmish ta'lim standarti vositasida mamlakat xududidagi turli o'quv muassasalarida ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. O'quv yuklamalari me'yoriga keltiriladi, ta'lim oluvchilar bilimni baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Ta'lim oluvchi davlat belgilagan ta'lim standarti bilan cheklanishi mumkin yoki bilimlarni chuqurroq egallash maqsadida mustaqil ravishda, ya'ni kengroq, chuqurroq bilim olishga va yuqori reyting bali to'plash huquqiga ega. Natijada, qiyin yoki ta'lim oluvchi xush ko'rmaydigan predmetni o'rganishda unga standartda belgilangan me'yor bilan cheklanishga imkon beriladi. Bunda ta'lim oluvchi o'zining qiziqishi, xohishi, qobiliyatini va intilishlarini ro'yobga

chiqarishga, o'zi uchun eng maqbul yo'lni ongli va mustaqil ravishda tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlat ta'lim standartlari o'quv-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari uchun majburiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar ochiq bo'lishini nazarda tutadi. Ta'lim oluvchilar uchun shakl va mazmun jihatidan tushunarli tarzda ifoda qilingan mazkur talablar ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalariga oldindan ma'lum qilinadi.

Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti ishlab chiqiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tarmoqli standarti – malaka talablariga mos holda kasbiy tavsifnoma asosida muayyan tayyorlov yo'nalishi va kasb-hunar bo'yicha ta'lim mazmunining zarur va etarli hajmi va so'nggi maqsadlarini, o'quv yuklamalari hajmini aniqlovchi hamda ta'lim sifatining standart talablariga muvofiqligini ta'minlovchi me'yoriy hujjatdir.

Kasb-hunar ta'limi dasturi kasb-hunar kolleji bitiruvchisiga egallagan kasbi bo'yicha ishni malakali bajarish imkonini berish hajmidagi ma'lum kasbga doir umumkasbiy va maxsus fanlarni hamda ishlab chiqarish ta'limi va amaliyotini o'z ichiga oladi.

Kasb-hunar ta'limi dasturini muvaffaqiyatli egallash kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini kasbi va ixtisosligi bo'yicha mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi bilan ta'minlaydi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini standartlashtirishning maqsadi va vazifalari – o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohatlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlash, sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning manfaatlarini himoya qilish, kadrlar tayyorlash sifatini, ta'lim faoliyatini baholash mezonlari va tartibini belgilashdan iboratdir.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibiga, xalqning boy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etishdan iborat bo'ladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, o'quv-tarbiya jarayonini, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash; kadrlarning maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan, ishlab chiqarishning samarali integrasiyasini ta'minlashdan iboratdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan keyin uni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining birinchilar qatorida qabul qilgan qarori 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun

davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi 5 sonli qaroridir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasiga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq respublikada idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

- DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni;

- ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va etarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini;

- o'quv yuklamasining zarur hajmini; ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydi.

DTS ta'lim jarayonini va ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Davlat ta'lim standartlarining maqsad va vazifalari. Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:

- ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

- mamlakatning ijtimoiy va ijtimoiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;

- mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

2. Ta'limning standartlashtiriladigan turlari.

DTS-ta'limning quyidagi turlari uchun belgilanadi:

- Umumiy o'rta ta'lim, shu jumladan boshlang'ich ta'lim;

- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari);

- oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura).

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi.

3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

- O'MKHT sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

- O'MKHT ga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibiga, shuningdek ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy negizni yaratish;

- xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- O'MKHT o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integrasiyasini ta'minlash.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni (DTS, o'quv rejalari va dasturlari).

Davlat ta'lim standartlari Davlat ta'lim standarti O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritilgandan so'ng yaratildi. DTS O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" normativ hujjatlari asosida yaratilgan.

Standart o'lchov, andoza, qolip, mezon ma'nosini beradi. DTS ta'limning mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

DTS ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining sifatiga qo'yiladigan minimal darajadagi talabni aniqlaydi.

O'quv rejasi: davlat hujjatidir. O'quv rejasi barcha ta'lim muassasalarida so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan davlat hujjatidir.

O'quv rejasi tegishli ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejasida:

- o'quv yilining boshlanishi va tugash vaqti, beriladigan ta'tillarning kuni, ta'lim muassasasida o'tilishi kerak bo'lgan fanlarning tizimi;

- o'rganilayotgan fanlarning ro'yxati va bo'linishi (taqsim qilinishi);

- fanlarning asosiy va fakultativlarga bo'linishi;

- har bir sinfda o'quv fanlarini o'rganishda haftalik va yillik taqsim qilinishi soati ko'rsatilgan bo'ladi.

O'quv dasturi o'quv rejasi asosida har bir o'quv fani uchun tuziladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanini o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan hujjatdir.

O'quv dasturida o'quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o'quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ta'lim mavzular orqali ko'rsatiladi.

Ma'lum mavzu yuzasidan o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar qsqacha ifodalab beriladi.

O'quv dasturi **uch qismga** bo'linadi:

- tushuntirish xati (o'rganilayotgan fanning) maqsad va vazifalari;
- mazmuniy (asosiy) qism;
- bilim, ko'nikma va malakalarni baholashda metodik ko'rsatma, ta'limning ko'rsatmali va texnik vositalari soni, tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati;

Ta'lim mazmunining tuzilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Ta'lim mazmunining davlat ijtimoiy-kasbiy rivojlanishi yo'nalishlariga bog'liqlik tamoyili.

2. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyili.

3. Fanlararo kompleks aloqalar tamoyili.

4. Kasblarga yo'naltirish tamoyili.

5. Ta'lim mazmunini tanlashda ustuvor va o'zgaruvchan qismlarga bo'lib tanlash tamoyili.

6. Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili.

Nazorat savollari:

1. Standartlashtirishning qanday turlari bor? O'MKHT davlat ta'lim standartlarining funksiyalari nimalardan iborat?

2. O'MKHT DTS maqsadi, funksiyalari, vazifalari, tamoyillari nimalardan iborat?

3. DTS, uni ishlab chiqish va amalda qo'llashga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?

DTSni ishlab chiqish va amalga kiritish bosqichlari qanday?

4. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida kasbiy ta'lim sifatiga talablar qanday bo'lgan?

5. «Ta'lim sifati», «ta'lim sifatini nazorat qilish», «ta'lim sifatini baholash» tushunchalarini izohlab bering.

6. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari turlari va ulardagi ta'lim-tarbiya jarayoni qanday?

12-ma'ruza: Kasbiy ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili (chet el tajribasi sifatida) (2soat).

Reja:

1. Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi va mazmuni.

2. Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Italiya va Yaponiya mamlakatlarida kasbiy ta'lim.

3. Hamdo'stlik mamlakatlarida kasbiy ta'lim

4. Qiyosiy tahlil natijalari asosida respublikamizda kasbiy ta'limning rivojlanish omillarining o'ziga hosligini hisobga olgan xulosalar

Tayanch iboralar: Kasbiy ta'lim. uzluksizlik, isloh qilish, intellektual

salohiyat, qiyosiy izlanish, ta'limi tizimini oqilona boshqarish, yaxlit axborot makoni, xizmati ko'rtaish bozori, barqaror rivojlanish, barkamol avlod.

1. Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi va mazmuni

Butun dunyo miqqiyosidagi ayniqsa rivojlangan davlatlardagi ta'lim, jumladan kasbiy ta'lim sohasidagi ishlar, bu sohadagi yangiliklar, olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari barcha mamlakatlar qatori bizning mamlakatimizda ham o'rganilib, ular tajribasini o'z amaliyotimizga tatbiq qilib borilmoqda.

Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borish natijalarini jahon ta'lim jarayoniga tatbiq etishda mazkur davlatlarning tegishli tashkilotlari bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlar ham birqator ishlarni amalga oshirmoqda.

Jumladan, YUNESKO tashkilotining tashkil topishi va fan texnika taraqqiyotini, ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan ishlari diqqatga sazavordir.

YUNESKO Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan tashkiloti bo'lib, u 1946-yilda tashkil etilgan. BMT ikkinchi jahon urushidan keyin suveren davlatlarning ixtiyoriy birlashuvi asosida jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash hamda davlatlar o'rtasida tinch hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan. BMT o'zining tuzilishiga ko'ra Bosh Assambleya (YAAlpi majlis), xavfsizlik kengashi, xalqaro sudga ega. Bulardan tashqari BMTning doimiy amalda bo'lgan faoliyatini Kotibiyat olib boradi va uning ishini bosh assambleya saylab qo'ygan bosh kotib boshqarib boradi.

Bosh assambleya har yili jahon siyosatining dolzarb muammolarini muhokama qiladi va bu masalalar bo'yicha BMTga a'zo bo'lgan davlatlarga yoki xavfsizlik kengashiga tavsivalar beradi. YUNESKO faoliyati o'ta xilma-xil va ko'p qirralidir. Uning ta'lim sohasidagi ishlari ko'p yo'nalishlarda olib boriladi. Jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta'limi rivojlanishidagi g'oyalarni tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu mamlakatda ta'lim bo'yicha olib borilayotgan siyosatni, ayrim ilmiy izlanishlarni ham moddiy ham ma'naviy rag'batlantirish va boshqalar.

Fan va texnologiyani rivojlantirish borasida YUNESKO bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirdi. Bu dastur asosan, ekologik muhitni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish, ta'lim sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolari bilan bog'liqdir.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy jihati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlaka- timizning uzluksiz ta'lim

tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Ma'lumki, uzluksizlik va uzviylik ta'lim tizimda ortiqcha takroriylikka chek qo'yib, avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy -texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Pedagogik tadqiqotlarning rivojlanishi va natijalarining o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, tadqiqot natijalarini jadallik bilan tarqalishini ta'minlovchi axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratilmoqda.

Ta'limga, jumladan kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi quyidagilardan iborat:

- kasb-hunar ta'limi tarixi, metodologik asoslari va rivojlanish istiqbollari, ilg'or pedagogik tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish talim jarayonida o'qitish vositalarini keng qo'llash, DTS lari, rejalar va dasturlar mazmunini tahlil etish va boshqalar bo'yicha ilg'or chet el tajribasini o'rganish va ularni ta'lim tizimimizga qo'llash orqali o'z milliy ta'lim tizimimizni takomillashtirish;

- «Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayoniga moslash va ta'lim tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash,

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish, uning amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim tizimiga chet-el investitsiyalari jalb etishni amaliyotga joriy etish va o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning mazmuni.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga tegishli chet el tajribasini o'rganish bo'yicha izlanishlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borilishi mumkin:

- kasb-hunar ta'limining uzluksizligini ta'minlash uni mazmunan isloh qilish

va takomillashtirish;

- kasb-hunar ta'limi tizimini oqilona boshqarish;

- kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish;

-kasb-hunar ta'limi tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish va xizmat ko'rstaish bozorini rivojlantirish;

- kasb-hunar ta'limining fan, ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish;

-kasb-hunar ta'limi va kadrlar tayyorlash sohasidagi chet ellar bilan xalqaro hamkorlikni ta'minlash va boshqalar.

2.Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Italiya va Yaponiya mamlakatlarida kasbiy ta'lim

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turganligi, Germaniya, Fransiya, AQSH, Yaponiyada ta'lim tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, Universitetlar pedagogik tadqiqot markazlari shug'ulanayotganligi ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilganligiga e'tibor qaratiladi.

O'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish, o'zgartirish ikki asosiy yo'nalishda: ekstensiv va intensiv usul bilan amalga oshirilgan bo'lib, talabalar ushbu yo'nalishlar mohiyatini o'rganishlari lozim.

Birinchi holatda o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi; ikkinchi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo'l, ko'pchilik mutaxassislarining e'tiroficha maqbul hisoblanadi.

1961-yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSH o'rta maktablarni islohot qilish boshlangan edi.

Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to'rt yil), matematika (to'rt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi.

Har bir yo'nalish o'z navbatida bir necha qismga bo'linadi. Masalan, matematika, algebra, trigonometriya, ish yuritish, kompyuter texnikasini qo'llashdan iborat barcha majburiy predmetlar tarkibiga yangi kurslar kiritiladi. 1985-yildan e'tiboran barcha yuqori bosqich kollejlarning to'qson foizi shu besh bazisli tamoyillar asosidagi dasturlar bilan ish olib bormoqdalar. Natija: majburiy tayyorgarlik bo'yicha ta'lim hajmi qisqardi, shu bilan bir qatorda dastur chuqurlashtirilib o'rganiladigan kurslar hisobiga tig'izlashtirildi.

XX asming 80-yillarida majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa iqtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan

bo'ldi.

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSH dagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv tizimining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan kimyo, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayapdi. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinroq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va o'quv fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'limi maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

Aftidan, rivojlangan davlatlarda o'quv dasturining rivojlanishi mana shu yo'nalish asosida qurilmoqda. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayoli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajrati layotgan mablag¹ miqdori yildan yilga - ortib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, 80-yillarda AQSH o'quvchilarining 50 yillarga nisbatan reyting ko'rsatkichi 973 dan 893 ga tushib ketgan, Fransiyada ham 3 litsey bitiruvchilari va litsey sohasida faoliyat ko'rsatuvchidan biri muvoffaqiyatsizlikka uchrayotganligi ta'kidlanadi.

Ta'limda ro'y berayotgan bu salbiy holatni bartaraf etish to'ldiruvchi ta'lim zimmasiga tushadi. To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQSHda bu xizmatga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari ham safarbar etilgan, Milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etgan. O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha chet mamlakatlarning ko'pchiligida tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Chet el amaliyotida o'quvchilarni tabaqalantirish odatda boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshirilayotganligi, fransuz pedagoglari esa sinf o'quvchilarini uch tabaqaga:

1. Gomogenlar - matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib borsalar bo'ladigan o'quvchilar;

2.Yarim gomogen - tabiiy sikldagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil o'quvchilar;

3.Gegeron - barcha predmetlardan har xil saviyada o'zlashtiradigan o'quvchilarga ajratganlariga to'xtab o'tiladi.

Xulosa qilib aytganada, XX asming 80-yillarida chet davlatlarda o'zlashtirmovchi va ulgurmovchi o'quvchilarning ko'payib ketishi tabaqalashtirilgan ta'limga ehtiyoj tug'ilganligiga olib keldi.

3.Hamdo'stlik mamlakatlarida kasbiy ta'lim

Rossiyada umumiy ta'lim o'z ichiga boshlang'ich, asosiy va o'rta (to'liq) ta'limni qamrab oladi. O'rta maktabda o'qish muddati 11 yilni tashkil etib, bundan 1-4-sinflar boshlang'ich, 5-9-sinflar asosiy, 10—11- sinflar to'liq o'rta ta'lim dasturi asosida ta'lim oladilar. Ishchi yoshlar uchun kechki maktablar tizimi ham saqlanib qolgan. Keyingi yillarda bunday ta'lim ancha qisqargan. Shu bilan birga ikki yoki undan ortiq smenadagi maktablar ham qisqargan.

Iqtisodiy qiyinchiliklar Rossiyada umumiy ta'lim maktabining bir o'quvchisiga sarflanadigan xarajat miqdori kamayishiga olib keldi. Ta'lim berishning yangi shakllari va nodavlat ta'lim muassasalari paydo bo'ldi. O'rta maktablar va o'qituvchilar o'quv dasturi va adabiyotlarni mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ijtimoiy fanlarning mazmuni ancha o'zgardi; siyosatshunoslik, sotsiologiya, iqtisodiyot, huquq kabi ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha qator fakultativ kurslar tashkil etildi, maktablarda informatika, ekologiya, hayot faoliyati xavfsizligi asoslari kabi yangi predmetlar o'qitila boshlandi.

Rossiyada umumiy o'rta ta'lim maktablari soni 70 mingga yaqin bo'lib, ularda 20 million o'quvchilar tahsil olmoqda.

7 yoshdan 17 yoshgacha bolalarning o'rta ta'limga jalb etilishi jihatidan Rossiya jahonda yuqori o'rinlardan birida turadi, u 81% ni tashkil etadi.

Rossiyada kasbiy ta'lim. Rossiyada kasbiy ta'limning uchta darajasi bor: Boshlang'ich daraja - boshlang'ich kasbiy ta'lim beruvchi o'quv yurtlari (PTU) kvalifikatsiyali ishchi va xizmatchilarni etishtirib chiqaradi. Bularda o'qish muddati, o'quvchining ma'lumot darajasiga bog'liq. 9-sinfni tugatganlar 2-3 yil, 11-sinfni bitirib kelganlar 1 yoki 2 yil tahsil olishadi. Texnikum maqomiga teng bo'lgan 3-4 yillik o'quv yurtlari ham mavjud.

O'rta daraja - amaliyotchi mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. U ikki asosiy ta'limiy dastur: bazaviy va oshirilgan darajada amalga oshiriladi. Bazaviy daraja dasturini egallagandan so'ng bitiruvchiga «texnik» ixtisosligi beriladi. Oshirilgan darajada yana 1 yil chuqurlashtirilgan holda o'qib chiqadi, unga «katta texnik» ixtisosligi beriladi. Bunday ixtisoslik beradigan o'quv muassasalari texnikum yoki kollejlardir.

Oliy daraja - universitet, akademiya yoki institutlarda beriladi. Oliy

ta'limning mazmuniga qo'yilgan talablar, o'quv yuklamasi miqdori va bitiruvchining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar kasbiy oliy ta'limning davlat standartlari bilan belgilanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ma'lumot. Fan nomzodi darajasi Rossiyada diplomli olimning birinchi vizit kartochkasi hisoblanadi. Nomzodlik ilmiy darajasini olish uchun oliy ma'lumotga ega bo'lish, nomzodlik minimumlarini (ular uchta) topshirish, dissertatsiya yozish, uni dissersion kengashda himoya qilish va Rossiya Federatsiyasi ta'lim vazirligi qoshidagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi nazoratidan o'tkazish lozim bo'ladi. Nomzodlik darajasi quyidagi shakllarda olinishi mumkin:

1. Kunduzgi aspirantura;
2. Sirtqi aspamtura;
3. Tadqiqotchilik
4. Mustaqil.

4.Qiyosiy tahlil natijalari asosida respublikamizda kasbiy ta'limning rivojlanish omillarining o'ziga hosligini hisobga olgan xulosalar

Yuksak taraqqiyotni ta'minlashda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning barkamol avlod tarbiyasidagi o'mi va ahamiyatini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

Milliy dasturning amalga oshirilishi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muhitga ijobiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish jarayonida shaxsning jamiyatdagi o'z o'mini belgilab olishi faollashmoqda.

Ta'limning milliy modelini amalga oshirish jamiyatda erkin fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga olib kelmoqda.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli jamiyatning potensial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish omili sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va uning modelini amalga oshirish milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy bosqichga ko'tarishga qaratilgan bo'lib, bu esa o'z navbatida fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amaliyotga tatbiq etish O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillariga hamohang bo'lib, ularning har ikkalasi barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgandir. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning amalga oshirilishi mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini to'la ta'minlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va

ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublari ishlab chiqilib joriy etilmoqda. Ta'lim va kadrlar tayyorlash borasida ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiya qilishning samarali tizimi yuzaga keldi.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta'limning talab darajasidagi sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amaliy samarasi va barqaror rivojlanishining kafolatlari, ustuvor yo'nalishlarini ta'minlaydigan normativ, moddiy-texnik va axborot bazasi yaratildi.

Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etilmoqda.

Kadrlar tayyorlash sohasida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik rivojlanmoqda.

Xulosa qilib shuni e'tirof etish kerakki, mamlakatimizda qabul qilingan barcha ijtimoiy dasturlar vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq ravishda qabul qilingan barcha fannonlar, qarorlar va dasturlar mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko'ra, davlatimizning yuksak maqsadlarga erishishining ishonchli kafolati bo'lib, o'z mustaqil fikriga ega, mustahkam irodali, chuqur bilimli, hech kimdan kam bo'lmagan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lidagi dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi va mazmuni nimalardan iborat?
2. Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Italiya va Yaponiya mamlakatlarida kasbiy ta'lim mazmun nimalardan iborat ?
3. Hamdo'stlik mamlakatlarida kasbiy ta'lim mazmuni nimalardan iborat?
4. Qiyosiy tahlil asosida vujudga kelgan kasbiy ta'limning rivojlanish omillari va erishilgan natijalari nimalardan iborat ?

13-ma'ruza: O'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashuvi (2soat).

Reja:

1. Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash.
2. Ta'limini ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari turlari.
3. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilar ishlab chiqarish moslashuvchanligi.

Tayanch so'z va iboralar: ishlab chiqarish, jarayonlari bilan bog'lash, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi, ishlab chiqarish moslashuvchanligi, dual tizimi, keng profilli, yuqori malakali, prognostik, malakaviy.

1.Kasb-hunar ta'imini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash.Keng profilli va yuqori malakali xodim uchun asosiy model qilib ilg'or xodimlarni mehnat faoliyatini misol qilib yoki namuna qilib olish kerak. Xodimlarning qobiliyati, malakalari pedagogik kuzatuv va tajriba orqali o'rganiladi. O'rganib chiqilgan natijalar asosida mukammal model yaratiladi. Bunday model xodim-mutaxassislarni shaxsiy sifatlari va fikrlashlarini, bilim darajalari, ko'nikma va malakalari, ish jarayonida qo'llaniladigan metodlarni aniqlashga yordam beradi. Keng malakali xodim-mutaxassisni modeli quyidagicha ko'rinishda tuzilishi mumkin:²

1. *Prognostik* – oldindan bilish va ish rivojini xarakterlash.
2. *Malakaviy*- texnik mazmuniga qo'yiladigan talablar.

1. Bu maqsadda maxsus ruxsat etilgan va tasdiqlangan hujjatlarni: maqola, qo'llanma, ilmiy-texnik kutubxona axborotlardan turli xil ilmiy tashkilotlar, dissertasiyalar, axborot va konferensiya materiallaridan keng foydalaniladi.

2. Ishchi-xodimlarni malakaviy tayyorlashda ishlab chiqilgan talab va mazmun. Oldindan tashxislangan ma'lumotlar modelda qayd qilinib ilmiy tayangan holda xodimni malakasini oshirishga imkon beradi. SHu bilan birga didaktik prognozni ham ajratish zarur bo'ladi. O'quv rejasini va dasturlarni mukammalligidan va ishchi reja ustida ishlashda tashxisli ma'lumotlar zarur.

Rivojlanishning ilk bosqichlaridayoq pedagogik faoliyat o'z o'rnini topib oldi. Bugungi kunga kelib ilm va fan va ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqligini hamda malakali pedagogika bu sohalarda o'zining ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Buni yana samarali shakllantirish uchun pedagogik qonuniyatlarni bilish kerak bo'ladi.

Ular quyidagilardan iborat:

2.Ishlab chiqarish turiga qarab xodimlarni shu sohaga tayyorlash.

Ishlab chiqarish turiga qarab o'qitish dasturlari 3 ta katta guruhga bo'linadi:

- Yakka holda ishlab chiqarish
- Guruhlab ishlab chiqarish
- Ommaviy ishlab chiqarish

Ishlab chiqarishning har bir turi o'zining texnik jarayonlariga ega bo'lib, shu bilan birga o'zining shakllariga ham egadir. Ishlab chiqarishning u yoki bu turidan qat'iy nazar bir sexning o'zida 3 ta ishlab chiqarish turi mavjud bo'lishi mumkin.

¹¹ O'.Q.Tolipov. va boshq. Kasbiy pedagogika. – T.: TDIU, 2001.

Yakka holda ishlab chiqarish – o‘z xarakteriga ko‘ra o‘zining afzalliklariga ega bo‘lib, u yoki bu operasialarni universal uskunalarda bajarish imkonini berib, mahsulotga qo‘yiladigan turli talablarni aniq bajarish imkonini beradi. Mutaxassisdan o‘lchov asboblardan to‘g‘ri foydalana bilishni talab etadi.

Guruhlab ishlab chiqarish – bu tur yakka holda ishlab chiqarishdan ozgina farq qilib, bunda chiqariladigan mahsulot donalab emas, balki qism-qism qilib ishlab chiqarishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Har bir operasiya alohida-alohida uskunalarida bajariladi. Bu yerda ishlab chiqarish xizmati ko‘rsatish ya‘ni moslash, sozlash, kichik ta‘mirlash ishlari maxsus ishchilarga yuklatiladi.

Ommaviy ishlab chiqarish – ularning ish joylarida tinimsiz ravishda qaytarilishi bilan bu operasialar ish joyida xarakterlanadi. Sexlardagi asboblarning sifati va samaradorligi ishlab chiqarilayotgan mahsulotga mos bo‘lishi kerak.

3. Bosqichli o‘qitish nazariyasi. Texnologik bilimlarning uzluksizligi

Ta‘limning asosiy maqsadi - zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo‘lgan ma‘naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Jamiyat rivojlanar ekan, hayotiy talablarning darajasi ham ortib boradi. Demak, ilmiy bilimlarning hajmi kengayib, ilmiylik darajasi chuqurlashib borar ekan, mantiqiy fikrlash va muammolarni tezda hal etishga bo‘lgan talab yanada kuchayib boradi. Bu fikrdan kelib chiqqan holda ta‘lim tizimi bugungi kun talabinigina hisobga olgan holda emas, balki kelajak talablarini aniqlagan va hisobga olgan holda ish olib borishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chunki, bugungi kun talablari kelajakda jamiyatning asosiy o‘zagiga aylanadi. Demak, ta‘lim tizimi talabalarni bugungi kundagi hayotga emas, balki kelajakdagi hayotga tayyorlashi lozim. Bu ham ta‘limning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.³

Didaktik tizim negizini tarbiyaviy o‘quv jarayoni tashkil etib, u o‘z vaqtida 2 bosqichga bo‘linadi.

- a) doimiy
- b) dinamik

Buning asosida o‘quv dasturlar ishlab chiqishni asosiy va maxsus jarayoni, kerakli kasb olingan kasb ta‘limiga muvofiq aniq va puxta shu bilan bir qatorda o‘zaro bog‘liqlikda dastur asosida olib boriladi.

Asosiy o‘quv jarayoni – bu bosqichda ta‘lim oluvchilar umumiy talablarga javob beruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, ular shunday bilim oladilarki, u ilmiy-texnik o‘zgarishlar ta‘siriga mos keladi. Umumiy mehnat egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarga kasbiy bilimlarga asos bo‘lib, uning mustahkamligi ishlab o‘qitishni samaradorligiga olib keladi. Asosiy o‘quv

³? Uzbekiston Respublikasining “Ta‘lim tugrisidagi Konuni” Toshkent 1997 yil.

jarayonida ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar kelajakdagi uning faoliyati, mehnat turi va ishlab chiqarishdagi egallaydigan o'rniga bog'liq bo'ladi. Asosiy bilim berish jarayoni maxsus bilim berishni negizi bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun ta'lim oluvchi ko'rsatilgan fanlar bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni mustahkam egallab bormog'i lozim.

Maxsus o'quv jarayoni – asosiy o'quv bosqichdan maxsusga o'tish sekin-asta ro'y berib, butun o'quv jarayoni shu maqsadlarga qaratilgan vaqt ichida olib boriladi. Maxsus bosqichda o'qitish tanlangan kasbga yo'naltirish bo'yicha olib borilib, o'qitish jarayoni shu sohadagi texnik va texnologik rivojlanish talablariga javob bermog'i lozim, ammo markazlashtirilgan tartibda ishlab chiqilgan o'quv dasturi xo'jalik sohasidagi yoki korxonalar talablariga javob bera olmaydi, chunki bir sohada texnologik jihozlarning bir turi o'rganilsa, ikkinchi turida mutaxassislarni tayyorlashda turli sohalar bo'yicha o'qitish afzaldir.

Maxsus o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarni korxonaning xususiyatlari bilan aniq va mukammal tanishtirish jarayonida uning korxonadagi hamma ish turlarida egallagan bilim va malakasini amalda qo'llay olishni ta'minlash lozimdir. Ta'lim oluvchilar ishlab chiqarishdagi texnik va texnologik jarayonlar, qurilma va moslamalar haqida bilim olib amalda qo'llay bilishlari kerak. Maxsus o'qitish jarayonida o'qituvchi ustaning ishlab chiqarish jarayoniga o'qitishda quyidagilarga erishmog'i lozim:

- Ta'lim oluvchini hozirgi zamon texnika jarayoni metodlari va zamonaviy metodlarga, qurilmalarda ishlashni o'rgatish;
- Mehnatni tashkil etish metodi ham ta'lim oluvchini zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalariga, kasbiy malakasiga qarab turli ish operatsiyalarini bajarishni zamonaviy texnologiya talabiga javob beruvchi ishlab chiqarishni tashkil etish;
- Ta'lim oluvchini ish me'yorini bajarishga yondoshishga o'rgatish;
- Korxonadagi ish chizmalarini to'g'ri o'qishga, texnologik hujjatlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish;
- Korxonalar jamoasida ta'lim oluvchi ishidan muhim tarbiya sifatida foydalanish;
- Ta'lim oluvchini mehnat xavfsizligi, ishlab chiqarishdagi va yong'in xavfsizligi talablariga amal qilishga o'rgatish;
- Ta'lim oluvchini ish o'rnini va ish qurollariga nisbatan javobgarlik va qadrlash hissini singdirish;
- Ta'lim oluvchida ish madaniyati haqida taassurot berish, ish joyini to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish;

Umuman olganda, bugungi kunda shunday mutaxassis kadrlarni tarbiyalashga erishish kerakki, u anglagan holda ish unumdorligini oshirishga o'z hissasini qo'shsin. Ularni ishlayotgan korxonaning obro'si, ish sifatini oshirish ruhida, mehnat intizomiga qat'iyon rioya qilish ruhida tarbiyalash lozim.

4. Ishlab chiqarish ta'limining davrlari. Boshlang'ich, tayyorgarlik, kasbni o'zlashtirish va yakunlash davri

Boshlang'ich davr – bu vaqtda ta'lim oluvchilar o'zlarini ustalarini tanimaydilar, bir-birlarini ishlab chiqarish jarayoni haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydilar. O'quv ustasi har bir ta'lim oluvchini shaxsiy xususiyatlarini o'rganib, ularda ish joyini, kasbni tanlashga qiziqishni uyg'otib mehnatga bo'lgan umumiy talablar, ish sharoiti bilan tanishtiradi. Usta ta'lim oluvchilarni texnik to'garaklarga qiziqtirib, ishlab chiqarish sohasi bo'yicha faxriylar bilan uchrashuvlar tashkil etadi. Bu bosqichda tashkiliy ishlar ko'proq olib borilib, ta'lim oluvchilar asosan o'zaro bir-barlari bilan va ish jarayoni bilan tanishadilar. Bu jarayonni ishlab chiqarishga, ta'lim berishga aloqasi bo'lmaydi va bu davr ikki hafta davom etadi.

Tayyorgarlik davri – bu vaqtga kelib ta'lim oluvchilar aniq ish turlari bilan tanishib, ularni o'quv-ishlab chiqarish, mehnat faoliyati ishlab chiqaruvchi xarakterga ega bo'ladi. Guruhda usta ishonadigan o'z-o'zini boshqaruvchi organlar faoliyat ko'rsatib, bu vaqtga kelib usta quyidagi masalalarni hal qiladi: ish o'rnini tashkil etish, mehnat xavfsizligiga rioya qilish, ishlab chiqarishda intizomli bo'lish, ish qurollarini asrab-avaylash, shaxsiy gigiena va sanitariya qoidalariga rioya qilish va boshqalar. Ta'lim oluvchilarni ish jarayoni texnik hujjatlarni o'rganish, moslamalarni sozlash, ish o'rnini ishga tayyorlash, ishlab chiqilgan mahsulotning sifatini tekshirishdan iborat bo'lib, ular oddiy ish jarayonlarini o'rganib boradilar.

Kasbni o'zlashtirish davri – ish jarayonlarini o'rgangandan so'ng olingan bilim va malakalarni mukammalashga o'tiladi. Buning uchun shunday ishlar tanlanadiki, ish jarayonida yangi o'rnatilgan mavzu va undan oldingilari qamrab olinadi. SHunda ta'lim oluvchilarda egallangan bilim shakllanish xususiyatlari rivojlanadi.

Nazorat qilish va yakunlash davri – bu muddatning asosiy vazifasi faqatgina olingan bilim va malakalarni mustahkamlab qolmay, balki ularni zamonaviy moslama va qurilmalardan foydalangan holda mukammalashib borishidir. Ishlab chiqarish ilg'orlari va faxriylarining ishlarini o'rganish, o'zlashtirib olish ta'lim oluvchida ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida mustaqillik hissini shakllanib borishiga yordam beradi. Ta'lim oluvchilar mehnat jamoasi oqimiga kirib jamoada tarbiyalanib shaxs sifatida shakllanib boradilar.

SHunday qilib, ta'lim oluvchilar berilgan muddat oxirida mustaqil tarzda barcha ishlarni rejalashtirishi o'z ish joylarida ilg'or usullarni qo'llashlari, chizma va texnologik hujjatlardan foydalanishlari va shu bilan birga ishlab chiqarishdagi yutuqlarga erishishga intilishlari, vaqtni va xom-ashyoni tejashlari, mehnat xavfsizligi qoidalariga va talablariga javob berishlari kerak bo'ladi.

Kasb-hunar ta'imini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash

Mehnat bozori xalq xo'jaligining turli sohalari uchun malakali kadrlarni talab qiladi. Unda oddiy mutaxassisdan, to yirik tashkilotchi rahbarlargacha barchasi uchun talab o'zi egallab turgan lavozimiga mos malakaga ega bo'lishi hisoblanadi. Kasbiy malakaga ega bo'lish esa respublikamizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va malaka oshirish orqali amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta'imini **bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lab olib borish** bo'lg'usi mutaxassislarning yuqori malakali bo'lishlarini ta'minlaydi.

Dual ta'lim tizimining quyidagi qator ustunliklari mavjud:

-o'qitish jarayoni bevosita amaliyot bilan birgalikda olib boriladi. Unda ta'limning taxminan 40%ga yaqin nazariy bilim berilsa, 60%dan ziyodrog'i bevosita ishlab chiqarish korxonalarini yoki qishloq xo'jalik bilan bog'liq sohalarda olib boriladi;

-o'qish jarayonini tashkil qilishda tahsil oluvchilarning kasbiy malaka olishga bo'lgan talab va ehtiyojlari jadal suratda amalga oshiriladi;

-o'qish bevosita ishlab chiqarish bilan birgalikda amalga oshirilganligi sababli moliyalashtirish mexanizmi yengillashadi;

-o'qish jarayoniga korxonalar jalb qilinganligidan ijtimoiy hamkorlik yo'lga qo'yilganligi sababli kuchli iqtisodiy va siyosiy aloqadorlik usulining paydo bo'lishiga olib keladi;

-xalq xo'jaligining davlat tuzilmasi, shuningdek, nodavlat xususiy tadbirkorlik nuqtai nazaridan ham foydali moliyaviy usul hisoblanadi;

-xalq xo'jaligining rivojlanishida zarur bo'lgan o'rta pog'onada malakali kadrlarning bandlik darajasi yuqori bo'ladi.

Ayni paytda dual ta'lim usuli kamchiliklardan xoli emas:

- ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilarga kasb-hunar sirlari nisbatan tor ixtisoslik doirasida o'qitilganligi uchun jamiyatda va xo'jaliklarda

ishlash uchun keng imkoniyat yaratilmaydi;

-birgina yo'nalishda malaka oshirilgani sababli ular yaqin ikkinchi bir yo'nalishga moslashuv mexanizmi cheklangan;

-kasb - hunar ta'limini amalga oshirish o'ziga xos berk xarakterga ega;

-tor mutaxassislik berilganligi mutaxassis shaxsning tashabbuskorligi va erkinligi chegaralangan bo'ladi;

-taklif qilinayotgan o'quv muassasalarini ishlab chiqarish korxonalarining smeta xarajatlariga bog'liqligi uchun ko'p sondagi tinglovchilar malaka oshirishdan foydalana olmaydi.

3.Ta'limini ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari va turlari.

Talabalarining korxonada ishlab chiqarish ta'lim olishlaridan asosiy maqsad – ularning kasbiy ko'nikma va mahoratlarini oshirish, kasbiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilgor ishlab chiqarish tajribasi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorlash va shular asosida kasb-hunar kollejlarni tugatgandan so'ng ishlab chiqarishda mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'rgatishdan iboratdir.

Talabalarni korxonada ustaxonalarida o'qitish – malakasi kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi xal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu yerda talabalar ishlab chiqarish holati, yangi jixozlar va texnologik moslamalar, zamonaviy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar.

Har bir kasb va mutaxassislik bo'yicha bevosita korxonada o'qitish hajmi, mazmuni va muddatlari mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturlariga muvafiq belgilatgadi.

KXXK o'quv rejaga muvofiq korxonalarda ishlab ishlab chiqarish amaliyotiga ajratiladi.

Ishlab chiqarish amaliyoti. Ishlab chiqarish amaliyoti kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o'qitishning so'nggi oylarida o'tkaziladi.

Korxonada o'qitishni tashkil qilish shakllari.

O'quvchilar ishlab chiqarish ta'limini korxonalarda gurux ustasining rahbarligida o'tadilar.

O'qitishni tashkil qilishning eng ko'p tarqalgan shakllari quyidagilardir:

- guruxlarni korxonada yoki tashkilot ajratgan mustaqil o'quv uchastkalarida o'qitish;

- o'quvchilarni alohida-alohida brigadalarga bo'lib ishlab chiqarish uchastkalarida o'qitish;

- o'quvchilarni malakali ishchilar brigadalari tarkibida o'qitish;

- o'quvchilarni murakkab mashina va mexanizmlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha individual ish o'rinlarida o'qitish;

- korxonaning shtatli ishchi o'rinlarida ishlab chiqarish amaliyotini o'tish.

Gurux o'quv ishini tashkil qilishning u yoki bu shakli qator shartlarga:

- o'quvchilar o'rganayotgan kasb va mutaxassisliklardagi ishchilarning mehnatlarini tashkil qilish shakllariga;

- texnologik jarayonning tashkil qilinishiga;

- beriladigan ishlar ko'lamiga bog'liq bo'ladi.

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarning ishlab chiqarishga moslashuvchanligi. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarning ishlab chiqarishga moslashuvchanligi ularning ta'imni bevosita ishlab chiqarish

jarayonlari bilan bog'lash, ta'limini ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirish orqali shakillantiriladi.

Tayanch ishlab chiqarish korxonalarida ustaxonalaridagi mashg'ulotlar.

O'quvchilarni ishlab chiqarish talimi uchun korxonalariga ko'chirish o'quvchilarni ishlab chiqarish sharoitlarida o'qitishga o'tkazish - kasbga tayaylashda eng muhim bo'qichidir. Buni malakali ishchining mustaqil ishining muqaddimasi desa bo'ladi. O'quvchilarning sex rahbarlari, ishlab chiqarish ilg'orlari, o'quv yurtlarini ilgari bitirib chiqqanlar, taniqli kishilar va boshqalar bilan uchrashuvlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Sex boshlig'i va ishlab chiqarish ilg'orlari korxonaning ajoyib an'alarini gapirib berishlari hamda o'quvchilarni bu an'alarini davom ettirishga da'vat etishlari orqali o'quvchilarda ushbu korxonada undagi mehnat jarayoniga mehmini uyg'atadi. Bu esa o'quvchilarning **ishlab chiqarishga moslashishlarini shakillantirishni** osonlashtiradi.

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarning ishlab chiqarishga moslashuvchanligini shakillantirishda ayniqsa ishlab chiqarish amaliyotlarining o'rni katta.

Ishlab chiqarish amaliyoti tayanch ishlab chiqarish korxonasi ish o'rinlarida tashkil etiladi. Korxonada odatda, amaliyotga raxbarlik qilish uchun muhandis-texnik xodimlar va malakali mutaxassislar ajratadi. Ta'lim olishning bu davrida talabalar **korxonada mustaqil ishlashga** to'liq tayyorlanadilar.

Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida yechiladigan vazifalarga quyilagilar kiradi:

-talabalarining ishlab chiqarish sharoitlariga ijtimoiy, psixologik va fiziologik jihatdan moslashishi;

- kasbiy bilim, ko'nikma va maxoratlarni takomillashtirish; tanlangan kasb bo'yicha ixtisoslashtirish;

- murakkab ishlab chiqarish ishlarini bajarishda mustaqil ishlash tajribasini to'plash;

-progressiv texnologiyalar va zamonaviy jihozlarni, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalarini o'rganish;

- yuqori umumli asbob va moslamalarni, ishlab chiqarish ilg'orlari tajribasini o'zlashtirish;

- korxonada texnik va texnologik hujjatlarni, ish o'rinlarida mehnatni ilmiy tashkil qilish masalalarini o'rganish;

- ko'nikma va maxoratni shakllantirish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, murakkab ishlab chiqarish vazifalarini yechishdan iboratdir.

Nazorat savollari:

1. Kasb-hunar ta'imini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash qanday amalga oshiriladi?
2. Ta'limini ishlab chiqarish orqali amalga oshirishning qanday shakllari va turlari mavjud.
3. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilar ishlab chiqarish moslashuvchanligi qanday amalga oshiriladi?
4. Dual ta'lim tizimining qanday ustunliklari mavjud?
5. Dual ta'lim tizimining qanday kamchiliklari mavjud?
6. Ishlab chiqarish amaliyotining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

14-mavzu: Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish jarayonlari (2soat).

Reja:

1. Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketish jarayonining ijtimoiy jihatlari
2. Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning psixologik jihatlari

Tayanch iboralar: Kasbiy ishlab chiqarish faoliyati, chiqarish faoliyatiga moslashuv, kasbiy moslashuv, pedagogik e'tiqod, pedagogik mahorat, pedagogik etika, ilmiy-ijodiy faoliyat, maqsadga qaratilganlik, intellektning yuksak darajasi, faoliyat sohasi, muloqot sohasi, o'z-o'zini anglash sohasi.

1. Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketish jarayonining ijtimoiy jihatlari

Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi - mupakkab ijtimoiy hodisa sifatida umume'tiborli va ma'naviy qiziqishiga molik jarayonga aylandi. Ta'lim tizimining umumiy maqsadi teng huquqli va demokratik davlat talabiga javob beruvchi jamiyat a'zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir.

Kasbiy ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuv yordamida inson hayotiga, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatish mumkin. Mutaxassislarning ishlab chiqarishga moslashuvning ijtimoiy uyg'unlashuvi jamiyatni taraqqiy ettirishning muhim omili hisoblanadi.

KHKlarda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuv ham o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa, ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuv muammosi yanada yorqin va aniq namoyon

bo‘lmoqda. Bo‘lajak mutaxassislar tayyorlashning mazmuni kasbiy, amaliy, psixologik, metodik, tadqiqiy faoliyat turlari bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayoniga moslashuv bilan boyib bormoqda.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik asosda ekanligi ta’lim to‘g‘risidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biriga aylandi. Bo‘lajak mutaxassisning ishlab chiqarish jarayoniga moslashuv muammolarini o‘rganish ijobiy hal qilish uchun, avvalambor, bu tushunchaning mohiyatini va ijtimoiy-ma’naviy asoslarini aniqlash va uni takomillashtirish yo‘llarini bilish zarur.

Bugungi ilmiy dunyoqarash ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvga “ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi ijtimoiy tizim elementi” sifatida yondashiladi.

«Ishlab chiqarishga moslashuv» tushunchasini oydinlashtirishda inson faoliyatining natijasi sifatidagi talqinini tushunishgina emas, balki uning ijrochisi sifatida insonning o‘ziga urg‘u bepiladi, muayyan moddiy-ma’naviy qadriyatlar esa subyekt kasb-hunami rivojlan- tipishning vositasi va usullari sifatida qaraladi. Shu jihatdan olganda moslashuv atamasini «individning me’yoriy rivojlanishi» sifatida tushunish mumkin.

Kasbiy moslashuv ikki asosiy shaklda namoyon bo‘ladi: birinchidan, insonning ular tomonidan yaratiladigan moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratishga ishtiroki natijasi, ikkinchidan, inson shaxsining yaratgan haqiqiy boyliklari.

Inson kuchi-qudrati mehnat faoliyati, ong, axloqiylik ijtimoiy munosabatlarning yaxlit tizimi bilan belgilanadi, jamiyatning birinchi tahliliy kesimiga muvofiq, bir tomondan, ijtimoiy turmush, bazis bilan va ikkinchi tomondan ijtimoiy ong va ustqurma bilan belgilanar ekan, an’anaviy ravishda jamiyatning moddiy va ma’naviy tayyorgarligi ilgari suriladi.

Ishlab chiqarish jarayoniga moslashuv sifat jihatlarini o‘z navbatida faoliyat bilan bog‘liqdir.

Faoliyat umuman olganda - bu jonli tizimlarning tashqi muhit bilan o‘zaro hamkorligi asosidagi adaptiv yo‘naltirilgan faolligidir. Inson faoliyatiga kelganda esa uni odamlarning ijtimoiy yo‘naltirilgan faoliyati sifatida belgilash mumkin. Moslashuv esa mana shu faoliyat usulining o‘zginasidir.

Haqiqatdan ham istalgan ishlab chiqarishga moslashuv u ijtimoiy faoliyat bo‘ladimi, individual faoliyat bo‘ladimi, qanday bo‘lmasin faoliyatni taqozo etadi, biroq har qanday faoliyatni emas, **balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, ishlab chiqarish sohalaridagi ijobiy o‘zgartirishlarni nazarda tutuvchi “faoliyat usuli” nigina ishlab chiqarishga moslashuv sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.**

Ishlab chiqarishga moslashuvni rivojlantirish usuli sifatidagi faoliyat eng

avvalo **ma'naviy, kasbiy-ijodiy faoliyatni** o'z ichiga oladi.

Mana shu faoliyat davomida madaniy qadriyatlar yaratiladi. Aynan ishlab chiqarish jarayoniga moslashuv insonning faol faoliyati shaklida ijtimoiy rivojlanish va inson shaxsi shakllanishining omiliga aylanadi. Chunki shaxs faqat ma'naviy faoliyat jarayonida shakllanadi.

Shaxsning chinakam ishlab chiqarishga moslashuvi to'g'risida **ko'plab ta'limiy sifatlar, shu jumladan qadriyatlar birgalikda**, jamuljam namoyon bo'lgan taqdirdagina so'z yuritish mumkin. O'zligini anglash faoliyati shaxsning yuksak faolligi ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Busiz shaxsning mustahkam qadr-qimmatli yo'nalishlarini va yangicha tafakkumi tarbiyalash mumkin emas. O'zligini anglash faoliyatning umumiy darajasi, qadriyatlarni tushunishdagi muayyan birlik kishilarning o'zaro bir-birlarini tushunishlari uchun ham shart-sharoit yaratadi, mezonlarning umumiylikini belgilab beradi. Ana shu mezonlar yordamida shaxs o'zini, o'z fazilatlarini va nuqsonlarini baholaydi, tegishli jamiyatlardagi munosabatlar shakllanadi, o'zaro ishonch va ijodiy faoliyat uchun qulay muhit yaratiladi. Shunday qilib, o'zini anglash faoliyati - bu inson tomonidan o'z turmush tarzini, aniq hayotiy vaziyatlardagi xatti-harakatlarini erkin tanlashining, u yoki bu ijtimoiy masalalarni hal etish chog'ida o'z nuqtai nazarini aniqlashning ma'naviy shart-sharoitidir.

Shaxs faoliyati ma'naviy ishlab chiqarish sohasi bilan belgilangan holda ham ongning, ham o'z-o'zini anglashning shakllanishi va namoyon bo'lishini, shuningdek, tafakkur faoliyatini qamrab oladi.

Kasbiy faoliyat me'yorlari dunyoqarash bilan bog'liq ko'rsatmalarning maxsus uzatuvchisi bo'lishi mumkin. Kasb-kor faoliyati va unga moslashuv me'yorlari kasb-hunar faoliyati va muomala jarayonida dunyoqarash tusini kasb etib, odatiy faoliyat me'yorlari va kasb-kor tafakkuri me'yorlarining o'zaro munosabati muammolari orqali shakllanadi.

O'quvchi bilimining kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuvni egallab olish vositasi sifatida talqin qilinishi taraqqiyarvar pedagogik tamoyillar uchun an'anaviy hisoblanadi.

Yan Amos Komenskiy o'quvchilarga ishlab chiqarish faoliyatiga moslashish vositasi bo'lgan bilim beruvchi o'qituvchilik kasbini nihoyatda muhim deb hisoblar edi. U «Yuksak faoliyatli, bilimli, axloqiy kishigina o'qituvchi bo'lishi mumkin» deb yozgan edi. Ta'limning muvaffaqiyati eng avvalo o'qituvchining faoliyatiga, uslubiy yo'llarni bilishiga, ishdagi g'ayratiga, bolalar muhabbatiga bog'liq deb hisoblar edi: «Hech kim o'zida bo'lmagan narsani boshqa birovga berishi, o'zi rivojlanmagan, tarbiyasi, bilimli bo'lmagan holda boshqani rivojlantira olishi, tarbiyalashi, bilimli qilishi mumkin emas. U o'z tarbiyasi va bilimi ustida ijodiy ishlagan taqdirdagina tarbiyalashga qodir bo'ladi».

K.D.Ushinskiy o'quvchining kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuviga katta ahamiyat berar ekan, u «ko'p narsa o'quv yurtidagi tartibga bog'liq, biroq eng asosiysi hamma vaqt tarbiyalanuvchi bilan yuzma-yuz qoluvchi tarbiyachining shaxsiga bog'liq bo'ladi: **tarbiyachi shaxsining yosh qalbgga ta'sirini** darsliklar bilan ham, axloqiy pand- nasihatlar bilan ham, jazolash va rag'batlantirish tizimi bilan ham almashtirib bo'lmaydi. ...Har bir ustozda... faqat o'qitish uquvigina emas, balki xarakter, izchillik va ishontirish muhimdir..., tarbiyada hamma narsa tarbiyachi shaxsiga asoslanishi kerak», deb uqtiradi.

A.V.Barabanshikovning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv muammosiga qarashlari e'tiborlidir. U ushbu muammoni quyidagicha talqin qiladi: «**pedagogik e'tiqod va mahorat, pedagogik etika va kasbiy-ishlab chiqarish fazilatlar** o'quv-tarbiya ishlari uslubi va o'quvchining o'z ishiga, o'ziga munosabati sintezidir». Faoliyatning integrativ funksiyasini qayd etib va uning butun jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyatini belgilab quyidagi fikmi ilgari suradi: «**Umumiy faoliyat** uning **kasb mahoratining** asosi bo'lib xizmat qiladi. Ular o'rtasidagi aloqa shunchalik bevositaki, to'liq asos bilan: kasbiy- ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv pedagogik jarayon shapoitida umumiy faoliyatning o'ziga mos tarzda namoyon bo'lishidir deyish mumkin».

Shaxsning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuvini shakllantirish bilan bog'liq muammolarni G'arb va Sharqning xorijiy pedagog olimlari asarlarida ham uchratamiz.

Shu munosabat bilan **S.SHmidtning** quyidagi fikrlariga qo'shilmaslik mumkin emas: «Shuni aytishim kerakki, yillar o'tgan sari har qanday mutaxassis o'qituvchi bo'lavermaydi degan fikrga kelmoqdaman. O'qituvchilik hammaga ham nasib etavermaydigan noyob xislat. Ko'p narsani bilish, o'quvchilar bilan muomala qila olish, o'qitishning turli usullarini egallab olish mumkin, hatto tashqaridan qaraganda o'z ishining ustasi bo'lish mumkin, biroq o'quvchilarga nisbatan doimiy jonli qiziqish bo'lmasa, ularning fikrlashlari bilan qiziqmasang, ular bilan munosabatda bo'lishga ehtiyoj, intilish sezmasang, qalban o'quvchilardan yiroq bo'lsang - sen pedagog emassan». S.Shmidtning g'oyalari amerikalik olimlarning ushbu muammoga qarashlariga hamohangdir. Amerikalik tadqiqotchilar madaniy merosni uzatish, o'tmish va bugungi kun qadriyatlarini saqlab qolish, faoliyatga oshno qilish, shaxsni yuksaltirishni ta'limning an'anaviy maqsadi deb hisoblaydilar.

AQShda ta'lim oldiga qo'yiladigan maqsadlardan kelib chiqib, amerikalik olimlar o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan bir qancha talablarni qayd etishadi. **Dyuining fikricha** o'qituvchi o'z vazifasini «...talabaning faoliyatini xayrixohlik bilan, majbur qilmasdan boshqarishi zarur». O'qituvchining o'quvchilar bilan to'g'ri munosabatda bo'la olishi, uning odobi va shaxsiy fazilatlarini kasbiy- ishlab

chiqarish faoliyatga moslashuvning asosiy komponentlaridan biri, deb tan oladi.

O'qituvchining ma'naviy boyligi, uning axloqiy sofligi insonparvarlikning garovi bo'lib xizmat qiladi. Chunki o'qituvchining ziyoliligi - bu eng avvalo uning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvga bo'lgan munosabatidir. U birinchi navbatda ta'lim darajasi, ish turi, kasb-hunar tayyorgarligi bilan emas, balki shaxsning nechog'li qadriyatlarga yo'nalganligi bilan belgilanadi.

Kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga **moslashuvini shakllantirish- ning asosiy sharti**, bizning fikrimizcha, unda kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishgina emas, balki uning o'z «mendan» iborat kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvini idrok etishga tayyorligi ham hisoblanadi.

Nemis pedagoglari kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga **moslashuvni ilmiy-ijodiy faoliyat sifatida belgilaydi**. Ilmiy-ijodkorlik muammoni mustaqil hal etish malaka va ko'nikmalarini tarkib topdiradi, ilmiy mehnat uchun zarur bo'lgan shaxs sifatlarini shakllantiradi, o'quvchilarda ijtimoiy hayotga tayyorgarlikni rivojlantiradi.

O'quvchi ijodiyoti muammolarini tadqiq etuvchi Drager kasbiy- ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvning **quyidagi prinsiplarini ko'rsatadi**:

- ijodiy tafakkur va harakat birligi;
- ijodiy faoliyatda individuallik va ijtimoiylikning birligi;
- onglik va intellektuallik birligi .

Ijodiy fikrlash muammoni ko'ra bilishdan, vazifa bilan uni hal etishning mavjud bo'lmagan yo'li o'rtasidagi, tan olingan ijtimoiy yoki individual zaruriyat bilan uni amalga oshirishning mavjud bo'lmagan imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatni anglashdan boshlanadi. Xulosa qilib aytganda, kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv haqida yuqorida keltirilgan fikrlarni tahlil qilish uning asosiy belgilarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Ular quyidagilardir:

- **birinchidan**, kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv O'quvchilarning ijodiy faoliyatini ifodalaydi va o'quvchining malakasi ishlab chiqarish faoliyatining sifat ko'rsatkichi hisoblanadi;

- **ikkinchidan**, kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv o'quvchi tafakkurining shakllanish jarayoniga asoslanish bilan birga o'z navbatida unga ta'sir ko'rsatadi;

- **uchinchidan**, kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv o'zida nafaqat yakunni, balki kasbiy faoliyat jarayonida o'quvchining qayta o'zgarishi jarayonini ifodalaydi.

Mutaxassisning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning ijtimoiy jihatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- **kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatiga moslashish-kirishib ketish vositalari**:

o'quvchi bilimi. ko'nikma va malakasi, qat'iy psixologik asoslar, kasbiy mahorat, kasbiy-ishlab chiqarish fazilatlarini mutaxassisning jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ishlab chiqarish sohalaridagi ijobiy o'zgartirishlarni nazarda tutuvchi va ta'minlovchi ma'naviy, kasbiy-ijodiy faoliyat;

- kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv - kirishib ketish **prinsiplari**: ijodiy tafakkur va harakat birligi, ijodiy faoliyatda individuallik va ijtimoiylikning birligi, onglik va intellektuallik birligi.

2. Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning psixologik jihatlari

V.A. Suxomlinskiy ko'p yillik amaliy tajribani, kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvga oid qiziqarli fikrlarni umumlashtirib va tahlil qilib bunday deb yozadi: «Agar o'quvchi o'z ishini chuqur o'ylab tahlil qilsa, unda o'z tajribasini nazariy anglashga qiziqish, bilimi bilan o'zining kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvi o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini izohlashga qiziqish paydo bo'lmasligi mumkin emas». Bo'lg'usi mutaxassis - o'quvchining kasbiy tayyorgapligiga, uning yosh fiziologiyasi va psixologiyasi asoslariga oid bilimlarni egallab olishiga katta ahamiyat bermasdan kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvni amalga oshirib bo'lmaydi, ya'ni «**qat'iy psixologik negizsiz** kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv yo'q», deb hisoblaydi.

Nemis olimlari ham mehnatning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvi darajasi oshishiga ko'maklashuvchi shaxs fazilatlariga e'tiborni qaratadilar. Masalan, M. Vilke o'quvchi shaxsi kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvning sifatlarini yanada aniqlashtiradi: «Maqsadga qaratilganlik, fidoyilik, eng muhim jihatlarga e'tiborni jamlash, o'zini qo'lga olib bilish. Intellektning yuksak darajasi, tez fikrlay olish, mantiqiy o'ylash, yaxshi eslab qolish, shuningdek, noan'anaviy fikrlash, real va noreal fantaziya haqida hukm chiqara olish».

Psixolog olimlarning fikricha har qanday shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:

1) **faoliyat sohasi**, ya'ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo'lib, bu jarayonda faoliyatlar jabxasi, soxasi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarini, malaka va ko'nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni qoniqtirish yo'lidagi faolligi unda o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

2) **muloqot sohasi**, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o'smirlik davrlaridagi muloqot tizimlari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi;

3) **o'z-o'zini anglash sohasi**, ya'ni «Men» obrazining yil sayin o'zgarib borishi

jarayoni bo‘lib, avval o‘zini boshqalardan farqliligini, o‘zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so‘ngra esa o‘z-o‘zini baholash, anglash, nazorat qilish - xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir.

Shaxs ijtimoiylashuvining uch bosqichlari mavjud.

Birinchi bosqich - mehnat faoliyatigacha bo‘lgan bosqich bo‘lib, unga bolaning maktabgacha yosh davri hamda o‘qish yillari kiradi. Bu davrdagi ijtimoiylashuvning ahamiyati va o‘ziga xosligi shundaki, bu davrda asosan tashqi ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta’sirlar faol ravishda ongga singdiriladi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich - mehnat faoliyati davri - bu davr odamning yetuklik yillari bilan bog‘liq bo‘lib, avvalgi davrlarda singdirilgan ijtimoiy ta’sirlarni bevosita faol faoliyatda, shaxslararo munosabatlar tizimida namoyon etadi. Kasbga ega bo‘lib, aniq hayot yo‘lini tanlagan, turmush qurib, kelgusi avlodni tarbiyalayotgan shaxsda namoyon bo‘ladigan barcha ijtimoiy fazilatlar shu davrning mahsulidir.

Uchinchi bosqich - mehnat faoliyatidan keyingi davr bo‘lib, bunga asosan shaxsning aktiv mehnat faoliyatidan so‘ng qarilik gashtini surayotgan davri kiradi. Bu davrda ham shaxsning ijtimoiylashuvi davom etaveradi, chunki endi ilgari davrlarda orttirilgan tajriba boshqalarga uzatiladi, shunga ko‘ra shaxs strukturasi ham xususiy o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Kichik mutaxassislamning o‘qishni tugatgandan so‘ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning psixologik jihatlarini shaxs ijtimoiylashuvining ikkinchi bosqichida aniq namoyon bo‘ladi.

Mutaxassislamning o‘qishni tugatgandan so‘ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga qay darajada kirishib ketishi ularning yuqorida ko‘rib o‘tilgan ijtimoiy sifatlaridan tashqari shaxsning psixologik sifatlarini shaxs bo‘lgan toifalari va ularning ijtimoiy psixologik tavsifiga ham bog‘liq.

SHaxs toifalari va ularning ijtimoiy psixologik tavsifi. Psixologlarning fikricha, (G.Asmolov, P.Shixerev, V.A.Yadov, P.Nadirashvili va boshqalar) ijtimoiy ustanovkalar (buyurtmalar)ni o‘zgartirish uchun shu ustanovka (buyurtma)ning sababi bo‘lgan vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o‘zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning aktiv ongli faoliyatida sodir bo‘ladi.

Shunday qilib, shaxs iqtisoiylashuv jarayonida turli ustanovka (buyurtma)larni ro'yobga chiqarish sharoitida faollik ko‘rsatadi. Shunday faollikning natijalarini biz uning ijtimoiy-psixologik sifatlarida ko‘ramiz. Ya’ni, faol birgalikdagi faoliyat, o‘zaro muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy-psixologik fazilatlarini shakllanadi. Shuning uchun ham barcha sifatlar faoliyatda namoyon bo‘ladigan hamda muloqotda ko‘rinadigan sifatlar guruhiga bo‘linadi. Masalan, tashqi muhit bilan

faol munosabat perseptiv himoya sifatleri, ya'ni o'ziga xavf soluvchi yoki solishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ta'sirlardan himoya qiluvchi xususiyatlar shakllanadi. Bu sifatlarni ba'zi mualliflar perseptiv qobiliyatlar (V.A.Labunskaya) deb atasalar, boshqalari ijtimoiy ta'sirlarga hissiy javob berish qobiliyati» (A.Bodalev), «kuzatuvchanlik», «ziyraklik» (Yu.Jukov) va hokazo deb atashgan. Boshqa sifatlar «muloqotda namoyon bo'luvchi sifatlar»dir. Ular turli ijtimoiy tizimlar bilan bog'liq bo'lib, shaxsning turli sharoitlarda to'g'ri muloqotga kirishish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, har bir shaxsda o'ziga xos tarzda dunyoni, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati bor, ular muloqot jarayonida kamroq xatolarga yo'l qo'yishini ta'minlaydi. Masalan, bosiqlik, mulohazalilik o'zgalarning ichki dunyosini gaplari, xatti-harakatlariga qarab bilish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandir. Shu fazilatlarini qanchalik namoyon eta olishiga qarab shaxs tiplari farqlanadi.

Ekstrovert va introvert toifali shaxslar. Bu tiplar muloqotga kirisha olish qobiliyatiga ko'ra farqlanadi. Masalan, **ekstrovert** - o'ta muloqotga kirishuvchan, o'zini odamlar guruhisiz tasavvur qila olmaydigan shaxsdir. Uning uchun muloqot haqiqiy ehtiyojdir, boshqalarning uni tushunish-tushunmasliklaridan qati nazar, u doimo o'z fikr-istaklarini o'rtoqlashgisi keladi. Ekstrovert uchun konkret kim bilandir muloqotda bo'lish emas, umuman kim bilan bo'lsa ham muloqotda bo'lish xohishi muhim. Shuning uchun ham u umuman begona odam bilan gaplashib, kirishib keta oladi. Gaplashgisi kelmagan begonaning psixologiyasini tushunishi qiyin («Qanday qilib gaplashishni xohlamaslik mumkin?», — deb o'ylaydi u). Ekstrovertning qiziqishlari ham tez-tez o'zgarib turadi, do'stlari, o'rtoqlarini ham almashtirib turishga intiladi. Bundan tashqari, u o'ta kirishuvchan bo'lganligi uchun ham har qanday sharoitda vaziyatdan chiqish usullari to'g'risida tez xulosaga qeiyadi, o'ta qiziquvchan, dunyoda bo'layotgan hodisalar, «mish-mishlar»ni bilish uning uchun zarur. Ekstrovert kek saqlamaydi, bugun urushgan odami bilan ertaga hech narsa boimaganay apoq-chapoq bo'lib ketishi mumkin. Shu sababli ham bu tip shaxslarning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga kirishib - moslashib ketishi, har qanday sharoitga moslashib ketishi oson.

Introvert esa ekstrovertning teskarisi. U ko'proq ichki dialog formasidagi muloqotni afzal ko'radi, ya'ni yolg'izlikda mulohaza yuritish, o'zi haqida o'ylash va shunga o'xshaganlar uning uchun asosiy ishdir. Shuning uchun ham unda muloqotga bo'lish juda sust, odamlarning uni tushunmay qolishlaridan doimo xavotirda bo'ladi. Introvert kitoblar olami, falsafiy fikrlashlar qulidir, chunki u odamlar guruhida sodir bo'lib turadigan ziddiyatlardan cho'chiydi, o'zini olib qochadi. Agar muloqotda bo'ladigan bo'lsa, 2-3 kishidan ortiq boimagan guruhni afzal ko'radi. Shunda ham har kuni emas, ba'zan- ba'zan uchrashib turish, gaplashganda ham «shaxsiy» mavzularda emas, umumiy gaplar haqida

suhbatlashishni yaxshi ko‘radi. Chunki u ekstrovertdan farq qilib, o‘z «Men»ining boshqalarga o‘xshamasligini doimo esda tutadi. Introvert doimiy standartlar, belgilangan me‘yorlar olamida yashaydi, qiziqqan narsasi bilan umrini oxirigacha bo‘lsa ham shug‘ullanishga tayyor, umr yo‘ldoshiga va do‘stlariga sodiq, vafodor. Kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga kirishib, maslahatlashib ketishi ham xuddi shunday. Mobil va rigid toifali shaxslar. Bu shaxs tiplari muloqotga kirishish mezoniga ko‘ra farqlanadi. Masalan, **mobil tip** har qanday ish bilan mashg‘ul bo‘lgan sharoitda juda tez muloqotga kirishadi, lekin boshqa narsalarga ham diqqatini ko‘chirishi mumkin. U tez gapiradi, doimo shoshadi, yuz ifodalari ham tez o‘zgaradi. Suhbat mavzusini ham tez-tez o‘zgartirib turishga moyil. Gaplashib ketishi qanchalik oson boisa, gapni tugatib, xayrlashib ketishi ham oson. Suhbat tugagandan keyin qolgan ishini davom ettirib ketaveradi.

Mobil tip har qanday ish bilan mashg‘ul bo‘lgan sharoitda juda tez muloqotga kirishadi, lekin boshqa narsalarga ham diqqatini ko‘chirishi mumkin bo‘lgan shaxs bo‘lgani uchun ularning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga kirishib ketishi birmuncha oson kechadi.

Rigid suhbatdosh esa uning aksi. Bunday shaxs qat‘iyatli, dadil bo‘lsa ham, bir faoliyat turidan Ikkinchisiga ko‘chishi juda qiyin, u ma‘lum muddatni talab qiladi. Chunki u o‘ylamasdan tavakkal ish qila olmaydi. Masalan, u xat yozayotgan paytda kirib qolsaniz, to biror bo‘magiga nuqta quymaguncha sizga qaramaydi. Qaragandan keyin esa, tezgina suhbatga kirisha olmaydi. Rigid shaxs juda yaxshi suhbatdosh. Mobil tipdagi suhbatdosh bilan gaplashayotganda u tez-tez gapni bo‘lib, suhbatdoshga tashabbusni bergisi kelmaydi, rigid esa juda diqqat bilan tinglaydi. Lekin o‘zi gapirganda, sekin, mantiqan to‘g‘ri gapirishni yaxshi ko‘radi, gapini bo‘lishlamni sira istamaydi. Agar suhbatni bo‘lsangiz, keyingi safar siz bilan gaplashmay qo‘ya qolishni afzal ko‘radi. Agar u bilan urishib qolsangiz, ancha vaqtgacha uning jaxli chiqmaydi, sizni oxirigacha eshitib, sekin javob beradi, undagi ranjish, jaxl chiqishi odatda siz ketgandan keyin keladi. Agar uning suhbatdoshi toqatsiz odam bo‘lsa, ikkalasining chiqishishi qiyin, chunki u uzoqdan kelib tushuntirishni yaxshi ko‘radi. Demak bu tiplar ham har xil, har birida ham yaxshi, ham yomon sifatlar bor.

Bunday shaxs qat‘iyatli, dadil bo‘lsa ham, bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko‘chishi juda qiyin, u ma‘lum muddatni talab qilinishi uchun ularning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga kirishib-moslashib ketishi sekinlik bilan kechadi.

Dominant va tobe toifali shaxslar Dominant tip muloqot jarayonida sira ham boshqalardan past kelishni xohlamaydi, savol berilsa, xohlasa javob beradi, bo‘lmasa, indamasligi ham mumkin. U doimo suhbatdoshga ta‘sir ko‘rsatishi, uning bo‘ysunishini xohlaydi. Unda egoizm hissi kuchli, o‘zi xato fikr yuritsa, xatoligini suhbatdosh sezsa ham uni bo‘yniga olmaydi. Dominant tip — qat‘iyatli.

Suhbat davomida u sizning fikringizni yarim yoʻlda tushunsa, sizni oxirigacha tinglashni istamaydi, gapni boʻlib, mayinlik bilan gapni tugatib qoʻyishi mumkin. Agar ikkala suhbatdosh ham dominant boʻlishsa, unda ular oʻrtasida osongina raqobat hissi yuzaga chiqishi, kelishmay qolishlari mumkin. Shuning uchun janjallashib qolmaslik uchun dominant shaxsning mustaqilligi, dadilligiga koʻnish, unga oʻz nuqtai nazarini oxirigacha bayon etish imkoniyatini berish lozim.

Dominant tip — qatʼiyatli shaxs boʻlganligi uchun ularning kasbiy- ishlab chiqarish faoliyatga kirishib-moslashib ketishlari oson kechadi.

Tobe tipli shaxs esa suhbatdoshning qarashlariga moslashadi, doimo yon berishga tayyor, shuning uchun u kam janjallashadi, lekin yomon koʻrib qolgan odami bilan umuman gaplashmaydi. Suhbat sharoitidagina u asta-sekin oʻzining dadilligini koʻrsatishi, ochiq gaplashishi, baʼzan eʼtirozlar bildirishi mumkin. Tobe shaxsli bolalarni ragʻbatlantirish maqsadga muvofiqdir, shuning uchun ham ulami maqtab turish, gapirayotganda koʻzlar, yuz ifodalari bilan ulami ruhan qoʻllab turish kerak. Biror qarorga kelish kerak boʻlib qolsa, bu shaxs qaromi yaxshisi siz qabul qilishingizni xohlaydi, chunki javobgarlikni boʻyniga olishni istamaydi. Tobe shaxsli bolalarni ragʻbatlantirish maqsadga muvofiqdir, shuning uchun ham ulami maqtab turish, gapirayotganda koʻzlar, yuz ifodalari bilan ulami ruhan qoʻllab turish kerakli tufayli, ularning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga kirishib-moslashib ketishi jarayonida ham moddiy va maʼnaviy qoʻllab - quvvatlab turishni kutadi.

Yuqorida keltirilgan tiplarni kuzatar ekanmiz, barchasida yaxshi va yomon, noqulay sifatlar borligini koʻramiz. Hayotda koʻpincha sof u yoki bu tip vakili uchramaydi, lekin u yoki bu vaziyatlarda takrorlanadigan fazilatlarga qarab odamlarni tiplarga boʻlamiz. Bundan tashqari, bir marta koʻrishda odam haqida xulosa chiqarib boʻlmaydi. Mutaxassislar oʻqishni tugatgandan soʻng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning psixologik jihatlar sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumki:

- **kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv-kirishib ketishning** sifatlari: maqsadga qaratilganlik, fidoyilik, eng muhim jihatlarga eʼtiborni jamlash, oʻzini qoʻlga ola bili, intellektning yuksak darajasi, tez fikrlay olish, mantiqiy oʻylash, yaxshi eslab qolish, shuningdek noanʼanaviy fikrlash, real va noreal fantaziya haqida hukm chiqara olish;

- **kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv-kirishib ketishga yoʻnalganlik:** shaxs faoliyatini yoʻnaltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turgʻun, barqaror motivlar (masʼuliyat, maqsad va ideallar, qiziqish va dunyoqarash) majmuiga ega boʻlish;

- **kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv-kirishib ketishiga taʼsir etuvchi shaxs dunyoqarashi va eʼtiqodini oʻzgartiruvchi omillar:** Maʼnaviyat

va ma'rifat, mafkura, oila, ijtimoiy ustanovkalar (Elementar ustanovka, ijtimoiy ustanovka, bazaviy ijtimoiy ustanovkalar, qadriyatlar tizimi).

9.1. Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li asrlarga tatigulik mazmun va samara kasb etmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimiz Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qarorida ta'kidlanganidek, yurtimizda «demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish, iqtisodiyotimizni bozor munosabatlariga o'tkazish va rivojlangan davlatlar qatoridan munosib joy olish yo'lida erishgan marralarimiz jahon ahlini haqli ravishda hayratda qoldirmoqda»⁴. Barcha sohalardagi kabi ta'lim tizimini rivojlantirish, isloh qilish yo'lidagi amalga oshirilgan ishlarimiz ham diqqatga sazovordir.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, bosqichma-bosqich isloh qilish yo'llari quyidagi hujjatlarda belgilab berildi xamda ular asosida eng muhim yo'nalishlarda amalga oshirildi va natijalari ijrosi ta'minlandi.

Ta'lim to'g'risidagi qonun (1992-yil 2-iyul)

Mustaqil davlatimiz rahbariyati eng avvalo, ishni ta'lim sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini yaratib berishdan boshladi. Sobiq ittifoq tarkibiga kirgan respublikalar ichida birinchilardan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi 1992-yil 2-iyulda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini tasdiqladi. Bu dasturilamal hujjatda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi, uning boshqaruv tarkibi, pedagog xodimlarning haq-huquqlari, burch va mas'uliyatlari aniq belgilab berildi. Binobarin, bu muhim davlat hujjatining qabul qilinishi ta'lim sohasida amalga oshiriladigan barcha islohotlarning muqaddimasi hamda huquqiy kafolati edi⁵.

Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan yangi jamiyat barpo etishning besh tamoyili bugungi kunga kelib ijobiy natijasini ko'rsatmoqda. Yurtimizda shaxs, inson, jamiyat, davlat yangilanmoqda, barcha ijtimoiy jarayon ta'lim va madaniyat, ma'naviyat o'ziga xos tarzda shakllanib bordi. 1992-yilda Prezidentimiz «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li» kitobida bu masalaga alohida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlagan edi, «Bugungi kunda hur va ozod xalqimiz, barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma'rifatda, fan va texnikada,

⁴

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 6-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qarori // Xalq so'zi, 2011-yil 7 aprel, №68 (5235).

⁵YoMdoshev J. Ta'limimiz istiqlooli yoiida. - Toshkent: Sharq, 1996. 4-5-bet.

madaniyat va san'atda nimaiki yangi va ilg'or jihatlar bo'lsa, shunga dadillik bilan intilmoqda. O'zbekiston diyorida tarixda ko'p marta bo'lganidek, yana yangidan o'zimizning betakror va ilg'or, iqtidorli va eng muhimi, insonlarga kerakli qadriyatlarimiz barpo etiladi. Ta'lim O'zbekiston xalq ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi»⁶.

Bu so'zlar ta'lim tizimiga berilgan ijtimoiy buyurtma bo'lib, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, ta'lim sohasidagi davlat siyosatida ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabr)

Asosiy qonun O'zbekiston xalqining xohish-irodasidan kelib chiqib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini uyg'unlashtirgan holda, yoshlar ongiga singdirishning huquqiy asoslarini o'zida ifoda etgan. Konstitutsiya barcha fuqarolar qatori yoshlarning huquq va erkinliklarini, shu bilan birga ularning ta'lim olish va kasb-hunar egallashlarini ta'minlashning huquqiy va me'yoriy jihatlarini ham o'zida aks ettirdi. Jumladan, uning 41-moddasida: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir» deb belgilab qo'yilgani fikrimizning dalilidir. Bugungi kunda O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning urf-odatlarini, tili, madaniyati, milliy an'alariga hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlangan. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha fuqarolar, millati yoki elatidan qat'i nazar teng huquqli, ular bilim olish, o'z imkoniyati va qiziqishlari bo'yicha kasb-hunarli bo'lishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi.

«Ta'lim to'g'risida»gi (1997-yil 29-avgust) Qonun (yangi tahriri) va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»

Prezidentimiz Islom Karimov 1996-1997-yillarga kelib, ta'lim- tarbiya tizimidagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etish va bu sohani tubdan isloh etish bo'yicha muhim dasturiy hujjatlar qabul qilish lozimligini kun tartibiga qo'ydi. Shu boisdan ham tezda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni tuzish komissiyasi tashkil etilib, unga Yurtboshimiz bevosita rahbarlik qildi.

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasi (1997-yilda 29-avgust) «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzusidagi nutqida 1991— 1997 yillar davomida mamlakatimizda amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlarni tanqidiy baholadi va kelgusidagi islohotlar istiqbolini belgilab berdi.

⁶ Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1- jild. - T. : O'zbekiston, 1996. 81-82-bet.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 6-oktabrdagi «Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida»gi Farmoni mavjud ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida ushbu farmon bilan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun (yangi tahriri) va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilinganidan so‘ng respublikamiz butun ta’lim tizimi, jumladan, oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash yo‘nalishini ham tubdan isloh qilishning aniq strategik dasturiga ega bo‘ldi.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning qabul qilinishi va hayotga tatbiq qilinishi, xech shubhasiz, mustaqillik yillaridagi eng muhim yutuqlarimizdan biri bo‘ldi. Dasturga ko‘ra, yurtimizda ta’lim islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi va hozirgi kunda takomillashtirilmoqda.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» Yurtboshimizning bevosita rahbarligida ishlab chiqilib, amaliyotga izchil joriy etildi. Bu dastur AQSHdan so‘ng dunyoda ikkinchi bor faqat O‘zbekistonda qabul qilindi va bugungi kunda turli mamlakatlar bizning bu boradagi tajribalarimizni katta qiziqish bilan o‘rganmoqda. Mamlakatizda noyob Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘la amalga oshirilmoqda. 2009- yildan boshlab, yurtimizda 12 yillik majburiy talim joriy etildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi.

I bosqich - 1997-2001-yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy-me‘yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Buning uchun davlat tomonidan qo‘shimcha ravishda 65 milliard so‘m mablag* sarf qilindi. Bu bosqich kadrlar tayyorlash dasturining **moddiy-texnik ba’zasini** yaratish davri deb nomlandi.

II bosqich - 2001-2005-yillarni o‘z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. Bu bosqich Kadrlar tayyorlash milliy dasturining **sifat bosqichi** deb nom oldi.

III bosqich - 2005-yildan boshlanib, undan keyingi yillarni ham o‘z ichiga olmoqda. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ijrosi yakuniga yetkazilib, erishilgan natijalar, to‘plangan tajribalar umumlashtirilib, tahlil etilmoqda hamda shu asosda yurtimizda yangi ta’lim tizimi yanada takomillashtirilmoqda. Shu boisdan bu bosqich ta’lim tizimini **modernizatsiyalash davri** deb atalmoqda .

Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga

bag'ishlangan marosimida (2009-yil 5-dekabr) ma'ruza- sida ta'kidlaganidek, «bundan 12 yil oldin boshlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va 2004-yilda uning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi ijtimoiy hayotimizda tub burilish yasadi»⁷.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-fevraldagi «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida»gi qarori Bu qarorga ko'ra, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 60 kishidan iborat O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi (Markaz) tashkil etildi. 1998-yilda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari dastlab tajriba tariqasida faoliyati boshladi. Akademik litseylarga barcha (9-sinf) bitiruvchilarining taxminan 10-15 foizi tanlov asosida qabul qilindi.

Kasb-hunar kollejlari uchun yuqori malakali pedagog va pedagog- muhandislar tayyorlash bo'yicha 3 ta otaliq zona (mintaqaviy) bo'yicha tegishli oliy o'quv yurtlari birlashtirildi: 1) Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti; 2) Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti; 3) Namangan muhandislik-pedagogik institutlarida kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amaliy ijrosiga, shuningdek, bakalavr va magistr kadrlar tayyorlash masalasiga bag'ishlangan O'zbekiston Prezidentining o'ndan ortiq farmon va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Xususan, 2004-yil 19-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2008-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoyishi, 2004-yil 21-mayda «2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirishning davlat umummilliy dasturi to'g'risida»gi farmonining qabul qilinishi milliy ta'lim rivojida yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi.

Umuman, mustaqillik yillarida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» (1997) asosida uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim quyidagi yo'nalishlari hayotga tatbiq etildi:

Maktabgacha ta'lim.

Umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus,

Kasb-hunar ta'limi.

Oliy ta'lim.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

Maktabdan tashqari ta'lim.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning RMT Bosh Assambleyasining Mingvillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi ma'licidagi nutqi. / Xorijiy ijtimoiy- siyosiy doiralar vakillarining munosabatlari va sharhlari -T.:O'zbekiston, 2010. 11-b.

Uzluksiz ta'lim tizimining ushbu yo'nalishlarida ta'lim-tarbiya, yuqori malakali kadrlar, ilmiy xodimlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari samarali amalga oshirilmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarining soni, ularda ta'lim oluvchi, faoliyat yurituvchilar soni oshishi bilan birga ulardagi ta'lim-tarbiya jarayoni sifati tubdan yaxshilandi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining ommaviy turidan tashqari sog'lomlashtirish, jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maxsus turlari ham barpo etildi. Maktabgacha ta'lim tizimida noan'anaviy maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i ham kengaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamizdagi umumta'lim maktablar soni 8333 tani tashkil etgan bo'lsa bugunga kelib 10000 ga yaqinni tashkil etadi. Mavjud umumta'lim maktablarining deyarli barchasi yoki yangi qurilgan, yoki kapital rekonstruksiya qilingan, yoki joriy ta'mirlangan maktablar hisoblanadi.

O'rta maxsus ta'lim muassasalarining kadrlar bilan ta'minlangani 1991 -yilda: pedagoglar va muhandis-pedagoglar umumiy soni-25540 nafar. Shundan fan doktori, fan nomzodlari - 186 nafar, oliy ma'lumotli o'qituvchilar - 19767 nafar. O'rta maxsus ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassisliklar umumiy soni 156 ta, hunar-texnika bilim yurtlariga qamrab olingan o'qituvchilar umumiy soni 17562 nafar edi.

Bugunga kelib, respublikadagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari (akademik litsey, kasb-hunar kollejlari) soni 1500 tadan oshib ketdi. Shundan 1400 tadan ortig'i zamonaviy tipdagi 100 tadan ortig'i moslashtirilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining kadrlar bilan ta'minlangani; pedagog va muhandis-pedagoglar umumiy soni 112000 nafarga yaqin. Shundan fan doktorlari - 100 nafardan ortiq, fan nomzodlari - 1100 nafardan ortiq, oliy ma'lumotli o'qituvchilar - 101600 nafarga yaqin.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitilayotgan kasblarning umumiy soni - 250 tadan ortiq bo'lib ta'limi muassasalariga qamrab olingan o'quvchilarning umumiy soni - 1036000 nafardan ortiq.

Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining soni 1991-yilda 53 ta (universitetlar - 6 ta, institutlar - 42 ta, filiallar - 5 ta) ni tashkil etgan bo'lsa va bugunga kelib ularning soni - 76 ta (universitetlar - 19ta, institutlar - 36 ta, akademiyalar - 2 ta, konservatoriya - 1 ta, raqs va xoreografiya oliy maktabi - 1 ta, OTMlari filiallari - 11 ta, Xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalarining filiallari - 6 ta) ni tashkil etadi.

Oliy ta'limning 254 ta bakalavriat yo'nalishi va 719 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi, ular asosida

namunaviy o'quv rejalari va fan dasturlari yaratilib, o'quv jarayoniga tatbiq etildi. O'quv adabiyotlarining zamonaviy yangi avlodiga qo'yiladigan talablar dunyo tajribasi asosida ishlab chiqildi. Fanlar bo'yicha o'quv-metodik majmuaning zamonaviy modeli yaratildi. Professor-o'qituvchilardan iborat mualliflar tarkibi shakllantirildi. Ular tomonidan 2550 tadan ortiq fan yo'nalishi bo'yicha o'quv-metodik majmua yaratish ishlari olib borilmoqda. 9 ta oliy ta'lim muassasasidagi axborot texnologiyalari markazlari zamonaviy videokonferensiya uskunalari bilan jihozlandi. Oliy ta'lim muassasalarida 1500 dan ortiq elektron darslik va o'quv qo'llanma yaratildi, kutubxona tizimini avtomatlashtirish va elektron kataloglar yaratish bo'yicha loyihalar 44 ta oliy ta'lim muassasasida amalga oshirildi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning amalga oshirilishi jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy, ta'lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-iyuldagi PF-4456-son «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoniga asosan yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yuqoridagi va boshqa Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida mamlakatimizda ta'lim tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish yo'nalishlari bo'yicha quyidagi vazifalar bajarildi:

- milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar ta'lim-tarbiyaga asos qilib olindi va milliy istiqlol g'oyasi negizida takomillashtirildi;
- ta'lim tizimida kadrlar salohiyati tubdan yaxshilandi;
- davlat va nodavlat ta'lim muassasalari keng rivoj topdi;
- ta'lim tizimi tarkibiy jihatdan yangi texnologiyalar bilan boyitilib, modernizatsiyalashtirib borildi;
- majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tish 2009-yildan boshlab to'la ta'minlandi;
- ta'lim tizimida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashib, yangi tipdagi o'quv muassasalari vujudga keldi;
- ta'lim tizimidagi mutaxassis kadrlar va boshqaruv tizimi kadrlarining malakasi oshirib borildi;
- ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirildi;
- ta'limni boshqarish tizimi, jamoat boshqaruvi shakllari takomillashtirilib, ta'lim muassasalari mintaqalashtirildi;
- ta'lim olishda davlat, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy muassasalar, nodavlat tashkilotlar faollashib bordi;
- ta'lim jarayoniga, kadrlar sifatiga xolis baho berish tizimi yaratildi;
- ta'lim tizimining moliyaviy, moddiy-texnik bazasi yangilandi va uni resurslar

bilan ta'minlash mexanizmi shakllandi;

- uzluksiz ta'lim fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashib bordi;
- ta'lim tizimidagi muassasalarning xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqasi kuchaydi;
- boshqa millat vakillari uchun ta'lim olish (7 tilda) uchun shart- sharoitlar yaratildi;
- ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik kabi yo'nalishlar bo'yicha ta'lim-tarbiyasi takomillashdi.

Nazorat savollari:

1. Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketish jarayonining ijtimoiy jihatlari nimalardan iborat ?
2. Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning psixologik jihatlari nimalardan iborat ?
3. Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishining mazmuni nimalardan iborat?

15-mavzu: Kasb ta'lim pedagogikasining didaktik printsiplari (2soat)..

Reja:

1. Kasb ta'limining tamoyillari.
2. Ta'limda tizimlilik va izchillik, yosh individual xususiyatlarni hisobga olish
3. Ta'limning politexnik xususiyatga ega ekanligi, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkam va puxtaligi

Tayanch so'z va iboralar: Ta'limda tizimlilik va izchillik, yosh individual xususiyatlarni hisobga olish, ta'limning politexnik xususiyatga ega ekanligi, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkam va puxtaligi tamoyillari, ta'limni tashkiliy shakllari, dars.individual ta'lim.

1.Kasb ta'limining tamoyillari

Inson vujudga kelibdiki, o'z farzandiga bilganlarini o'rgatish, o'zi ega bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini keyingi avlodga o'tkazish dastavval anglanmagan holda bo'lsada mavjud edi. Bu yashash uchun kurash qonunidan kelib chiqib, yashashning zaruriy sharti hisoblangan. Jamiyat rivojlanar ekan avloddan-avlodga o'tkazish lozim bo'lgan bilimlar hajmi ortib bordi. Bilimlar, egallash lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalar murakkablashib bordi. Bu jarayon olimlar tomonidan tahlil qilinib asta-sekin ma'lum qoidalar ishlab chiqildi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ta'lim jarayonini chuqur o'rgangan olimlardan biri. U ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqida shunday fikrlarni bildiradi. O'quv jarayonida pedagog quyidagi qonuniyatlarga:

- talabani zeriktirmasligi;
- bilim berishda turlilikka asoslanishi;
- uzviylikka, izchillikka rioya qilish kerak.

Beruniy yangi mavzularni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish samarali natijalar berishini ham ta'kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) bilim olishda yoshlarni o'quv muassasasida o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- talabaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- o'qitishda jamoa bo'lib, o'quv muassasasida o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda talabalarning maylini, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Ushbu ishlab chiqilgan qoidalar ta'limda mustahkam o'rin egallay boshladi.

Shunday qilib, ta'lim tamoyillari asrlar osha sayqal topib bordi. Albatta didaktika tamoyillari har bir davrning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zgarib boradi. Chunki ta'lim tamoyillari jamiyat va davlat oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ta'lim (o'qitish) jarayoni murakkab hamda ko'p qirralidir. Unda pedagog va talabalar faol ishtirok etadilar. Bu jarayonning muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun qoidalari ya'ni ta'limga quyilgan didaktik talablarga qay darajada amal qilishlariga bog'liq.

Ta'lim tamoyillari pedagogning faoliyatini va talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi tegishli ko'nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va yo'l yo'riqlarini o'z ichiga oladi. SHu bilan bir vaqtda ta'lim tamoyillari har ikkala faoliyatning ya'ni pedagog va talaba tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. SHunga ko'ra ta'lim qoidalari o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Ta'lim tamoyillari deb, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malaka xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga aytiladi.⁸

⁸I.P.Podlasiy. Pedagogika.Ucheb.dlya stud.vyssh.ucheb. zavedeniy.2 kn.Moskva.Vlados, 2003.439str.

Keyingi yillarda ta'lim qoidalarini o'rganish ularni tahlil qilish va mukammallashtirish ustida ish olib borilmoqda. Ta'lim qoidalarini sistemalashtirish masalasi ham doimo faol masala bo'lib kelgan.

2.Bugungi kunda pedagogika fani quyidagi **ta'lim tamoyillarini** ajratib ko'rsatmoqda:

- Ta'limning ilmiy bo'lishi;
- Ta'lim va tarbiyaning birligi;
- Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi;
- Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;
- Ta'limda onglik, faollik va mustaqillikka erishish;
- Ta'lim jarayonining ko'rsatmali va ko'rgazmali bo'lishi;
- Bilimlarni puxta va tizimli o'zlashtirib olish;
- Ta'lim jarayonida shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish;

Umumdidaktik tamoyillar bilan pedagogik jarayon qonunlari o'zaro aloqada bo'lib, u o'zining spesifik xususiyatlariga egadir. **“Kasbiy pedagogika” fanining** asosiy tamoyillari quyidagilar:

- Politexnik tamoyil
- Ta'lim oluvchilarda amaliyot va nazariyani o'zaro bog'lash tamoyili
- Modellashtirish tamoyili
- Mobillik tamoyili
- Tartibli ketma-ketlik tamoyili
- Atrof-muhitni tashkil etish tamoyili
- Kompyuterlashtirilgan pedagogik jarayon tamoyili

3.Politexnik tamoyil – bu tamoyil zamonaviy ishlab chiqarishning ilmiy asoslari tizimini egallashni nazarda tutib, shu bilimlar asosida umumkasbiy politexnik va maxsus bilimlarni shakllantiradi.

Politexnik tamoyillarni o'qitishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim:

- asosiy yo'nalishdagi rivojlangan texnika va ilmiy o'qitish;
- o'zaro bir-birlari bilan bog'langan o'quv material tizimini tashkil qilish;
- o'qitilayotgan fanni kelajakda amaliyotda qo'llash;
- ta'lim oluvchilarning yoshlariga mo'ljallab o'qitish;
- umumta'lim bilimlariga tayanish;
- ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini qoniqtirish;
- o'quv materialining ketma-ketligi va turg'unligiga rioya qilish.

Ta'lim oluvchilarda amaliyot va nazariyani o'zaro bog'lash tamoyili

O'quv jarayonida nazariy va amaliy bilim berish o'zaro aloqadorlik va o'quv predmetini asosiy maqsadi amaliyotda qo'llashga qaratilgan bo'lib, quyidagi shartlarga amal qilishga bog'liq:

- nazariy bilimlarni amaliyotda sinallishi;

- ish jarayonida sohaviy bilimlar va ularni fanda qo'llanilishi;
- mutaxassis-xodimlarni samarali o'qitish uchun kasbiy ishlab chiqarishga qarab kasbiy bilim berish.

Mutaxassis faoliyatini o'quv jarayonida modellashtirish tamoyili

Modellashtirish orqali mazmun va maqsadlarni isbotlash uchun engilliklarini oldin o'zlashtirish, o'qitish metodlarini o'quv rejasi va o'quv dasturini olish mumkin.

3.Mobillik tamoyili. Bu tamoyil shaxsning texnik bilimlarini tez o'zlashtirish qobiliyatiga qaratilgan. Ishchining ijodiy ish xarakteri, dunyoqarashining kengligi muammolarni anglab olish, ishlab chiqarishdagi rivojlanishini ko'ra bilishdir.

Tartibli ketma-ketlik tamoyili

Bu tamoyil quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv rejasini planlashtirish;
- o'quv jarayonida ketma-ketlikka rioya qilish;
- deduktiv o'qitish metodlarini qo'llash;
- umumta'lim bilimlarini tayanch qilib olish;
- o'quv materiallarini o'zaro bog'liq holda tartibli berib borish.

Atrof-muhitni tashkil etish tamoyili

Atrof-muhit deganda avvalom bor ta'lim muassasasida o'quv qurollari bazasini ishlab chiqarish va didaktik vositalarni, texnik, texnologik, ekologik talablar, shu bilan birga mehnat muhofazasini ta'minlash va ta'lim oluvchilarning sog'lig'ini saqlash sharoitlarini yaratish lozim.

Kompyuterlashtirilgan pedagogik jarayon tamoyili

Bu tamoyil bugungi kunda o'ta dolzarb bo'lib, kompyuterlar hayotimizning turli sohalariga kirib kelmoqda. Pedagogik sohaga ham kirib kelib ta'lim oluvchilarga kompyuterlar yordamida mavzuni kengroq, qiziqarliroq va tushuntirilayotgan mavzuni amaliyotini ham ekranda ko'rsatib berish imkonini yaratadi.

Ta'lim va tarbiya tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lganligi sababli pedagogikadagi ta'lim va tarbiya prinsiplarini ham birgalikda ko'rib chiqamiz.

Pedagogikada fan sifatida asosiy qoidalar, g'oyalar mavjud. Bu g'oyalar ta'lim samaradorligini, qo'iiladigan talablarning izchilligini ta'minlaydi. Ta'lim va tarbiya prinsiplari jamiyat ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib pedagogika nazariyasi va amaliyoti yutuqlariga ko'ra o'zgarib, takomillashib boradi.

Tarixda pedagogika prinsiplarini aniqlash bo'yicha turlicha yondoshuvlar mavjud bo'lgan. Masalan: XVI asrda YA.A.Komenskiy ta'lim prinsiplarini tabiatga qiyoslab o'rganishni ya'ni, o'quvchilarga tabiat qo'ynida bevosita ta'lim

berishni, tabiatda qanday mutanosiblik bo'lsa ta'limda ham xuddi shunday mutanosiblikka erishishni taklif etadi. 17-XVIII asrlarda madaniy jihatlardan mutanosiblikka erishish prinsiplari ilgari suriladi. Hozirda ta'limning ilmiylik prinsipi, o'quvchilar imkoniyatlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish prinsipi, ko'rgazmalilik prinsipi, ta'limda muntazamlilik va davomiylik prinsipi, ta'limning hayot bilan bog'liqligi, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi va ongliligi, ta'lim va tarbiyaning tarbiyaviy xarakteri kabi ko'pgina prinsiplari mavjud.

Ta'lim va tarbiyaning ba'zi prinsiplarini izohlaymiz. Har qanday ta'lim tizimida ta'lim vazifalari jamiyat tomonidan g'oyaviy yo'naltiriladi. Bizning mustaqil Respublikamiz misolida ta'lim va tarbiya umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarda barcha insonlarga mos ijobiy xislatlarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim va tarbiya jarayoni turli partiya va oqimlarning ta'siridan ozod qilinadi. Tarbiyada o'zbeklarga xos urf-odatlar, udumlar, an'analarga amal qilish ko'zda tutiladi. Istiqloq mustaqillik mafkurasi o'zbekona ta'lim-tarbiyaning asosi qilib olinadi. «SHu Vatan barchamizniki», «Vatanni sevmoq iymondandir» g'oyalari, hur O'zbskiston madhiyasi, O'zbekiston Respublikasining milliy bayrog'i ta'lim va tarbiyaniig asosi hisoblanadi. Mustaqillik - islohot - ta'lim-tarbiya, bular bir-birlari bilan egizakdirilar. SHuning uchun ham Prezidentimiz I. A. Karimovning barcha asarlari nafaqat fanning iqtisodiy, siyosiy sohalariga, balki hozirgi zamon pedagogikasi fani taraqqiyoti va ravnaqiga samarali hissa bo'lib qo'shildi. Ular insoniyatning yangicha tafakkur olamini tadqiq etishga yo'l ochib berdi. Ma'rifiy-axloqiy prinsiplarni isloh qilish borasida amaliy qo'llanma hamda qo'llanma vazifasini o'taydi. Mustaqillikning mohiyati ta'lim va tarbiya sabog'ining yo'nalishini belgilaydi. Mustaqillik - bu iymon va e'tiqod erkinligi, milliy qadriyat, ma'naviyat va madaniyat, ma'rifat va din-diyonat ozodligi demak. SHu bois yoshlarga beriladigan ta'lim va tarbiya vataniga, millatiga, xalqiga e'tiqod qo'yishdan boshlanadi. Iymon tushunchasi e'tiqod bilan bir qatorda turadi, inson axloq-odobi, ilm olishi, madaniyat va ma'rifatli bo'lishi kabi yaxshi xislat va fazilatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ta'lim mazmuni o'quvchilarni haqqoniy ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Buning uchun o'quv mazmuniga faqat ilmiy asoslangan tajribada tasdiqlangan, o'quv fani va fanning mazmuni orasidagi qonuniy aloqalarga asoslangan ilmiylik prinsipini qo'llash darkordir. Nazariy bilimlarning amaldagi qo'llani-lishi, nazariy bilimlarning amaliy bilimlar bilan bog'liqligi har bir o'qituvchining axborotidan sezilib turishi kerak. Har bir fan bo'yicha, ayrim olingan soha bo'yicha fan yangiliklari doimo izohlanib borilishi darkor. Bevosita dars davomida ilmiylik prinsipi faqat ilmiy axborotni berish bilan chegaralanmaydi. Axborot, ilmiy qaydnomalarning qaerdan

kelib chiqqanligi, sabab, natijalarning tahlili, tarixiylik prinsipini qo'llash ham ilmiylik prinsipini ta'minlaydi.

Ta'limning hayot bilan, ijtimoiy hayot amaliyoti bilan bog'liqligi prinsipi xalqda amalga oshirilgan ketganida jamiyatimizda tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning mohiyatini ta'lim va tarbiya mazmuniga nechog'lik singib ketganligi tushuniladi.

Shuni nazarda tutish kerakki, ta'limning hayot amaliyoti bilan bog'liqligi maxalliy sharoitlar bilan chegaralanmasligi lozim. O'quvchilarni jahondagi texnika va texnologiya taraqqiyotlari bilan, Uzbekistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka o'tish jarayonlari bilan tanishtirib borish maksadga muvofiqdir.

O'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonining muvaffaqiyatli borishi uchun o'quv materialining xar bir tarkibiy qismi mantiqiy ravishda bir-biri bilan bog'lanishi shart. Bunda ko'nikma va ma'lakalar ma'lum bir tartibda, tizimda muntazam joylanishi ko'zda tutiladi. Bunday talabni ta'limda muntazamlik prinsipi ado etadi. Muntazamlik ta'lim va tarbiyadagi zarur fenomenologik konuniyat xisoblanadi. O'quv materiali mantiqiy bog'lanishda o'rganilgandagina mustahkam yodda saqlanadi. Muntazamlik prinsipi fanlar bo'yicha tuzilgan dasturlarda, o'quv rejalarida, darslik, o'quv qo'llanma va metodik tavsiyanomalarda amaliyotga tatbik etiladi. Muntazamlik hodisalar, tushunchalar, dalillar orasidagi ichki aloqalar, nazariy koidalar bilan amaliy ishlarni bajarish ortasidagi mantiqiy bog'liqliklarni o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Bu prinsip o'rganilayotgan materialdan etakchi tushunchalarni aniqlashni, ularning boshqa tushunchalar bilan aloqalarini o'rnatishni, ta'limdagi ba'zi bir umumiy konunlarni yoritib berish uchun ular rivojlanishining manbaini ochib beradigan ma'lum bnr muntazamlikka, ketma-ketlikka rioya etishni talab etadi.

Muntazamlik prinsipi amalga oshirilayotganda albatta fanlararo integrativ bog'lanishlarni ko'zda tutish muhimdir. Masalan: nazariy mexanika qonuniyatlari materiallar qarshiligi va mexanizmlar nazariyasida ham qo'llaniladi. Albatta muntazamlik prinsipi bevosita o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan paytda ijodiy yondoshishni talab etadi. YA'ni har bir pedagogik xolat uchun maqsadga muvofiq bo'lgan muntazamlikni tanlashni nazarda tutadi.

Muntazamlik prinsipi bevosita fan bo'yicha tuzilayotgan dars rejasini yaratishda qo'l keladi. Bunda o'qituvchi mavzuning ayrim masalalarini o'rganish tartibini belgilaydi, amaliy va nazariy ishlarshshg uzviyligi, takrorlanishini va o'quv materialini o'zlashtirish darajasini nazorat qilish tartibini aniqlashtiradi. Masalan: tushunchalar, teoremlar ilgariroq o'rganilsa mustahkamlovchi mashklar esa nazariyaning o'rganishning davomi bo'ladi. Bu prinsip o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etishning ham asosi xisoblanadi.

Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi ta'lim jarayonida o'quvchilarni yangi-yangi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish va o'zlashtirilgan bilimlar asosida umuminsoniy sifatlarni shakllantirishni ta'minlaydi. O'quv predmetlarning har bir, hatto, ayrim mavzu va qismlari ham tarbiyalovchi xarakterga ega. Ta'lim jarayonida o'tilayotgan mavzularning mazmunidan kelib chikadigai tarbiyaviy tomonlari to'g'ri belgilanadi va ta'lim bilan birligida, bir butunlikda amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning tub mohiyati o'zlashtirilayotgan ilmiy bilimlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish, shu jarayonda o'quvchilarga muayyan umuminsoniy ma'naviy, intellektual, tadbirkorlik, irodaviylik hissiyotlarini singdirish va shakllantirilgan xislatlarni rivojlantirishii ko'zda tutadi. Ta'lim va tarbiyaning birligini ta'minlash ta'limning turli tashkiliy shakllaridan va xilma-xil o'qitish metodlaridan okilona foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Xususan, ta'lim jarayonida o'quvchilarda tadbirkorlik, sarajomlilik, uyushqoqlik, intizomlilik, xamsinf o'quvchilarga nisbatan xamdardlik, mexribonlik xislarini tarbiyalash; bayon kilinayotgan o'quv materialini kasbiy yo'nalganligini, ilmiyligni, tarbiyaviy axamiyatini ochib bsrilishi ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini rivojlantirish, ularning qiziqishlari, aktivligi, tashabbuskorliklarini oshirishga karatilgan bo'lishn kerak.

Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan birligi prinsipi bevosita bilish faoliyatining psixologik asoslaridan kelib chikadi. YA'ni xar kaday bilish jarayoni oldin tushunish, anglash keyin umumlashtirish va umumlashgai bilimlarni mustaxkamlash va nixoyat mustahkam bilim, iqtidor ko'nikmalarini amalda ko'llashdan iborat.

O'quv tarbiya jarayonining xamma jabxalari o'quv faoliyatining mazmuni, o'qitish metodlari, ta'limniig tashkiliy shakllari - barchalarida nazariya bilan amaliyotning birligi - prinsipiga asoslanadi. Nazariy o'zlashtirilgan bilimlarning amaliy iqtidor va ko'nikmalarga aylanishining o'zi aloxida bir murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning fiziologik asoslari chuqur o'rganilganida psixologik o'ziga xosliklar hisobga olingan taqdirdagina bilimlarni ko'nikmalarga aylanish jarayoni boshqara olinadi. Faqat shundagina nazariy bilimlar bilan amaliyot o'rtasida bog'lanish zanjirlari, bog'lanish qonuniyatlari ochilishi mumkin. O'rta maktab o'quv jarayonida o'quvchilar tomonidan fan asoslari matematika, fizika, biologiya, ximiya kabilardan o'zlashtirilgan nazariy bilim, ko'likma va malakalar o'quv tajriba xonalarida, laboratoriyalarda, tajriba er uchastkalarida, ijtimoiyfoydali va unumli mexnat jarayonlarida qo'llaniladi. Bu mashg'ulotlar ularni kelgusida murakkab ilmiy nazariyalarni amalda qo'llay olishlari uchun zarur bo'lgan tajriba bilan qurollantiradi. Bilish jarayoni faqat yuqoridagiday tashkil qilinsagina o'quvchilar o'quv materiallarining tub mohiyatini to'g'ri

tushunib oladilar va kelajakdagi amaliy faoliyatlari uchun zarur bilim, iqtidor va malakalar bilan qurollanadilar.

Ta'limda ko'rgazmalilik prinsipiga amal kilish o'quv tarbiya jarayonining asosini tashkil etadi. Ta'lim va tarbiyada ko'rgazmalilikdan foydalanish haqida Al-Forobiy ko'pgina ibratli so'zlarni aytib qol-dirgan. Forobiyning fikriga qaraganda o'quvchilarni, shogirdlarni uch toifaga bo'lish mumkin. Birinchi toifasi (guruhning 3-5 foizini tashkil etadi) o'quv materialini o'zlari mustaqil o'rgana olishadi. Uchinchi toifadagilarni (bular 8-10 foizni tashkil etadi) majburlab, zo'rlab o'qitish kerak, deydi. Va nixoyat ikkinchi toifa talabalarga (ular 85-90 foizni tashkil etadi) ta'lim berishda ko'rgazmalilikdan foydalanib, o'quv mexnatini jadallashtirish va birmuncha osonlashtirish imkoniyati tug'iladi. Ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilinganida eshitish organlari bilan bir qatorda ko'rish organlaridan ham foydalaniladi, Xalqimizda, «yuz marotaba eshitgandan ko'ra bir marotaba ko'rgan ma'qul» degan maqol bor. Ko'rgazmalilik zarur bo'lgan joyda me'yorida ishlatilsa samarali natija beradi. Ko'rgazmalilikning me'yori buzilsa, ya'ni ko'rgazma material haddan ziyoda bo'lsa yoki yoritilayotgan materialga oid (yoki oid emas) materiallar dars davomida osig'lik tursa o'quvchilar fikri asosiy material g'oyasidan chetga buriladi. Ularning tafakkur doirasi torayadi va aksincha ko'rgazmalilik kerakli joyda etarli vaqt ichida qo'llanilsa o'zlashtirilgan bilim o'quvchilar xotirasida uzoqroq saqlanadi.

Ta'limda tushunarliklik prinsipi. O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi asosiy funksiyalaridan biri fan temalari bo'yicha darslik, dastur, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-ommaviy va boshqa adabiyotlarda tarqalib yotgan axborotni to'plab, uidan kerakli mazmunni tanlab olib, uni o'quv materlaliiga ayaltirishdan iborat. O'quv materlini loyxalash jarayonida bsvosita tema bo'yicha yoritilayotgan konun-qoida yoki texnologik jarayonning mantiqiy ketma-ketligi bilan birga o'quv materilini tushunarli bo'lishi katta axamiyat kasb etadi. O'quv materlali fan bo'yicha yaigiliklar ortib boravergani sababli tobora murakkablashib boradi.

Bizda ta'limning tashkiliy shakli sifatida asosan. sinf-dars tizimidan foydalaniladi. Birinchi siifga 6-7 yoshdan olingan o'quvchilarning psixik rlvajlalnish ko'rsatkichlari turlicha bo'llshi anik. O'qituvchi tomonidan berilayotgan bilim va ko'nlnkmalarni o'zlashtirishga o'quvchilarda imkoniyat mavjudmi, o'quv materlini o'zlashtirishga ular tayyormilar? O'quvchilarga o'quv materialini alglatish uchun nima kilmok ksrak? SHu qabildagi savollar o'qituchi ertangi darsga tayyorlanish jarayonida hal qilish kerak bo'lgan muammolar xlsoblanad. Amalda ko'pchlllk o'kituvchlllar bu masalani echishning oson yo'lini izlashadi. YA'ni o'quv matsrlini osonlashtirish yo'lini tutadilar va shu bilan ilmiylik prinsipini qo'pol ravishda buzadilar.

Ilg'or pedagogik tajribalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, tushunarlilik prinsipini darsni yaxshilashni tashkillashtirish, dars mazmuniga mos metodlardan foldalanish, o'quvchilar aqliy aktivligini rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkin. Bu erda o'quvchilarda o'quv faoliyatini tashkil kilish ko'nikmalarini shakllantirish katta axamiyatga ega.

O'qituvchi o'quv materialini o'quvchilar tushunishi oson bo'lgan oddiy faktlardan boshlashi va shu tarika ularni birmuncha murakkab materialni o'zlashtirishga tayyorlashi lozim. SHu bilan blrga juda oson yoki o'quv-chilarga yaxshi ma'lum bo'lgan matsrlai ularning e'tiborini susaytlradi. Ukluvchining vazlfasi o'quvchilar tushuna oladlgan, lekin shu bilan birga ularni o'ylashga, tasavvur kilishga xamda ma'lum darajada qiyinchiligini engishga majbur qiladigan materlni tallashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Ma'lumdan noma'lumga o'tish ham ta'limning tushunarli bo'lishini ta'minlaydl. Bu erda har bir yangi dars materlali o'quvchilar ilgari puxta o'zlashtirib olgan bilimlar asosida tushuntiriladi. O'qituvchi darsda o'quvchllarning o'zlashtirgan bilimlaridan hayotiy tajribalaridan foydalanadi, yangi materialni tushuntirishda ularga ma'lum bo'lgan misol va faktlarga asoslanadi.

O'quvchilar bilim egallashlarini osonlashtirish uchun o'quv materialini osondan qiyinga o'tilishini ta'mnmlash kerak. SHunday sharoit yaratilganida o'quvchilarning o'z kuchiga bo'lgan ishonchi ortadi.

Boshlang'ich va o'rta bo'g'in sinf o'quvchilari bilan ishlanganida yaqindan uzoqqa o'tish uslubi yaxshi natijalar beradi. O'quvchilarga geografik iqlim, hayvonot dunyosini tanishtirishda ishni avval bolalarga ma'lum bo'lgan o'simlik va hayvonlardan boshlab, so'ngra uzoq o'lkalardagi o'simlik va xayvonlar bilan tanishtirishga o'tish kerak.

Ta'limda onglilik va aktivlik prinsipini amalga oshirish ham bilish jarayonining psixologik asoslariga to'la-to'kis tayanadi. Tartib va qoidalar yaxshi o'zlashtirilsada, ayrim hollarda shu bilimlarni bsvosita qo'llash jarayonida o'quvchilar qiynalishi mumkin. Ba'zan ular oddiy masalalarni echa olmay qolishadi. Demak, o'quvchi materialni tushunib etmasdan shunchaki yodlab olgan. O'quvchilar olgan bilimlarini amaliy xayotda foydalana olishlari uchun ta'lim berish jarayonini aktiv fikrlash jarayonnga aylantirish kerak.

O'qituvchi tushunarli bo'lishi uchun kitob va boshqa manbalardagi rasmlarni ko'rsatar ekan o'quvchilarda aktiv munosabat tug'diradi va o'zlashtirshi lozim bo'lgan material to'g'risida idrok xosil kildiradi. Konkret materiallardan olingan taassurot bolalar tafakkurini uyg'otadi.

Ta'lim prinsiplarini qarab chiqishni yakunlay turib, faqat ularning bir-birini to'ldirishi, bir-biriga muvofiq bo'lishigina ta'lim turi, vositalari, uslublari, tarkibiy

tuzilishi va maqsadlarini muvaffa-hiyatli belgilashini ta'kidlab o'tmoqchimiz. U yoki bu prinsipni muxim deb ko'rsatish mumkin emas, chunki bir xil ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarning xal etilishi boshqalarning hisobiga bo'lganligi sababli umumiy samaradorlikning pasayishini keltirib chiqaradi.

Xuddi shuningdek, ayrim prinsiplarni etarli darajada baholamaslik ta'lim samaradorligini pasaytiradi, ta'lim prinsiplarini yaxlit, mushtarak holda qo'llashgina zamonaviy maktab vazifalarini muvaffa-qiyatli hal etish imkoniyatini yaratadi.

Nazorat savollar:

1. Kasb ta'limining tamoyillari sanab, izohlab bering.
2. Ta'limning ilmiy bo'lish tamoyili nima?
3. Ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyili nimalarni o'z ichiga oladi?
4. Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi mazmun mohiyati
5. Zamonaviy ta'limning asosiy turlarini ta'riflab bering.
6. "Ta'limning tashkiliy tizimi" tushunchasi mohiyatini tushuntirib bering.
7. Ta'limning individual shakli afzalliklari nimadan iborat?
8. Sinf-dars tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
9. Zamonaviy darsga qanday talablar qo'yiladi?

16-mavzu: Kasb ta'lim pedagogikasining didaktik printsiplari (4soat)..

Reja:

1. Kasb ta'limining tamoyillari.
2. Oliy ta'lim didaktikasining kategoriyalari.
3. O'qitishning asosiy vazifalari

Tayanch so'z va iboralar: Ta'limda tizimlilik va izchillik, yosh individual xususiyatlarni hisobga olish, ta'limning politexnik xususiyatga ega ekanligi, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkam va puxtaligi tamoyillar, ta'limni tashkiliy shakllari, dars.individual ta'lim.

Tarixda pedagogika prinsiplarini aniqlash bo'yicha turlicha yondoshuvlar mavjud bo'lgan. Masalan: XVI asrda YA.A.Komenskiy ta'lim prinsiplarini tabiatga qiyoslab o'rganishni ya'ni, o'quvchilarga tabiat qo'ynida bevosita ta'lim berishni, tabiatda qanday mutanosiblik bo'lsa ta'limda ham xuddi shunday mutanosiblikka erishishni taklif etadi. 17-XVIII asrlarda madaniy jihatlardan mutanosiblikka erishish prinsiplari ilgari suriladi. Hozirda ta'limning ilmiylik prinsipi, o'quvchilar imkoniyatlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish prinsipi, ko'rgazmalilik prinsipi, ta'limda muntazamlilik va davomiylik prinsipi, ta'limning

hayot bilan bog'liqligi, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi va ongliligi, ta'lim va tarbiyaning tarbiyaviy xarakteri kabi ko'pgina prinsiplari mavjud.

Ta'lim va tarbiyaning ba'zi prinsiplarini izohlaymiz. Har qanday ta'lim tizimida ta'lim vazifalari jamiyat tomonidan g'oyaviy yo'naltiriladi. Bizning mustaqil Respublikamiz misolida ta'lim va tarbiya umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarda barcha insonlarga mos ijobiy xislatlarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim va tarbiya jarayoni turli partiya va oqimlarning ta'siridan ozod qilinadi. Tarbiyada o'zbeklarga xos urf-odatlar, udumlar, an'analarga amal qilish ko'zda tutiladi. Istiqloq mustaqillik mafkurasi o'zbekona ta'lim-tarbiyaning asosi qilib olinadi. «SHu Vatan barchamizniki», «Vatanni sevmog' iymondandir» g'oyalari, hur O'zbskiston madhiyasi, O'zbekiston Respublikasining milliy bayrog'i ta'lim va tarbiyaniig asosi hisoblanadi. Mustaqillik - islohot - ta'lim-tarbiya, bular bir-birlari bilan egizakdirlar. SHuning uchun ham Prezidentimiz I. A. Karimovning barcha asarlari nafaqat fanning iqtisodiy, siyosiy sohalariga, balki hozirgi zamon pedagogikasi fani taraqqiyoti va ravnaqiga samarali hissa bo'lib qo'shildi. Ular insoniyatning yangicha tafakkur olamini tadqiq etishga yo'l ochib berdi. Ma'rifiy-axloqiy prinsiplarni isloh qilish borasida amaliy qo'llanma hamda qo'llanma vazifasini o'taydi. Mustaqillikning mohiyati ta'lim va tarbiya sabog'ining yo'na-lishini belgilaydi. Mustaqillik - bu iymon va e'tiqod erkinligi, milliy qadriyat, ma'naviyat va madaniyat, ma'rifat va din-diyonat ozodligi demak. SHu bois yoshlarga beriladigan ta'lim va tarbiya vataniga, millatiga, xalqiga e'tiqod qo'yishdan boshlanadi. Iymon tushunchasi e'tiqod bilan bir qatorda turadi, inson axloq-odobi, ilm olishi, madaniyat va ma'rifatli bo'lishi kabi yaxshi xislat va fazilatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ta'lim mazmuni o'quvchilarni haqqoniy ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Buning uchun o'quv mazmuniga faqat ilmiy asoslangan tajribada tasdiqlangan, o'quv fani va fanning mazmuni orasidagi qonuniy aloqalarga asoslangan ilmiylik prinsipini qo'llash darkordir. Nazariy bilimlarning amaldagi qo'llani-lishi, nazariy bilimlarning amaliy bilimlar bilan bog'liqligi har bir o'qituvchining axborotidan sezilib turishi kerak. Har bir fan bo'yicha, ayrim olingan soha bo'yicha fan yangiliklari doimo izohlanib borilishi darkor. Bevosita dars davomida ilmiylik prinsipi faqat ilmiy axborotni berish bilan chegaralanmaydi. Axborot, ilmiy qaydnomalarning qaerdan kelib chiqqanligi, sabab, natijalarning tahlili, tarixiylik prinsipini qo'llash ham ilmiylik prinsipini ta'minlaydi.

Ta'limning hayot bilan, ijtimoiy hayot amaliyoti bilan bog'liqligi prinsipi xaklda gal ketganida jamiyatimlзда tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning mohiyatini ta'lim va tarbiya mazmuniga nechog'lik singib ketganligi -tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov e'lon kllgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillarini faqat Uzbekistoi Reelublikasigagina xos mustaqil yo'lini ta'limning barcha jabhalariga singdirish darkor. Buning uchun Rospublkkamiz sosial-iqtisodiy rivojlanishga oid ko'rsatkichlar, iqtisodiy yil yakunlariga oid fakt va materllar, yanglilk ijodkorlari hakldagi ocherklardan foydalanish yaxlit natijalarga ollb keladi. SHu bilan blrga misollar to'llamidan

ishlab chikarish va ijtimoiy xayotiy rlvjlanirish nuktai iazaridan muxim ahamiyatga ega bo'lganlarini tanlab olish uchun xam zarurdir. Bunda o'qituvchllarning doimiy ravshida ilmiy-ta'limiy, nqtisodiy, tadblrkorllk jurnallarda bayon etilgan ma'lumotlar bilan muntazam tanishib borishlari yordam beradi. Bulardan tashkari o'quvchilarga o'zlari topgan misollarni xam keltirishni, o'qituvchining namoyish etgan narsalarini o'zlarining hayotiy kuzatuvlari bilan to'ldirishlarini maslaxat berish foydalidir.

SHuni nazarda tutish kerakki, ta'limning hayot amaliyoti bilan bog'likligi maxalliy sharoitlar bilan chegaralanmasligi lozim. O'quvchllarni jahondagi texnika va texnologiya taraqqiyotl bilan, Uzbekistonning siyosiy va ikdisodiy mustaqillikka o'tish jarayonlari bilan tanlshtirib borish maksadga muvofiqdir.

O'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonining muvaffaqiyatli borishi uchun o'quv materialining xar bir tarkibiy qismi mantnkiy ravishda bir-biri bilan bog'lanishi shart. Bunda ko'nikma va ma-lakalar ma'lum bir tartibda, tizimda muntazam joylanishi ko'zda tutiladi. Bunday talabni ta'limda muntazamlik prinsipi ado etadi. Muntazamlik ta'lim va tarbiyadagi zarur fnenologik konuniyat xisoblanadi. O'quv materiali mantiqiy bog'laiishda o'rganilgandagina mustahkam yodda saqlanadi. Muntazamlik prinsipi fanlar bo'yicha tuzilgan dasturlarda, o'quv rejalarida, darslik, o'quv qo'llanma va metodik tavsiyanomalarda amaliyotga tatbik etiladi. Muntazamlik hodisalar, tushunchalar, dalillar orasidagi ichki alo-qalar, nazariy koidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o'rtasidagi mantiqiy bog'liqliklarni o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Bu prinsip o'rganilayotgan materialdan etakchi tushunchalarni aniqlashni, ularning boshka tushunchalar bilan aloqalarini o'rnatishni, ta'limdagi ba'zi bir umumiy konunlarnn yoritib berish uchun ular rivojlanishining manbaini ochib bsradigai ma'lum bnr muntazamlikka, ketma-ketlikka rioya etishni talab etadi.

Muntazamlik prinsipi amalga oshirilayotganda albatta fanlararo integrativ bog'lanishlnkni ko'zda tutish muhimdir. Masalan: nazarny mexaiika qonuniyatlari materiallar qarshiligi va mexanizmlar nazariyasida ham qo'llaniladi. Albatta muntazamlik prinsipi bevosita o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan paytda ijodiy yondoshishni talab etadi. YA'ni har bir pedagogik xolat uchun maqsadga muvofiq bo'lgan muntazam-likni tanlashni nazarda tutadi.

Muntazamlik prinsipi bevospta fan bo'yicha tuzilayotgan dars rejasini yaratishda qo'l keladi. Bunda o'qituvchi mavzuning ayrim masalalarini o'rganish tartibni belgilaydi, amaliy va nazarpy ishlarshshg uzviyligi, takrorlanishini va o'quv materialiii o'zlashtirish darajasini nazorat qilish tartibini aniqlashtiradi. Masalan: tushunchalar, teoremlar ilgariroq o'rganilsa mustaxkamlovchi mashklar esa nazariyann o'rganishning davomi bo'ladi. Bu prinsip o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etishning ham asosi xisoblanadi.

Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi ta'lim jarayonida o'quvchilarni yangi-yangi ilmiy bilpmlar bilan qurollantirish va o'zlashtirilgan bilimlar asosida umuminsoniy sifatlarni shakllantirishni ta'minlaydi. O'quv predmetlarning har bir, hatto, ayrim mavzu va qismlari ham tarbiyalovchi xarakterga ega. Ta'lim

jarayonida o'tilayotgan mavzularning mazmunidan kelib chikadigai tarbiyaviy tomonlari to'g'ri belgilanadi va ta'lim bilan bnrge, bir butunlikda amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonnda tarbiyalashning tub mohiyati o'zlashtirilayotgan plmiy bilimlar orkali o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish, shu jarayonda o'quvchilarga muayyan umuminsoiny ma'naviy, intellektual, tadbirkorlik, irodaviylik hissiyotlarini singdnrish va shakllantirilgan xislatlarni rivojlantirishii ko'zda tutadi. Ta'lim va tarbiyaning birligini ta'minlash ta'limning turiy tashkiliy shakllaridan va xilma-xil o'kitish metodlaridan okilona foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Xususan, ta'lim jarayonida o'quvchilarda tadbirkorlik, saranjomlilik, uyushqoqlik, intizomlilik, xamsinf o'quvchilarga nisbatan xamdardlik, mexribonlik xislarini tarbiyalash; bayon kilinayotgan o'quv materialini kasbiy yo'nalganligini, ilmiyligni, tarbiyaviy axamiyatini ochib bsrilishi ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini rivojlantirish, ularning qiziqishlari, aktivligi, tashabbuskorliklarini oshirishga karatilgan bo'lishn kerak.

Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan birligi prinsipi bevosita bilish faoliyatining psixologik asoslaridan kelib chikadi. YA'ni xar kandy bilish jarayoni oldin tushunish, anglash keyin umumlashtirish va umumlashgai bilimlarni mustaxkamlash va nixoyat mustahkam bilim, iqtidor ko'nikmalarini amalda ko'llashdan iborat.

O'quv tarbiya jarayonining xamma jabxalari o'quv faoliyatining mazmuni, o'qitish metodlari, ta'limniig tashkiliy shakllari - barchalarida iazariya bilan amaliyotning birligi - prinsipiga asoslanadi. Nazariy o'zlashtirilgan bilimlarning amaliy iqtidor va ko'nikmalarga aylanishining o'zi aloxida bir murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning fiziologik asoslari chuqur o'rganilganida psixologik o'ziga xosliklar hisobga olingan taqdirdagina bilimlarni ko'nikmalarga aylanish jarayoni boshqara olinadi. Faqat shundagina nazariy bilimlar bilan amaliyot o'rtasida bog'lanish zanjirlari, bog'lanish qonuniyatlari ochilishi mumkin. O'rta maktab o'quv jarayonida o'quvchilar tomonidan fan asoslari matematika, fizika, biologiya, ximiya kabilardan o'zlashtirilgan nazariy bilim, ko'likma va malakalar o'quv tajriba xonalarida, laboratoriyalarda, tajriba er uchastkalarida, ijtimoiyfoydali va unumli mexnat jarayonlarida qo'llaniladi. Bu mashg'ulotlar ularni kelgusida murakkab plmiy nazariyalarni amalda qo'llay olishlari uchun zarur bo'lgan tajriba bilan qurollantiradi. Bilish jarayoni faqat yuqoridagiday tashkil qilinsagina o'quvchilar o'quv materiallarining tub mohiyatini to'g'ri tushunib oladilar va kelajakdagi amaliy faoliyatlari uchun zarur bilim, iqtidor va malakalar bilan qurollanadilar.

Ta'limda ko'rgazmalilik prinsipiga amal kilish o'quvtarbiya jarayonining asosini tashkil etadi. Ta'lim va tarbiyada ko'rgazmalilikdan foydalaiish haqida Al-Forobiy ko'pgina ibratli so'zlarni aytib qol-dirgan. Forobiyning fikriga qaraganda o'quvchilarni, shogirdlarni uch toifaga bo'lish mumkin. Birinchi toifasi (guruhning 3-5 foizini tashkil etadi) o'quv materialini o'zlari mustaqil o'rgana olishadi. Uchinchi toifadagilarni (bular 8-10 foizni tashkil etadi) majburlab, zo'rlab o'qitish kerak, deydi. Va nixoyat ikkinchi toifa talabalarga (ular 85-90 foizni tashkil etadi) ta'lim berishda ko'rgazmalilikdan foydalanib, o'quv mexnatini jadallashtirish va

birmuncha osonlashtirish imkoniyati tug'iladi. Ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilinganida eshitish organlari bilan bir qatorda ko'rish organlaridan ham foydalaniladi, Xalqimizda, «yuz marotaba eshitgandan ko'ra bir marotaba ko'rgan ma'qul» degan maqol bor. Ko'rgazmalilik zarur bo'lgan joyda me'yorida ishlatilsa samarali natija beradi. Ko'rgazmalilikning me'yori buzilsa, ya'ni ko'rgazma material haddan ziyoda bo'lsa yoki yoritilayotgan materialga oid (yoki oid emas) materiallar dars davomida osig'lik tursa o'quvchilar fikri asosiy material g'oyasidan chetga buriladi. Ularning tafakkur doirasi torayadi va aksincha ko'rgazmalilik kerakli joyda etarli vaqt ichida qo'llanilsa o'zlashtirilgan bilim o'quvchilar xotirasida uzoqroq saqlanadi.

Ta'limda tushunarlilik prinsipi. O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi asosiy funksiyalaridan biri fan temalari bo'yicha darslik, dastur, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-ommaviy va boshqa adabiyotlarda tarqalib yotgan axborotni to'plab, uidan kerakli mazmuni tanlab olib, uni o'quv materlali ayaltirishdan iborat. O'quv materlini loyxlash jarayonida bsvosita tema bo'yicha yoritilayotgan konun-qoida yoki texnologik jarayonning mantiqiy ketma-ketligi bilan birga o'quv materlini tushunarli bo'lishi katta axamiyat kasb etadi. O'quv materlali fan bo'yicha yaigiliklar ortib boravergani sababli tobora murakkablashib boradi.

Bizda ta'limning tashkiliy shakli sifatida asosan. sinf-dars tizimidan foydalaniladi. Birinchi siifga 6-7 yoshdan olingan o'quvchilarning psixik rlvajlanish ko'rsatkichlari turlicha bo'llshi anik. O'qituvchi tomonidan berilayotgan bilim va ko'nlkmalarni o'zlashtirishga o'quvchilarda imkoniyat mavjudmi, o'quv materlini o'zlashtirishga ular tayyormilar? O'quvchilarga o'quv materialini alglatish uchun nima kilmok ksrak? SHu qabildagi savollar o'qituchi ertangi darsga tayyorlanish jarayonida hal qilish kerak bo'lgan muammolar xlsoblanad. Amalda ko'pchllk o'kituvchllar bu masalani echishning oson yo'lini izlashadi. YA'ni o'quv matsrlini osonlashtirish yo'lini tutadilar va shu bilan ilmiylik prinsipini qo'pol ravishda buzadilar.

Ilg'or pedagogik tajribalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, tushunarlilik prinsipini darsni yaxshilashni tashkillashtirish, dars mazmuniga mos metodlardan foldalanish, o'quvchilar aqliy aktivligini rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkin. Bu erda o'quvchilarda o'quv faoliyatini tashkil kilish ko'nikmalarini shakllantirish katta axamiyatga ega.

O'qituvchi o'quv materialini o'quvchilar tushunishi oson bo'lgan oddiy faktlardan boshlashi va shu tarika ularni birmuncha murakkab materialni o'zlashtirlshga tayyorlashi lozim. SHu bilan blrga juda oson yoki o'quv-chilarga yaxshi ma'lum bo'lgan matsrlai ularning e'tiborini susaytlradi. Ukltuvchining vazlfasi o'quvchilar tushuna oladlgan, lekin shu bilan birga ularni o'ylashga, tasavvur kilishga xamda ma'lum darajada qiyinchiligini engishga majbur qiladigan materlni tallashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Ma'lumdan noma'lumga o'tish ham ta'limning tushunarli bo'lishini ta'minlaydl. Bu erda har bir yangi dars materlali o'quvchilar ilgarl puxta o'zlashtirib olgan bilimlar asosida tushuntiriladi. O'qituvchi darsda o'quvchllarning o'zlashtirgan bilimlaridan hayotiy tajribalaridan foydalanadi,

yangi materialni tushuntirishda ularga ma'lum bo'lgan misol va faktlarga asoslanadi.

O'quvchilar bilim egallashlarini osonlashtirish uchun o'quv materialini osondan qiyinga o'tilishini ta'minlash kerak. SHunday sharoit yaratilganida o'quvchilarning o'z kuchiga bo'lgan ishonchi ortadi.

Boshlang'ich va o'rta bo'g'in sinf o'quvchilari bilan ishlanganida yaqindan uzoqqa o'tish uslubi yaxshi natijalar beradi. O'quvchilarga geografik iqlim, hayvonot dunyosini tanishtirishda ishni avval bolalarga ma'lum bo'lgan o'simlik va hayvonlardan boshlab, so'ngra uzoq o'lkalardagi o'simlik va xayvonlar bilan tanishtirishga o'tish kerak.

Ta'limda onglilik va aktivlik prinsipini amalga oshirish ham bilish jarayonining psixologik asoslariga to'la-to'kis tayanadi. Tartib va qoidalar yaxshi o'zlashtirilsada, ayrim hollarda shu bilimlarni bsvosita qo'llash jarayonida o'quvchilar qiynalishi mumkin. Ba'zan ular oddiy masalalarni echa olmay qolishadi. Demak, o'quvchi materialni tushunib etmasdan shunchaki yodlab olgan. O'quvchilar olgan bilimlarini amaliy xayotda foydalana olishlari uchun ta'lim berish jarayonini aktiv fikrlash jarayoniga aylantirish kerak.

O'qituvchi tushunarli bo'lishi uchun kitob va boshqa manbalardagi rasmlarni ko'rsatar ekan o'quvchilarda aktiv munosabat tug'diradi va o'zlashtirishi lozim bo'lgan material to'g'risida idrok xosil kildiradi. Konkret materiallardan olingan taassurot bolalar tafakkurini uyg'otadi.

Ta'lim prinsiplarini qarab chiqishni yakunlay turib, faqat ularning bir-birini to'ldirishi, bir-biriga muvofiq bo'lishigina ta'lim turi, vositalari, uslublari, tarkibiy tuzilishi va maqsadlarini muvaffa-hiyatli belgilashini ta'kidlab o'tmoqchimiz. U yoki bu prinsipni muxim deb ko'rsatish mumkin emas, chunki bir xil ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarning xal etilishi boshqalarning hisobiga bo'lganligi sababli umumiy samaradorlikning pasayishini keltirib chiqaradi.

Xuddi shuningdek, ayrim prinsiplarni etarli darajada baholamaslik ta'lim samaradorligini pasaytiradi, ta'lim prinsiplarini yaxlit, mushtarak holda qo'llashgina zamonaviy maktab vazifalarni muvaffa-qiyatli hal etish imkoniyatini yaratadi.

Nazorat savollar:

10. Kasb ta'limining tamoyillari sanab, izohlab bering.
11. Ta'limning ilmiy bo'lish tamoyili nima?
12. Ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyili nimalarni o'z ichiga oladi?
13. Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi mazmun mohiyati
14. Zamonaviy ta'limning asosiy turlarini ta'riflab bering.
15. "Ta'limning tashkiliy tizimi" tushunchasi mohiyatini tushuntirib bering.
16. Ta'limning individual shakli afzalliklari nimadan iborat?
17. Sinf-dars tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
18. Zamonaviy darsga qanday talablar qo'yiladi?

17-18-mavzu: Kasbiy ta'limda qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari, shakllari va vositalari (4-soat)

Reja:

1. Ilmiy tadqiqot metodlari
2. Tadqiqotlarning tarixiy-taqqoslash metodlari
3. Nazariy taqqoslash- solishtirish metodi
4. Kuzatish, suhbat, eksperiment metodlari

Tayanch soʻz va iboralar: Pedagogik tadqiqot funksiyalari, ilmiy tadqiqot metodlari, tadqiqotlarning tarixiy-takkoslash metodlari, nazariy taqqoslash-solishtirish metodi, kuzatish, suhbat, eksperiment metodlari.

1. Pedagogik tadqiqot funksiyalari. Ilmiy nuqtai nazardan didaktika taʼlim jarayonlarini tushuntirish, rivojlanish istiqbollarini koʻrsatish, amalda taʼlim-tarbiya jarayoniga taʼsir etish va ularga baxo berishni maksad kilib koʻyar ekan, quyidagi funksiyalarni bajaradi.

1. Diskriptiv funksiyasi. “Diskriptiv” soʻzi inglizchadan olingan boʻlib, «yoritish», «taʼsvirlash» degan maʼnoni bildiradi. Tasvirlash koʻpiicha diagnostik tilda tarqalgan. U oʻquv-tarbiya jarayonida uchrayotgan cheklanishlarning qay yoʻsindaligini aniqlash uchun xizmat qiladi. Pedagogik diagnostikaning maqsadi faqat sodir boʻlgan cheklanishlarning shakli, hajmi va xususiyatini aniqlash emas, balki bu cheklanishlar oʻquv tarbiya tizimining qaysi boʻgʻinlari susayganligi sababli yuz berganini aniqlashdan iborat.

2. Tushuntirish funksiyasi. Didaktik tadqiqotning bu turi eksperimentlar oʻtkazish bilan bogʻlikdir. Bu erda taʼlim jarayonining barcha sharoitlari saqlangan holda oʻquv jarayonini oʻzgartiruvchi omillar kiritilish natijasida didaktik tadqiqot oʻquv-tarbiya jarayonining asosida yotgan qonuniyatlarni ochish imkonini beradi.

3. Pedagogik tadqiqotlarning taʼlim-tarbiya jarayonlarini oldindan kura bilish funksiyasi. Bu xilidagi tadqiqotlar, izlanishlar jarayonlarning kandayligini koʻrsatish bilan birga, jarayon yuz berayotgan davrdan keyingi zamonda qanday oʻzgarishlar, qanday bogʻlangan qonuniyatli pedagogik va boshqa jarayonlar yuz berishini oldindan koʻra bilishga asos boʻla oladi. Shu bilan birga oldindan koʻra bilish funksiyasi sodir boʻlishi mumkin boʻlgan jarayonlarni biz istalgan yoʻnalishda rivojlaltirish imkoniyatlarini va ularga tegishli, etarli darajadagi obʻektiv, har tomonlama oʻylangan baho berish imkoniyatlarini ham yaratadi. Natijada yuqorida koʻrilayotgan tadqiqotlar oʻtmish, hozirgi zamon va kelajak oʻrtasida mustaxkam koʻprik yasash, taʼlim va tarbiya xakida kishilik jamiyati toʻplagan bitmas-tuganmas tajribani toʻla-toʻkis kelgusi avlodga tatbiq etish uchun tayyor koʻrsatmalar, xulosalar ishlab chiqish imkonini yaratadi.

4. Pedagogikada, xususan didaktikada oʻtkaziladigan tadqiqotlarning amaliy funksiyasi taʼlim jarayonidagi ochilgan qonuniyatlar obʻektiv didaktik xaqiqat

yanada chuqurroq tushunilish va bu jarayonlarga tadqiqotchi nuqtai nazaridan amaliy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Pedagogik tadqiqotlarning funksiyalari bir-birlari bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Nisbatan oddiy, ommabop hisoblangai tasniflash, tushuntirish tadqiqotlari ta'lim va maorifning hozirgi ahvolini yoritish imkonini yuzaga keltiradi. Tajriba, eksperimental tadqiqotlar ta'lim qonuniyatlarini anglab etish va tushuntirish, eng asosiysi bu jarayonlarni tushuntiruvchi nazariyalar yaratish imkonini beradi. Tushuntirish va eksperimental ma'lumotlarga asoslanib, kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar xususida dastlabki xulosalar chiqariladi va istiqboldagi ishlar rejasi va dasturi tuzilib, bevosita amalda tatbiq etish jarayoniga o'tiladi.

2. Pedagogik tadqiqotlar metodlari.

Bu yangicha dunyoqarash xalq ta'limida ilgari surilgan uzluksiz ta'lim va shaxs xislatlarini ijodkorlik ta'limi orqali rivojlantirishda ta'lim nazariyasi oldiga yapada yangi vazifalar qo'yadi. Bunday ulkan masalalar ayrim kamchiliklarni tugatish, «yamash» bilan echilmaydi. Xalq ta'limi tizimni tubdan o'zgartirish, uning rivoji uchun pedagogik, uslubiy, psixologik sharoitlarni yaratish talab etiladi.

Amaliyotdan shu narsa aniq ravshanki, har qanday ilmiy xulosa tajriba va ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi. Pedagogikada, xususan ta'lim va tarbiyada ilmiy tadqiqotlar hech qachon to'xtamaydi va uzluksiz davom etaveradi.

Pedagogik tadqiqotlarning predmeti sifatida maktab va boshqa o'quv yurtlarining faoliyati, uning maqsadi, dasturiy ma'nosi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati, tashkiliy shakl hamda ijtimoiy sharoitlar xizmat qiladi.

Didaktnkaning predmeti taxsil va ta'lim bilan bog'liq turli shakl va turlarda yuz beradigan xodisalar, faktlar xisoblanadi. Ta'lim va tahsil boshqa ijtimoiy voqeliklardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Didaktik tadqiqotlarning predmeti ijtimoiy faoliyatning aloxida shakli didaktik faoliyat hisoblanib, uning maksadi taxsil berish na o'zgarib borayotgan tarixiy ideallar va ijtimoiy talablar asosida odamlarni qayta tarbiyalashdir.

Didaktik faoliyat o'qituvchi va o'quvchilarning xatti-xarakatlaridan iborat. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilar bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, o'z dunyoqarashini, shaxsiy kadriyatlar tizimini shakllantiradilar. Taxsil natijasida o'quvchi shaxsining turli xislatlari shakllantiriladi. Bunday o'zgarishlarni kuzatish, xisobga olish didaktik tadqiqotlarning asoslaridan xisoblanadi. YUkoridagi o'zgarishlar, bir tomondan, o'qituvchining didaktik faoliyati ta'siridagi va o'z shaxsiy xatti-xarakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni taxlil qilishga imkon beradi. O'quvchilar va o'qituvchilarning o'quv sharoitlari, harakatlari, ta'lim mazmuni, uslub

va vositalari orasidagi bog'liqliklar, tabiat qonuniyatlari kandy ob'ektiv xarakterga ega bo'lsa, shunday ob'ektiv xarakterga egadir.

Ta'lim va tarbiyaga taallukli xatti-xarakatlarni tafakkurga asoslanib taxlil qilish redagogika va didaktikada yagona usul xisoblanadi. YAn Amos Qomenskiyning «Buyuk didaktika», K.D.Ushinskiyning «Inson tarbiya predmeti sifatida» asarlarlda masalaga shunday yondashishni ko'rish mumkin.

O'quv-tarbiya jarayoni xakida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borligan kuzatishlar, tajriba, faktlarga asoslangan emperik tadqiqotlar natijalariga asoslanish zarur.

3. Tadqiqotlarning tarixiy-takkoslash metodlari. Tarixiy metodlar. Podagogik tadqiqotlar, xususan, didaktik tadqiqotlar asosan o'qituvchining didaktik faoliyati bilan o'quvchilar taxsili natijasida hamda o'quvchilarning o'z faoliyatlari natijasida ular shaxsi, bilim, iqtidor va ko'nikmalarining o'zgarishi orasidagi bog'liqlikni ochishga qaratiladi. Xo'sh, bunday bog'liqlik didaktik tadqiqotlar natijasidan olinadimi yoki ularni yaqin, uzoq o'tmishdan olsa bo'lidimi? Amaliy hayot bu muammoga o'zicha javob beradi.

Tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida ijtimoiy munosabatlar ma'lumotning maksad va vazifalarini belgilab bergan. Masalan, sanoat ishlab chiqarishini industrilashtirish, ilmiy texnikaviy revolyusiya ma'lum darajada ta'lim va tarbiya mazmuni, shakllari va uslublarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi.

Tarixan ta'lim-tarbiyaning barcha hollarida yuz bergan o'zgarishlarning xususiyatlari, tamoyillari, qonuniyatlarini o'rganmasdan turib, ma'lumot masalalari haqida keng tasavvurga ega bo'lish mumkin emas.

Tarixiy pedagogik tadqiqotlarning maqsadi shunday qonuniyatlarni aniqlashdan iboratki, bu qonuniyatlar faqat yaqin va uzoq tarixni o'rganishni emas, shu bilan birga ta'limning hozirgi axvolini, undan ham muhimi- kelgusini belgilash imkonini bermog'i lozim

Nazariy taqqoslash- solishtirish metodi. Bunday pedagogik tadqiqot xalqaro pedagogik tadqiqotlarga asosan uch yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalish- turli mamlakatlardagi ta'lim va tarbiya tizimlarining umumiy qonuniyatlarini aniqlash. Dunyoda yuzdan ortiq ta'lim tizimlari mavjud. Albatta, mustaqil O'zbekiston Respublikasida eski ta'lim tizimi asosida ishlash mumkin emas. Boshqa mamlakatlarda amal qilib turgan ta'lim tizimlarining qulay ijobiy tomonlarini yuqorida ko'rsatilgan taqqoslash-solishtirish tadqiqotlari asosida bizning ta'lim tizimimizga ko'chirish mumkin.

Ikkinchi yo'nalish har bir ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni, ularni tasdiqlovchi faktlar to'plamini, turli tarixiy davrlardagi va turli tarbiya muhitlariga oid o'ziga xos tomonlarni aniqlashdan iborat.

Uchinchi yo'nalish ta'lim tizimlarining ichki xususiyatlarini aniqlash, o'xshash va farqli xususiyatlarini belgilab, ularning ta'lim tizimidagi umumiy xususiyatlar bilan bog'liq alomatlarini va alohida xususiyatlari sabablarini aniqlash imkonini beradi. Bu turdagi tadqiqotlar faqat statistik ma'lumotlar va anketalar natijasini tahlil qilish bilan chegaralanmaydi.

Ta'lim tizimlarini tadqiq etish maxsus taiyorgarlikdan o'tgan xalqaro ekspertlar guruhlarini tomonidan tegishli ilmiy-tekshirish tashkilotlari bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Buning uchun ilmiy-tadqiqotning maxsus konsepsiyasi, usullarini tanlab olish mezonlari ishlab chiqiladi va matbuotda e'lon kilinadi. Keng kitobxonlar va qizikuvchilar etiboridan o'tgan konsepsiya alqaro pedagogik uyushmalar tomonidan tasdiqlanadi va bevosita ishga kirishiladi.

Ta'lim tizimlarining o'xshashlik va alohidalik alomatlarini, ularning ildizlarini, sabablarini aniqlash birmuncha murakkab bo'lib, maorif tizimlarining yutuqlarini tadqiq etuvchi xalqaro assosiasiya eksperimentlari kabi atroflicha ilmiy-tekshirish ishlarini olib borishni talab etadn. Ta'lim-tarbiya omillarini tushuntirish va ularga tasnif berish nazariy taqqoslash-solishtirish usullarining asosny kismi hisoblanadi. Albatta, xamma ilmiy-tadqiqotlar yig'ilgan faktlarni tushuntirish bmlan ish tugamaydi.

Bu turdagi izlanishlarning yana bir o'ziga xosligi shundan iboratki, tabiiy fanlarda umumiy belgilar, atamalar, birliklar mavjud, pedagogik (didaktik) tadqiqotlarda esa bunday umumiy xalqaro birlik va atamalar deyarli yo'q. SHuning uchun ham olingan natijalarning tasnifi birmuncha sub'ektiv tus olishi mumkin. Bunday hollar ta'lim haqidagi statistik ma'lumotlarga matematik ishlov berish orqali bir-muncha to'g'rilanadi. Masalan, biron mamlakatdagi biron yilda tug'ilgan bolalarning maktablarga kamrab olinishi yoki ta'limga ajratilgan milliy daromadning foizi shu mamlakatning maorif masalalariga munosabatini asosan ob'ektiv belgilandi. Qolgan omillar ta'lim ahvolini belgilashda yuqorida ko'rsatilgan statistik ma'lumotlarni yanada chuqurlashtiradi.

Kuzatish metodi ta'lim-tarbiyaning mazkur vaktdagi holatini aniqlash imkonini beradi. Kuzatish usulining maqsadi bor faktlarni yoritishdangina iborat bo'lmay, bizga oldindan qo'yilgan maqsad bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan faktlarni qidirish va aniqlashdan iborat.

Kuzatish jarayonida tadqiqotchini qiziqtnruvchi muammo va vazifalar kuzatishni saylab (tanlab) o'tkazishni taqozo etadi. Tadqiqotchi muayyan tanlangan muammoni hisobga olib, nimani kuzatish kerakligini tanlab oladi. SHuning uchun ham u kuzatish natijasida echilishi kerak bo'lgan muammoni hali kuzatishni boshlamasdan oldinroq biladi. Natijada tadqiqotchining kuzatish natijalarini umumlashtirishi birmuncha osonlashadi.

Kuzatishga asoslangan tasniflash tadqiqotlari uch ko'rinishga ega: 1) obzor tadqiqotlari; 2) ta'lim-tarbiya unsurlari orasidagi bog'liqlikni aniqlash; 3) izlanish tadqiqotlari.

Bunday sharoitda kuzatish to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita amalga oshiriladi. To'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita kuzatish faktlarni qabul qilib olish, tushunib etish va o'lchashdan iborat. Qabul qilib olish- sezish organlari yordamida tekshiruvchi ob'ekt aniq joyda turganligini qayd qilish; tushunib etish tanlab olingan, qayd qilingan ob'ekt oldindan aniq yoki noaniqligini aniqlashdan, o'lchash esa shu ob'ektning sonini anik-lashdan iborat.

Bilvosita kuzatish ob'ektni bevosita kuzatish imkoniyati bo'lmaganda amalga oshiriladi. SHunday ob'ektdagi shaxsning tug'ma qobiliyati, imkoniyatlari, intizomlilik, rostlik, kamtarlik, kamsuqumlik kabi xislatlari kirishi mumkin. Bunday xislatlarni bevosita kuzatish natijasida aniqlash qiyin. SHuning uchun ham tadqiqotchi o'ziga qulay ko'rsatkichlardan foydalanadi.

Bevosita va bilvosita kuzatish bilan bir qatorda faol kuzatish ham qo'llaniladi. Faol kuzatishda didaktik jarayonda bevosita tadqiqotchining o'zi xam qatnashadi va jarayonning borishiga ta'sir etadi. Bunda ishtirok etishning ijobiy tomoni shundan iboratki, tadqiqotchi bo'lib o'tayotgan jarayonning ikir-chikirlarini tushunib etadi, bu esa o'quv jarayonini tadqiqot talablariga yo'naltirish imkonini beradi. Bunday usul ayrim kamchiliklariga qaramasdan, ijodkor-o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar faoliyatini faollashtirishda keng qo'llaniladi.

Bilvosita kuzatish tadqiqotchini hodisalarni o'rganishga ko'proq jalb etishga imkoniyat yaratadi. Mashg'ulotlar stenogrammalari, uchinchi odam tomonidai tayyorlangan kuzatish bayonlari, foto-kinolavhalar, rasmlar, diagrammalar, statistik mashg'ulotlar shular jumlasidandir. Bu hujjatlar pedagogik faoliyatning natijalarini xamda ijtimoiy muxit, xususan o'kituvchi faoliyatining o'quvchi shaxsida uyg'otadigan o'zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Ilmiy-tekshirish maqsadlarini aniqlash tadqiqotchini qiziqtirib qolgan muammoli xolatni taxlil qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bunday xolatni tahlil qilish va unda ma'lum va noma'lumlarni aniqlash, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, tajribali shaxslarning bu masalaga bergan baxosi tadqiqotchiing asosiy va ko'shimcha muammolarini aniqlash imkonini beradi.

O'zgaruvchan parametrlarni aniqlash va tahlil qilish. O'zgaruvchilar- bu tekshirilayotgan ob'ektda turli ahamiyatga ega bo'lgan omillardir, o'zgaruvchilar-tekshirilayotgan ob'ektning bizni qay tomondan qiziqtirayotganligi haqida axborot beradi.

Ta'limning salmog'i, rivojlanish tezligi, maktabning yutuqlari kabi murakkab o'zgaruvchilar ma'lum shkalalar asosida tartibga keltiriladi.

Muammolarni gipotezalar zanjiriga aylantirish tadqiqot jarayonining kelgusi bosqichi hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy muammosi yoki shu muammodan kelib chiquvchi savollarga tadqiqotchi dastlabki xomaki javoblar qidiradi. Izlanish davomida u yangi qo'shimcha axborotlar to'playdi va javoblar yanada rivojlanib boradi. Shunday qilib, qo'yilgan savollar gipotezalarga aylana boradi, kelgusi kidirish yo'nalishlarini belgilab beradi, boshqacha aytganda, ishchi gipotezaga aylana boradi.

Pedagogikadan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning jiddiy bosqichlaridan biri tadqiqot muammosini yechish bo'yicha bir yoki bir necha gipotezalarni belgilashdir. *Gipoteza- bu muammoni echishning taxminiy yo'lini ilmay tomondan tasdiklash demakdir.* Tadqiqotchi qo'yilgan muammomi atroflicha, xamma o'zgaruvchilarni hisobga olgan holda, tahlil qiladi. Gipoteza empirik jihatdan tasdiqlanmog'i darkor. Buning uchun eksperiment loyixasi tuzilib, eksperimental tadqiqotlar o'tkaziladi.

Tadqiqot texnikasini va "asbob-uskunalari"ni tanlash. Bu tadqiqotning mazkur bosqichida tadqiqot ob'ekti o'zgaruvchilarni tanlashga ko'p jihatdan bog'liqdir. Tadqiqot texnikasi atamasi yoki tadqiqot usuli yoki tadqiqot faoliyatining ketma-ketligi atamasi ishlatiladi. Ilmiy usul bu ilmiy muammoni echishda qayta-qayta ishlatiladigan usuldir. Tadqiqot texnikasi deganda, tadqiqot muammosini echish uchun ob'ekt va hodisalar haqida axborot to'plashda tez-tez kaytariladigan usul tushuniladi. Masalan, kuzatish usulida turli tadqiqot texnikasi ishlatiladi: *klinik kuzatish, savol-javob, zondlash, tanlab tekshirish va xujjatlar tahlili.* Bunday texnologiyadagi ishlatiluvchi «asboblar» turlicha bo'ladi. Ulardan keng tarkalganlari anketalash, psixologik yoki didaktik testlardir.

Tezkor yuz beradigan jarayonlarni qayd qilib, keyinchalik chuqur tahlil qilish uchun maxsus texnikaviy vositalar ham ishlatiladi. Bulardan fotoapparat, kinokamera, proektor, magnitofon, videomagnitofon yokn o'lchov asboblari va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Agar kuzatishda tadqiqotchi borliqni qanday bo'lsa, shundayligicha idrok qilib tekshirsa, eksperiment jarayoni bu borliqni o'zgartirib, uning ichki konuniyatlarini, unga ta'sir etishning samarador usullarlni aniqlaydi.

Eksperimentning birinchi xususiyati shundan iboratki, unda tadqiqotchining o'zi qatnashadi, ishni tashkil etadi, amalga oshiradi va natijani taxlil kiladi.

Ikkinchi xususiyati - o'quv-tarbiya jarayonining ichki qonuniyatlarini aniqlash uchun jarayon sharoitlarini o'zgartirish imkoni tug'iladi. Uchinchi xususiyati- o'quv-tarbiya jarayonini nazorat qilib, ularni anik o'lchash imkonidir. To'rtinchi xususiyati - eksperimentga ilmiy tus berib, ishchi gipotezani aiiqlashtirishdir. Demak, ekspernment shunday ilmiy-tadqiqot usulini, unda ta'lim-tarbiya

jarayonini nazorat qilish o'lchash va ishchi gipotezani yanada oydinlashtirish imkoni tug'iladi.

YUqorida ko'rsatilgan to'rt xususiyat bajarilsa eksperiment laboratoriya eksperimenti hisoblanadi, birinchisi bajarilmasa, bu tabiiy eksperiment deyiladi.

Pedagogikadan ilmiy-tadqiqot ishlarining metodologik asoslari:

1. SHaxsning ijodiy va faolyatlilik ma'nosi xaqidagi ta'limot.
2. SHaxsning o'zaro aloqabog'lash va o'zaro bog'liqligi xaqidagi ta'limot.
3. Munosabatlar nazariyasi
4. Mutaxassis shaxsini shakllantirish xaqidagi nazariya.
5. Bilish faoliyati haqidagi ta'limot.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish ilmiy tadqiqot metodlar:

I. Empirik darajadagi metodlar:

1) diagnostik metodlar (anketalash, hujjatlarni o'rganish, intervyu uyushtirish, suxbatlar), sosiometrik metodlar;

2) observation metodlar (bevosita va bilvosita kuzatish, to'g'ri va uzokdan kuzatish, bevosita jarayonda qatnashish orqali kuzatish, o'z-o'zini kuzatish);

3) prognostik metodlar (ekspertlar metodi bilan baholash, bir-biriga bog'lik bo'lmagan xarakteristikalarni umumlashtirish, modellashtirish, ekstropolyasiya, shkalalash, ranglash, «Dolfa metodi» va boshqalar);

4) eksperimental metodlar (sifat eksperimenti, o'lchash eksperimenti, konstataziya eksperimenti, shakllantirish eksperimenti, prognostik eksperiment va boshqalar);

5) praksimetrik metodlar (faoliyat natijalarini analiz qilish, modellashtirish, professiografik va psixografik analiz, xronometraj);

6) matematik metodlar (korrelyasion analiz, faktorli analiz, dispers analiz va boshqalar).

II. Nazariy darajadagi metodlar:

1) Ilmiy bilish darajadagi metodlar:

- psixologo-pedagogik va sosial adabiyotlarni analiz qilishi;
- empirik materiallarni sintez qilish;
- to'plangan materiallarni tasniflash;
- tekshirilayotgan jarayonini deduksiyalash;
- induksiya qilish;
- analoglarni ko'rish;
- modellashtirish.

2) Mantiqiy analizga asoslangan metodlar:

- o'xshatishlik metodlari;
- o'ziga xosligini aniqlash metodlari;
- o'ziga xos uzviy bog'liqligi o'zgarishlarini analiz qilish metodi.

Ilmiy tadqiqot bosqichlari:

1-bosqich. Nazariy izlanish bosqichi. Bu bosqichda tadqiqot muammosi ilmiy jihatdai obdon o'ylab ko'riladi.

Kerak bo'lganda muammoning hozirgi axvolini chuqurroq tushunib etmoq uchun uzoq va yaqin o'tmishni tarixiy-nazariy analiz qilinadi. Natijada tadqiqotning tub negizi aniqlanadi, tadqiqot maqsadiga mos adekvat metodologiya va tadqiqot metodlari aniqlanadi, tushunchalar apparati kiritiladi, umumiy va xususiy gipotezalar, taxminlar qo'yiladi, tadqiqotni tashkillashtirish elementlari belgilanadi.

Bu bosqichda yana tadqiqot ob'ektining (institut, maktab, kolledj, lisey va hokozalar) ish tajribasi o'rganiladi, umumlashtiriladi va analiz qilinadi. O'rganilayotgan muammo bo'yicha talabalar, bitiruvchilar, o'qituvchilar kuzatiladi, suhbat, anketalar o'tkaziladi, intervyular olinadi, o'quvmetodik va rejalashtirish hisobot hujjatlari o'rganiladi. Tadqiqot tub maqsadlarini aniqlashtirish maqsadida izlanish eksperimentlari o'tkaziladi.

2-bosqich. Eksperimental-diagnostik bosqichida o'quv-tarbiya jarayonining mexanizmi, xossalari, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, jarayon rivojlanishinng sifat belgilari, tezligi, shiddatkorligi, darajalari o'rganiladi.

Bu bosqichda hisobga olish eksperimenti bilai bir qatorda anketalash, suhbatlar, o'z-o'zini baholash, reyting baholash, shkalalash, ranglash kabi metodlar orqali dastlabki sinov shakllantirish eksperimentlari o'tkaziladi.

3-bosqich. Tajriba eksperimental bosqichida nazariy va metodik ishlanmalar, yangi darslik o'quv qo'llanmalari, o'qitishning yangi izchil metodlari tekshirib ko'riladi va tegishli aniqliklar kiritiladi.

4-bosqich. Yakunlovchi umumlashtirish bosqichi xisoblanadi. Tadqiqot natijasida olingan natijalar yana bir bor sistemaga solinadi, ishlab chiqiladi, ksrak bo'lgan xollarda ilmiy-tadqiqot natijasida olingan metodik yo'riqnomalar, xulosalar qaytadan tekshirib ko'riladi yoxud o'quv yurtlari amaliyotida bevosita qo'llab ko'rib, tegishli xulosalar olinadi.

Nazorat savollari:

- 1.Kasb ta'limi pedagogikasida qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari.
2. Pedagogik tadqiqot funksiyalari nimalardan iborat?
- 3.Eksperiment tajriba-sinov metodining talablari nimalardan iborat?
- 4.Empirik darajadagi metodlar nima?

II-SEMESTR NAZARIY MASHG'ULOTLAR

1-mavzu: Kasb ta'limi dual tizimi (2 soat)

Reja:

1. Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash.
2. Ta'limini ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari turlari.
3. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilar ishlab chiqarish moslashuvchanligi.
4. Kasb ta'limi dual tizimi.

Tayanch so'z va iboralar: ishlab chiqarish, jarayonlari bilan bog'lash, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi, ishlab chiqarish moslashuvchanligi, dual tizimi, keng profilli, yuqori malakali, prognostik, malakaviy.

Dual Ta'lim: Germaniya Tajribasi Va Rossiyada Joriy

kasb-hunar ta'limi dual tizimi, integratsiya, ta'lim modeli. Nazariy ta'lim ta'lim muassasasida amalga oshiriladi. amaliy qismi ish joyida tashkil etilgan. Ushbu dasturning bir qismi sifatida kompaniyasi mutaxassislari, ma'lum bir miqdordagi uchun so'rov jo'natadi. Ta'lim muassasalari, o'z navbatida, ish beruvchilar ishtirokida o'quv dasturini tashkil etadi. nazariy bilim olish jarayonini to'xtatib qo'yishadi holda kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan talabalar uchun




mashq.

CHET EL TAJRIBASI

birinchi dual ta'lim Germaniyada joriy etildi. Uning tajribasi endi butun Yevropa Ittifoqi uchun model hisoblanadi. Germaniyada dual ta'lim korxonalarining faol ishtiroki bilan ifodalanadi juda yaxshi rivojlangan murabbiylikka, o'z ichiga oladi. Bu ta'lim modeli mamlakatda qattiq qonun ramkaga. dual ta'lim hunarmandchilik va savdo-sanoat palatalari ishtirokida amalga oshiriladi.

MODELI QIYMATI

dual ta'lim tizimi kompaniya faoliyatining xususiyatlari ko'rinishida xodimlar tayyorlash uchun uchun ajoyib imkoniyatdir. ta'lim dasturi doirasida tashkil maksimal muvofiqligi ehtiyojlarini erishdi. Bundan tashqari, kompaniya xodimlari, ularning qayta tayyorlash va moslashish qidiruv va tanlash bo'yicha pul tejash imkonini beradi. dual ta'lim siz eng yaxshi talabalarni tanlash imkonini beradi. O'z kelajagi mutaxassislari yaxshi turtki olish. Trening yakunida, ular zavodida ishga kafolatlanadi. Bu, shuningdek, er-xotin, ta'lim joriy etish ijobiy ish bozor resurslari kompaniyalar obro'siga va ularning tasvirni ta'sir ta'kidlash lozim. dasturlarida ishtirok etish uchun, lekin o'z seminarlar tashkil qilish imkoniyati yo'q istagan kichik korxonalar uchun, savdo palatalari ko'magida mezhproizvodstvennye o'quv markazlari shakllangan.



MAQSADLI MODEL

dual darajasi mustaqilligini va kattalar hayotida yosh mutaxassislar og'riqsiz moslashishini targ'ib qilish uchun mo'ljallangan. Dasturlar allaqachon tayyorlash paytida, ular o'z ish uchun kompensatsiya olish boshlanadi, bunday tarzda mo'ljallangan. Dual darajasi ish muhiti bir tekis kirish tajriba va nazariy bilim etishmasligi bilan bog'liq turli stress bartaraf beradi. Dastur faqat ko'nikmalar ta'lim alohida vazifalarni amalga, balki qobiliyatini shakllantirish jamoalar, ijtimoiy vakolati va mas'uliyat bilan ishlashga emas qaratilgan.

ISHGA QABUL QILISH TA'SIRI

ish talabalar uchun amaliyot doimiy beradi professional o'sishi. dasturlarida ta'lim darajasi doimiy oshiradi. nisbatan yaqingacha talaba 14 yashar bolalar bo'ladi. Ayni paytda, ular orasida mustahkam bilim bazasi bilan juda etuk yoshlarni ortib bormoqda. Har bir oltinchi talaba to'liq ta'lim sertifikatiga ega. Biroq, ularning ko'pchiligi bir kasb o'rganish birinchi afzal, bir universitet kirishga hech oshiqadi. Bu juda oqlanadi. Axir, hech kim oliy ta'lim dual tayyorlash sifatida ishlab chiqarish haqida bunday bilim bermaydi. Bu haqiqat alohida ahamiyat kasb qachon

mansab Heights dasturlarini beradi.



DAVLAT UCHUN QIYMATI

Hukumat, dual ta'lim joriy, samarali malakali kadrlar tayyorlash muammosi hal. yuk topshirig'iga Germaniya iqtisodiyoti, eng avvalo korxonalarining bo'ladi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, xodimlar 40 dan ortiq milliard evro tayyorlash uchun kompaniyaning yillik xarajatlar. Bu miqdor universitetlar kontent xarajatlarini nisbatan sezilarli darajada yuqori. Davlat kasb-hunar maktabi tizimini rivojlantirishni moliyalashtirish, korxonalarda mutaxassislar tayyorlash uchun yordam beradi. hukumat asosiy vazifasi qonun hujjatlarini muvofiqlashtirish hisoblanadi.

TARTIBGA SOLISH QO'LLAB-QUVVATLASH

Germaniyada, bir qonun, kasb-hunar ta'lim tartibga soluvchi va "merosimiz kodeksi". Ushbu tuzilmalar biznes va maktablar bilan yoshlarning hamkorlikni boshqarish. Qonunchilik ikki ta'lim ishtirok etishi mumkin bo'lgan kompaniya belgilaydi. 3,6 million yarmida bir million tashkilotlar ishtirok. korxonalar va xodimlar tuzilmalarini - ishtirokchilarni tayyorlash qoidalarini tarif muzokaralar qabul qildi. harakatlar ularni qo'yib vazirlar darajasida amalga oshiriladi. Mehnat vazirligi, o'z navbatida, ta'lim ta'minlash hisoblanadi. Bu imtihon talablari tartibga soladi.

IDORALARARO HAMKORLIK

Kasbiy ta'lim uchun Federal instituti tomonidan belgilangan sheriklik umumiy mafkurasi. Ta'lim uning nemis vazirligi asosida boshqa manfaatdor idoralar va vazirliklar bilan hamkorlik qiladi. Ishlari Doimiy konferensiyasi federal davlatlar. Bu har bir ma'muriy birlik ta'lim vazirlari ishtirok etmoqda. Har bir maydon barcha kasb-hunar maktablari faoliyatini monitoring qilinmoqda yilda kelishilgan o'qituvchilari va o'quv dasturlari mazmunini ta'minlash uchun model qoidalariga rivojlanishini qildi. kasb-hunar ta'lim masalalari bo'yicha mintaqaviy palatalari bilan huquqiy nazorat va o'zaro sifatida tasniflangan yer vazirliklar vakolatlari. tashkilotlar zarur talabalar uchun sharoitlar, shuningdek, qidiruv kengashlari shakllantirishda nazorat ega vazifaning oxirgi qismida. Natijada, mamlakat proftehpodgotovki doirasida sohasida ularning muayyan muammolarni hal qilish hududiy birliklar imkoniyati bilan yagona ta'lim

makonini tomonidan taqdim etiladi.



ROSSIYADA TA'LIM

Biznes ta'lim ichki sohada, shuning uchun yaxshi emas. Shunday bo'lsa-da, davlat darajasida, vaziyatni yaxshilash uchun doimiy ish olib borilmoqda. Xususan, allaqachon Strategik tashabbuslari agentligi (emlash) tanlovini g'alaba qozonish uchun, viloyatlar bilan hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzoladi. Yaroslavl, Kaluga, Sverdlovsk, Ulyanovsk, Volgograd, Nijniy Novgorod va Moskva viloyati, Krasnoyarsk va Perm va Tatariston Respublikasida: Mamlakatimizda dual ta'lim 10 viloyatlarida joriy etiladi. shartnomalar imzolanishi nafaqat viloyatlar va Agentligi, lekin iqtisodiy taraqqiyot, Promtorg mehnat vazirligi edi. Bundan tashqari, tomonlar Rossiya Federatsiyasi Ta'lim vazirligi va Savdo-Rossiya-Germaniya palatasi edi. Agentlik direktori D. Peskov, dastur mamlakatning prezidenti V. V. Putinym tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, deb aytdi. Davlatimiz rahbarining Assambleyaga o'z nutqida, ta'lim modellarini joriy etish bo'yicha yuqori malakali ishlab chiqarish xodimlari shakllantirish uchun samarali qaratilgan. Prezident Rossiyada ta'lim yangi kurs chiqib umid bildirdi. O'quv dasturlari, o'z navbatida, an'anaviy modellari aylangan.

"DUAL TA'LIM": XUSUSIYATLARI

ishlab chiqarilgan taklif korxonalar, uyushmasini ta'lim muassasalari va mintaqaviy hokimiyat. muayyan ish o'rinlari uchun kadrlar tayyorlash Co-moliyalashtirish o'zi uchun zarbalar buyurdi kompaniyalar va sub'ektlari organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu mamlakatda dual ta'lim tajribasi bo'ldi, deb qayd etish lozim. Biroq, bugungi kunda dasturi rejasiz iqtisodiyotning ostida kiritildi. yuqori sifatli xodimlari olish g'amxo'rlik kompaniyalar ixtiyoriy ravishda muammolarni hal qilish va mutaxassislar tayyorlash uchun mas'uliyatni bilan baham ko'rish uchun




izlashga.

DASTURNING MAQSADLARI

Ishlab chiqish va tayyorlash hozirgi darajasini ta'minlash va davlat-xususiy sektor hamkorligi doirasida ilg'or yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ustuvor tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash qaratilgan dual ta'lim loyihasi amalga oshirish. dasturning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. 14 markazlari asoslangan ta'lim modellarini ishlab chiqish, sinov va modernizatsiyalash.
2. yuqori malakali kadrlar tayyorlash jalb muhandislik-pedagogika mutaxassisliklari xodimlarining malakasini oshirish.
3. kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun moddiy-texnik bazasini shakllantirish.
4. Foydalanish prognozlash uslublari o'rta muddatli kadrlar talab. Misol sifatida, Moskva viloyati mudofaa korxonalarini mavjud. Bu maqsad ta'limning barcha darajalarida rejalashtirish va elektron ta'lim hajmini, davlat buyurtmasini shakllantirish ta'minlash va qabul qiluvchi raqamlarini

nazorat qilishni maqsad qilgan.



5. hisobga ish beruvchilar talablarini hisobga olgan holda, mazmuni, tuzilishi, o'quv dasturlari, texnologiyalar joriy etish moslashtirish, joriy standartlari, mehnat bozori Outlook va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.
6. asoslangan ijtimoiy akkreditatsiya mexanizmlari yordamida modulli qodir yondashuv ish beruvchilar va ularning birlashmalari bevosita ishtirokida va qoidalari.
7. mustaqil tahlil va ta'lim sifatini baholash, malaka tan tizimini takomillashtirish uchun shakllantirish shartlari.
8. korxonalarda resurs markazlari tashkil etish yo'li bilan, shu jumladan, ish joylarida ta'lim modellari, ishlab chiqish.
9. professional ta'lim boshqarish sohasida ish beruvchilar vakolatlari doirasiga va fazilatlarni e'tirof kengaytirish.
10. filiali markazlari tashkil etish, shu jumladan, kasb-hunar ta'lim, bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'quv-uslubiy qo'llab-quvvatlash hududiy dasturi takomillashtirish.
11. kasb-hunar ta'lim muassasalari texnik modernizatsiya qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.



XULOSA

ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim ta'siri javobgarlik qismi ishbilarmon doiralari vakillari o'tadi sharti ostida olinishi mumkin. Bu holda, davlat, ish beruvchilar va o'quv yurtlari o'rtasidagi hamkorlikning birgalikda zonasi tashkil qilinishi kerak. Mutaxassislarning fikricha, xorijda dual ta'lim tajribasi joriy muvaffaqiyatli Rossiya Federatsiyasi foydalanish mumkin. Amaldagi qonun hujjatlari bugun bizga zamonaviy shart-sharoitlar qondirish uchun bu modelini amalga oshirish imkonini beradi. Lekin, albatta, chet ellik sheriklar tajribasi Rossiyada moslashishni talab qiladi.

Nazorat savollari:

1. Kasb-hunar ta'imini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash qanday amalga oshiriladi?
2. Ta'limini ishlab chiqarish orqali amalga oshirishning qanday shakllari va turlari mavjud.
3. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilar ishlab chiqarish moslashuvchanligi qanday amalga oshiriladi?
4. Dual ta'lim tizimining qanday ustunliklari mavjud?
5. Dual ta'lim tizimining qanday kamchiliklari mavjud?
6. Ishlab chiqarish amaliyotining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

Foydalanilgan adabiyotlar

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O'.Q., Barakaev M., Sharipov Sh.S. Kasbiy pedagogika (ma'ruzalar matni). – T.: “Ofset-print” matbaasi, 2001. –100 b
2. Olimov Q. T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. –T.: 2006. 164 b.
3. Sharipov Sh. va b. Kasb ta'lim pedagogikasi (metodik qo'llanma). -T.:TDPU, 2006 y.
4. Rashidov H.F. va boshqalar. “Kasbiy pedagogika” blokini o'qitish metodikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.
5. Nishonaliyev U.N. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Abdiquddusov.O.,Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi.O'quv qo'llanma.. O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009. 120 b.
7. H. Fry, S. Ketteridge, S. Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. New York. 2009. -544 p. ISBN 0-203-89141-4
8. Omonov H.T., Xo'jaev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T.:Moliya, 2012.- 199 b.
9. Fayzullaeva D.M., Ganieva M.A., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami. Metodik qo'llanma / O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida innovatsion ta'lim texnologiyalari seriyasidan – T.: TDIU, 2013. – 137 b.

2-mavzu: Kasb ta'limi dual tizimi (2 soat)

Reja:

1. Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash.
2. Ta'limini ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakllari turlari.
3. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilar ishlab chiqarish moslashuvchanligi.
4. Kasb ta'limi dual tizimi.

Normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portalida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi professional ta'limida o'qitishning dual tizimini tashkil etish to'g'risida”gi qarori loyihasi muhokamaga [qo'yildi](#).

Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasi professional ta'limida o'qitishning dual tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlanadi.

Ma'lumot o'rnida qayd etish joiz, Dual ta'lim – ta'lim dasturining nazariy, o'quv-amaliy qismi professional ta'lim muassasasida, malaka hamda kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qism korxonada (tashkilot)da tashkil etiladigan o'qitish turi hisoblanadi.

Loyihada dual ta'lim tashkil etiladigan professional ta'lim muassasalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi, vazirliklar va idoralar taklifi asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanishi qayd etilgan.

Hujjatga muvofiq, Dual ta'lim bitiruvchilari o'z xohish istaklari bo'yicha kelgusida mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin. Bunda korxonada (tashkilot) bitiruvchilarni ishga qabul qilish majburiyatini olmaydi.

Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi professional ta'limida o'qitishning dual tizimini tashkil etish to'g'risida”gi qarori loyihasi [e'lon qilindi](#). O'zbekiston Respublikasi professional ta'limida o'qitishning dual tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanadi. Nizomga ko'ra, dual ta'limni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qilinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar hamda oliy ta'lim muassasalari tegishli kasb (mutaxassislik)lar bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan ehtiyoj asosida dual ta'lim joriy etiladigan korxonada (tashkilot)larni aniqlaydi va ro'yxatini Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etadi. Bunda, mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi korxonada (tashkilot)lar dual ta'lim joriy etish bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taklif kiritishlari mumkin.

Dual ta'lim tashkil etiladigan professional ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Dual ta'lim tashkil etilishi ko'zda tutilayotgan ta'lim muassasalari imkoniyatlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan ekspertlar ishtirokida o'rganilishi mumkin.

Kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shaklida ta'lim olayotgan o'quvchilar dual ta'limga o'qishini ko'chirish taqiqlanadi. Shuningdek, Ta'lim muassasasi va korxonalar (tashkilot) o'rtasida yoki korxonalar (tashkilot) va o'quvchi(lar) o'rtasida tuzilgan shartnoma bekor qilinganda o'quvchi(lar) o'qishi mos ta'lim darajasidagi kunduzgi ta'lim shakliga o'tkaziladi.

Dual ta'limda o'quvchilar to'lov-kontrakt yoki davlat buyurtmasi bo'yicha davlat granti asosida ta'lim olishlari mumkin.

To'lov-kontrakt miqdori tizimida Ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, yirik va kichik biznes sub'yektlarida aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirish uchun mehnat faoliyati bilan ta'limni uyg'unlashgan holda tashkil etish orqali malakali kadrlar tayyorlash - Dual ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Dual ta'limni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonalar (tashkilot)dagi ishlab chiqarish sharoitlari bilan Ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarini o'zaro bog'lash;
- o'quvchilarni mehnat faoliyati ishtirokchisiga aylantirish orqali ta'limning ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini korxonalar (tashkilot)larda hamda nazariy va o'quv-amaliy qismini Ta'lim muassasalarida tashkil etish;
- hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish hamda iqtisodiyotning real ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashni takomillashtirish;
- korxonalar (tashkilot)lar hamda Ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlik formatlari va modellarini ishlab chiqish;
- ta'lim dasturlarini mehnat faoliyati bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirgan holda kompetensiyalarni shakllantirish;
- ta'lim dasturlarini ish beruvchilarning talablari va ulardagi texnologik yangilanishlar asosida takomillashtirib borish;
- kadrlarni tayyorlash va ta'lim dasturlarini amalga oshirishni moliyalashtirish;
- korxonalar (tashkilot)lar va Ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro tarmoq hamkorligining shakl va uslublarini takomillashtirish;
- bitiruvchilarni baholashda korxonalar (tashkilot)lar ishtirokini yanada kengaytirish;

- turli yoshdagi aholi qatlamini tegishli kasb (mutaxassisliklar) bo'yicha kvalifikatsiyalarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.

Dual ta'limni amalga oshirish quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Dual ta'lim tashkil etiladigan korxonalar (tashkilot)larni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi, vazirliklar va idoralar taklifi asosida aniqlash;
- Korxonalar (tashkilot) va Ta'lim muassasasi hamda korxonalar (tashkilot) va o'quvchi o'rtasida shartnoma tuzish;
- O'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;
- Kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish;
- Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda yangilab borish;
- Mehnat bozorida kadrlarga bo'lgan talab va takliflarni inobatga olgan holda Dual ta'lim jarayonini tashkil etish;
- Dual ta'lim dasturlari asosida tayyorlanayotgan kadrlarni baholash.

Nazorat savollari:

1. Kasb-hunar ta'limini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash qanday amalga oshiriladi?

2. Ta'limini ishlab chiqarish orqali amalga oshirishning qanday shakllari va turlari mavjud.

3. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilar ishlab chiqarish moslashuvchanligi qanday amalga oshiriladi?

4. Dual ta'lim tizimining qanday ustunliklari mavjud?

5. Dual ta'lim tizimining qanday kamchiliklari mavjud?

6. Ishlab chiqarish amaliyotining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

3-mavzu: O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi mazmuni. O'MKHT kasblari va mutaxassisliklarini turkumlash (2soat)

Reja:

1. Xalq xo'jaligi tarmoqlari, sanoat - qishloq xo'jaligi, kichik korxonalar, kichik biznes.

2. O'MKHT dagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi.

3. O'MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimi

Tayanch iboralar: Xalq xo'jaligi, moddiy ishlab chiqarish, nomoddiy ishlab chiqarish, ishlab chiqarish komplekslari, mehnat unumdorligi, kichik biznes, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar, ixtisosliklar, umumdavlat tasniflagichi, kichik mutaxassis, nazariy ta'limi, ishlab chiqarish ta'limi.

1. Xalq xo'jaligi tarmoqlari, sanoat - qishloq xo'jaligi, kichik korxonalar, kichik biznes

Xalq xo'jaligi mamlakatimizda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik asosida

vujudga kelgan ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidir.

Ijtimoiy mehnat taqsimotiga muvofiq xalq xo'jaligi faoliyatning ikki katta sohasini - ishlab chiqarish (moddiy ishlab chiqarish) va nomoddiy ishlab chiqarish sohaslarini o'z ichiga oladi.

Ana shu sohalarning tarkibi o'zaro munosabati va bir-biriga bog'liqligi mamlakatimiz xalq xo'jaligi strukturasi tashkil etadi.

qurishdir. Transport, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa qurilishlar bir-biridan farq qiladi.

Transport xalq xo'jaligi va aholini xilma-xil yuklarni tashish ehtiyojini uzluksiz hamda o'z vaqtida ta'minlaydi.

Aloqa jamiyatning ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatida, aholining madaniy maishiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. U axborotlarning uzatilishini ta'minlaydi va pochta, telegraf, telefon, radio, televideniya o'z ichiga oladi. Xalq xo'jaligi tarmoqlari strukturasi to'xtovsiz takomillashmoqda. Masalan, sanoatda atom energetikasi va atom mashinasozligi kabi yangi tarmoqlar, elektron, mikrobiologiya sanoati va hokazolalar vujudga keldi. Xalq xo'jaligini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi uning tarmoqlar tarkibini takomillashtirish - tarmoqlararo xalq xo'jaligi komplekslarini vujudga keltirishdir. Bunday komplekslarning bir nechta turlari bor.

Mashinasozlik kompleksi mamlakat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini mehnat vositalari bilan ta'minlaydi, shunga ko'ra ularning rivojlantirish sur'atini va ishlab chiqarish samaradorligini ham ko'p darajada belgilaydi. Bu kompleksga energetika, og'ir mashinasozlik va transport, kimyo va neft, qurilish, yo'l mashinasozligi, stanoksozlik va asbobsozlik, elektrotexnika, elektron sanoat, avtomobil sanoati va boshqa ayrim tarmoqlar kiradi.

Mashinasozlik kompleksini, birinchi navbatda stanoksozlik, hisoblash texnikasi ishlab chiqarish, kabi tarmoqlarni, elektrotexnika va elektron sanoatni jadal rivojlantirish mo'ljallangan. Fan texnika taraqqiyoti eng avvalo mana shularning rivojlanishiga bog'liqdir.

Konstruksion materiallar ishlab chiqarish kompleksiga qora va rangli metallurgiya, kimyo va neft, sellyuloza va yog'ochni qayta ishlash, qurilish materiallari kiradi.

Agrosanoat kompleksi - tarmoqlararo murakkab ishlab chiqarish iqtisodiy tizim bo'lib, uchta asosiy texnikaning sohasini o'z ichiga oladi. Birinchisi - ishlab chiqarish vositalari, unga takror va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, chorvachilik va yem-xashak tayyorlash mashinasozligi, yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi, kombikorm va mikrobiologiya sanoati va sanoat turlari kiradi.

Agrosanoat kompleksidagi kapital qurilish ham ana shu sohaga taalluqlidir.

Ikkinchisi - bevosita qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi (o'simlik- shunoslik va chorvachilik tarmoqlari, agrokimyo va veterinariya, sanitariya xizmati, mehnatkashlarning yordamchi xo'jaliklari).

Uchinchisi - qishloq xo'jalik xomashyolarini (oziq-ovqat, go'sht- sut, un- yorma va hokazolarni) tayyorlash, saqlash va qayta ishlashni ta'minlaydigan ishlab chiqarish tarmoqlari, shuningdek, mahsulotlarni realizatsiya qilish bilan bog'liq tashkilotdir.

Agrosanoat kompleksining asosiy vazifalari qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishini uzluksiz o'stirishga erishish, mamlakatni oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo'jaligi xomashyolari bilan ishonchli ta'minlashdir.

Xalq xo'jaligi kompleksini dinamik va proporsional rivojlantirish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish tomon keskin burilish yo'liga o'tish, uning sifati va samaradorligini oshirish vazifasini qo'ydi. Bu vazifani amalga oshirishning asosiy vositalari fan texnika taraqqiyoti jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini tubdan o'zgartirish, fan va texnikaning eng yangi yutuqlari bazasida xalq xo'jaligini chuqur rekonstruksiyalashdir. Bunday rekonstruksiyalash barcha tarmoqlar va xalq xo'jaligi komplekslariga, birinchi navbatda mamlakat iqtisodiyotining poydevori

- og'ir sanoatga taalluqli bo'lib, mashinasozlikning rivojlanishi birmuncha tezlashtirish chiqarilayotgan mahsulotlarning texnikaviy darajasini tubdan yuksaltirish talab qilinmoqda.

Agrosanoat kompleksi tarmoqlarini jadal va proporsional rivojlantirish qishloq xo'jaligini industrial bazasiga o'tishini tugallash, barcha tarmoqlarini xo'jalik ekinlarini hosildorligini va chorvachilik mahsuldorligini ta'minlashga mo'ljallangan.

Yengil sanoat va bevosita aholi ehtiyojlarini qondirish uchun ishlaydigan tarmoqlarni, transport va aloqani jadal rivojlantirish zarur. Kapital qurilishni sifat jihatdan yangi industrial va tashkiliy darajaga ko'tarish rejalashtirilmoqdaki, busiz xalq xo'jaligini texnik rekonstruksiyalash mumkin emas.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirilishi eng kam mablag¹ sarflab, eng katta xo'jalik natijalariga erishish demakdir. Bu esa o'z navbatida xo'jalik ishlab chiqarishga qo'shilgan, ya'ni xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya ishchilarning mehnat haqi uchun sarflangan har bir so'm maksimal darajada foyda keltiradigan yo'sinda yuritish kerakligini bildiradi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirishning ikkita: ekstensiv va intensiv yo'llari bor.

Birinchi yo'l korxonaning, ulardagi yangi ishchilarni jalb qilish. Materiallar to'plash hisobiga ishlab chiqarishni kengaytirishdan iboratdir.

Ikkinchi yo'li esa yanada mukammal texnologiyadan, texnikadan foydalanish, ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil etish, intizomni mustahkamlash, mavjud resurslarni tejab ishlatish orqali ko'zlagan natijaga erishishdir.

Ishlab chiqarishni intensivlashtirishda, xo'jalik masalalarini oqilona hal qilishda rejalashtirish katta rol o'ynaydi. Rejalashtirish - zamonaviy sharoitda xalq xo'jaligini boshqarishning markaziy bo'limidir. Xalq xo'jaligi rejalarining bir qancha turlari mavjud bo'lib, besh yillik va yarim yillik rejalaridir. Har qanday korxonada faoliyati rejaga asoslanadi. Yuqori tashkilotlar (vazirliklar, idoralik) korxonalar rejalarining faqat eng zarur ko'rsatkichlarini: mahsulot ishlab chiqarish hajmi va muddati, buyumlarining asosiy turlari hamda boshqa ba'zi narsalarni tasdiqlaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun qishloq mahsulotlarini xarid qilishda erkinlik va davlat rejalarini belgilanadi. Xo'jalik va turli ekiladigan maydonlarini, chorva mollari boshini, har xil ishlarini amalga oshirish muddatlarini o'zlari mustaqil holda rejalashtiriladi.

Davlat har qanday korxonani tashkil qilishda uning ishlashi uchun zarur binolar, materiallar, texnika, pul mablagʻlari ajratiladi. Korxonada esa bulardan foydalanib ishchilarini toʻplaydi, materiallar, asbob- uskunalar sotib oladi, oʻz mahsulotlarini realizatsiya qiladi, boshqa korxonalar bilan shartnoma tuzadi, oʻzining moliyaviy ishlari yuritiladi.

Har bir buyum korxonaga qanchadan tushadi? Korxonada oʻziga berilgan binolar, inshootlar, mashinalar, stanoklar uchun davlatga asta- sekin, qismlarga boʻlib qarzini toʻlaydi. Buni amortizatsiya (narxini qoplash) xarajatlari deyiladi. Tayyorlangan mahsulotlarni tashish va realizatsiya qilishi uchun ham muayyan sarf-xarajatlarni taqozo etadi. Barcha ishchi va xizmatchilarning mehnati uchun haq toʻlash kerak. Xarajatlarning bir qismi yoritish, isitish binolari uchun shu bilan bogʻliqdir.

Korxonada foydani koʻpaytirishdan manfaatdormi? Foyda nimalarga ishlatiladi? Foydaning qancha qismi davlat ixtiyoriga oʻtadi (bu byudjetga ajratiladi). Ular yangi zavodlar, fabrikalar, turar joy binolari, maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar, yoʻllar qurishga, talabalarning taʼlimiga, boshqarish apparati xodimlarining maoshlariga, barcha kishilar uchun tibbiy xizmat koʻrsatishga, vatanimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga sarflanadi.

Korxonada xoʻjalik hisobi sharoitida muvaffaqiyatli ishlashi uchun mehnatni yaxshi tashkil etish, tejamkorlikning gʻoyat jiddiy rejimi zarur. Bunday vazifa xomashyo, materiallar, yoqilgʻi, elektro-energiya, yer- mulk va ishchilardan kam miqdorda foydalanib koʻp mahsulot olishdan iborat boʻlib, ishlab chiqarishdagi tejamkorlik rejimining maʼnosi ham shundadir. Bu rejim oddiy narsalardan vujudga keladi. Ishlab chiqarishda buyumlarni kam material ketadigan qilish, qimmat tabiiy materiallar oʻmiga sunʼiy materiallar ishlatish, buyumlarning chidamliligini oshirish, kam chiqindiligi, resurslari iqtisod qiladigan texnologiyani joriy etish orqali materiallarni tejashga erishiladi.

Har bir ishchining ish vaqtidan ratsional va toʻliq foydalanish - ishlab chiqarishdagi tejamkorlik rejimini kuchaytirishning asosiy shartlaridan biridir. Ish vaqti bunday foydalanish bir yoʻla koʻp mahsulotlar tayyorlash, shu orqali uning tan narxini arzonlashtirish va korxonaning foydasini koʻpaytirish imkonini beradi. Ish vaqti mehnat sarflanishning eng muhim oʻlchovidir. Mehnat sarflashning samara- dorligi - mehnat unumdorligidir. U vaqt birligi ichida tayyorlangan buyumning miqdorida oʻz ifodasini topadi.

Mehnat unumdorligi anchagina omillarga, yaʼni texnika va ilgʻor texnologiyani joriy etishga, ishlab chiqarish sifatli tashkil qilishga, mehnat intizomini mustahkamlash, ishchilarni malakasini oshirish va hokazolalar orqali sarflanadigan ish vaqtini qisqartirishga bogʻliq. Mehnat unumdor- ligini oshirish iqtisodiy oʻsish va xalq farovonligini yuksalishining asosiy omillaridir.

Kichik biznesning davlat tomonidan qoʻllab - quvvatlanishi quyidagi tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi: byudjet orqali bevosita yordam puli. Pul hajmi kichik biznes sugʻurta qiliunagan zararlarni qoplash uchun belgilangan boʻlishi kerak. Yordam puli innovatsiyaning xavfli loyihalarini qoplaydi va katta biznes talab qilmaydigan mahsulot

turlarini ishlab chiqarishni kuchaytiradi.

Davlat bank kreditlarni olishda kafil sifatida chiqadi. Shuning uchun mayda biznesga kredit olish ancha yengilroq kichik biznes soliq imtiyozlariga ega bo'lishi kerak. Agar firma ijtimoiy tarmoqqa yoki ishlab chiqarish rivojlanishiga ajratilgan mablag'ini ko'paytirsa, soliq solinadigan ulushni qisqartirishi mumkin.

MDH mamlakatlarida kichik biznesni davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlash byudjetda pul kam bo'lganligi uchun arzimagan miqdorda amalga oshiriladi.

Davlat pul mablag'laridan tashqari:

1. Qonuniy hujjatlarni ishlab chiqarish bilan;
2. Konsultativ xizmatlarni ko'rsatish bilan yordam beradi.

Tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish va uni keng targ'ib qilish va yoyish niyatida davlat axborot, maslahat, ilmiy-tadqiqot markazlari, innovatsion fondlar va boshqa tashkilotlar tuzib, iqtisodiyotning ushbu sohasini rivojlantirishga yordam beradi.

2. O'zbekiston Respublikasi davlat tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi

Tasniflagich loyihasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining Davlat ta'lim standartlari bo'limi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish instituti tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur tasniflagich loyihasi:

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot, moliya, qishloq va suv xo'jaligi, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, xalq ta'limi, madaniyat ishlari bo'yicha, ichki ishlar, favqulotda holatlar va adliya vazirliklarida;

- O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va davlat mulkini boshqarish, statistika, raqobatchilikni rivojlantirish va *monopoliyadan chiqarish*, soliq, davlat chegaralarini qo'riqlash qo'mitasi, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, mineral *manbalar* va geologiya, qurilish va arxitektura, jismoniy va sport, davlat kadastri va kartografiya, geodeziya, yer resurslari davlat qo'mitalarida;

- O'zbekiston Respublikasi tashqi aloqalari bo'yicha, iqtisodiy aloqalar, O'zbekiston Respublikasi axborotlashtirish va aloqalar, axborot, ar va matbuot standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish, O'zbekiston xizmat, avtomobil va daryo transport vositalari «O'zarxiv» agentliklari va O'zbekiston Respublikasi mualliflik huquqlari agentliklarida;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati markazida;

O'zbekiston Respublikasi: uchish xavfsizligini nazorat qilish, elektroenergiyani nazorat qilish, tog' va sanoat xavfsizlik ishlarini olib borishini nazorat qilish, yuklarni temir yo'l orqali tashish xavfsizligini nazorat qilish bo'yicha davlat inspeksiyalari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi katta va muhim suv xo'jalik obyektlarini va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Davlat inspeksiyasi, gaz va neft mahsulotlaridan foydalanishni nazorat qilish, davlat non inspeksiyalarida ko'rib chiqildi va ma'qullandi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi O'zbekiston Respublikasida texnikaviy-iqtisodiy va ijtimoiy

axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo'yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 1998-yil 1 yanvardagi 5-sonli qarori asosida tayyorlangan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ga hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining me'yoriy hujjatlariga asoslanib tuzilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklari tasniflagichning tasniflash obyektlari hisoblanadi.

Mazkur tasniflagichda tayyorlash yo'nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlov yo'nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar nomi va kodi hamda ixtisosliklar ro'yxati keltirilgan.

Qo'llanish sohasi

Mazkur tasniflagich o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mutaxassislarini ish bilan ta'minlovchilar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiquvchilar, ta'lim muassasalari rahbarlari, respublika va mahalliy boshqaruv tashkilotlari mutaxassislari, vazirliklar, muassasalar va boshqa respublikamiz xo'jaliklarini rivojlantirishda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar uchun mo'ljallangan.

Mazkur tasniflagichni ishlab chiqishda quyidagi me'yoriy hujjatlarga asoslangan:

O'z DST 1.02-92 O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar.

GOST 1.5-93. Davlatlararo standartlashtirish bo'yicha ish yuritish qoidalari. Standartlarning tuzilishi, bayon qilinishi, rasmiylashtirilishi va mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.

O'z DST 1.8-94. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Rahbariy hujjatlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash, davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi va tavsiyalar.

O'z DST 6.01-95. O'zbekiston Respublikasining texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarini kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Asosiy qoidalar.

O'z DST 1.9-95. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Soha standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

O'z DST 6.01.2-95. O'zbekiston Respublikasi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Tasniflagichlarni ishlab chiqish va yuritish tartibi.

Ta'limning xalqaro standart tasnifi (TXSK) YUNESKO, 1997.

Z DT 008: 2000 s 01.08.2000 O'zbekiston Respublikasi mashg'ulotlar milliy standart tasniflagichi.

Mazkur tasniflagichda quyidagi talablar qo'llanilgan:

Tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi (TYKIUT) - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik

mutaxassislamini tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati.

Malaka-mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning mavjudligi.

Mutaxassisning malakasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, toifa yoki diplomning mavjudligi hisoblanadi.

Kichik mutaxassis - bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

Kichik mutaxassis:

Nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega; Mazkur jamiyatda o'zining muvaffaqiyatli hayot darajasini ta'minlaydigan umumiy va kasbiy madaniyatga, ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlarga va shaxsiy sifatlarga ega;

Kichik mutaxassislar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- kompyuter va boshqa texnikalardan, texnikaviy va fizikaviy fanlar sohasiga foydalanish usullarini qo'llash bilan bog'liq texnik topshiriqlarni bajaradi; texnik-jihoz va transportlarni ishlatadi; mashinalar, mexanizmlar, qurilmalar, moslamalar hamda muhandis-texnik jihozlarni va asboblarga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash, metall-konstruksiyalarni o'rnatish, dastgohlarni o'rnatish va boshqa ishlarni amalga oshiradi;

- xomashyo qazib olish va qayta ishlash, metallurgiya, qurilish, binolar va inshootlarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish sohasida o'z kasbiy bilimlarini tatbiq etadi; bosish (qoliplash) ishlarini bajaradi; oziq-ovqat mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, yog'och va metall buyumlar, shu jumladan badiiy hunarmandlik buyumlarini ishlab chiqaradi va qayta ishlaydi;

- bolalar bog'chasi va boshlang'ich maktablarda ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshiradi.

- sog'liqni saqlash, gigiyena, insonlarga g'amxo'rlik qilish, qishloq xo'jaligida o'simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish, yetishtirish bo'yicha zarur ishlarni amalga oshiradilar;

- kadrlarni joy-joyiga qo'yish va ularning ijtimoiy ta'minoti, soliqqa tortish va turizmga aloqador davlat xizmatlari, buxgalteriya hisobi, huquqiy, statistik, ish yuritish korxonalarini boshqarish, tijorat, moliya va savdo-sotiq sohasidagi bilimlarni texnik qo'llash bilan bog'liq ma'muriy va ishlab chiqarish vazifalarini bajaradilar.

Odamlar va yuklarni milliy chegaralardan o'tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ijtimoiy masalalar bo'yicha yordam ko'rsatadilar va maslahat beradilar.

Sport va boshqa qiziqarli tadbirlarni tashkil etadilar va o'tkazadilar, madaniyat va san'at sohasida ijodiy faoliyat ko'rsatadilar;

Diniy marosimlarni o'tkazishda aholiga yordam ko'rsatadilar.

Kasbiy faoliyat sohasi (KFS) - kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning qo'llanish doirasidir, uning nomlanishi iqtisodiy sohalarni nomlari bilan moslashtiriladi.

O'MKHT ta'lim muassasalaridagi tayyorlov yo'nalishlari-aniq kasbiy faoliyat

sohasida mutaxassislariga kasbiy ta'lim berish doirasidir. Mutaxassislarining kasbiy faoliyatining aniq sohasi bo'yicha tayyorlov yo'nalishlarining nomi mehnat faoliyatining mazmuni va xususiyati orqali aniqlanadi.

Kasb-maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalami egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg'ulotining) turidir.

Ixtisoslik - birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari va kasblar kodi - kasbiy faoliyat sohasiga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan ro'yxatining raqamli belgisidir.

Tasniflagichda quyidagi bilim sohalari aazarda tutilgan:

100000 -ta'lim;

200000 - gumanitar fanlar va san'at;

300000 - ijtimoiy fanlar;

400000 - fan;

500000 - muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;

600000 - qishloq xo'jaligi;

700000 - sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;

800000 - xizmatlar;

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari va ta'lim sohalari, tayyorlov yo'nalishlari va kasblar yettita raqamli kod bilan belgilanadi.

Ta'limning xalqaro tasnifiga binoan ta'lim bosqichi-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3-raqami bilan belgilanadi. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

Birinchi raqam - ta'lim dasturi bosqichi kodi;

Ikkinchi raqam - bilim sohasi kodi;

Uchinchi raqam - ta'lim sohasi kodi;

To'rtinchi va beshinchi raqamlar - tayyorlov yo'nalishi kodi;

Oltinchi va yettinchi raqamlar - kasblar kodi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim (bakalavriat)da uzviylikni ta'minlash maqsadida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari kodlari oliy ta'limining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

Tasniflagichdan quyidagi vazifalarni hal etishda foydalaniladi:

- hududiy bandlik dasturlarini ishlab chiqish;
- milliy va hududiy mehnat bozorlarida ijtimoiy mehnat sohasidagi jarayonlarni taxminlash va tartibga solish;
- ish kuchining samaradorligini va ish kuchiga ketadigan sarflarni aniqlash;
- mehnatga haq to'lashni tartibga solish va me'yorlashtirishni takomillashtirish;
- xalq xo'jaligining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash va asoslangan uzluksiz ta'lim dasturini ishlab chiqish;

- mehnat statistikasi sohasida axborotning xalqaro miqyosda taqqoslanishini ta'minlash.

«Kichik mutaxassis» malakasi toifasiga kirmaydigan shaxslarni mutaxassisliklarining belgilanishi.

Tasniflagichning 4-ustunida intellektual layoqati (aqliy rivojlanish xususiyatlari) buzilgan shaxslarni o'qitish mumkin bo'lgan birdan-bir ixtisosliklar bitta yulduzcha (*) bilan ko'rsatilgan. Ushbu mutaxassisliklar O'zbekiston Respublikasi mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi tomonidan tasdiqlangan aqliy va jismoniy jihatdan kamchilikka ega shaxslarni o'qitish mumkin bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar asosida belgilangan. O'qish muddati kasallik darajasiga qarab 1 yildan 2 yilgacha.

Tasniflagichning 4-ustunida ikkita yulduzcha (**) bilan jismoniy rivojlanish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va imkoniyatlari cheklangan shaxslarni o'qitadigan birdan-bir ixtisosliklar ko'rsatilgan. Mazkur mutaxassislar O'zbekiston Respublikasi Sog'Miqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan, jismoniy rivojlanishida kamchiligi bor va bolalikdan nogiron shaxslar uchun ino'ljallangan maxsus maktab- laming bitiruvchilari uchun tuzilgan hamda kasblar va mutaxassisliklar ko'rsatilgan ro'yxat asosida belgilangan. O'qish muddati 2 yil.

Tasniflagichning 4-ustunida uchta yulduzcha (***) bilan akademik litseylaming bitiruvchilari egallaydigan kasbga yo'naltiruvchi ixtisosliklar belgilangan. O'qish muddati 3 yil (chuqurlashtirilgan umumta'lim tayyorgarligi bilan qo'shib olib borilgan holda).

Tasniflagichning 4-ustunida to'rtta yulduzcha (****) bilan 11 yillik umumta'lim maktablarining bitiruvchilari oliy o'quv yurtiga kirolmagan hollarda, yangi bozor munosabatlariga o'tish davrida ulami ijtimoiy himoya qilish maqsadida mo'ljallangan ixtisosliklar ko'rsatilgan. Tasniflagich bunday shaxslar toifasiga nisbatan to'qqiz yillik ta'limga to'liq o'tgunga qadar amal qiladi. O'qish muddati 1 yil.

O'qishni tugatadigan bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan namunada tasdiqlangan diplomlar va sertifikatlar beriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichiga o'zgartirishlar kiritish tartibi.

Mazkur tasniflagich tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning asos bo'luvchi ro'yxati bo'lib, u qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish uchun ochiqdir.

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markaziga taqdim etiladi.

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan amalga oshiriladi

3.O'MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimi

Hozirgi ishlab chiqarishga kelayotgan mutaxassislaming uchdan bir qismi avval maktabda mehnat va kasbgacha tayyorlanmoqdalar, keyin kasb- hunar kollej tizimida kichik mutaxassis darajasigacha tayyorgarlik ko'rmoqdalar. Jamiyatimiz rivojlanishining

hozirgi bosqichida fan- texnika taraqqiyotining jadallashuvi kichik mutaxassislar turli soha va ularning tarmoqlari bo'yicha madaniy texnik-texnologik saviyasini oshirishga, ulaming tayyorgarligini tubdan yaxshilashga e'tibomi kuchaytirishga taqozo etmoqda. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va qarorlar, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi har bir kichik mutaxassis mehnatining mazmunini tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda. Ulaming aqliy va jismoniy faoliyati elementlari o'rtasidagi nisbat ancha o'zgarimoqda. Hozirgi zamon kichik mutaxassis mehnati intellektual mazmun bilan tobora boyimoqda va ilmiy asosda tashkil topmoqda. Aqliy hamda amaliy ishlaming o'zaro uzviy bog'lanishi bilan xususiyatlidir. Kichik mutaxassis o'z vazifalarini bajarishlari uchun shuningdek, ishlab chiqarishni amalga oshirishda ommaviy ravishda qatnashayotganlarida nazariy izlanishlari uchun chuqur va puxta bilimlarga ulami amalda qo'llab olish mahoratiga ega bo'lishlari kerak.

Shunga ko'ra, kichik mutaxassislaming hozirgi ishlab chiqarishda ishtirok etishlari murakkab va tez o'zgaradigan aniq mehnat sharoitlarida chuqur bilimlarini ijodiy qo'llashlarini talab qilmoqda. Shuning uchun umumta'limiy va keng politexnik asosdagi kasb tayyorgarlikka ega bo'lish majburiyati vujudga kelmoqda. Kasb-hunar kollej tayyorgarchilikka kadrlar ta'limi tizimini jiddiy qayta qurish jarayoni o'tmoqda. Shuningdek, bu ish faqat bizda muayyan bilimlar majmuasini o'zlashtirgan kishi sifatida emas, balki eng avvalo g'oyaviy maqsadga, yuksak axloq va mehnat madaniyatiga ega bo'lgan O'zbekiston mustaqil davlat va jamiyat fuqarosi hamda faol quruvchisi sifatida tarbiyalangan insonning o'zini umumiy kamol toptirish bilan ham bog'likdir.

Mehnat va kichik mutaxassis tayyorgarlik ta'limining o'zaro bog'lanish jarayoni o'quvchilarga, xususan bo'sh o'zlashtiradigan va eng yaxshi tayyorgarlik ko'rgan o'quvchilarga tabaqalashtirib va guruhiy yondashishni taqozo etadi.

Hozirgi paytda kasb-hunar o'quv muassasalarida malakali mutaxassislarni tayyorlash ikkita mustaqil qismdan iborat, ya'ni nazariy va ishlab chiqarish ta'limi.

Nazariy ta'lim

Kasb-hunar bilim yurtlarining o'quv rejalarida nazariy va ishlab chiqarish ta'limi ko'zda tutilgan. **Nazariy bilimning vazifasi**, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari o'ziga xos xususivatlarga ega bo'lib, bitta maqsadga ya'ni yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratiladi. Shuning uchun nazariy va ishlab chiqarish ta'limi o'quv muassasalaridagi o'quv jarayonining mustaqil, ammo o'zaro aloqador qismlari hisoblanadi.

Ta'limda nazariy dars soatlari bilan amaliy mashg'ulotlaming soatlari ma'lum nisbatda bo'lishi lozim. Bunda o'quvchilar o'rganilayotgan fan bilan tanish emasligini, o'zlashtiriladigan bilimlar ular uchun yangiligini nazarda tutish zarur.

Shunday qilib, **nazariy ta'lim** o'quvchilaming umumiy bilim, ijtimoiy, umumkasbiy va maxsus fanlami o'rganishlarini o'z ichiga olib, ularda o'rganilayotgan kasbni ongli tarzda mustahkam va chuqurroq egallashlari uchun zarur hajmdagi bilimlar tizimini shakllantirish hamda ishlab chiqarish malakasini yanada oshirishni maqsad qilib qo'yadi **Ishlab chiqarish ta'limining asosiy vazifasi** - kelgusida malakali mutaxassis bo'lib

yetishadigan o'quvchilarni muayyan kasb sohasida bevosita faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan, ya'ni bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatishdan, zarur kasb ko'nikmasi va malakasini shakllantirishdan iborat.

Ishlab chiqarish ta'limi-malakali tayyorlash jarayonining g'oyat muhim tarkibiy qismi bo'lib unga umumiy o'quv vaqtining katta qismi ajratiladi.

Ishlab chiqarish ta'limining asosiy muammolari:

1997-yilda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da kasb-hunar ta'limiga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lib, uni har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutadi va bu muammo shu kunning asosiy ekanligini ta'kidlanadigan uning nazariy va amaliy tomonlarini takomillashtirishni taqazo etadi.

Kasb-hunar ta'limida ishlab chiqarish ta'limini ishlab chiqarish va o'qitish muammolar bilan chambarchas bog'langan.

Ishlab-chiqarish ta'limining asosiy muammolaridan biri bo'lib:

- uning mazmunini ishlab chiqish hisoblanadi.
- ishlab chiqarish ta'limida nazariy va amaliy bilim berish mazmunini qayta ko'rish;
- ishlab chiqarish ta'limi tizimi bo'lib, u mazmun, o'qitish usullari va o'qitish jarayonini birgalikda hal etishni taqazo etadi.

Kasbiy ta'lim muammolari. Kasbiy ta'lim umumiy ta'limdan o'zining ta'lim maqsadi, o'rgatish maqsadi, o'zlarining dasturlari va dastur mazmunining tanlanishi, o'qitishda amaliy faoliyat bilan bog'lanish (ustaxonalarda kengash, korxonalarda ishlash va o'qitish usullari) va boshqalar bilan farq qiladi.

Kasbiy ta'limda kasbiy fanlar dasturini ishlab chiqishda kasbiy tavsifnoma talablaridan kelib chiqiladi. Umumta'lim va kasbiy ta'lim jarayonlari asosan bir-biriga o'xshash bo'lsada, chunki ko'p hollarda bir xil didaktik prinsiplar, metodik usullar qo'llaniladi, kasbiy ta'limda nazariy va amaliy o'qitish jihatlari bilan tubdan ajraladi. Chunki, bu yerda ta'lim jarayoni ko'pincha ishlab chiqarish bilan birgalikda olib boriladi, u yerda ular o'rganiladi, ishlab chiqariladi, faoliyat ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish ta'limi bosqichlari. O'quvchilarning ko'pchilik kasblar bo'yicha ishlab chiqarish ta'limi uchta asosiy bosqichga:

a) o'quv ustaxonalarda, o'quv maydonlarida, o'quv laboratoriyalarida, bilim yurtining o'quv xo'jaliklaridagi ishlab chiqarish ta'limi;

b) ishlab chiqarish sharoitlari (korxonalarda, qurilishlarda, xo'jaliklarda) ishlab chiqarish ta'limi va nihoyat;

d) ishlab chiqarish tajribasiga bo'linadi. Har bir bosqich o'ziga xos maqsadga va o'quv jarayonida o'z o'rniga ega bo'lib, kasb xususiyatiga qarab ular turli muddatli bo'ladi va u ishlab chiqarish ta'limi dasturi bilan belgilanadi. O'quvchilarning ishlab chiqarish ta'limi ustozlari rahbarligida amalga oshiriladi. Bu ustoz o'ziga birlashtirilgan guruhga bilim yurtidagi ta'limning boshidan oxirigacha rahbarlik qiladi.

Pedagogikada ta'lim jarayoni (o'quv jarayoni) deganda o'qituvchining hamda uning rahbarligidagi o'quvchilarning bilimlar, ko'nikmalar va malakalar sistemasini ongli va mustahkam o'zlashtirishga, ularni hayotga tatbiq etish masalasini shakllantirishga mustaqil fikr yuritishga, bilish qobiliyatlarining rivojlantirishga aqliy va jismoniy mehnat

madaniyatini egallashga qaratilgan izchil va o‘zaro bog‘liq harakatlarning majmui tushuniladi.

O‘quv jarayonining bir qismi hisoblangan ishlab chiqarish ta‘limi uchun uning barcha umumiy qonuniyatlari ham xosdir. Ishlab chiqarish ta‘limining o‘ziga xos jihati avvalo shundan iboratki, bunda o‘quv jarayoni o‘quvchilarning unumli mehnati davrida amalga oshiriladi. Bu esa o‘quv jarayonining o‘ziga xosligini (uning mazmuni, o‘quvchilarning o‘quv faoliyati, ustozning ta‘lim berish faoliyati, ta‘lim vositalarini, ya‘ni uning barcha asosiy tarkibiy qismlarini) keltirib chiqaradi.

Ishlab chiqarish ta‘limining mazmuni tegishli kasbdagi ishchining mehnat faoliyatini hamda malaka darajasini (razryad, sinf, kategoriya va hokazolami) tahlil qilish asosida belgilanadi. Bunday tahlil shuni ko‘rsatadiki, ishchining mehnat faoliyati kasbidan qat‘iy nazar quyidagi vazifalarni rejalashtirish; tayyorgarlik; amalga oshirish; nazorat va; ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatish vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish topshiriq bilan tanishishni, materiallarni, texnologiya jarayonlari, asboblarni, moslamalarni tanlashni, zarur hisoblash ishlarini, ishni ijro etish rejasini tuzishni o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayoniga tayyorgarlik-materiallar, asboblarni, uskunalarni ishga taxt qilishdir.

Ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish-qo‘lda bajariladigan operatsiyalarni amalga oshirish, ishlayotgan uskunalarni boshqarish, apparatlar va qurilmalarda ro‘y berayotgan texnologiya jarayonlarini sozlab turishdir.

Ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish texnologiya jarayonining borishini, ishchining o‘z faoliyati, uskunalarning ishi, mahsulot sifatini tekshirishni va baho berishni o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatish uskunalariga qarov, nosozliklarni bartaraf etish, ish o‘rnini tashkil qilishdan iboratdir. Demak, o‘quv muassasasida o‘quvchilarga ishlab chiqarish ta‘limi berishning asosiy vazifasi - ularga o‘z kasblari uchun xos bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, tayyorlash, amalga oshirish, nazorat qilish va xizmat ko‘rsatishga o‘rgatishdan iborat.

Mutaxassis bajaradigan ana shu vazifalarning tegishli kasbga va malaka darajasiga muvofiq aniq mazmuni kasbiy mahorat tavsifnomasida aks etadi. Bu hujjat ishchining bajaradigan ish va kasblari bo‘yicha umumdavlat yagona ta‘rif-mahorat ma‘lumotnomasi asosida tuziladi. Unda o‘quvchi bilim yurtidagi ta‘lim olish davomida egallashi lozim bo‘lgan bilim va malakalarga asosiy talablar qayd etilgan. Mahorat tavsifnomasi bilim yurtida mutaxassislarni tayyorlash mohiyatini belgilovchi asosdir. Hozirgi kunda bu vazifani davlat ta‘lim standartlari boshqaradi. Bu asosda dastur tuziladi.

Ishlab chiqarish ta‘limi mazmunini belgilovchi asosiy davlat hujjati bo‘lgan ishlab chiqarish ta‘limi dasturlarida bayon qilinadi. Ishlab chiqarish ta‘limi dasturida o‘quv materialining murakkabligiga qarab mehnat jarayonlarini bajarishning o‘zaro bog‘liq yo‘llari, operatsiyalari va usullari muayyan tartibda joylashtirilgan mavzularga (oddiydan murakkabga tomon) birlashtiriladi.

Nazorat savollari:

1. Xalq xo‘jaligining qanday tarmoqlari mavjud? Ularni izohlab bering.

2. O'MKHT dagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi tuzilishi va mazmunini izohlab bering.
3. O'MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimini izohlab bering.
4. Nazariy ta'limi mazmunini izohlab bering.
5. Ishlab chiqarish ta'limi mazmunini izohlab bering.

4-mavzu: Kasbiy ta'limda nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi. Nazariy darslarni loyihalashtirish va rejalashtirish.

Reja:

1.Nazariy darslarning maqsadlarini belgilash.

2.Kasbiy fanlar bo'yicha nazariy darslarni rejalashtirish, o'qitiladigan fanlar rejasini tayyorlash

3.Ta'lim-tarbiya jarayonida, shuningdek, kasb hunar ta'limi jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi

4.O'zaro hamkorlikdagi o'zaro ta'sir, muloqot va munosabatlar

Tayanch iboralar: Ta'lim jarayonlarni loyihalashtirish, o'zaro hamkorlik, pedagogik faoliyat, motivlar, o'quv faoliyati, o'zaro ta'sir, muloqot, munosabat, muomala munosabatlari, pedagogik vositalar.

Nazariy ta'lim

Kasb-hunar bilim yurtlarining o'quv rejalarida nazariy va ishlab chiqarish ta'limi ko'zda tutilgan. **Nazariy bilimning vazifasi**, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bitta maqsadga ya'ni yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratiladi. Shuning uchun nazariy va ishlab chiqarish ta'limi o'quv muassasalaridagi o'quv jarayonining mustaqil, ammo o'zaro aloqador qismlari hisoblanadi.

Ta'limda nazariy dars soatlari bilan amaliy mashg'ulotlarning soatlari ma'lum nisbatda bo'lishi lozim. Bunda o'quvchilar o'rganilayotgan fan bilan tanish emasligini, o'zlashtiriladigan bilimlar ular uchun yangiligini nazarda tutish zarur.

Shunday qilib, **nazariy ta'lim** o'quvchilarning umumiy bilim, ijtimoiy, umumkasbiy va maxsus fanlarni o'rganishlarini o'z ichiga olib, ularda o'rganilayotgan kasbni ongli tarzda mustahkam va chuqurroq egallashlari uchun zarur hajmdagi bilimlar tizimini shakllantirish hamda ishlab chiqarish malakasini yanada oshirishni maqsad qilib qo'yadi **Ishlab chiqarish ta'limining asosiy vazifasi** - kelgusida malakali mutaxassis bo'lib yetishadigan o'quvchilarni muayyan kasb sohasida bevosita faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan, ya'ni bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatishdan, zarur kasb ko'nikmasi va malakasini shakllantirishdan iborat.

Ishlab chiqarish ta'limi-malakali tayyorlash jarayonining g'oyat muhim tarkibiy qismi bo'lib unga umumiy o'quv vaqtining katta qismi ajratiladi.

1.Ta'lim-tarbiya jarayonida, shuningdek, kasb hunar ta'limi jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi

Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim beruvchilar (o'qituvchi) va ta'lim oluvchi

(o'quvchi) orasidagi ta'lim-tarbiya berishga qaratilgan o'zaro munosabatlar namayon bo'ladi. Ta'lim beruvchilar (o'qituvchi) pedagogik faoliyat bilan, ta'lim oluvchi (o'quvchi) esa o'quv faoliyati bilan shug'ullanadi.

Pedagogik faoliyat - ma'lum bir sharoit (vaziyat)da ijtimoiy qimmatli motivlarga ko'ra ta'lim-tarbiya maqsadi sari yo'naltirilgan o'ziga xos vositalar asosida mo'ljallangan pedagogik natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimidir. Professor-o'qituvchining pedagogik faoliyati son-sanoqsiz o'quv-tarbiya vazifa (masala)larini o'quvchilar bilan birga yechishdan iborat. Ulardan eng muhimi ta'lim-tarbiyaning maqsadini oydinlashtirib, o'quvchilar bilan hamkorlikda ro'yobga chiqarishdir. Bu vazifa o'quvchilarni o'qitish ishini o'z-o'zini o'qitishga, ularning xatti-harakatlarini boshqarishni o'z-o'zini boshqarishga aylantirish, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy tadqiqot, o'quv-tadqiqot ishlariga jalb etish yo'li bilan hal etiladi.

Ta'lim oluvchi o'quv faoliyati bilan shug'ullanishdan maqsadi mavjud o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limning maqsadi, vazifalariga mos xolda, o'rta - maxsus ma'lumot olish, barkamol shaxs, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega yuqori malakali, raqobatbardosh o'rta-maxsus ma'lumotli mutaxassis bo'lib yetishishdan iborat.

O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi jarayonida o'quvchilarga ijobiy, samarali tarbiyaviy ta'sir o'tkazish uchun, avvalo o'qituvchining shaxsi, ilmiy-pedagogik faoliyati ma'lum talablarga javob berishi lozim. U yuksak g'oyaviylik, ishchanlik, ilmiy-ijodkorlik va axloqiy sifatlarni o'zida mujassamlantirishi talab etiladi. O'quvchi o'zining sevimli o'qituvchisiga o'xshashni istaydi, unga ergashadi, shogird bo'lishga intiladi. O'qituvchi ta'lim jarayonida aytgan fikr-mulohazalarigina emas, balki uning kim ekanligi, hayotda, turmushda o'zini qanday tutishi, ilm-fan sohasida nimalarga qodir ekanligi ham katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega. O'qituvchi shaxsining yetukligi, uning g'oyaviy va fuqarolik qiyofasi, chuqur bilimi, ilmiy salohiyati barcha ta'lim-tarbiya ishlarida o'chmas iz qoldiradi.

KHKlardagi ta'lim-tarbiya jarayoni ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, uning samaradorligi professor-o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlik munosabatlariga ko'p jihatdan bog'liq. O'qituvchi ham, o'quvchi ham ta'lim-tarbiya jarayonining subyektlaridir, ularning faoliyati o'zaro chambarchas bog'liq va nisbatan mustaqillik xususiyatiga ega. Chunki ularning maqsadi bir, ya'ni umumiy ishni birga bajaradilar. Agar ular o'rtasidagi birlik yo'qolsa, munosabatlar taranglashsa yoki aloqa uzilsa, pedagogik jarayonga putur yetadi. Bu obyektiv qonuniyat o'qituvchi bilan o'quvchining bevosita aloqasida ham, bivosita munosabatlarida ham mavjuddir.

2.O'zaro hamkorlikdagi o'zaro ta'sir, muloqot va munosabatlar

O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar bir-biriga o'zaro ta'sir qilishi tabiiy hoi.

O'quvchilar birgalikdagi faoliyat jarayonida o'qituvchining nimalarga qodir ekanini, ilm-fanga qo'shgan hissasini, bilimdonligi va ma'naviy-axloqiy qiyofani tezda payqab oladilar va shunga qarab o'zaro hamkorlik munosabatda bo'ladilar. Ular o'qituvchini, faqat mashg'ulotlarni yaxshi o'tgani uchunгина emas, balki shaxsiy-insoniy va ma'naviy-

axloqiy fazilatlar uchun ham hurmatlaydilar. Va aksincha, o'quvchilar bilimi sayoz o'qituvchini xush ko'rmaydilar.

Dars - ta'lim tashkil etishning asosiy shakli. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Yangilanayotgan pedagogik tafakkur o'quvchilariga ko'ra zamonaviy dars o'quv muassasasining mulkiy mansubligidan qat'i nazar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim: ta'limning tarbiyaviy maqsadlarga bo'ysundirilganligi, o'quvchini komil shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilganligi, ilmiyligi va izchilligi, tarbiyalanuvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlashga qaratilganligi, insonparvarlik yo'nalishiga egaligi, tizimlili, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilganligi, amaliy axa-miyatga egaligi va h.k.⁹

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

3.Darsning turlari va tuzilishi. Darsning quyidagi turlari mavjud:

- Aralash (kombinatsion dars).
- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
- Laboratoriya darslari.
- Amaliy darslar.

Aralash darsning tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o'tilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish); v) yangi mavzuni bayon qilish;
- g) o'rganilgan materialni mustahkamlash;
- d) o'quvchilarni baholash;
- e) uy vazifasini berish.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) yangi mavzuni bayon qilish;
- v) o'rganilgan materialni mustahkamlash;
- d) uy vazifasini berish.

⁹<https://en.wikipedia.org/wiki/Lesson>

O'rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o'rganilgan mavzularga doir savol-javob o'tkazish;
- v) o'rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish;
- g) o'quvchilarni baholash.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o'rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish);
- v) nazorat ishini o'tkazish;
- g) uy vazifasi (o'rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida). Laboratoriya Laboratoriya darslarining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- c) laboratoriya ishini o'tkazish;
- g) o'quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Amaliy darslarning tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish;
- g) o'quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Darsga qo'yiladigan talablar. Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi: o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

4. Darsga qo'yiladigan talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo'yiladigan tarbiyaviy talablar o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

5. O'qituvchining darsga tayyorgarligi. O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi to'rtta bosqich ko'zga tashlanadi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirish. Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni tashxislash bilan boshlanadi. Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi. Bashoratlash bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish. Loyihalashtirish va rejalashtirish o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir.

Nazariy mashg'ulotlar deganda mashg'ulotning ham jamoa, ham individual (yakka tartibda) turini o'z ichiga olgan, kasb ta'limi o'qituvchisining rahbarligida o'quv materialini faol, to'g'ri va ongli o'zlashtirilishini ko'zda tutgan o'quv-mehnat faoliyatining aniq tashkil qilinishi tushuniladi.

Nazariy mashg'ulotlar davomida dastur mavzularining mazmuni yoritiladi, kasbiy ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifasi amalga oshiriladi.

Kasb-hunar ta'limi darsi – o'quvchilarning barcha guruhlarini bir xil sharoitda, yagona didaktik vazifani bajarilishini ta'minlaydigan tashkiliy shaklidir (masalan, o'quv- ishlab chiqarish ustaxonalari, o'quv- ishlab chiqarish sexlari, o'quv xo'jaliklari va h.k.).

Ma'ruza – o'rta maxsus kasbiy ta'limda o'qitishning asosiy shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

1) yo'naltiruvchi: talabalarni o'quv materialining asosiy jihatlariga e'tibor qaratishga imkon berish;

2) axborot: o'qituvchi ma'ruza vaqtida muammoni, muammo bilan bog'liq asosiy dalil va xulosalar mohiyatini ochib beradi;

3) metodologik: ma'ruza jarayonida muammoning falsafiy-nazariy asoslari namoyon etiladi.

4) tarbiyalovchi: talabalarda tinglash, idrok etish, munozarada ishtirok etish madaniyatini shakllantirish;

5) rivojlantiruvchi: talabalarda mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqara olish qobiliyatini rivojlantirish.

Ma'ruzaga qo'yiladigan talablar:

- ma'ruzaning ahloqiylik jihati (ilmiylilik va axborotlilik);
- isbotlash va argumentlash (aniq misollarning etarli bo'lishi);
- bayon qilishning emotsionalligi (talabalarni faollashtirish);
- bayon qilinadigan masalalarning aniq strukturasi va mantiqi;
- metodik jihatdan ishlab chiqqanlik (asosiy fikrlarni aniq-lash);
- aniq, ilmiy va adabiy tilda bayon qilish;
- audivizual didaktik materiallarni foydalanish.

Ma'ruzaga tayyorlanish:

- ma'ruza mavzusi bo'yicha materiallar to'plash;
- ma'ruzaning rejasini tuzish;
- ma'ruzaga materiallarni saralab olish;
- ma'ruza konspektini tuzish.

Ma'ruzada o'qituvchi tizimli ravishda yangi bilimlarni beradi va o'quv kursi bo'yicha murakkab bo'lgan muammolar tushuntirib berilishi lozim. Ma'ruza o'quv mashg'ulotlari orasida etarli darajadagi murakkablikka ega mashg'ulot turi hisoblanadi, shuning uchun ham uni nisbatan tajribali o'qi-tuvchilarga ishonib topshiriladi.

Ma'ruzaning **vazifalari** quyidagilardir: o'quv fani bo'yicha bilimlar tizimini shakllantirish; ilmiy materiallarni argumentlarni keltirib (asosli ravishda) bayon etish malakasini shakllantirish; kasbiy fikrlash doirasini va umumiy madaniyatni shakllantirish; darslik va o'quv qo'llanmalarida xali yoritilmagan yangi bilimlarni bayon etish

Ma'ruza turlari va uning o'ziga xos xususiyatlari

Ma'ruza turlari	O'ziga xos xususiyatlari
Kirish ma'ruzasi	O'quvchilarda o'quv fani to'g'risidagi umumiy tasavvurlarni shakllantirish
Ma'lumotli ma'ruza	O'quvchilarda muammoga doir ma'lumotlarni axboriy-retseptli tarzda taqdim etish
Anjuman-ma'ruza	O'quvchilar tomonidan o'quv materialini izlanishli tarzda o'zlashtirilishiga erishish

Muammoli-ma'ruza	O'quvchilarga muammoli savol, muammoli vaziyat va muammoli topshiriqlarni taqdim etish orqali o'quv birliklarini bayon etish
Ma'ruza-munozara	Fikrlar almashinuvini tashkil etish asosida ma'ruza qismlarini o'zlashtirishga erishish
Vizual-ma'ruza	Vizual-materiallarni taqdim etish orqali talabalar tomonidan materialni o'zlashtirishga erishish
Konspektli-ma'ruza	O'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlash-tirishga erishish maqsadida tushuntirish bilan birga eng asosiy qismlarini yozdirib borish
Maslahatli-ma'ruza	Savol va javoblar tarzida ma'ruza mashg'ulotini tashkil etish
Binar-ma'ruza	Muammo yuzasidan tadqiqot olib borgan mutaxassis-olim bilan birgalikda ma'ruzani tashkil etish

O'rta maxsus, kasb-hunar kollejlarda kasbiy fan o'qituvchilari rejada ko'rsatilgan mavzular bo'yicha turli adabiyotlardan foydalangan holda ma'ruza matnlari tayyorlashlari zarur bo'ladi.

Nazariy mashg'ulotlar o'tkazilishi quyidagi tartibda tavsiya etiladi.

- O'quvchilarni mashg'ulotga qiziqтира bilish.
- Yangi ma'lumotlar bera olish.
- Yangi bilimlar bera olish.
- O'rganilgan bilimlarni qayta ishlash bo'yicha topshiriqlar berish.
- O'quvchilar olgan bilimlarini tahlil va sintez qilish.
- O'quvchilar bilimlarini baholay olish.

Mashg'ulot boshlanishidan oldin o'quvchilarni o'tilgan mavzuni o'zlash-tirganini qisqacha tekshirib ko'rishi va yangi mavzuga bog'lab ketishi maqsadga muvofiq bo'ladi

Nazariy mashg'ulotni rejalashtirish

1. Aniqlashtiringan o'quv maqsadlarini shakllantirish.

O'quv mashg'ulotini loyihalash mashg'ulot mavzusi va rejasidan kelib chiqqan holda, mashg'ulotning maqsad va vazifalarini hamda kutiladigan natijalami aniqlashtirishdan boshlanadi.

2. O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini loyihalash.

O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini loyihalash ikkita shaklni uyg'unlashtirishni talab etadi: reproduktiv va produktiv.

Reproduktiv faoliyatda o'rganilayotgan masalaning algoritmlari va qoidalari faqat har xil ko'rinishlarda qayta ishlab chiqiladi (ta'limda aynan qayta gapirib berishdan tortib, o'xshash vaziyatlarda bir oz o'zgartirib aytishgacha), o'quv predmetida dastlab bilib

olingan ma'lumotlarga o'quvchi faoliyat davomida biror yangi axborot qo'shmaydi. Algoritmik harakatlar, ya'ni yaxshi tanish sharoitida va aniq tasvirlangan qoidalarga binoan harakat qilish reproduktiv faoliyat uchun xarakterlidir. Masalan, o'quvchi umumiy ta'lim, ixtisoslik predmetlari bo'yicha o'quv qo'llanmalarida barcha masalalar (vazifalar)ni ilgari o'zlashtirilgan (bilingan) qoidalar va algoritmlarga binoan yechadi, o'quvchining bunday faoliyati reproduktivlik doirasidagi harakatlardir.

Produktiv faoliyat jarayonida o'quvchi har doim o'quv predmetidan inazmunidan farq qiladigan yangi axborotni yuzaga keltiradi. Yangi axborotni yaratish ham doimo izlanuvchanlik faoliyatida oldingi tajribaga tayanadi.

Reproduktiv va mahsuldor faoliyatlar o'zaro bog'langan bo'lib, bilim egallashtirishdagi ikki bosqichdir. O'quvchi ham reproduktiv, ham mahsuldor faoliyatga doir harakatni har bir masalani yechish jarayonining elementi sifatida bajaradi.

3. O'quv maqsadlariga erishganlikni baholash

Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadi shakllantirilganidan so'ng, ulami nazorat topshiriqlariga ko'chirishga o'tiladi. Bu holda pirovard natijaga erishishga vazifasi qo'yiladi, u ma'ruza matnlari tayyorlashda va mashg'ulotlar o'tkazishdagi o'quv maqsadlari bilan chambarchas bog'lanadi.

Rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun o'quv jarayonini tezkor baholash kerak, u esa teskari aloqa vazifasini bajaradi. Quyilgan natijalarga erishilmasa tezkor baholash o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritilishi lozimligini ko'rsatadi. O'quv materialini tezkor baholash test asosida o'tkazadi. Aniq o'quv maqsadlar ifodalari, ulaming toifalari testlarni tuzish uchun asos bo'ladi. O'quv jarayonida ishlatiladigan testlar diagnostik (tashxislash) xususiyatga ega, chunki bu testlar natijasiga ko'ra keyingi o'quv jarayoni rejalashtiriladi.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. O'quv mashg'uloti deganimiz nima?
2. Kasb-hunar kollejlarda o'quv mashg'ulotlarining qanday turlari mavjud?
3. Kasb-hunar kollejlarda o'qitishni tashkil etishning shakllari qanday?
4. Nazariy mashg'ulotlar deganimiz nima?
5. Nazariy mashg'ulotlar qanday tashkil etiladi?
6. Ma'ruza va unga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.
7. Ma'ruzaning turlariga ta'rif bering.
8. Nazariy mashg'ulotni amaliy mashg'ulotdan farqlarini ko'rsating.
9. Dars - ta'lim tashkil etishning asosiy shakli sifatida izohlang.
10. Nazariy mashg'ulotni rejalashtirish
11. O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini loyihalash shakllarini izohlang.
12. O'quv maqsadlariga erishganlikni baholashning o'ziga xosligi?
13. Kasb-hunar ta'limi jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi mazmuni nimalardan iborat?
14. Kasb-hunar ta'limi jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?

15. O‘zaro hamkorlikdagi o‘zaro ta’sir, muloqot va munosabatlar mazmuni nimalardan iborat?

16. O‘zaro hamkorlikdagi o‘zaro ta’sir, muloqot va munosabatlariga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat?

5-mavzu: Amaliy mashg‘ulotlarni loyihalashtirish va rejalashtirish (2soat)

Reja:

1. Amaliy mashg‘ulot o‘quv maqsadlarini belgilash.

2. Kasbiy fanlar bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotni rejalashtirish, texnologik xarita va yangi va yangi mavzuni o‘qitish va o‘quvchilar bilimini baholash bo‘yicha tarqatma materiallar tayyorlash.

Tayanch so‘z iboralar: laborator mashg‘ulotlar, o‘quvchilar bilimini baholash.

3. O‘quv mashg‘uloti va uning turlari.

Tayanch iboralar: *kirish qism, asosiy qism, akuniy qism, : mashqlar, treninglar, vaziyatli topshiriqlarni xal etishga qaratilgan mashg‘ulotlar, aniq topshiriqlarni modellashtirish bo‘yicha mashg‘ulot-lar, rolli o‘yinlar, ishga doir o‘yinlar, darslarni mustaqil o‘tkazish*

1.

Amaliy mashg‘ulot o‘quv ishini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo‘lib, eksperimental tavsifdagi mustaqil topshiriqlarni o‘quvchilar-ning o‘qituvchi bilan birgalikda bajarishini o‘zida aks ettiradi.

Amaliy mashg‘ulot - aniq maqsadga qaratilgan va ta’lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan, aniq bir topshiriqni bajarish uchun kerakli nazariy darsda olingan maxsus bilimlar asosida malaka va ko‘nikmalar shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali didaktik harakatga aytiladi.

Amaliy mashg‘ulotning **bosh maqsadi** – biror bir fanga doir nazariy qoidalarni amaliy jihatlarini ochib berish; o‘quvchilarning o‘rganilayotgan qonuniyatlarni o‘ziga xosliklari va namoyon bo‘lish shakllarini chuqur tushu-nishlarini ta’minlash; bo‘lajak mutaxassislarda o‘rganilayotgan ob’ekt bilan amaliy muloqotga kirishish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Amaliy mashg‘ulotlar talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu ta’lim shakli zaruriy texnik vositalar, kompyuter texnikasi bilan jihozlangan laboratoriyalarda yoki sinflarda amalga oshiriladi.

Amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanadigan ilmiy va pedagog kadrlar fan o‘qituvchisi bilan kelishilgan holda oldindan zarur metodik material-larni tayyorlaydi (kasbiy tayyorgarlik darajasini tegishli nazariy me’yor-lar bilan belgilash, turli murakkablik darajasidagi vazifalar to‘plamini aniqlash).

Amaliy mashg‘ulotlarning **asosiy vazifalari:**

- ma’ruza va mustaqil ish jarayonida olingan bilimlarni chuqurlashtirish va takomillashtirish;

- rejalashtirish, tahlil qilish va umumlashtirishning intellektual qobiliyatlari shakllantirish, kasbiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini egallash;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish texnologiyasidagi asosiy tajribani to'plash;

- etakchilik, boshqaruv va o'zini boshqarishning dastlabki ko'nikmalarini o'zlashtirish

Amaliy mashg'ulotlar **tarkibi**: talabalarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini dastlabki nazorat qilish; umumiy muammolarni shakllantirish va talabalarning ishtirokida muhokama qilish; muammoni hal qilish va muhokama qilish; majburiy nazorat vazifalarini, ularni tekshirish va baholash.

Fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun soatning miqdori o'quv reja-sida belgilanadi. Amaliy mavzular ro'yxati fanning ish dasturida mavjud. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar soni akademik guruhning yarmidan oshmas-ligi kerak.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida har xil ta'lim metodlari-dan foydalaniladi. Bu kabi ta'lim ishlarining asosiy vazifasi mahorat va qobiliyatlarni shakllantirishdan iborat bo'lib, asosiy qoidalar turli xil bo'lishi kerak (tayyorgarlik, pilot, modelga asoslangan, o'qitish, ijodiy, amaliy, grafik, og'zaki, yozma, professional, texnik va hk).

O'quv fanlarining o'ziga xosliklarini va o'quv maqsadlarini inobatga olgan xolda amaliy mashg'ulotlarni **tashkil etish shakllari** quyidagilar : *mashqlar, treninglar, vaziyatli topshiriqlarni xal etishga qaratilgan mashg'ulotlar, aniq topshiriqlarni modellashtirish bo'yicha mashg'ulot-lar, rolli o'yinlar, ishga doir o'yinlar, darslarni mustaqil o'tkazish va x.k.*

Amaliy mashg'ulotlar quyidagi **talablarga** javob berishi kerak:

- o'quvchining asosiy nazariy bilimlarga ega bo'lishi zarurligini tushu-nishi;

- kasbiy yo'nalishga ega bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlanti-rish zaruratini anglash;

- ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirish uchun optimal sharoitlar yaratish (sanitariya-gigiena, didaktik, ta'lim);

- o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni egallashning ratsional usul-larini o'rgatish;

- har bir talabaning mustaqil faoliyatlarini ta'minlash;

- o'quvchilarning malakasi va ko'nikmalarini shakllantirishda tizimli va mantiqiy tartibga amal qilish;

amaliy mashg'ulotlar uchun aniq professional yo'naltirilgan vazifa-larni ishlab chiqish;

- amaliy mashg'ulotlar tizimida ijodiy vazifalarni keng jalb qilish;

- amaliy vazifalarni amalga oshirish bo'yicha tmuntazam nazorat qilish;

- amaliy mashg'ulotlarda doimiy ravishda o'quvchilarni rag'batlanti-rish.

Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, o'qituvchi muammolarni hal qilishda talabalarning xotirasida va ongida o'rnatilishi kerak bo'lgan asosiy qoidalarni belgilaydi. Ajratilgan vaqt ichida mavzu bo'yicha barcha savollarni etarli darajada chuqurroq yoritishi mumkin emasligini hisobga olsak, o'qituvchi eng muhimlarni tanlashi va ularni munozarali muayyan ketma-ketlikda taqsimlashi kerak;

Muayyan mavzuda o'quv materialining hajmi va mohiyatini (vazifalari va ular uchun savollar) aniqlagandan keyin, o'qituvchi ushbu materialni (bir, ikki yoki undan ortiq) mashg'ulotlar uchun ajratilgan soat soniga qarab taqsimlaydi.

Undan keyin har bir dars uchun ish rejasi tuzilishi kerak, bu quyida-gilarni o'z ichiga olishi mumkin: topshiriqlarni ko'rib chiqishdan oldin talabalar tomonidan dars mavzusi bo'yicha berilgan savollar; qanday vazifa-lar ko'rib chiqilishi kerak;

muammolarni echishda qanday qo‘shimcha savol-lar berilishi kerak; qisqa muammoni hal qilish; qaysi talaba chaqirilishi kerak, nima vazifa va qanday savol berish kerak.

Amaliy mashg‘ulotlarni **o‘tkazish tartibi:**

1. Kirish:

- mashg‘ulotning mavzusini va maqsadini aytish;
- amaliy ishlarni tashkil etishga zarur bo‘lgan nazariy bilimlarni aktallashti rish.

2. Asosiy qism:

- eksperiment yoki boshqa amaliy ishlarni bajarish algoritmini ishlab chiqish;
- ko‘rsatmalar berish;
- natijalarni aniqlash usuli bilan tanishish;
- amaliy ishni talabani mustaqil bajarishi.

3. YAkuniy qism:

- natijalarni umumlashtirish va tizimlashtirish;
- amaliy mashg‘ulot natijalarini yakunlash va o‘quvchilarning ishlarini baholash.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Amaliy mashg‘ulot nima,.
2. Amaliy mashg‘ulotining maqsad va vazifalarini aytib bering.
3. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllari qanday?
4. Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi qanday?

6-mavzu: Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish.

Reja:

1.Ta’lim beruvchining didaktik hatti-harakatlari.

2.O`qitish va o`qish sikli.

3.Nazariy mashg‘ulot va ularni tashkil etish shakllari, amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlarni o`quv ustahonalarda o`qitishni rejalashtirish.

Tayanch tushunchalar: didaktik hatti-harakatlar, o`qitish, o`qitish shakli, o`qitishni rejalashtirish.

Kasb va ixtisos shaxsning muntazam ravishda. ma’lum turdagi ish bilan shug‘ullanishini ifodalaydi. Respublikamiz fuqarolariga kasb va ixtisos tanlashlariga keng imkoniyatlar yaratilgan. O‘qituvchining ijodiy individual igini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o‘z-o‘zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o‘zini boshqalarga qiyos qilish asosida o‘z shaxsining betakror ekanligini anglav olishi; o‘zi to‘g‘risidagi kreativ ko‘rinishlar va tasavvurlari to‘plami; individual kreativ o‘ziga xosliklarning bir butunligi va uyg‘unligi, ichki birligi; shaxsning o‘z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o‘zini namoyon qila olishi va o‘zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o‘zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatida o‘zining o‘rnini anglay olishi (V. A. Slastenin). O‘qituvchining **kasbiy mahorati** cho‘qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

Kasb hunar ta’limida umumdidaktik tamoyillar ongilik va faollik ilmiy-sistemalik nazariy va amaliy birligi ta’lim-tarbiya birligi ko‘rsatmalilik

Didaktika xususiy metodikalar bilan bog'langan holda, barcha o'quv fanlari uchun umumiy qonun va qoidalarni belgilab beradi, ya'ni tarbiya bilan chambarchas bog'liq ta'lim jarayonini tashkil etishga asos bo'ladigan yetakchi qoidalar didaktik qoidalar deyiladi. Bu o'qituvchilarning faoliyatini, o'quvchilarni bilim faoliyatini, xususiyatini belgilaydigan asosiy qoidalar hisoblanadi.

Didaktika pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasi bayon etiladigan muhim qismidir. Unda ta'limning ilmiy asoslangan mazmuni o'qitishning usullari va tashkiliy shakllari (qanday o'rgatish) beriladi. O'qituvchi yoki usta faqat o'qitishning qonuniyatlarini bilishgina emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratib bera olishi ham muhim. Bunga ayrim yetakchi boshlang'ich qonuniyatlarni chuqur tushunish va ularni o'quv jarayonida qo'llash orqali erishiladi. Bunday qonuniyatlar didaktikada ta'lim tamoyillari yoki didaktik tamoyillar deb nom olgan.

Didaktikaning asosiy tamoyillari quyidagilardir. Ta'limning quyidagi tamoyillari mavjud.

1. Ta'lim va tarbiya birligi
2. Ta'limning ilmiyligi
3. Ta'limda tizimlilik va izchillik
4. Nazariya va amaliyot birligi
5. Yosh individual xususiyatlarni hisobga olish
6. Ta'limning politexnik xususiyatga egaligi
7. Onglilik va faollik
8. Ta'limda ko'rsatmalilik
9. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamligi va puxtaligi.

Ta'lim va tarbiya birligi - ta'lim jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash sodir bo'ladi. Masalan: gazlamadan biror buyumni bichishni o'rgatishda, buyumni bichish bo'yicha bilimlar, ko'nikmalar va malakalar hosil qilish bilan birga gazlamadan tejamkorlik bilan foydalanishni o'rgatish hisobiga iqtisodiy tarbiya shakllanadi. Yoki tikuv buyumiga moslab bezaklar tanlab, sifatli tikishni o'rgatish bilan o'quvchilarda badiiy tarbiya, tikuv mashinasida o'tirib tikayotganda tikuv mashinasiga qarash, sozlangan mashina bilan ishlash, ish kiyimiga qarash, ish joyini batartib bo'lishiga e'tibor berish orqali axloqiy tarbiya shakllanadi. Kasb ta'limi jarayonida o'tilayotgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash va uni ta'lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ta'limning ilmiyligi- bu tamoyilni amalga oshirish o'quvchilarga ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan. fanning eng yangi yutuqlarini hisobga olgan texnikaviy ma'lumotlarni yetqazishdir. Kasb-hunar ta'limi o'qituvchisi o'quv ustaxonalaridagi ma'lumotlarda sof ilmiy terminlardan foydalanishi, fanda qabul qilingan ramziy belgilar, formulalar, o'ichamla rni qo'llashi lozim. Kasb ta'limi jarayonida o'quvchilar har xil materiallarga ishlov berish, andoza tayyorlash, modellashtirish ishlarini bajaradilar. Bunda o'quvchilarda faqat ko'nikma va malaka hosil bo'lib qolmay, balki ularda o'rganayotgan mehnat operatsiyalarining ilmiy asoslari haqida tushunchalar hosil bo'ladi. Masalan: biror buyumni modellashtirish uchun o'quvchilar eng avval modellashtirish elementlari bo'yicha ilmiy ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Ba'zanshunday hollar ham bo'ladiki, kasb ta'limi mashg'ulotlarida ilmiy asoslarni o'quvchilarga uzviy olib borish maqsadga muvofiq. Tabiiy-ilmiy qonuniyatlarga tayanadigan ma'lumotlarni bayon qilish zarur bo'lib qoladi. Masalan: o'quvchilarga mashinashunoslik elementlarini o'rgatish zarurivati tug'iladi. Bu vaqtda "nexasizm",

“mashina” tushunchalari bilan tikuvchilik jihozlari fanini uzviy bog'lab olib borish imkonini beradi.

Ta'limda tizimlilik va izchillik - tizimlilik va izchillik ta'limda ma'lum mantiqiy izchillik bo'lish zarurligini bildiradi, chunki bilimlar vorislik xarakteriga ega. Ular o'zidan oldingi materialiga asoslanadi. Bilim olishdagi tizimlilik nazariya va amaliyot bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil usullarni qo'llashni taqozo etadi. Chunonchi: a) olinayotgan bilim bilan o'quvchilarning shaxsiy tajribasi va kuzatishlarining aloqasi; b) nazariya bilan amaliyotning aloqasi (korxonalariga ekskursiya); v) turli masalalarni hal qilish, nazariy hamda amaliy xarakterdagi vazifalarni bajarish, texnologik hujjatlarni ishlab chiqarish; g) korxonalarda, qurilishlarda va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish amaliyoti.

Bilimlarni tizimli bayon qilish o'quv materialini qismlarga bo'lib o'rganish, ya'ni materialni o'tilgan material bilan bog'lash, asosiylarini ajratish. o'quvchilarni tahlil qilishga o'rgatish, o'rganilganlarni tizimga solib umumlashtirish demakdir. Bilimlarni mavzular va fanlar bo'yicha tizimga solish uchun katta katta bo'limlar va alohida fanlar bo'yicha takrorlash, o'quvchilar bilimi, malaka va ko'nikmalarini

butun o'quv yili davomida muntazam ravishda hisobga olib borish zarur. Har bir o'quv fani ichidagi aloqalar tizimi bilan bir qatorda quyidagi hollarda foydalaniladigan fanlar aro aloqani ta'minlash lozim. Material bayonidagi, malaka va ko'nikmalarni egallashdagi izchillik o'quv fani hamda o'quv jarayonining mantiqidan kelib chiqadi.

Agar o'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarni qat'iy izchillik asosida egallasalar ulardan oson va yyengil foydalana biladilar, unutilganlarini qayta esga tushira oladilar. O'quvchilarga ishlab chiqarish ta'limi berish jarayonida o'rganilayotganlarni tizimlashtirish, ya'ni o'rganilgan operatsiyalar, ish turlari o'rtasida zaruriy aloqa o'rnatish lozim.

Bu tizimlilik va izchillik ishlab chiqarish ta'limi dasturining operatsion kompleks qurilish tizimi bilan ilgari o'zlashtirilgan operatsiyalar asosida yangi operatsiyalarni o'rganish o'quv ishlab chiqarish vazifalarni to'g'ri tanlash bilan ta'minlanadi.

Nazariya va amaliyot birligi - nazariyani amaliyot bilan bog'lab olib borish eng asosiy va yetakchi tamoyil. Kasb-hunar ta'limi jarayonida ko'pincha nazariyani amalda qo'llash uchun sharoit yaratiladi. O'quvchilar amaliy faoliyatga tayyorlash, nazariy bilimlarni egallash jarayonidan boshlanadi. Nazariy bilimga ega bo'lgandan so'ng, bilimlarni mustahkamlash laboratoriya ishi va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda davom ettiriladi. Nazariyani amaliyot bilan bog'lashning har xil shakllaridan foydalanish orqali biz o'quvchilardagi bilim sifatini oshirishga erishamiz. Shuningdek, o'quvchilarda fan asoslariga, mehnatga, tanlagan kasbiga qiziqish, kishilar mehnatini qadrlash kabi xislatlar orttiriladi.

Yosh individual xususiyatlarni hisobga olish - kasb ta'limi bo'yicha o'quv materialini mazmuni fan va texnik taraqqiyotini hozirgi darajasiga mos ravishda o'quvchilarga tushunarli bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'quvchilarni jismoniy tayyorgarligini ham nazarda tutish kerak. Dars mavzulari o'quvchilarga mos va tushunarli bo'lishi uchun:

a) o'tilayotgan mavzuning ma'nosi va hajmi, amaliy mashg'ulotlari o'quvchilar tayyorgarligiga, jismoniy rivojlanganligiga va yoshiga mos bo'lishi kerak;

b) mavzular soddadan murakkablashib borishi kerak, shuningdek, o'quvchilar bilim doirasini yangiliklar bilan to'ldirib borishi zarur; v) ayrim o'quvchilarga individual yondashish kerak, chunki o'quvchilarning ayrimlari yangi mavzuni oson tushunsa, ayrimlari qiyinchilik bilan tushunadilar;

g) ko'rgazma qurollardan to'g'ri va o'rinli foydalanish.

Ta'limning politexnik xususiyatga egaligi - nazariyani amaliyot bilan bog'lab o'tishda politexnik tamoyil asosiy rolni o'ynaydi. Kollej ustaxonalaridagi kasb ta'limining mazmuni, ya'ni mashinalar, mexanizmlar, asboblarning tuzilishi, ishlash prinsiplari, shuningdek, texnologik jarayonlar, mehnat usullari va amaliy mashg'ulotlarning bajarish yo'llari haqidagi texnikaviy ma'lumotlar politexnik xarakter kasb etadi.

Politexnik tamoyil shu bilan ham xarakterlanadiki, o'quvchilarga mavzuga mos ravishda ishlab chiqarish sohasidagi avtomatlar, moslamalar, ishlab chiqarish jarayonlari haqida tushunchalar berib borishni bildiradi. Masalan: tikuvchilik korxonalarida yengil ko'ylaklarni tikishda yoqaga ishlov berish, cho'ntak, burmalarga ishlov berish, shuningdek, issiqlik ishlovi berish; yorib dazmollash, presslash tushunchalari o'quvchilar ongiga singdirib boriladi. Demak, o'qituvchi ishlab chiqarish sohasidagi yangiliklarni mehnat ta'limi darslari bilan bog'lab olib boradi. Natijada o'qituvchi texnika va fandagi yangiliklarni o'quvchilarga yetkazadi.

Onglilik va faollik.

O'quvchilarning onglilik va faollik tamoyilini shunday yo'lga qo'yish zaruriyatini ifoda etadiki, bunda o'quvchilar o'quv vazifalarini aniq tushunadilar. Bilimlarni faol o'zlashtirib, qo'llab, voqea va hodisalarni mushohada etadilar, ular orasidagi muhim bog'lanishlarni ocha oladilar. O'qishga ongli munosabatlarda bo'lib, vazifalarni bajarishda mustaqil bo'ladilar.

Faollik - bu o'quv jarayonida yuzaga keladigan vazifalarni ongli maqsadga muvofiq bajarishga intilishning namoyon bo'lishi. O'qituvchi tushuntirganini yodlab oladi. Shuning uchun o'qituvchi: a) o'quvchilarning ongli ravishda tushunishini, ongli munosabati va bilish faolli darajasini bildiradigan belgilarni bilishi kerak;

b) materialni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradigan aqliy harakatlarni fikrlash jarayonlarini shakllantirish uchun sharoit yaratishi kerak;

v) o'quv mashg'ulotlarni o'tkazishda faollikni oshirish yollaridan foydalanishni rejalashtirish kerak.

Ta'lim olish onglilik faollik bilan uzviy bog'liqdir. O'quvchilarning aktivligini oshirish o'z mehnat natijasini foydali ekanligini ongli anglash demakdir. Masalan: o'quvchini bajarayotgan ishini kollej

ko'rgazma zaliga foydalanish, uni tezroq bitkazishga harakat qiladi.

O'quvchilarning yuqori faolligiga:

a) mashg'ulotning mazmuni, maqsad, vazifalarini aniq bayon qilish;

b) o'quvchilarga ijodiy xarakterdagi mehnat topshiriqlarini berish;

v) ta'limning eng samarali usullaridan foydalanish orqali erishish mumkin.

Onglilik va faollik tamoyillari o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlashni o'stirish zaruriyatini paydo qiladi.

Ta'limda ko'rsatmalilik - bu tamoyil o'quvchilarning mehnatga oid o'quv materiallarini o'rganilayotgan narsa va hodisalarni **jonli** idrok etish, o'zlashtirishni nazarda tutadi. Kasb ta'limi darslarida ishlab chiqarish korxonalariga uyushtirilgan sayohatlar, mehnat usullari, plakatlar, sxemalar, jadvallar, buyum namunalari ko'rsatishdan, o'quv kinofilmlari, diafilmlarni namoyish qilishdan ko'rsatma vositasi sifatida foydalanish mumkin. Ko'rsatmalilik tushunchasiga idrok etishning ko'rish turi emas, balki eshitish, sezish turlari ham kiradi.

Kasb ta'limi darslarida ko'rsatmalilikka katta ahamiyat berish kerak, ammo darsni haddan tashqari ko'rsatma qurollari bilan to'ldirib yuborish yaxshi emas, bu ba'zan foyda o'rniga zarar ham keltirishi

mumkin.

Ko'rsatmalilikdan foydalanishda, bir qator usulik talablarga rioya qilish zarur:

- a) ko'rsatma qurollar darsning o'quv materialiga mos bo'lishi kerak;
- b) barcha ko'rsatma qurollarni birdaniga namoyish qilish va osib qo'yish shart emas, chunki bu o'quvchilar diqqatini tarqatib yuborishi mumkin;
- v) kasb ta'limi o'qituvchisi ko'rsatma qurolni ko'rsatishda ularni o'quvchilar tomonidan idrok etish jarayoniga rahbarlik qilishi zarur.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkainligi va puxtaligi.

Mazkur tomonlari shunday o'quv jarayonini taqozo etadiki, unda o'quvchilar o'zlarining bo'lajak faoliyatlari uchun zarur bo'ladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni iloji boricha asosliroq egallaydilar ularni xotirada qayta tiki ay oladilar hamda nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanadilar.

Bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkam egallashda o'zlashtirilgan malaka va ko'nikmalarga qayta murojaat etish. ularga yangi nuqtai nazar bilan qarab aniqlik kiritib. yangi dalillar bilan boyitish muhim ahamiyatga ega. Har bir mashg'ulotda yangi materialni o'tilgan material bilan bog'lash uchun takrorlash o'tkazish, mashg'ulot oxirida esa. egallangan manbani asosiy masalalar bo'yicha sharhlash maqsadga muvofiqdir. Takrorlash vaqtida dalil va misollardan foydalanish, o'rganilgan manbani yanada chuqurroq tahlil qilish muhimdir.

Amalda didaktikaning barcha tomoni bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lgan holda yuzaga chiqadi. Ular aniq material va ta'lim sharoitini hisobga olgan holda ijodiy qo'llanilishi zarur.

3. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb-hunar ta'limida qo'llash

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi qonunning 3-moddasida ko'rsatilishicha ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda

ekanligi. Ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi deyilganda – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turlituman ehtiyojlarining qondirilish, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi. inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi tushuniladi. Ta'limning dernokratlashuvi deyilganda - o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishining davlat tizimiga o'tilishi tushuniladi.

- Ta'limning uzluksizligi va izchilligi. Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosidir. Bu shaxs. jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Hozirgi kunda mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta ta'lim hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturiga izchil o'tilishini ta'minlaydi.

- Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi. Bu tizimning majburiyligi, hozirgi kunda bolalarni o'qishi 9 yil umumiy ta'lim va 3 yil o'rta maxsus, kasbhunar ta'limini o'qitilishi majburiyligi kadrlar tayyorlash milliy dasturida aytib o'tilgan.

- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi.

O'rta maxsus. kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kirm umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

-Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi.

Oliy ta'lim muassasasini isloh qilayotganda, ularning boshqa davlatlardagi oliy ta'lim muassasalari bilan aloqasini mustahkamlash zarur. Mahalliy ustozlar bilan cheklanib qolmay, chetdan ham profeddoro'qituvchilar chaqirishni yo'lga qo'yishimiz kerak.

- Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma

uchun ochiqligi. O'zbekiston Respublikasida hamma ta'lim olish huquqiga ega. Hatto jismonan yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi.

- Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan

yondashuv. Zamon talabiga mos mutaxassis tayyorlash kerakligi, o'quv yurtlarimizning shakli, qiyofasi va tarkibi, tnoddiy bazasi ham zamonaviy bo'lishi shartdir. O'quvyurtlarining rahbarlari vaprofessoro'qituvchilarning ta'minoti va ishi haqiga ham shu jumladan e'tibor berildi. O'quv reja va dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirib istiqbol va kelajagimizni ko'zlagan holda tuzib olishimiz va joriy etishimiz zarur.

- Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubiyati. psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma'lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi.

- Ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonunning 28-moddasida ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi. Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin deb ko'rsatilgan. Shundan kelib chiqqan holda, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirishni amalga oshirish mumkin.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini kasbhunar ta'limida qo'llash. kasb-hunar ta'limini samarali amalga oshirish va uni «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq isloh qilish va rivojlantirish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil takomillashtirish ta'minlanadi.

Nazorat savollari:

1. Kasb-hunar ta'limi jarayonlari tahlili mazmuni nimalardan iborat?
2. Kasb-hunar ta'limi qanday asosiy didaktik lushunchalari mavjud, ularning mazmuni nimalardan iborat'?
3. Kasb-hunar ta'limida umumdidaktik tamoyillari-onglilik va jaollik ilmiy sistemalik, nazariy va amaliy birligi, ta'lim tarbiya birligi, ko'rsatmalilik tamoyillarining mazmunini yoritib bering.
4. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb-hunar ta'limida qo'llash mazmuni nimalardan iborat?

7-mavzu: O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash.

Reja:

1. Ta’lim sifati va uni baholash.
2. Ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar.
3. Ta’lim olganlikni tashxis etish tamoyillari.
4. O‘quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari.
5. **Bilim, ko‘nikma, malakalarni va kompetensiyalarini baholash mezonlari.**
6. Ta’lim sifati monitoringi.

Tayanch tushunchalar: tashxis, tashxis etish, nazorat, hisobga olish, tekshirish, baholash, baho, ta’lim sifati, monitoring.

1. Ta’lim sifati va uni baholash. Tashxis - bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Didaktik tashxislashning *maqsadi* o‘quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog‘liq holda, o‘z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistic ma’lumotlar to‘plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi.

Ta’lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari. Ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri - nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o‘ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O‘qituvchi nazorat va hisobga olishni to‘g‘ri tashkil etsa, ta’lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchining o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta’lim jarayonida) ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o‘lchash esa tekshirish deb ataladi.

Tekshirish - nazoratning tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy didaktik vazifasi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida aks aloqani ta’minlash, pedagog tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o‘quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o‘quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

O‘quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko‘rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi *birinchi bo'g'in* ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli bo'ladi.

Bilimlarni tekshirishning *ikkinchi bo'g'ini* har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materialini mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning uchinchi bo'g'ini sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina kutilgan samarani beradi.

Tizimning *to'rtinchi bo'g'ini* o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha davriy tekshirish hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi - kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi - tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda *beshinch* bo'g'in ta'lim oluvchilarning, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi.

Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rstakich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. Baho deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi.

O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va xokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi.

O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

Hisobga olish - bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish o'qituvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

O'qitish vazifasi o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi.

Nazoratning tarbiyalash vazifasi shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, xis-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi sanaladi.

2. Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.

Pedagogikada o'quvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (obyektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi. Xolislik (obyektivlik) tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashxis o'tkazgan o'qituvchidan qat'iy nazar xamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida - bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lim oluvchilar o'quv muassasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta'lim nazoratini tez-tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga bir butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo'l qo'ymaydi.

Ko'rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilar-ni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo'ljal (orientir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashxislash natijalarini e'lon qilish, ularni manfaatdor shaxslar ishtirokida muhokama va tahlil qilish, nuqsonlarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

3. O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari. Hozirgi davr pedagogik amaliyotida o'quvchilar o'quv faoliyatini nazorat qilishning qo'yidagi turlaridan foydalaniladi: joriy nazorat; oraliq nazorat; yakuniy nazorat.

Joriy nazorat o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning har bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o'qituvchini har bir o'quvchining o'quv faoliyati bo'yicha tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, o'qitish jarayonini boshqarishda yaxshi natija beradi, o'zlashtirmagan o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlaydi, o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'yicha choralar belgilaydi.

Oraliq nazorat - bu o'quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida darsda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda o'tkazadi.

Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin o'quvchilar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

Yakuniy nazorat - choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo'linadi. Yakuniy nazorat og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o'tkaziladi.

Nazoratning shakli o'quv ishini tashkil etish shakliga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy besh shakli mavjud:

nazoratning ommaviy (frontal) shaklida o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, o'quvchilar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchini nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni o'quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi.

nazoratning guruhli shaklida o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o'quvchilar ham qatnashishi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan o'quvchilar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlarining bajaragan ishlarini baholash uchun o'z ustilarida ishlab o'tiradi.

nazoratning individual shaklidan har bir o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida, odatda o'quvchilar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan) shakli individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha o'quvchilardan so'rash kerak bo'lgan vaqtda foydalanadi. Har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda birnecha o'quvchini tekshirish mumkin bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat qilish shakli ta'lim jarayonida ichki aks aloqaning bo'lishini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish metodlari quyidagilar: og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliytop shiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.

Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir.

Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

Yozma tekshirish - o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng oz vaqtning ichida barcha o'quvchilarni tekshirishi mumkin. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va b. yordamida olib

boriladi. Ammo o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bevosita aloqaning yo'qligi sababli uning fikrlashini kuzatish imkoni bo'lmaydi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish.

Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik sikldagi fanlardan o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olishda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish malakasi aniqlanadi.

Uy vazifalarini tekshirish. O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv ishiga bo'lgan munosabatini, o'rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

4. Bilim, ko'nikma, malakalarni va kompetensiyalarini baholash mezonlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashdirib aytish mumkinki, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

«5» baho qo'yiladi, agar: a) o'quvchi dasturdagi materialni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; b) o'rganilgan mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; v) egallangan bilimlarni amalda erkin qo'llay olsa; g) o'rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'ymasdan, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa.

«4» baho qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; b) o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; v) egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olsa; g) og'zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo'lmagan xatoga yo'l qo'ysa qo'yiladi.

«3» baho yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzuni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzulishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; v) yozma ishda xatolari bor bo'lsa.

«2» baho qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o'zlashtirmagan, b) yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa qo'yiladi.

5. Ta'lim sifati monitoring. "Monitoring" atamasi ilk maratoba Birlashgan Millatlar tashkilotining 1972-yil iyun oyida Stokgolm konferensiyasini tashkil etish arafasida "nazorat" atamasiga muqobil sifatida ishlatila boshlangan.

“Monitoring - inglizcha atama bo‘lib, “uzluksiz kuzatish” degan ma’nosini anglatadi. Monitoringga ijtimoiy boshqaruv nazariyasida eng muhim, boshqaruv sohasidagi nisbatan mustaqil bo‘lim sifatida qaraladi hamda ta’lim monitoringi doirasida pedagogik faoliyat natijalari yuzaga chiqariladi va baholanadi.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitish sofati monitoring tizimi samarali yo‘lga qo‘yilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat: ichki nazorat - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi; tashqi nazorat - ta’lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta’limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi; davlat- jamoatchilik nazorati - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta’limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi; milliy va xalqaro darajada baholash - Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta’limi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi

Umumiy o‘rta ta’lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat: ichki nazorat; tashqi nazorat; davlat- jamoatchilik nazorati; milliy va xalqaro darajada baholash.

O‘qituvchilar yoki maktab ma’muriyati, o‘quvchilarning o‘zlari, ota-onalar va jamoatchilik vakillari o‘quvchilarning bilimlarini o‘quv maqsadlari asosida tekshiradilar. Mazkur yo‘nalish o‘ziga xos bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, baholash bevosita o‘quvchining sinfda amalga oshirilgan ishlari bilan bog‘liq, bunda o‘qituvchi turli uslublardan (masalan og‘zaki so‘rov o‘tkazish, amaliy mashq bajarish, test va h.k.) foydalanib, o‘quvchi tomonidan bajarilgan ishlarga baho qo‘yadi. Baholash jarayoni tizimli ravishda o‘quv choragi va o‘quv yili davomida olib boriladi. Bunday baholashda o‘qituvchilar, maktab monitoring guruhi o‘quvchilarning o‘zlashtirishi sifati, o‘quv yutuqlariga asosiy me‘yor bo‘lgan davlat ta’lim standartlariga taqqoslagan holda individul baho beradilar.

Baholashning ikkinchi turi hududiy xalq ta’limi boshqaruvi idoralari tomonidan amalga oshiriladigan hududiy o‘qitish sifati monitoringi hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar tomonidan davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatiladi, o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlar va ularning kelib chiqish omillarini aniqlanadi, boshqa maktablar hamda bartaraf etish chora-tadbirlari rejalashtiriladi.

Shu sababli zamonaviy shaxsga, raqobatbardosh mutaxassisga qo‘yilgan talablarning ortib borishi eng avvalo ta’lim muassasalari va hududiy xalq ta’limi boshqaruvi idoralaridagi alohida tuzilmalar tomonidan ta’lim sifati monitoringini tizimli va maqsadli amalga oshirishni talab etadi. Ta’lim muassasalarida monitoring - yaxlit tizimning holati va dinamikasini kompleks kuzatish, tahlil qilish, korrektsiyalash hamda prognozlash jarayoni hisoblanadi.

Baholashning keyingi uchinchi turi - davlat attestatsiyasi va ta'lim muassasalarining akkreditatsiyasi hisoblanadi. Ular davlat tomonidan yoki uning nomidan vakolatli tashkilotlar tomonidan o'tkaziladi. Ularda qatnashish huquqiga muayyan talablarga javob beradigan barcha o'quvchilar ega. Mazkur baholash muayyan ta'lim bosqichi yoki turi tugaganidan so'ng amalga oshiriladi. Ularning asosiy va ijtimoiy jihatdan muhim vazifalari bitiruvchilar va ta'lim muassasalarining davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmalarini bajarish holatini tahlil qilish imkonini beradi.

Umummilliy baholash - barcha o'quvchilarni yoki ma'lum bir guruhdagi o'quvchilarni tanlab olish yo'li bilan muntazam ravishda o'quvchilar o'quv yutuqlari darajasini milliy standartlarga nisbatan mosligi baholash hisoblanadi. Mazkur turdagi baholash o'quv dasturlari asosida olinib, imtixonlardan farq qiladi. Birinchidan, alohida olingan o'quvchilarning bilim va malakasi darajasi emas, balki tizimning ishlash natijalari o'lchanadi. Ikkinchidan, milliy baholash natijalari muayyan yoshdagi yoki sinfdagi o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasining "rentgen surati" sifatida foydalaniladi va milliy standartlarning ko'p muddatda monitoringini olib borishga xizmat qiladi. Tanlash yo'li bilan o'tkazilgan umummilliy baholash qisqa muddatlarda va iqtisodiy jihatdan arzonroq o'tkazish imkoniyatini beradi. Uning natijalari ma'lum o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilar o'quv yutuqlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni berishi mumkin.

Xalqaro baholashni yaqin 15-20 yilda tashkil etish yo'lga qo'yilib, ularda bir necha mamlakatlar o'quvchilarining o'quv yutuqlari tanlov yo'li bilan baholanadi. Bunday keng qamrovli tadqiqotlarning asosiy maqsadi qamrab olingan muayyan yoshdagi (masalan, 13 yoshdagi o'quvchilar) yoki sinfdagi o'quvchilarning bir yoki bir necha o'quv fanlari bo'yicha o'quv yutuqlarini baholash va bir qator mamlakatlar kesimida qiyoslashdan iborat. Misol tariqasida matematika va tabiiy fanlardan o'tkazib kelinayotgan - TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study - Xalqaro matematika va tabiiy fanlarning o'rganishdagi tendensiyalari)ni keltirish mumkin. TIMSS ning birinchi xalqaro tadqiqotida 38 mamlakatning 4-, 8- va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining bitiruvchilari (11- va 12-sinf o'quvchilari) qamrab olingan. Oxirgi uchinchi tadqiqotida esa 46 mamlakat o'quvchilari qatnashganlar.

Yana bir xalqaro o'quvchilar ta'limiy yutuqlarini xalqaro baholash dasturi - PISA (Programm for International Student Assessment) tadqiqoti hisoblanadi. Bu tadqiqot birinchi marta 2000 yilda o'tkazilib, unda 32 mamlakatning 15 yoshli o'quvchilari qatnashgan. PISA da asosiy e'tibor o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar (fizika, ximiya, biologiya)dan olgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlarini baholashga qaratilgan. Uchinchi xalqaro tadqiqot - PIRLS da turli mamlakatlar boshlang'ich maktablari bitiruvchilarining matnni o'qish va uni tushunish darajasi baholanadi.

Mazkur tadqiqotlarning maqsadi - o'quvchilar yutuqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash va ularni xalqaro miqyosda qiyoslash bo'lib, uning natijalariga ko'ra ta'lim

siyosati masalalari hamda o'quvchilar o'zlashtirishidagi tafovutlarni yaxshiroq anglab etishga qaratilgan xalqaro muloqot olib boriladi. Xalqaro tadqiqotlar nufuzining oshib borishi bugungi dunyoda globallashtirish jarayonlari natijasida mustaqil hayotga kirib kelayotgan o'quvchilarga mehnat bozorida qanday bilim va ko'nikmalar kerakligi to'g'risidagi ijtimoiy buyurtmalarni hamda raqobatbardosh mutaxassislariga qo'yilgan talablarni kengayib borayotganligidan darak beradi.

Xolden va Klaf "o'z javoblarimizni e'tiborga olganimizdek bolalarnikini ham qadrlashga undaydi" degan bahsni keltirishadi.

Brunerning sinfxonaga daxldor asosiy bir munozarasi shuki, o'quvchining o'zlashtirishi ishonchsizdek tuyulsa, o'qituvchilar o'sha o'quvchining xulqidagi kamchiliklarni qidirish o'rniga o'zlarining shaxsiy tajriba uslubi va qarashlariga e'tiborli bo'lishlari kerak. Bundan tashqari ular o'quvchilarning qanday qilib tajriba olishi va o'zlashtirishi haqidagi o'zlarining o'rganuvchi sifatidagi tushuncha va qarashlarini taqdim etishlari kerak. Buning yo'lga qo'yishning yana bir yo'li – Blok va Villiam o'zlarining ta'lim olishni baholash qaydnomasida bahslashganidek o'quv mashg'ulotlarini ifodalashga izoh sifatida o'zlarining o'quvchilari bilan bo'lgan pedagogik jarayondan yig'ib olingan ma'lumotdan foydalanishda qo'shimcha ravishda o'qituvchilar bunday ma'lumotdan o'zlarining shaxsiy o'qitish uslubini ifodalash va baholashda foydalanishi mumkin.

Aslini olganda ular Fieldingning shaxsiy tadqiqot pedagogikasini rivlantirish uchun o'quvchilar bilan birga tadqiqotchi va amaliyotchi sifatida ishlash nazariyasini amalga oshirishlari mumkin¹⁰

Ta'lim sifati monitoringini olib borishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlari talablarining bajarish dinamikasini tizimli kuzatish, ta'lim sifatiga ta'sir etgan omillarni aniqlash, ta'lim muassasalari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari, metodik xizmat va malaka oshirish tizining faoliyatini baholab, rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni belgilash, keyingi holatni bashoratlash natijasida ta'lim sifatini oshirishdan iborat.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Didaktik tashxis deganda nima tushiniladi?
2. Tashxislashning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Nazorat va hisobga olish deb nimaga aytiladi?
4. Nazoratning qanday vazifalari mavjud?
5. Tekshirish deb nimaga aytiladi? Tekshirishning qanday bo'g'inlari mavjud?
6. Baholash deb nimaga aytiladi? Baho deb nimaga aytiladi?
7. Tashxislashning tamoyillarini izohlang.
8. Nazoratning turlari, shakl va metodlarini bayon eting,
9. **O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini**

⁸Aleks Muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 23-25 betlar.

tushuntirib bering.

10. Ta'lim sifati monitoring qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

8-mavzu: Kasb-hunar ta'limi o'qituvchisining asosiy faoliyat sohalari va unga qo'yiladigan talablar. Kasb-hunar ta'limi o'qituvchining asosiy faoliyat sohalari va unga qo'yiladigan talablar. (2soat).

Reja:

1. O'qituvchining lavozim vazifalari.
2. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalar.
3. Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari.
4. O'qituvchining metodik ishlari.
5. Kasbiy faoliyat va uning ob'ektlari

1.O'qituvchining lavozim vazifalari Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z vatananing ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

Mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohatlar amalga oshirilmogda. Jamiyat ma'naviy yukasalishi va yangilanishi sari yuz tutgun bir paytda O'zbekiston Respublkasi Prezidentining 1999 yil 3–sentyabrdagi “Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining qo'llab quvvatlash to'g'risida”gi Farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.¹¹

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon ulkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushinib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.¹²

Ma'naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat – tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim – tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!” degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

¹¹ K.Xoshimov., M.Xoshimova. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. – T.: TDIU,2006.

¹²Sobirov B.B. Talabalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda innovastion usullardan foydalanishning pedagogik asoslari.P.f.n.ilmii daraj. olish uchun yozilgan diss. T.2004-186 b.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Bu esa, insonni mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va mushohada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflilik mehnat va qunt, irodani talab etadi.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, faqat ma'naviyat-ma'rifat keng quloq yoygan, ilm-urfon taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolotli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratuvchilik ishiga, ezgulikka intilishi kuchli va jamiyat fuqarolarida sog'lom fikr, aql-idrok har doim ustuvor bo'ladi.

Mustaqillik bizga ma'rifiy, madaniy, adolatli va insonparvar jamiyat qurish imkonini berdi. Endi bu jamiyatga har bir inson o'z o'rnini, mavqeyiga yarasha vijdonan hissa qo'shmog'i lozim.

Insonning ma'naviyati uning odobi, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlari zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Fazilatlar insonning ijobiy sifatleri majmuidan iborat.

Sifat – alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

Fazilat – alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifatlar majmui.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi o'qob, axloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlanganligi bilan belgilanadi. Shu o'rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to'xtalib o'tish joizdir.

Odob – har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishidir.

Axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmui.

Madaniyat – jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Ma'naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Kamolotga erishgan, har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalash jarayoni uning doimiy, muntazam izchil va bir tizimga kirgan shaklda bo'lishini taqozo etadi. Bu yo'lda kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, professional fanlar singari g'oyaviy mazmuni talabalarga yangi jamiyatning har bir mutaxassisiga zarur bo'lgan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantiruvchi tasavvurlar zahirasini hosil qilishi lozim bo'lgan ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitishga yangicha yondoshuv asosida axloq malakalarini hosil qilish mumkin. Talaba yoshlarda yagona pedagogik jarayonda ma'naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashda quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

- sho'rolar hokimiyati davrida ta'lim sohasidan o'rin olgan mafkuraviy mahdudlikdan xalos bo'lish;
- o'zbek milliy mentaliteti va jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga tayanadigan ma'naviy qadriyatlar tizimini mustahkamlash;
- Sharq mutafakkirlari asarlarida ko'tarilgan Komil inson g'oyasi ta'limotlariga amal qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida ta'lim-tarbiya xususan hozirgi zamon yoshlari qanday bo'lishi kerak degan ta'limotiga nisbatan javoblarga to'la amal qilish kabilar.

2.O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalar

Kasb ta'limi o'qituvchisi darsga tayyorlanayotganda, uni rejalashtirayotganda xar xil metod va usullarni qo'llab yangi materialni qanday bayon qilishni o'ylaydi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning tajribasi, jismoniy rivojlanishi va mexnat unumdorligiga ta'sir qiladigan boshqa omillarni xisobga olgan xolda ob'ektlarni tanlaydi.

Texnikaviy ijodkorlik o'quvchilarning ilmiy texnikaviy va umumiy ta'lim fanlaridan olgan bilimlarni chuqurlashtiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi, mustaxkam mexnat ko'nikmalari va malakalarini tarkib toptirishga yordam beradi, ratsionalizatorlik va ixtirochilikka qiziqish uyg'otadi, siyosiy bilim doirasini kengaytiradi. Bu ijodkorlik kollej o'quvchilarini istiqlol ruxda tarbiyalashning eng muxim vositasidir.

O'qituvchining lavozim majburiyatlarini ish bajarish ketma-ketligiga qarab 3 bosqichga bo'lish mumkin:

- Rejalashtirish bo'yicha vazifalar;
- Amalga oshirish bo'yicha vazifalar;
- Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar.

Rejalashtirish bo'yicha vazifalar:

- Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar asosida ta'limning maqsad va mazmunlarini tanlash va rejalashtirish;
- o'quv reja va dasturlar asosida kalendar mavzuli reja va dars rejasini ishlab chiqish;
- ta'limni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- o'quvchilarning qobiliyatlari va bilimlarini baholash bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- korxonaning turli bo'limlarida o'quvchilarni o'qitish joylarini rejalashtirish;
- qo'yilgan maqsadlarga javob beradigan ish topshiriqlari va mashqlarni tayyorlash;
- amaliy mashqlar hamda loyihalarni o'tkazish uchun xomashyo va chiqim materiallarni rejalashtirish;
- o'quv ustaxonasida o'qitish uchun yetarli sharoitlarni tayyorlash;
- o'quv-didaktik materiallarni aniqlash, tanlash va ishlab chiqish.

3.Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari

Ta'lim tarbiya jarayonini **bashqarish va nazorat qilishda** quyidagilar kasb ta'limi o'qituvchisiga xos bo'lishi kerak:

1)Yuqori g'oyaviylik. O'qituvchi o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisidir. U o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyalari ruxida tarbiyalashi kerak.

2) Yuqori texnika malaka. Masalan, ta'limi jarayonida o'quvchilar o'zlari tanlagan mutaxassislikka oid o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid bilim va

ko'nikmalarni egallaydilar. Shu munosabat bilan oliy o'quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid kabiylar bilimlar asoslarini egallashlari xamda keyingi amaliy faoliyat jarayonida o'z maxorati darajasini uzluksiz oshira borishlari kerak.

3)Yuqori psixologik-pedagogik tayyorgarlik. Kasb ta'limi o'qituvchilarining o'zi bilim va malakalarni yuksak saviyada egallabgina qolmay balki o'quvchilarda xam ma'lum malakalarni tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berish kerak. Bilim va malakalarni egallash jarayonining o'z qonuniyatlari bor, maktabdagi ta'lim shu qonuniyatlar asosida tashkil etiladi. Kasb ta'limi o'qituvchisi asixologiya, didaktika va boshqa fanlarning o'quv jarayoniga asos bo'ladigan muxim qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishi kerak.

4)O'z kasbiga muxabbat. O'qituvchilik kasbining o'ziga xos tomonlarini chuqur bilish, o'z kasbini faoliyatida erishgan yutuqlaridan zavqlanishi, qiyinchilarni yengib o'tish uchun kuch va imkoniyat topa olish kasb ta'limi o'qituvchisining muxim fazilatlarini qatoriga kiradi.

Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar:

- o'quvchilarning amaliy natijalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash;
- o'quvchilarning o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini baholash;
- o'quvchilarning xulqini baholash;
- ta'limning mavjud sharoitlarining sifatini baholash;
- rejalashtirish va tashkillashtirish bo'yicha hujjatlarning sifatini baholash;
- o'quv-didaktik materiallarning sifatini baholash;
- o'zi bergan yo'l-yo'riq va namoyishlarni o'zi baholash;
- berilgan topshiriqlarning sifatini o'zi baholash.

4.O'qituvchining metodik ishlari

Kasb-hunar kollejlari tashkil etiladigan ilmiy-uslubiy ishlarning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- kasb-hunar kolleji pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;
- talabalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;
- ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;
- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Ilmiy-uslubiy ishlarda ishtirok etish kasb-hunar kollejlari tashkil etiladigan barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlari tashkil etiladigan metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual uslubiy ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy uslubiy ish shakllari sirasiga kiradi:

- pedagogik kengash;
- uslubiy komissiyalar;
- ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferensiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

Individual uslubiy ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- kasb-hunar kollejlari rahbarlari, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar va boshqa muxandis-texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil uslubiy ishlari;

- kollej rahbari (direktor), uning o'rinbosarlari, katta usta, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlar bilan olib boradigan individual uslubiy ishlari.

Kasb-hunar kollejidagi uslubiy ishlarning aniq shakllarini kollej pedagogik kengashi belgilaydi. Kollej rahbari (direktor) uslubiy ishlarga umumiy rahbarlik qiladi.

U «Uslubiy ishning rejasi»ni tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchi va muxandis pedagoglar o'tkazadigan mashg'ulotlarini tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning uslubiy ishlariga rahbarlik qiladi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini yuqori organlari oldida o'zi rahbarlik qilayotgan kollejdagi uslubiy ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi.

5.Pedagogik faoliyat - estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir. Oqituvchining pedagogik faoliyati ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. O'qituvchining lavozim vazifalarini bilish nima uchun zarur?
2. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalarni bilish nima uchun zarur?
3. Nazorat va baholash bo'yicha vazifalarini o'rganish nima uchun zarur?
4. O'qituvchining metodik ishlarini bilish nima uchun zarur?
5. Pedagogik faoliyat nima?

9-mavzu: Pedagogik faoliyat va pedagogik qobiliyat (2soat)

Reja:

1. O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari: konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ

2. O'qituvchining pedagogik qobiliyati

3. O'qish va o'qitish bo'yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan pedagogik qobiliyatlar

Tayanch iboralar: Pedagogik faoliyat, pedagogik qobiliyati, konstruktiv - didaktik qobiliyatlar, kasbiy bilimlar, shaxsiy sifatlar.

1.O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari: konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ

1. O'quvchi shaxsni rivojlanishini loyihalashga, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkoniyat beruvchi konstruktiv - didaktik qobiliyatlar;

2. Akademik qobiliyatlar;

3. Perseptiv qobiliyatlar;

4. Nutq qobiliyatlari;

5. O'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qiluvchi tashkilot- chilik qobiliyatlar;

6. Avtoritar qobiliyatlar;

7. Kommunikativ qobiliyatlar;

8. Pedagogik hayol;
9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati;
2. O'qituvchining pedagogik qobiliyati

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatni yuqori darajada bajarish imkoniyatini beradigan shaxsiy sifatlar kompleksidir.

Bunday shaxsiy sifatlarga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchi shaxsining yo'nalishi;
- o'qituvchining kasbiy bilimlari;
- o'qituvchining pedagogik qobiliyati.

O'qituvchi shaxsining yo'nalishi. Pedagogik mahoratning shakllanishi o'qituvchi shaxsining yo'nalishi-o'quvchiga munosabat, ta'lim jarayoniga, ta'limning mazmuni va mohiyatiga munosabat, ta'lim va tarbiyaning jamiyat hayotidagi o'mini tushunish, ta'lim va tarbiyada mavjud imkoniyatlardan foydalanish muhim ro'l o'ynaydi.

O'qituvchi avvalo o'z kasbini sevishi o'quvchilar imkoniyatiga ishonishi, o'quvchilarni bilim olish, shaxs sifatida mukammalashga chin dildan harakat etadigan shaxs bo'lishi kerak. O'qituvchida tarbiya obyektiga nisbatan gumanistik yo'nalish ustun boiishi zarur.

O'qituvchining kasbiy bilimlari. O'qituvchi o'zi ta'lim berayotgan fanini chuqur va mukammal bilishi va o'quvchilar bilan muloqatda bo'lish ehtiyojiga ega bo'lishi shart.

Har bir o'qituvchi o'zi o'qitayotgan fanning o'tmish tarixini, hozirgi ahvolini va kelajagini mukammal bilishi kerak. Keng va asosli bilimga ega bo'lgan pedagog har bir darsini erkin o'tadi va qiynalmaydi. O'quvchilarning har bir savoliga javob bera oladi. Dars jarayonida kelib chiqqan muammoni o'quvchilar bilan erkin muhokama etadi va unga o'zining to'g'ri, aniq munosabatini bildiradi.

O'z fanini mukammal bilgan o'qituvchi mukammal savollardan o'zini chetga olmaydi.

O'qituvchi butun faoliyati davomida o'z ustida ishlashni bilimini kengaytirishi talab etiladi. Pedagogning g'oyaviy-siyosiy bilimi, nazariy, pedagogik-psixologik, uslubiy va texnologik bilimi mukammal bo'lishi kerak.

Talaba kasbiy bilimlarni chuqur egallash bilan birga amaliy pedagogik faoliyati ham kengaytirishi kerak.

Pedagogik qobiliyat. Pedagogik qobiliyat faoliyat davomida shakllanib, mukammalashib boradi. Pedagogik qobiliyat o'qituvchining o'z faoliyatiga qanchalik yaroqlik ekanligini ko'rsatuvchi sifatlardir. Turli tadqiqotchilar pedagogik qobiliyat haqida o'z fikrlarini bildirishgan. Ularni umumlashtirib, 9 ta qobiliyat ko'rsatilgan. Shular asosida pedagogik faoliyat muvaffiqiyatli tashkil etishi mumkin.

3. O'qish va o'qitish bo'yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan pedagogik qobiliyatlar

1. O'quvchi shaxsni rivojlanishini loyihalashga, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkoniyat beruvchi konstruktiv - didaktik qobiliyatlar;

2. Akademik qobiliyatlar;
3. Perseptiv qobiliyatlar;

4. Nutq qobiliyatlari;
5. O'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qiluvchi tashkilotchi-lik qobiliyatlari;
6. Avtoritar qobiliyatlari;
7. Kommuniaktiv qobiliyatlari;
8. Pedagogik hayol;
9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati;

I. DIDAKTIK QOBILIYATLAR. Mehnat ta'limi o'qituvchining o'quv materiallarini o'quvchilarga tushunarli qilib aytib berish, o'quvchilardan mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyati.

II. AKADEMIK QOBILIYATLAR - fanning tegishli sohalarga oid (matematika, fizika, biologiya, adabiyot va hokazolarga doir) qobiliyatlari. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanini o'quv kursini hajmiga emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi.

III. PERSEPTIV QOBILIYATLAR. Mehnat ta'limi o'qituvchisi - sining tarbiyalanuvchi ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchilarning ruhiy holatlarini juda yaxshi tushunishi. O'quvchilarni darsga tayyor yoki tayyor emasliklarini ko'zidan biladi.

IV. NUTQ QOBILIYATI — nutq yordamida, mimika, vositasida o'z fikri mushohada his tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik kasbining eng muhim qobiliyatlariidan biridir.

V. TASHKILOTCHILIK QOBILIYATI. O'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etish, ruhlantirish qobiliyatlari. O'z ishini to'g'ri rejalashtirish, vaqtni boy bermaslik, vaqtni to'g'ri taqsimlash, belgilangan muddatda ulgurish xususiyatlari ortiqcha vaqt sarflamagan hollarda, vaziyatga qarab to'g'ri qarorlar qabul qilish.

VI. AVTORITAR QOBILIYAT. O'qituvchi o'quvchilarga bevosita hissiy irodaviy ta'sir ko'rsatish va obro' qozonish qobiliyati. Avtoritar qobiliyatlari o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir kompleksiga, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokazolarga), shuningdek o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish mas'uliyatini his etishga bog'liq bo'ladi.

VII. KOMMUNAKTIV QOBILIYAT. Bolalarga aralashish, ular faoliyatiga qo'shilib ketish qobiliyati, o'quvchilarga turli yondashish yo'lini topa olish, pedagogik munosabatlar o'mata olish pedagogik qobiliyatlariining mavjudligidir.

VIII. PEDAGOGIK HAYOL. O'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'rishda o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidaga tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab etishtirishda, tarbiyalanuvchini qanday fazilatlarini taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat.

IX. DIQQATNI TAQSIMLASH QOBILIYATI. O'quvchi uchun diqqatini barcha xususiyatlari, hajmi, kuchi, iroda qila olishi ham muhimdir. Diqqatni ayrim bir vaqtda faoliyatning bir qancha turlari o'rtasida taqsimlash qobiliyati mehnat

ta'limi o'qituvchining ishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. O'qituvchi pedagogik faoliyatining qanday tarkibiy qismlari bor, uning mazmuni nimalardan iborat ?
2. O'qituvchining konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ pedagogik faoliyatlarining mazmuni nimalardan iborat ?
3. O'qituvchining pedagogik qobiliyati asosiy yo'nalishlari qanday, uning mazmuni nimalardan iborat ?
4. O'qish va o'qitish bo'yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan pedagogik qobiliyatlar mazmuni nimalardan iborat ?

10-mavzu: Pedagogik faoliyat va pedagogik qobiliyat (2soat)

Reja:

1. O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari: konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ
2. O'qituvchining pedagogik qobiliyati
3. O'qish va o'qitish bo'yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan pedagogik qobiliyatlar

Tayanch iboralar: Pedagogik faoliyat, pedagogik qobiliyati, konstruktiv - didaktik qobiliyatlar, kasbiy bilimlar, shaxsiy sifatlar.

1. O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari: konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ

1. O'quvchi shaxsni rivojlanishini loyihalashga, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkoniyat beruvchi konstruktiv - didaktik qobiliyatlar;

10. Akademik qobiliyatlar;
11. Perseptiv qobiliyatlar;
12. Nutq qobiliyatlari;
13. O'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qiluvchi tashkilotchilik qobiliyatlar;
14. Avtoritar qobiliyatlar;
15. Kommunikativ qobiliyatlar;
16. Pedagogik hayol;
17. Diqqatni taqsimlash qobiliyati;

2. O'qituvchining pedagogik qobiliyati

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatni yuqori darajada bajarish imkoniyatini beradigan shaxsiy sifatlar kompleksidir.

Bunday shaxsiy sifatlarga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchi shaxsining yo'nalishi;
- o'qituvchining kasbiy bilimlari;

- o'qituvchining pedagogik qobiliyati.

O'qituvchi shaxsining yo'nalishi. Pedagogik mahoratning shakllanishi o'qituvchi shaxsining yo'nalishi-o'quvchiga munosabat, ta'lim jarayoniga, ta'limning mazmuni va mohiyatiga munosabat, ta'lim va tarbiyaning jamiyat hayotidagi o'zini tushunish, ta'lim va tarbiyada mavjud imkoniyatlardan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchi avvalo o'z kasbini sevishi o'quvchilar imkoniyatiga ishonishi, o'quvchilarni bilim olish, shaxs sifatida mukammalashga chin dildan harakat etadigan shaxs bo'lishi kerak. O'qituvchida tarbiya obyektiga nisbatan gumanistik yo'nalish ustun bo'lishi zarur.

O'qituvchining kasbiy bilimlari. O'qituvchi o'zi ta'lim berayotgan fanini chuqur va mukammal bilishi va o'quvchilar bilan muloqatda bo'lish ehtiyojiga ega bo'lishi shart.

Har bir o'qituvchi o'zi o'qitayotgan fanning o'tmish tarixini, hozirgi ahvolini va kelajagini mukammal bilishi kerak. Keng va asosli bilimga ega bo'lgan pedagog har bir darsini erkin o'tadi va qiynalmaydi. O'quvchilarning har bir savoliga javob bera oladi. Dars jarayonida kelib chiqqan muammoni o'quvchilar bilan erkin muhokama etadi va unga o'zining to'g'ri, aniq munosabatini bildiradi.

O'z fanini mukammal bilgan o'qituvchi mukammal savollardan o'zini chetga olmaydi.

O'qituvchi butun faoliyati davomida o'z ustida ishlashni bilimini kengaytirishi talab etiladi. Pedagogning g'oyaviy-siyosiy bilimi, nazariy, pedagogik-psixologik, uslubiy va texnologik bilimi mukammal bo'lishi kerak.

Talaba kasbiy bilimlarni chuqur egallash bilan birga amaliy pedagogik faoliyati ham kengaytirishi kerak.

Pedagogik qobiliyat. Pedagogik qobiliyat faoliyat davomida shakllanib, mukammalashib boradi. Pedagogik qobiliyat o'qituvchining o'z faoliyatiga qanchalik yaroqlik ekanligini ko'rsatuvchi sifatlardir. Turli tadqiqotchilar pedagogik qobiliyat haqida o'z fikrlarini bildirishgan. Ularni umumlashtirib, 9 ta qobiliyat ko'rsatilgan. Shular asosida pedagogik faoliyat muvaffiqiyatli tashkil etishi mumkin.

3. O'qish va o'qitish bo'yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan pedagogik qobiliyatlar

1. O'quvchi shaxsni rivojlanishini loyihalashga, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkoniyat beruvchi konstruktiv - didaktik qobiliyatlar;

10. Akademik qobiliyatlar;

11. Perseptiv qobiliyatlar;

12. Nutq qobiliyatlari;

13. O'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qiluvchi tashkilotchi-lik qobiliyatlar;

14. Avtoritar qobiliyatlar;

15. Kommunaktiv qobiliyatlar;

16. Pedagogik hayol;

17. Diqqatni taqsimlash qobiliyati;

X. DIDAKTIK QOBILIYATLAR. Mehnat ta'limi o'qituvchining o'quv materiallarini o'quvchilarga tushunarli qilib aytib berish, o'quvchilardan mustaqil

ravishda faol fikrlashga qiziqish uygʻotish qobiliyati.

XI. **AKADEMIK QOBILIYATLAR** - fanning tegishli sohalarga oid (matematika, fizika, biologiya, adabiyot va hokazolarga doir) qobiliyatlar. Bunday qobiliyatga ega boʻlgan oʻqituvchi fanini oʻquv kursini hajmigina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi.

XII. **PERSEPTIV QOBILIYATLAR.** Mehnat ta'limi oʻqituvchi- sining tarbiyalanuvchi ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, oʻquv- chilaming ruhiy holatlarini juda yaxshi tushunishi. Oʻquvchilami darsga tayyor yoki tayyor emasliklarini koʻzidan biladi.

XIII. **NUTQ QOBILIYATI** — nutq yordamida, mimika, vositasida oʻz fikri mushohada his tuygʻularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu oʻqituvchilik kasbining eng muhim qobiliyatlaridan biridir.

XIV. **TASHKILOTCHILIK QOBILIYATI.** Oʻquvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etish, ruhlantirish qobiliyatlari. Oʻz ishini toʻgʻri rejalashtirish, vaqtni boy bermaslik, vaqtni toʻgʻri taqsimlash, belgilangan muddatda ulgurish xususiyatlari ortiqcha vaqt sarflamagan hollarda, vaziyatga qarab toʻgʻri qarorlar qabul qilish.

XV. **AVTORITAR QOBILIYAT.** Oʻqituvchi oʻquvchilarga bevosita hissiy irodaviy taʼsir koʻrsatish va obroʻ qozonish qobiliyati. Avtoritar qobiliyatlar oʻqituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir kompleksiga, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qatʼiyligi, talabchanligi va hokazolarga), shuningdek oʻquvchilarga taʼlim va tarbiya berish masʼuliyatini his etishga bogʻliq boʻladi.

XVI. **KOMMUNAKTIV QOBILIYAT.** Bolalarga aralashish, ular faoliyatiga qoʻshilib ketish qobiliyati, oʻquvchilarga turli yondashish yoʻlini topa olish, pedagogik munosabatlar oʻmata olish pedagogik qobiliyatlarining mavjudligidir.

XVII. **PEDAGOGIK HAYOL.** Oʻz harakatlarining oqibatlarini oldindan koʻrishda oʻquvchining kelgusida qanday odam boʻlishi haqidagi tasavvur bilan bogʻliq boʻlgan shaxsni tarbiyalab etishtirishda, tarbiyalanuvchini qanday fazilatlarini taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat.

XVIII. **DIQQATNI TAQSIMLASH QOBILIYATI.** Oʻquvchi uchun diqqatini barcha xususiyatlari, hajmi, kuchi, iroda qila olishi ham muhimdir. Diqqatni ayrim bir vaqtda faoliyatning bir qancha turlari oʻrtasida taqsimlash qobiliyati mehnat taʼlimi oʻqituvchining ishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

5. Oʻqituvchi pedagogik faoliyatining qanday tarkibiy qismlari bor, uning mazmuni nimalardan iborat ?
6. Oʻqituvchining konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ pedagogik faoliyatlarining mazmuni nimalardan iborat ?
7. Oʻqituvchining pedagogik qobiliyati asosiy yoʻnalishlari qanday, uning mazmuni

nimalardan iborat ?

8. O‘qish va o‘qitish bo‘yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo‘naltirilgan pedagogik qobiliyatlar mazmuni nimalardan iborat ?

11-mavzu: O‘qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy mahorati (2soat)

Reja:

1. Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Pedagogik mahorat tushunchasi.
3. Pedagogik mahoratning tuzilishi.
4. Pedagogik faoliyat va mahorat

Tayanch iboralar: Pedagogik mahorat; pedagogik mahorat predmeti; pedagogik mahorat kursining vazifalari; pedagogik ijodkorlik; pedagogik muloqot; muomala; pedagogik masala; pedagogik vaziyat; impatiya; pedagogik qobiliyat; pedagogik texnika; o‘qituvchining shaxsiy intilishi; professiyagramma; tashkilotchilik; mo‘ljallay olish; kuzatuvchanlik; pedagogik mahorat malakalari; individual pedagogik texnika; bir qolipdagi fikrlar; o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari; ixtisosga oid metodik tayyorgarlik; o‘qituvchining faoliyatida insonparvarlik.

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Zamonaviy, ilg‘or o‘qituvchilarning ta‘lim-tarbiya sohasida erishgan umumpedagogik tajribalari – qobiliyat va mahoratlari “Pedagogik mahorat” kursining predmeti hisoblanadi.

Mazkur qobiliyat, mahoratining mazmun- mohiyati, tarkibini sistema sifatida o‘rganishda, oliy o‘quv yurtlarida kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish “Pedagogik mahorat” kursini o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. “Pedagogik mahorat” kurs o‘qituvchilari, jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilarni ta‘lim-tarbiyaviy ishlarga ilmiy metodik va amaliy jihatdan tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Uning asosiy vazifalari: bo‘lajak tarbiyachi, o‘qituvchida pedagogik ijodkorlik, topqirlik, pedagogik muloqot, o‘qituvchi nutqi, o‘quvchiga har tomonlama ijobiy ta‘sir etish usullari, pedagogik texnika hamda tarbiyachining tarbiyachilik mahoratini shakllantirishdan iboratdir.

Amaliy-seminar darslarda esa, o‘qituvchi nutqi va fikrlash madaniyati, pedagogik ta‘sirining rang-barang usullari, tarbiyachi-o‘qituvchining tashkilotchilik mahorati kabi masalalar o‘rganiladi.

Amaliy darslarda diqqat va hayolni to‘plash mashqlari bajariladi. Laboratoriya va mustaqil ishlarga ajratilgan soatlarda pedagogik vaziyatlar hosil qilinib, talabalar hamkorligida echiladi. Bunday masala yoki pedagogik vaziyatlar o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muomala qila bilishi, malakasini tarbiyalashga xizmat qiladi. “Pedagogik mahorat” kursining amaliy darslaridan muayyan qismi maktablar va kollejlarda o‘tkazilishi mumkin va ular nazariy bilimlarni mustahkamlashni ko‘zda tutadi. “Pedagogik mahorat” fanining boshqa pedagogik tizimdagi fanlardan asosiy farqi shundaki, u o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarida keng ijodiy imkoniyatlardan foydalanish uchun bitmas-tuganmas ijodiy faoliyat uchun maydon hisoblanadi.

2.Pedagogik mahorat tushunchasi

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, uning oldiga juda qisqa muddatda yangicha fikrlovchi, respublika ravnaqi, taraqqiyoti uchun ongli ravishda kurashuvchi etuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasi ko'ndalang turdi. Natijada "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qonunlari qabul qilindi. Etuk mutaxassis va yangicha fikrlovchi shaxslarni shakllantirish uchun chuqur bilimning o'zigina kifoya qilmasligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Barkamol avlod-O'zbekiston kelajagining poydevori" nomli nutqida quyidagicha o'z ifodasini topdi : "Bizga maktabni bitirganlar emas, maktab tarbiyasini ko'rganlar kerak". Bu bilan Prezident bilimlar yig'indisini egallashga emas, balki ularni egallab, turli kasb-hunarlar siri, mahoratini o'zlashtirishga xizmat etuvchi bilimlarni o'rganish lozimligini ko'rsatib berdi.

Savol tug'iladi: Pedagogik mahorat nima o'zi ?

Pedagogik mahorat bu – fahm-farosat va chinakam ilmiy bilimlarning, tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo'lgan obro'li rahbarlikning, o'quvchilar qalbining qandayligini his qilish mahorati (impatiya), ichki dunyosi, nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga mohirona, avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, hayol va fantaziyaga boy bo'lgan qobiliyat majmuasidir.

3.Pedagogik mahoratning tuzilishi

Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- 1.O'qituvchi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi.
- 2.Pedagogik iste'dod, qobiliyat.
- 3.Pedagogik texnika (san'at)
- 4.O'qituvchining shaxsiy intilishi.

1.Pedagogik mahorat nazariyasi metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o'z-o'zicha, paypaslab ijodiy izlanish olib boradi: bolalar bilan, pedagogik jamoa bilan qanday qilib yaqindan til topish mumkin ? Qanday qilib qisqa muddat ichida bolalar o'rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq mumkin ? degan savollarga javob izlaydi.

Bu savollarga beriladigan javoblar har bir mohir pedagogning faoliyati uchun zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, mazkur muammoni hal qilish pedagogdan odatdan tashqari kuch-g'ayrat, qat'iyat, tirishqoqlik, ijodiylikni, o'z faoliyatini to'g'ri baholay bilish, shuningdek, bolalar, tarbiyalanuvchilarga nisbatan insonparvarona munosabatda bo'la olishni talab etadi. Ibn Sino "Tadbiri manzil" asarida bola uchun o'qituvchi tanlayotganda uning to'g'ri so'z, halol, toza-ozoda va bolalarni sevuvchi kishi bo'lishiga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaganida o'qituvchining insonparvarlik sifatini nazarda tutgan edi.

2.Har bir insonda u yoki bu kasbga qobiliyat mavjud bo'ladi. Ba'zi taniqli ruhshunoslarning fikricha (F.Gonobolin, N.Kuzmina), pedagoglik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi:

- 1.O'rta tusha bilish
- 2.Tashkilotchilik
- 3.O'zini idora eta bilish
- 4.Mo'ljallay olish, chamalay bilish
- 5.Kuchlilik, zehnlilik
- 6.Faoliyatga ijodiy yondashish.

Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo'lgan, insonparvarlik nuqtai-nazaridan turib yondashilgan taqdiridagina pedagogik qobiliyat tarkibiga kirishi mumkin.

3. Pedagogik texnika- pedagogik mahoratning asosiy qismlaridan biri bo'lib, u o'qituvchidan o'quvchilar bilan muomala qilganda zarur so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o'tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi. Haqiqiy pedagog ta'sir ko'rsatishni o'qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir paytda yaqqol ko'rinadi. Nutq, imo-ishora, mimika harakat bilan birga sodir bo'ladi.

Pedagogik texnika malakalarining shakllanish darajasi ma'lum darajada pedagogning umumiy tayyorgarlik darajasini, ya'ni shaxsning pedagogik imkoniyatlarini aks ettiradi. Pedagogning nutqi tartibsiz, qashshoq bo'lsa, o'zi jizzaki bo'lsa, didi past, madaniyatsiz bo'lsa, eng topib gapirgan to'g'ri so'zi ham tarbiyalanuvchilarga ta'sir etmaydi, balki teskari natijaga olib kelishi mumkin.

SHuning uchun ham, tarbiyachi avvalo o'zi tarbiyalangan, o'tirib-turish, suhbatlashish madaniyatini qon-qoniga singdirgan bo'lishi lozim.

Har yigitning aslin bilay desangiz

Ma'rakada o'tirib-turishini ko'ring.

(Maxtumquli)

4. O'qituvchining shaxsiy intilishi, munosabati pedagogik mahorat tarkibiy qismlari orasida muhim o'rinni egallaydi. Uning bunday shaxsiy munosabati unda tegishli bir qolipdagi fikrlar sistemasi mavjudligi bilan izohlanadi, shu tufayli u ko'p hollarda deyarli avtomatik ravishda ta'sirlarga javob bera oladi. CHunonchi, o'quvchilar bilan albatta xushmuomalada bo'lish, dilkashlik o'quvchi shaxsiga prinsipial yondashishning yuqori darajada bo'lishi, o'zining birorta ham o'quvchisi yomon emasligi, buning ustiga ishonchsiz bo'lishi mumkin emasligiga ishonch kabilar.

Lekin bunday bir qolipdagi fikrlar salbiy rol o'ynashi ham mumkin. Masalan, hamkasbi o'quvchilar bilan haqiqatda noto'g'ri munosabatda bo'lganda unga qarshi turish o'rniga, uni himoya qila boshlaydi.

O'qituvchining hohish-istagi haqqoniylik va insonparvarlik xarakterida bo'lsagina bunday cheklanishlarga yo'l qo'yilmasligi mumkin bo'ladi.

4. Pedagogik faoliyat va mahorat

Pedagogik faoliyat- yoshlarni hayotga, mehnatga, Vatan mudofaasiga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat va jamiyat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berish ishi bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan kishilarning mehnat faoliyatidir.

Maktab o'qituvchilarining faoliyati respublikamizda buyuk davlat – jamiyatni quruvchi va unda yashab mehnat qiluvchi etuk, erkin fikrlovchi inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. O'qituvchining barkamol avlodni tarbiyalash va unda yangi insonga xos sifatlarni tarkib toptirish vazifasi eng oliyanob, yuksak va shu bilan birga sharaflil va murakkab vazifadir. Har bir tarbiyalanuvchi o'z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Ularni o'qitish va tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda murakkabdir. Bunga insonlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi.

Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim.

O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning profессиogrammasida o'z ifodasini topadi: 1) o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari; 2) O'qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar; 3)Maxsus tayyorgarlikning hajmi va tarkibi; 4)Ixtisosga oid metodik tayyorgarlik mazmuni.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

- 1.Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
- 2.“Pedagogik mahorat” tushunchasini ta'riflab bering.
3. Pedagogik ijodkorlik nima ?
- 4.”Pedagogik muomala” deganda nimani tushunasiz?
- 5.”Empatiya” nima ?
- 6.”Pedagogik qobiliyat”ni ta'riflab bering ?
- 7.”Bir qolipdagi fikrlar” deb nimaga aytiladi ?
- 8.O'qituvchining shaxsiy xususiyatlariga nimalar kiradi ?
- 9.Ixtisosga oid metodik tayyorgarlik deganda nimani tushunasiz ?
10. “Pedagogik texnika “ tushunchasini tavsiflab bering.

12-mavzu: O'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy mahorati (2soat)

Reja:

1. Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Pedagogik mahorat tushunchasi.
3. Pedagogik mahoratning tuzilishi.
4. Pedagogik faoliyat va mahorat

Tayanch iboralar: Pedagogik mahorat; pedagogik mahorat predmeti; pedagogik mahorat kursining vazifalari; pedagogik ijodkorlik; pedagogik muloqot; muomala; pedagogik masala; pedagogik vaziyat; impatiya; pedagogik qobiliyat; pedagogik texnika; o'qituvchining shaxsiy intilishi; professiyagramma; tashkilotchilik; mo'ljallay olish; kuzatuvchanlik; pedagogik mahorat malakalari; individual pedagogik texnika; bir qolipdagi fikrlar; o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari; ixtisosga oid metodik tayyorgarlik; o'qituvchining faoliyatida insonparvarlik.

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Zamonaviy, ilg'or o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya sohasida erishgan umumpedagogik tajribalari – qobiliyat va mahoratlari “Pedagogik mahorat” kursining predmeti hisoblanadi.

Mazkur qobiliyat, mahoratining mazmun- mohiyati, tarkibini sistema sifatida o'rganishda, oliy o'quv yurtlarida kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish “Pedagogik mahorat” kursini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. “Pedagogik mahorat” kurs o'qituvchilari, jumladan, bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim-tarbiyaviy ishlarga ilmiy metodik va amaliy jihatdan tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Uning asosiy vazifalari: bo'lajak tarbiyachi, o'qituvchida pedagogik ijodkorlik, topqirlik, pedagogik muloqot, o'qituvchi nutqi, o'quvchiga har tomonlama ijobiy ta'sir etish usullari, pedagogik texnika hamda tarbiyachining tarbiyachilik mahoratini shakllantirishdan iboratdir.

Amaliy-seminar darslarda esa, o'qituvchi nutqi va fikrlash madaniyati, pedagogik ta'sirining rang-barang usullari, tarbiyachi-o'qituvchining tashkilotchilik mahorati kabi masalalar o'rganiladi.

Amaliy darslarda diqqat va hayolni to'plash mashqlari bajariladi. Laboratoriya va mustaqil ishlarga ajratilgan soatlarda pedagogik vaziyatlar hosil qilinib, talabalar hamkorligida echiladi. Bunday masala yoki pedagogik vaziyatlar o'qituvchining o'quvchilar bilan muomala qila bilishi, malakasini tarbiyalashga xizmat qiladi. "Pedagogik mahorat" kursining amaliy darslaridan muayyan qismi maktablar va kollejlarda o'tkazilishi mumkin va ular nazariy bilimlarni mustahkamlashni ko'zda tutadi. "Pedagogik mahorat" fanining boshqa pedagogik tizimdagi fanlardan asosiy farqi shundaki, u o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida keng ijodiy imkoniyatlardan foydalanish uchun bitmas-tuganmas ijodiy faoliyat uchun maydon hisoblanadi.

2. Pedagogik mahorat tushunchasi

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, uning oldiga juda qisqa muddatda yangicha fikrlovchi, respublika ravnaqi, taraqqiyoti uchun ongli ravishda kurashuvchi etuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasi ko'ndalang turdi. Natijada "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qonunlari qabul qilindi. Etuk mutaxassis va yangicha fikrlovchi shaxslarni shakllantirish uchun chuqur bilimning o'zigina kifoya qilmasligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Barkamol avlod-O'zbekiston kelajagining poydevori" nomli nutqida quyidagicha o'z ifodasini topdi: "Bizga maktabni bitirganlar emas, maktab tarbiyasini ko'rganlar kerak". Bu bilan Prezident bilimlar yig'indisini egallashga emas, balki ularni egallab, turli kasb-hunarlar siri, mahoratini o'zlashtirishga xizmat etuvchi bilimlarni o'rganish lozimligini ko'rsatib berdi.

Savol tug'iladi: Pedagogik mahorat nima o'zi ?

Pedagogik mahorat bu – fahm-farosat va chinakam ilmiy bilimlarning, tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo'lgan obro'li rahbarlikning, o'quvchilar qalbining qandayligini his qilish mahorati (impatiya), ichki dunyosi, nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga mohirona, avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, hayol va fantaziyaga boy bo'lgan qobiliyat majmuasidir.

3. Pedagogik mahoratning tuzilishi

Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. O'qituvchi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi.
2. Pedagogik iste'dod, qobiliyat.
3. Pedagogik texnika (san'at)
4. O'qituvchining shaxsiy intilishi.

1. Pedagogik mahorat nazariyasi metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o'z-o'zicha, paypaslab ijodiy izlanish olib boradi: bolalar bilan, pedagogik jamoa bilan qanday qilib yaqindan til topish mumkin ? Qanday qilib qisqa muddat ichida bolalar o'rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq mumkin ? degan savollarga javob izlaydi.

Bu savollarga beriladigan javoblar har bir mohir pedagogning faoliyati uchun zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, mazkur muammoni hal qilish pedagogdan odatdan tashqari kuch-g'ayrat, qat'iyat, tirishqoqlik, ijodiylikni, o'z faoliyatini to'g'ri baholay bilish, shuningdek, bolalar, tarbiyalanuvchilarga nisbatan insonparvarona munosabatda bo'la olishni talab etadi. Ibn

Sino "Tadbiri manzil" asarida bola uchun o'qituvchi tanlayotganda uning to'g'ri so'z, halol, toza-ozoda va bolalarni sevuvchi kishi bo'lishiga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaganida o'qituvchining insonparvarlik sifatini nazarda tutgan edi.

2. Har bir insonda u yoki bu kasbga qobiliyat mavjud bo'ladi. Ba'zi taniqli ruhshunoslarning fikricha (F. Gonobolin, N. Kuzmina), pedagogik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi:

1. O'rta tusha bilish
2. Tashkilotchilik
3. O'zini idora eta bilish
4. Mo'ljallay olish, chamalay bilish
5. Kuchlilik, zehnlilik
6. Faoliyatga ijodiy yondashish.

Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo'lgan, insonparvarlik nuqtai-nazaridan turib yondashilgan taqdiridagina pedagogik qobiliyat tarkibiga kirishi mumkin.

3. Pedagogik texnika- pedagogik mahoratning asosiy qismlaridan biri bo'lib, u o'qituvchidan o'quvchilar bilan muomala qilganda zarur so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o'tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi. Haqiqiy pedagog ta'sir ko'rsatishni o'qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir paytda yaqqol ko'rinadi. Nutq, imo-ishora, mimika harakat bilan birga sodir bo'ladi.

Pedagogik texnika malakalarining shakllanish darajasi ma'lum darajada pedagogning umumiy tayyorgarlik darajasini, ya'ni shaxsning pedagogik imkoniyatlarini aks ettiradi. Pedagogning nutqi tartibsiz, qashshoq bo'lsa, o'zi jizzaki bo'lsa, didi past, madaniyatsiz bo'lsa, eng topib gapirgan to'g'ri so'zi ham tarbiyalanuvchilarga ta'sir etmaydi, balki teskari natijaga olib kelishi mumkin.

SHuning uchun ham, tarbiyachi avvalo o'zi tarbiyalangan, o'tirib-turish, suhbatlashish madaniyatini qon-qoniga singdirgan bo'lishi lozim.

Har yigitning aslin bilay desangiz

Ma'rakada o'tirib-turishini ko'ring.

(Maxtumquli)

4. O'qituvchining shaxsiy intilishi, munosabati pedagogik mahorat tarkibiy qismlari orasida muhim o'rinni egallaydi. Uning bunday shaxsiy munosabati unda tegishli bir qolipdagi fikrlar sistemasi mavjudligi bilan izohlanadi, shu tufayli u ko'p hollarda deyarli avtomatik ravishda ta'sirlarga javob bera oladi. CHunonchi, o'quvchilar bilan albatta xushmuomalada bo'lish, dilkashlik o'quvchi shaxsiga prinsipial yondashishning yuqori darajada bo'lishi, o'zining birorta ham o'quvchisi yomon emasligi, buning ustiga ishonchsiz bo'lishi mumkin emasligiga ishonch kabilar.

Lekin bunday bir qolipdagi fikrlar salbiy rol o'ynashi ham mumkin. Masalan, hamkasbi o'quvchilar bilan haqiqatda noto'g'ri munosabatda bo'lganda unga qarshi turish o'rniga, uni himoya qila boshlaydi.

O'qituvchining hohish-istagi haqqoniylik va insonparvarlik xarakterida bo'lsagina bunday cheklanishlarga yo'l qo'yilmasligi mumkin bo'ladi.

4. Pedagogik faoliyat va mahorat

Pedagogik faoliyat- yoshlarni hayotga, mehnatga, Vatan mudofaasiga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat va jamiyat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya

berish ishi bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan kishilarning mehnat faoliyatidir.

Maktab o'qituvchilarining faoliyati respublikamizda buyuk davlat – jamiyatni quruvchi va unda yashab mehnat qiluvchi etuk, erkin fikrlovchi inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. O'qituvchining barkamol avlodni tarbiyalash va unda yangi insonga xos sifatlarni tarkib toptirish vazifasi eng oliyanob, yuksak va shu bilan birga sharaflil va murakkab vazifadir. Har bir tarbiyalanuvchi o'z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Ularni o'qitish va tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda murakkabdir. Bunga insonlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi.

Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim.

O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning profессиogrammasida o'z ifodasini topadi: 1) o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari; 2) O'qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar; 3)Maxsus tayyorgarlikning hajmi va tarkibi; 4)Ixtisosga oid metodik tayyorgarlik mazmuni.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

- 1.Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
- 2.“Pedagogik mahorat” tushunchasini ta'riflab bering.
3. Pedagogik ijodkorlik nima ?
- 4.”Pedagogik muomala” deganda nimani tushunasiz?
- 5.”Empatiya” nima ?
- 6.”Pedagogik qobiliyat”ni ta'riflab bering ?
- 7.”Bir qolipdagi fikrlar” deb nimaga aytiladi ?
- 8.O'qituvchining shaxsiy xususiyatlariga nimalar kiradi ?
- 9.Ixtisosga oid metodik tayyorgarlik deganda nimani tushunasiz ?
10. “Pedagogik texnika “ tushunchasini tavsiflab bering.

13-mavzu: Kasb ta'lim o'qituvchisining tashkiliy metodik ishlari. (2soat)

Reja:

- 1.Kasb ta'limi o'qituvchisining tashkiliy metodik ishlari.
- 2.Kasb-hunar ta'limida metodik ishlarni tashkil qilish strukturasi.
- 3.O'qituvchining pedagogik faoliyati
- 4.Faoliyat uslubi, usullar, holatlar, shakllar
- 5.Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar

Tayanch iboralar: Kasbiy faoliyat, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat va pedagogik qobiliyat, hamkorlik faoliyati, interaktiv harakatlar, o'qituvchi shaxsi.

1.O'qituvchining pedagogik faoliyati .O'qituvchining pedagog - tarbiyachi sifatidagi faoliyati, uning boshqa soha bilimlaridan xabardor bo'lishi, o'z faniga doir fundamental bilimga ega bo'lishi hamda maktab o'quvchisining shakllanib kelayotgan shaxsi psixologiyasi, uning qobiliyatlari to'g'risida chuqur bilimga ega bo'Mishi, kishilik

olamida sodir bo'lgan sotsial voqea- hodisalarni to'g'ri idrok eta bilishi va ularga to'g'ri baho bera bilishi, guruh jamoasini yaxlit va har bir o'quvchini puxta o'rganish bilishi, ularning xulq-atvori va sotsial faoliyatini oldindan aytib bera olish mahorat g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Pedagog kasb mahoratining ortib borishida pedagogga nisbatan maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar, ota-onalardan kutiladigan sotsial munosabatlar juda muhimdir. Pedagogning obro'si uning darsdagi faolligi, maktab jamoasida olib boradigan ishlari, ota-onalar bilan muloqoti xullas, o'z axloqiy idealiga muvofik xatti-harakatlari bilan belgilanadi. U o'z o'quvchilarida buyurilgan ish uchun yuksak darajadagi sotsial mas'uliyatni his qilish odatini, oliyanoblikni tarbiyalashi, uning intellektual kamolotiga erishib, ma'naviy jihatdan musaffo kishi bo'lib tarbiyalanishiga erishmogi kerak.

Pedagog faoliyatida, uning o'quvchilar turli yosh bosqichlarida ular bilan qanday uslubda ish olib borishi katta rol o'ynaydi. Psixologik- pedagogik adabiyotlarda o'quvchilarga rahbarlik qilishda tez-tez uchrab turadigan quyidagi besh xil ish uslubi alohida ajratib korsatiladi:

1. Avtokrat (o'zini ustun qo'yish, «balanddimog¹»).
2. Avtoritar (ma'muriy buyruqboz).
3. Demokratik (jamoaga suyanib ish olib boruvchi).
4. Liberal - loqayd (amalda rahbarlikdan chetda, o'z vazifasini nomigagina bajaradi).
5. Noizchil (o'quvchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarda vaziyatga qarab ish tutadi, «uning kim tarafdori ekanini bilib bo'lmaydi!»).

Real hayotda pedagog faoliyatida uning rahbarlik usuli har turli subyektiv va obyektiv omillarning ta'siri ostida shakllanib boradi. Bunday omillar - pedagogik faoliyatning bir subyektiv sifatida pedagogning yuksak darajadagi pedagogik madaniyati qaror topishi uchun zarur shartlardandir.

Pedagog bilan o'quvchi o'rtasidagi turli xil vaziyatlardagi o'zaro munosabatlarni tahlil qilish natijasida bolalar jamoasidagi psixologik muhit va kommunikativ madaniyat pedagogning o'quvchilar bilan qiladigan muomala stili (tarzi) va uning pedagogik takti (nazokati) ga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Xullas, pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, ya'ni tashqi ko'rinishida birdan ko'zga tashlanadigan nuqsoni yo'q (bukri, oqsok, g'ilay bo'lmasligi), so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, asablari joyida, vazmin bo'lishi darkor. Shuningdek yuqorida sanab o'tilgan sifatlarga ega bo'lishi zarur.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob bera oladigan, bolalarga ta'lim tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Pedagoglik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalanadi.

Professiogramma quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Pedagog shaxsining xususiyatlari;
- Pedagogning ruhiy-pedagogik tayyorgarligiga qo'yilgan talablar;
- Maxsus tayyorgarlik hajmi va mazmuni;
- Ixtisosga oid usuliy tayyorgarlikning mazmuni.

Pedagog shaxsining xususiyatlari g'oyaviy sohada: ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruratni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchni anglash, ijtimoiy-siyosiy faollik. Pedagoglik kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagoglik ishini sevish, ruhiy-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish. Keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila olish, o'z ma'lumotini oshirishga intilish va hokazo.

Yuqoridagi shaxs sifatlariga ega bo'lish bilan bir qatorda muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir pedagog pedagogik mahorat va pedagogik qobiliyatga ham ega bo'lishi shart. Ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo'lishi kerak. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va udaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur.

2.Faoliyat uslubi, usullar, holatlar, shakllar

Ta'lim muassasalaridagi o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi hamkorlikning quyidagi sakkizta shakli mavjud:

- faoliyatga kirish;
- mustaqil harakatlar (o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar hamkorlikda bajaradilar);
- o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga ta'lim oluvchilarni jalb etadi;
- taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan ta'lim oluvchilar ana shu namuna asosida harakat qiladi);
- madad harakatlari (o'qituvchi ta'lim oluvchilarga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi);
- o'zini o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda va oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
- o'zini-o'zi qo'zg'atuvchi harakatlar;
- o'zini uyushtiruvchi harakatlar.

Hamkorlikdagi faoliyat usullari birgalikdagi xatti-harakatlar shaklida namoyon bo'lib, unga muloqot davrlari singari mazkur faoliyatning oddiy birliklari deb qarash mumkin. Birgalikdagi harakat davri qo'yiladigan ushbu almashuvni o'z ichiga oladi: o'qituvchi harakat boshlaydi, ta'lim oluvchilar uni davom ettiradi yoki tugallaydi.

Ta'lim muassasalaridagi hamkorlikdagi faoliyatning xususiyatlarini o'rganish va tajribalarda sinab ko'rishning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarining sabablarini va manbalarini tadqiq etish hamda ta'lim jarayonida yoki hamkorlikdagi faoliyat bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishning asosiy omillarini aniqlashdan iboratdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan ko'rinadiki, hamkorlik faoliyati uchta o'zaro bog'liq fazadan iborat ekanligi ko'rsatilgan, jumladan, birinchi faza - «faoliyatni egallash» deb nomlangan bo'lib, u o'z ichiga quyidagi hamkorlik shakllarini qamrab

olgandir:

- o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilarlar o'rtasidagi birgalikda amalga oshadigan harakatlarni turkumlarga ajratuvchi tizim;

- ta'lim oluvchi larning o'qituvchi faoliyatiga taqlid qilishga asoslangan harakatlari yig'indisi;

- ta'lim oluvchilarlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan harakatlar majmuasi; hamkorlik faoliyatining ikkinchi fazasi - ta'lim oluvchilarning o'qituvchi faoliyatiga muvofiqlashtirilgan hamkorlik harakatlari majmuasi;

- ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini boshqaruvchi harakatlari tizimi;

- ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini qo'zg'atuvchi xatti-harakatlari (harakatga undovchi omillar) va boshqalar. Hamkorlik faoliyatining uchinchi fazasi - hamkorlik faoliyatidan yangi bir taraqqiyot bosqichiga ko'tarilish, takomillashishda, shuningdek, o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar hamkorligi sheriklik darajasiga o'sib o'tishda o'z ifodasini topadi.

Uchta fazaning oxirgisi quyidagi ko'rinishga ega bo'lishi mumkin:

- teng huquqlilik asosiga qurilgan umumiy hamkorlikdagi o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilarning faoliyatiga madad beruvchi (o'zaro ta'sir o'tkazish negizida ijodiy izlanishlar namoyon etilsa) harakatlar;

- ma'naviy harakatlar (o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlik zaminiga qurilgan harakatlari muayyan ma'no, mohiyat, intellektual harakat, anglashilgan turtki, maqsadga yo'naltirilgan vosita, o'zaro mohiyatni oydinlashtiruvchi munosabat kabilar);

- interaktiv harakatlar (o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, goh noverbal, goh verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasi);

- predmetli refleksiv harakatlar (bu yerda mana bunday holat yotishi ehtimoldan holi emas; birinchidan, har qanday hamkorlik muayyan narsaga qaratilgan sodda va lo'nda intellektual harakatlardan tuzilishi; ikkinchidan, aniq muammolar yoki o'quv predmetlari mohiyati bog'liq harakatlar zanjiriga yo'nalgan bo'lishi mumkin, lekin har bir intellektual harakat anglashilgan, o'z-o'zini boshqarishga bo'ysundirilganligi bilan ajralib turishi lozim);

- interaktiv harakatlar (o'zaro ta'sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir, turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik subyektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish noma'lum holatni ochishga, kashf etishga ko'mak beruvchi nazariy- aqliy mulohazalarda ifodalanishi mumkin);

- ma'naviy refleksiv harakatlar (refleksiv tushunchasi anglaganlik darajasini bildirgan ma'noda qo'llaniladi, shuning uchun bu o'rinda mantiqiy izchillikdagi harakatlar, aqlni peshlash mashqlari tarzida ishtirok etib, muayyan aqliy yuklamani o'zida aks ettirishi lozim, bu yerda harakatlar ortiqcha operativ belgilardan xalos bo'lishi shart). Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, yuqoridagi fikrlarni empirik materiallar asosida chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq.

O'quv topshirig'ini bajarish bo'yicha hamkorlikdagi ishni tashkil etish

1- bosqich

O'quv materiali, bajarish qoidalari, natijalami baholash ko'rsatkich va mezonlari, guruhda ishlash qoidalari bilan tanishadilar.

Guruhda ishlash qoidalari:

Har kim o'z o'rtoqlari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;

Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;

Har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;

Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;

Har kim aniq tushunishi zarur, boshqalarga yordamlashib, o'zimiz o'rganamiz.

2-bosqich. Guruhda ishlash

Guruhdagi ishni rejalashtirishadi;

Guruh ichida topshiriqlarni taqsimlashadi;

Yakka tartibda topshiriqlarni bajarishadi;

Guruh muzokarasini o'tkazish qoidalariga asoslanib yakka tartibda erishilgan natijalami muhokama qilishadi va guruh ishining umumiy natijasini shakllantirishadi;

Taqdimot uchun birgalikda olib borilgan ish natijalarini tayyorlashadi;

Ushbu material qismini aniqlash maqsadida o'zaro tekshiruv savollarini tayyorlashadi.

3- bosqich. Taqdimot

Guruh a'zolari birgalikda bajargan ish natijalarini ko'rgazmali vositalar yordamida taqdimot etadi;

Boshqalar ushbu material qismini o'zlashtirganligini aniqlash maqsadida o'zaro tekshiruv savollarini beradilar.

3. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar

Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» g'oyalari amaliyotga tadbiq etish respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlaming ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'ymoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi - ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak»¹³.

¹³ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. - Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konsemi Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar:

1.O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berish olishi lozim.

2.Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3.O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4.O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5.O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6.O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7.O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8.O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarini o'zida aks ettirish kerak:

a) nutqning to'g'riligi;

b) nutqning aniqligi;

c) nutqning ifodaviyligi;

d) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'zining muayyan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

e) nutqning ravonligi;

f) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9.O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi lozim.

10.O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'zining o'ziga bo'lgan munosabati o'zlashtirishga erishishi lozim.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator

sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng awalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqq olishi zarur. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqat jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan hayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda boiishi zarur. O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» g'oyalarni amalga oshirish jarayonida o'qituvchi kadrlar muhim ro'l o'ynaydilar. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis¹⁴ maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'mi beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy ma'naviy-xloqiy sifatlar namoyon bo'la olishi maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari:

- 1.O'qituvchining pedagogik faoliyati mazmuni nimalardan iborat ?
- 2.O'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlik faoliyatining qanday asosiy uslubi, usul, holatlar va shakllari bor, ularning mazmuni nimalardan iborat ?
- 3.Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar nimalardan iborat ?

14-mavzu: Kasb ta'lim o'qituvchisining tashkiliy metodik ishlari. (2soat)

Reja:

- 1.Kasb ta'limi o'qituvchisining tashkiliy metodik ishlari.**
- 2.Kasb-hunar ta'limida metodik ishlarni tashkil qilish strukturasi.**
- 3.O'qituvchining pedagogik faoliyati**
- 4.Faoliyat uslubi, usullar, holatlar, shakllar**
- 5.Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar**

Tayanch iboralar: Kasbiy faoliyat, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat va pedagogik qobiliyat, hamkorlik faoliyati, interaktiv harakatlar, o'qituvchi shaxsi.

1.O'qituvchining pedagogik faoliyati .O'qituvchining pedagog - tarbiyachi sifatidagi faoliyati, uning boshqa soha bilimlaridan xabardor bo'lishi, o'z faniga doir fundamental bilimga ega bo'lishi hamda maktab o'quvchisining shakllanib kelayotgan shaxsi

¹⁴ Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar SH.Qurbonov, H Saidov, R.Ahliddinov - Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontsemi Bosh taxririya, 1999. - 143-bet.

psixologiyasi, uning qobiliyatlari to‘g‘risida chuqur bilimga ega bo‘lishi, kishilik olamida sodir bo‘layotgan sotsial voqea- hodisalami to‘g‘ri idrok eta bilishi va ularga to‘g‘ri baho bera bilishi, guruh jamoasini yaxlit va har bir o‘quvchini puxta o‘rgana bilishi, ulaming xulq-atvori va sotsial faoliyatini oldindan aytib bera olish mahorat g‘oyat katta ahamiyatga egadir.

Pedagog kasb mahoratining ortib borishida pedagogga nisbatan maktab ma‘muriyati, hamkasblari, o‘quvchilar, ota-onalardan kutiladigan sotsial munosabatlar juda muhimdir. Pedagogning obro‘si uning darsdagi faolligi, maktab jamoasida olib boradigan ishlari, ota-onalar bilan muloqoti xullas, o‘z axloqiy idealiga muvofik xatti- harakatlari bilan belgilanadi. U o‘z o‘quvchilarida buyurilgan ish uchun yuksak darajadagi sotsial mas‘uliyatni his qilish odatini, oliyanoblikni tarbiyalashi, uning intellektual kamolotiga erishib, ma‘naviy jihatdan musaffo kishi bo‘lib tarbiyalanishiga erishmogi kerak.

Pedagog faoliyatida, uning o‘quvchilar turli yosh bosqichlarida ular bilan qanday uslubda ish olib borishi katta rol o‘ynaydi. Psixologik- pedagogik adabiyotlarda o‘quvchilarga rahbarlik qilishda tez-tez uchrab turadigan quyidagi besh xil ish uslubi alohida ajratib korsatiladi:

6. Avtokrat (o‘zini ustun qo‘yish, «balanddimog¹»).
7. Avtoritar (ma‘muriy buyruqboz).
8. Demokratik (jamoaga suyanib ish olib boruvchi).
9. Liberal - loqayd (amalda rahbarlikdan chetda, o‘z vazifasini nomigagina bajaradi).
10. Noizchil (o‘quvchilar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarda vaziyatga qarab ish tutadi, «uning kim tarafdori ekanini bilib bo‘lmaydi!»).

Real hayotda pedagog faoliyatida uning rahbarlik usuli har turli subyektiv va obyektiv omillarning ta‘siri ostida shakllanib boradi. Bunday omillar - pedagogik faoliyatning bir subyektiv sifatida pedagogning yuksak darajadagi pedagogik madaniyati qaror topishi uchun zarur shartlardandir.

Pedagog bilan o‘quvchi o‘rtasidagi turli xil vaziyatlardagi o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish natijasida bolalar jamoasidagi psixologik muhit va kommunikativ madaniyat pedagogning o‘quvchilar bilan qiladigan muomala stili (tarzi) va uning pedagogik takti (nazokati) ga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Xullas, pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo sog‘lom bo‘lishi, ya‘ni tashqi ko‘rinishida birdan ko‘zga tashlanadigan nuqsoni yo‘q (bukri, oqsok, g‘ilay bo‘lmasligi), so‘zlarni to‘g‘ri va yaxshi talaffuz qila olishi, asablari joyida, vazmin bo‘lishi darkor. Shuningdek yuqorida sanab o‘tilgan sifatlarga ega bo‘lishi zarur.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob bera oladigan, bolalarga ta‘lim tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Pedagoglik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalanadi.

Professiogramma quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Pedagog shaxsining xususiyatlari;
- Pedagogning ruhiy-pedagogik tayyorgarligiga qo‘yilgan talablar;
- Maxsus tayyorgarlik hajmi va mazmuni;

- Ixtisosga oid usuliy tayyorgarlikning mazmuni.

Pedagog shaxsining xususiyatlari g'oyaviy sohada: ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruratni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchni anglash, ijtimoiy-siyosiy faollik. Pedagoglik kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagoglik ishini sevish, ruhiy-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish. Keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila olish, o'z ma'lumotini oshirishga intilish va hokazo.

Yuqoridagi shaxs sifatlariga ega bo'lish bilan bir qatorda muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir pedagog pedagogik mahorat va pedagogik qobiliyatga ham ega bo'lishi shart. Ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo'lishi kerak. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va udaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur.

2.Faoliyat uslubi, usullar, holatlar, shakllar

Ta'lim muassasalaridagi o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi hamkorlikning quyidagi sakkizta shakli mavjud:

- faoliyatga kirish;
- mustaqil harakatlar (o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar hamkorlikda bajaradilar);
- o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga ta'lim oluvchilarni jalb etadi;
- taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan ta'lim oluvchilar ana shu namuna asosida harakat qiladi);
- madad harakatlari (o'qituvchi ta'lim oluvchilarga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi);
- o'zini o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda va oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
- o'zini-o'zi qo'zg'atuvchi harakatlar;
- o'zini uyushtiruvchi harakatlar.

Hamkorlikdagi faoliyat usullari birgalikdagi xatti-harakatlar shaklida namoyon bo'lib, unga muloqot davrlari singari mazkur faoliyatning oddiy birliklari deb qarash mumkin. Birgalikdagi harakat davri qo'yiladigan ushbu almashuvni o'z ichiga oladi: o'qituvchi harakat boshlaydi, ta'lim oluvchilar uni davom ettiradi yoki tugallaydi.

Ta'lim muassasalaridagi hamkorlikdagi faoliyatning xususiyatlarini o'rganish va tajribalarda sinab ko'rishning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarining sabablarini va manbalarini tadqiq etish hamda ta'lim jarayonida yoki hamkorlikdagi faoliyat bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishning asosiy omillarini aniqlashdan iboratdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan ko'rinadiki, hamkorlik faoliyati uchta o'zaro bog'liq fazadan iborat ekanligi ko'rsatilgan, jumladan, birinchi faza - «faoliyatni

egallash» deb nomlangan boʻlib, u oʻz ichiga quyidagi hamkorlik shakllarini qamrab olgandir:

- oʻqituvchi bilan taʼlim oluvchilarlar oʻrtasidagi birgalikda amalga oshadigan harakatlarni turkumlarga ajratuvchi tizim;

- taʼlim oluvchilarning oʻz-oʻzini oʻqituvchi faoliyatiga taqlid qilishga asoslangan harakatlari yigʻindisi;

- taʼlim oluvchilarlar tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan harakatlar majmuasi; hamkorlik faoliyatining ikkinchi fazasi - taʼlim oluvchilarning oʻqituvchi faoliyatiga muvofiqlashtirilgan hamkorlik harakatlari majmuasi;

 - taʼlim oluvchilarning oʻz-oʻzini boshqaruvchi harakatlari tizimi;

- taʼlim oluvchilarning oʻz-oʻzini qoʻzgʻatuvchi xatti-harakatlari (harakatga undovchi omillar) va boshqalar. Hamkorlik faoliyatining uchinchi fazasi - hamkorlik faoliyatidan yangi bir taraqqiyot bosqichiga koʻtarilish, takomillashishda, shuningdek, oʻqituvchi bilan taʼlim oluvchilar hamkorligi sheriklik darajasiga oʻsib oʻtishda oʻz ifodasini topadi.

Uchta fazaning oxirgisi quyidagi koʻrinishga ega boʻlishi mumkin:

- teng huquqlilik asosiga qurilgan umumiy hamkorlikdagi oʻqituvchi bilan taʼlim oluvchilarning faoliyatga madad beruvchi (oʻzaro taʼsir oʻtkazish negizida ijodiy izlanishlar namoyon etilsa) harakatlar;

- maʼnaviy harakatlar (oʻqituvchi va taʼlim oluvchilarning hamkorlik zaminiga qurilgan harakatlari muayyan maʼno, mohiyat, intellektual harakat, anglashilgan turtki, maqsadga yoʻnaltirilgan vosita, oʻzaro mohiyatni oydinlashtiruvchi munosabat kabilar);

- interaktiv harakatlar (oʻzaro fikr almashishga, oʻzaro fikrlarni toʻldirishga, goh noverbal, goh verbal taʼsir oʻtkazishga qaratilgan harakatlar majmuasi);

- predmetli reflektiv harakatlar (bu yerda mana bunday holat yotishi ehtimoldan holi emas; birinchidan, har qanday hamkorlik muayyan narsaga qaratilgan sodda va loʻnda intellektual harakatlardan tuzilishi; ikkinchidan, aniq muammolar yoki oʻquv predmetlari mohiyati bogʻliq harakatlar zanjiriga yoʻnalgan boʻlishi mumkin, lekin har bir intellektual harakat anglashilgan, oʻz-oʻzini boshqarishga boʻysundirilganligi bilan ajralib turishi lozim);

- interaktiv harakatlar (oʻzaro taʼsir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki taʼsir, turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik subyektlarini ijodiy izlanishga yoʻnaltirish nomaʼlum holatni ochishga, kashf etishga koʻmak beruvchi nazariy- aqliy mulohazalarda ifodalanishi mumkin);

- maʼnaviy reflektiv harakatlar (reflektiv tushunchasi anglaganlik darajasini bildirgan maʼnoda qoʻllaniladi, shuning uchun bu oʻrinda mantiqiy izchillikdagi harakatlar, aqlni peshlash mashqlari tarzida ishtirok etib, muayyan aqliy yuklamani oʻzida aks ettirishi lozim, bu yerda harakatlar ortiqcha operativ belgilardan xalos boʻlishi shart). Shu narsani alohida taʼkidlab oʻtish kerakki, yuqoridagi fikrlarni empirik materiallar asosida chuqurroq oʻrganish maqsadga muvofiq.

Oʻquv topshirigʻini bajarish boʻyicha hamkorlikdagi ishni tashkil etish

2- bosqich

O'quv materiali, bajarish qoidalari, natijalami baholash ko'rsatkich va mezonlari, guruhda ishlash qoidalari bilan tanishadilar.

Guruhda ishlash qoidalari:

Har kim o'z o'rtoqlari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;

Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;

Har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;

Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;

Har kim aniq tushunishi zarur, boshqalarga yordamlashib, o'zimiz o'rganamiz.

2-bosqich. Guruhda ishlash

Guruhdagi ishni rejalashtirishadi;

Guruh ichida topshiriqlarni taqsimlashadi;

Yakka tartibda topshiriqlarni bajarishadi;

Guruh muzokarasini o'tkazish qoidalariga asoslanib yakka tartibda erishilgan natijalami muhokama qilishadi va guruh ishining umumiy natijasini shakllantirishadi;

Taqdimot uchun birgalikda olib borilgan ish natijalarini tayyorlashadi;

Ushbu material qismini aniqlash maqsadida o'zaro tekshiruv savollarini tayyorlashadi.

3- bosqich. Taqdimot

Guruh a'zolari birgalikda bajargan ish natijalarini ko'rgazmali vositalar yordamida taqdimot etadi;

Boshqalar ushbu material qismini o'zlashtirganligini aniqlash maqsadida o'zaro tekshiruv savollarini beradilar.

3. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar

Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» g'oyalarini amaliyotga tadbiq etish respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilganidir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yimoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi - ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak»¹⁵.

¹⁵ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. - Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konsemi Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar:

1.O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berish olishi lozim.

2.Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3.O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4.O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5.O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6.O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7.O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8.O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarini o'zida aks ettira olishi kerak:

g) nutqning to'g'riligi;

h) nutqning aniqligi;

i) nutqning ifodaviyligi;

j) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni no'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'z bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

k) nutqning ravonligi;

l) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9.O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi lozim.

10.O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofda qilargalarga o'mak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng awalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqib olishi zarur. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillash olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan hayrixohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur. O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» g'oyalarini amalga oshirish jarayonida o'qituvchi kadrlar muhim ro'l o'ynaydilar. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis¹⁶ maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'zi beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy ma'naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo'la olishi maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari:

1. O'qituvchining pedagogik faoliyati mazmuni nimalardan iborat ?
2. O'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlik faoliyatining qanday asosiy uslubi, usul, holatlar va shakllari bor, ularning mazmuni nimalardan iborat ?
3. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar nimalardan iborat ?

15-mavzu: Mustaqil ishlarni tashkil etish, o'tkazish va baholash.

Reja:

- 1. KHK mustaqil ishlarni tashkil etish maqsadi, vazifalari va uning mohiyati.**
- 2. Mustaqil ish shakllari. Mustaqil ishlarni tashkil etish va o'tkazish.**
- 3. Mustaqil ishlarni baholash o'qitishni tashkil etishda mustaqil ish, kurs ishi, va bitiruv malakaviy ishlarni tashkil etish va ularni bajarishdagi talablar.**

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni tug'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish kiyin.

¹⁶ Barkamol avlod orzusi // Tuzuvchilar SH. Qurbonov, H Saidov, R. Ahliddinov - Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontsemi Bosh taxririya, 1999. - 143-bet.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'quvchi mustaqil ishi (KHK) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashkarida o'zlashtirishga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

O'qishning boshlang'ich bosqichlarida KHKni tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta'limning navbatdagi turi - oliy ta'lim talablarga ko'nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta'lim olish jarayonida o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, kanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o'z vaqtlarini tug'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor bo'lishmaydi.

Shuning uchun xar bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. O'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarining kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta'limga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga karab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

O'quvchilar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:

- o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasemestr-dan-semestr-ga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib borish kerak bo'ladi.

KHKni tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;

- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to'plash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash;
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

Fan hususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat kiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h-k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va h-k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

O'quvchi ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Mavzu buyicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. O'quvchilarga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, toshpirlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Konsultatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin).

Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. O'quvchiga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) karakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi.

Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash. Bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha nostandart, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy axamiyatga ega bo'lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi topshirilishi mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo'lishi kerak.

O'quvchilarning qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy xarakterdagi topshiriqlar berish, o'qituvchi bilan xamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

O'quvchilar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:

- tizimli yondoshish;
- barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

maqsad (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va x.k.) aniq asoslanishi;

vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;

topshiriqlarni bajarish algoriKHK va metodlaridan talabalarning yetarli darajada xabardor bo'lishi;

maslahat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi (yo'llanma va ko'rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari buyicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlarni birgalikda hal qilish va h.k.);

hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;

nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, konsultatsiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma'ruza yo referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko'rgazmali jihozlar va ijodiy ishlar; savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va h.k.).

O'quvchilar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

auditoriyada amalga oshiriladigan mustaqil ishlari: oʻtilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;

auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan mustaqil ishlari: oʻquv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda oʻzlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laborotoriya ishlariga tayyorgarlik koʻrib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlar va h.k.

Birinchi tur ishlari oʻquvchining nazariy va amaliy bilimlarini oʻzlashtirib borish darajasi, amaliy mashgʻulotlarga (amaliyot, laborotoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suxbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib koʻrish va h.k. usullarda asosan amaliyot darslarida nazorat (joriy nazorat) qilinadi.

Joriy nazoratda talabaning dars paytida oʻtilgan materiallarni oʻzlashtirish va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdagi faolligi, bajarish saviyasi va oʻzlashtirish darajasi eʼtiborga olinadi.

Ikkinchi tur ishlar fanning ishchi oʻquv dasturida auditoriyadan tashqarida oʻzlashtirilishi belgilangan mavzu boʻyicha maʼlumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va oʻzlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish koʻrinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va oʻzlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgalangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi.

Oʻquvchi mustaqil ishini baholash. natijalari amaldagi Kasb hunar kollej muassasalarida oʻquvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi tugʻrisidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi. Oʻquvchilarga oʻqituvchilar konsultatsiya tashkil etadilmustaqil ishi boʻyicha konsultatsiyalar tashkil etish tartibi:

1. Oʻquvchilar mustaqil ishi (KHK) boʻyicha konsultatsiyalar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga moʻljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yoʻllanmalar berish va uni bajarilishini nazorat qildib borish maqsadida tashkil qilinadi.

2. KHK boʻyicha konsultatsiya darsi fanning kalendar tematik rejasiga muvofiq oʻtkaziladi.

3. Konsultatsiya darsi tegishli fan oʻqituvchisi tomonidan oʻtkaziladi.

4. Fan oʻqituvchisi konsultatsiya darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- KHK topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yoʻllanma beradi;
- topshiriq bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
- tegishli adabiyotlar va axborot manbalarini tavsiya etadi;
- KHK yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

5. KHK boʻyicha konsultatsiyalar oʻquv jarayonining 1 yoki 2 smenada tashkil etilishiga qarab talabalarning darsdan boʻsh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.

6. KHK boʻyicha konsultatsiya darslari oʻqituvchi jurnalida qayd etib boriladi.

Savol va topshiriqlar

1. Oʻquvchilar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda qanday jihatlarga eʼtibor berish zarur?

2. Oʻquvchilar mustaqil ishini samarali tashkil etishga doir chora tadbirlar

3. Oʻquvchi mustaqil ishini baholash.

4. KHKlarda mustaqil ishlarni tashkil etish maqsadi, vazifalari va uning mohiyati.. Mustaqil ish shakllari. 5. Mustaqil ishlarni tashkil etish va oʻtkazish

16-mavzu: Kasb- hunar kollejlari o'quv xona, laboratoriya hamda o'quv ustaxonalarini jihozlash va unga qo'yiladigan talablar.

Reja:

1. Kasb-hunar kolleji o'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv ustaxonalarni jihozlash maqsadi va vazifalari.
2. Jihoz turlari va ularning ahamiyati.
3. O'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv ustaxonalarida jihozlaridan foydalanish
4. Laboratoriya mashg'ulotlari va ularni o'tkazish metodikasi.
5. Laboratoriya ishlarini amalga oshirishda laboratoriya ishlarini bajarishning texnika xavfsizligi va unga amal qilish qoidalari.

Tayanch tushunchalar: laboratoriya mashg'ulotlari, Havfsizlik qoidalari, laboratoriya jihozlari, virtual laboratoriyalarlar, sinxiron laboratoriyalar, amaliy laboratoriyalar.

Laboratoriya mashg'ulotlari – o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari o'qituvchi rahbarligi ostida olgan o'quv axborotlari (ma'ruza va mustaqil ishlari)ni chuqurlashtirish, tahlil qilish, kengaytirish, qo'llash va o'zlash-tirishni nazorat qilish shakli.

Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik **tamoyil-larga** amal qilinadi:

- laboratoriya mashg'ulotlarini rejalashtira olish va o'tkaza olish;
- laboratoriya mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- fan va ishlab chiqarish bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyat-lariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy jihatdan tayyorlash;
- laboratoriya mashg'ulotlari nafaqat konkret mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir

Laboratoriya mashg'ulotlari o'quv fanining ilmiy-nazariy asoslarini bilib olish, ijodiy faliyat ko'nikmasi va tajribasiga ega bo'lish, texnik vositalarni qo'llagan xolda zamonaviy amaliy ishlash metodlarini o'zlash-tirish maqsadida o'qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o'quv top-shiriqlari kompleksini bajarishni nazarda tutuvchi o'quv jarayonini tash-kil etishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Laboratoriya mashg'ulotlar ularni bajarishning nazariy asosini yoritib beruvchi ma'ruzalardan so'ng amalga oshiriladi.

Laboratoriya mashg'uloti yaxshi tayyorlangan, maxsus jihozlangan o'quv laboratoriyalarida o'quv jarayonining shartlariga mos jihozlangan (laboratoriya qurilmalari, moslashuvchan va h.k.) uskunalarni foydalanib o'tkazish talab qilinadi. Ba'zida laboratoriya mashg'ulotlarini to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarishda, haqiqiy professional o'rtada(zavodda, sohada, tadqiqot institutida, maktabda) sharoitda o'tkazish tavsiya etiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari **tarkibi:** talabalarning aniq bir laboratoriya ishlarini bajarishga, uning vazifalarini bajarishga tayyorligini tekshirish, ishlarni bajarish va

bajarilgan ishlar bo'yicha individual hisobot tayyorlashga va uni ilmiy-pedagog xodimlar oldida himoya qilishga tayyorlash.

Laboratoriya ishlarini bajarish ilmiy-pedagog xodim tomonidan baho-lanadi.

Laboratoriya ishlarini bajarishning rejalari, texnologiyalari va usullari tegishli bo'limlar tomonidan ishlab chiqiladi. Muayyan bir fan-ning laboratoriya mashg'ulotiga ajratilgan soati o'quv rejasida belgilab qo'yilgan, mavzular ro'yxati fanning ishchi o'quv dasturida ko'rsatilgan. Laboratoriya mashg'ulotlarini boshqa turdagi ishlar bilan almashtirish mumkin emas. Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar soni akademik guruhning yarmidan oshmasligi kerak. Har bir talaba mustaqil ravishda barcha laboratoriya ishlarini bajarishi va natijalarini chiqarishlari kerak.

Laboratoriya mashg'ulot tuzilishiga xos bo'lgan **elementlar**: kirish, aso-siy va yakuniy qismlardir.

Kirish qismi o'quvchilarning ish topshiriqlarini bajarishga tayyor-garlik ko'rishlarini ta'minlaydi. Uning tarkibiga: mavzu, maqsad va vazi-falarni bayon etish, o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligida uning ahamiyatini asoslash; ushbu mavzuning kursdagi boshqa mavzular bilan bog'liqligini ko'-rib chiqish; ishning nazariy asoslarini bayon etish; ish topshiriqlari tarki-bi va o'ziga xosliklarini tavsiflash, ularni bajarishga yondashuvni (metod, usullarni) tushuntirish; ish natijalariga qo'yiladigan talablarni tavsif-lash; o'quvchilar tomoning ishni boshlashga tayyorgarliklarini tekshirish; o'qituvchi nazorati ostida topshiriqdan bir namunani bajarib ko'rish; o'quv-chilar tomonidan topshiriqlarni bajarilishida natijalarni mustaqil boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar berish kiradi.

Asosiy qism o'quvchilar tomonidan topshiriqlarni mustaqil bajarish-larini nazarda tutadi. Ish jarayonida qo'shimcha tushuntirishlar; yuzaga kel-gan qiyinchiliklarni bartaraf etish; ish natijalarini joriy nazorat qi-lish va baholash; o'quvchilar savollariga javob berish kabilar bilan birga-likda amalga oshirilishi mumkin.

Yakuniy qism tarkibiga: mashg'ulotning umumiy xulosasini (ijobiy, salbiy) chiqarish; ayrim o'quvchilarning ishlari natijalarini baholash; o'quvchilarning savollariga javob berish; o'quvchilar ish ko'rsatkichlarini yaxshilash va ularning bilim, malakalari tizimidagi bo'shliqlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish; o'qituvchi tomonidan bajarilgan ishlarni tekshirish uchun o'quvchilarning hisobotlarini to'plash; keyingi ishlarni bajarishga tayyorgarlik ko'rish, jumladan o'rganilishi kerak bo'lgan o'quv adabiyotlar haqida ma'lumotlarni bayon etish.

Mashg'ulotlarda o'quvchilar ishini tashkil etish shakllari: 1) frontal, 2) guruhli, 3) individual.

Mashg'ulotni frontal shaklda tashkil etishda barcha o'quvchilar bir vaqt-ning o'zida bir xildagi topshiriqni bajaradilar. Bunday shakldagi amaliy mashg'ulotning odatiy misoli – o'quvchilar tomonidan kollejda o'qitiladi-gan biron-bir fanning o'quv dasturini tahlil etilishidir. Yana bir misol o'quvchilarning biri o'qituvchi, boshqalari esa o'quvchilar sifatida “dars o'tishlari”dir. Darsning yakunida o'quvchilar tomonidan uning tahlili amalga oshiriladi, “o'qituvchiga” tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mashg'ulotni guruhli shaklda tashkil etishda bitta topshiriq bir nechta kishidan iborat bo'lgan kichik o'quv guruhlarida bajariladi. Mashg'ulotlarni individual shaklda tashkil etishda o'quvchilarning har biri individual topshiriqni bajaradi. So'ngra ular ishni bajarish tajribasi bilan o'zaro almashadilar.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish va o'tkazish jarayonida ilmiy-peda-gog xodim quyidagi aspektlarga e'tibor qaratishi kerak: laboratoriya mash-g'ulotlarining mazmuni,

laboratoriyalarning, kabinetlarning zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalariga mos keladigan zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanganligi; laboratoriya ishlarini bajarishda talabalarning mustaqilligini ta'minlash uchun materiallar, reagentlar, asboblari, qurilmalar bilan ta'minlanganligi; xavfsizlik me'yorlariga rioya qilinishi, o'quvchi-larga bunday ishlarni bajarish metodlariga o'rgatilganligi.

O'quvchi laboratoriya o'tkaziladigan fan bo'yicha dasturda berilgan bilimlar hajmini to'liq egallab, laboratoriya mashg'ulotini mustaqil o'tkazish malakalarini egallashlari kerak.

O'quvchi quyidagi amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

- o'quv-laboratoriya xonasida ishlash qoidalarini bilish;
- kimyoviy moddalar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalarini bilish;
- oddiy kimyoviy idishlardan, asboblardan foydalanib, qattiq, suyuq moddalarning massalarini, hajmini o'lchay olish;
- laboratoriya sharoitida tajribalar o'tkazish uchun murakkab bo'lmagan asbob-uskunalar va idishlar komplektini ma'lum bir konsentratsiyada tayyorlay olish;
- suyuq moddalar zichligini maxsus areometrlar bilan yoki boshqa usullar yordamida aniqlay olish, qaynash temperaturasini aniqlash usullarini bilish;
- erituvchi va erigan modda haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish, erigan moddani erituvchidan ajratish usullarini bilish;
- laboratoriya ishlarini mustaqil ravishda bajara olish va tegishli xulosalar chiqarish;
- kimyoviy reaksiyalar tezligining tashqi omillarga, ya'ni temperaturoga, reaksiyaga kirishuvchi moddalarning tutashuvchi yozmalariga va kata-lizatorga, moddalar tabiatiga bog'liqligini tajribada ko'rsata olish;
- laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni mustaqil o'tkaza olish, reaksiya mohiyatini tushunish, kuzatish natijalarini yozish va xulosa chiqarish, reaksiya sababi va natijasining bog'liqligi qonuniyatlarini aniqlash, moddalarni sintez qilish jarayonida zaruriy shart-sharoitlarning to'liqligini ta'minlashni bilish.

Laboratoriya ishlarini bajarayotganda har qaysi gurux o'quvchisi o'z navbatida kichik guruxlariga bo'linib berilgan laboratoriya ishini bajaradi.

Mustaqil ish boshlashdan oldin o'quvchilar xavfsizlik texnikasi qoidalarini bilan puxta tanishishlari va ularga qat'iy rioya etishlari lozim. Navbatdagi mashg'ulotga o'quvchilar puxta tayyorgarlik ko'rgan xolda kelishlari, ya'ni qilinadigan ishning mazmunini, maqsadini, bajarish usullarini bilishlari shart. Ish joyidagi asbob-uskunalar o'rnini o'zboshimchalik bilan o'zgartirish qat'iyan man etiladi.

Laboratoriya mebellarida mebelning juda keng tarqalgan qismi, shkafi, laboratoriya xonasi odatdagi shkafdan, yuk ko'taruvchi quvvatdan, namlikdan, skvotka qarshi, korroziyaga chidamli va talablarning boshqa jihatlaridan juda farq qilishi mumkin. juda qat'iydir. Axir, laboratoriya - bu maxsus laboratoriya bo'lib, deyarli barcha laboratoriya dori-darmonlari, kimyoviy reagentlar va boshqalar bilan shug'ullanadi, shuning uchun barcha laboratoriya mebellari odatiy mebellardan tubdan farq qiladi.



Laboratoriya shkafi dizayni asosan eng oddiy to'rt tomonlama strukturani, ya'ni yuqori, pastki, old va orqa tomonlarni egallaydi. Oddiy tuzilish chiroyli va zamonaviy ko'rinishga ega. Konsentratsiyali chiziqlarning jilolari yoki tiniqligi va jozibali ko'rinishi bo'ladimi, bu o'ziga xos uslubi. Ichki xotira juda katta. Har bir alohida maydonning balandligi bir metrdan oshiq, eni esa bir yarim metrdan ko'proq. Ko'proq kiyim va boshqa narsalarni tushirish kifoya.

Rangli, laboratoriya xonasi, boshqa po'latdan ishlangan laboratoriya mebellari kabi, afzal ko'rganingiz bo'yicha turli xil ranglarni tanlashi mumkin. BOKA kasbiy laboratoriya mebellari bilan moslashtirilishi mumkin, ya'ni makonning umumiy uslubiga mos kelishi yoki ma'lum bir atmosferani yaratishi uchun chuqur va to'liq rangli ranglar bilan mos kelishi mumkin. Soyabon ishlab chiqarish vaqtida sovuq haddelenmiş po'latdan foydalanildi, sirt xalqaro ekologik standartlarga va antistatik tolqon bilan bo'yalgan. Chiroyli ko'rinish bilan, u mustahkam moddiy poydevorga ega va ichki va tashqi ta'mirlash yuqori sifat kafolati hisoblanadi.

Laboratoriya shkafi faqat laboratoriyalarda emas, balki maktab, suzish havzasi va kompaniyalar kabi jamoat joylarida ham qo'llanilishi mumkin. Haqiqiy o'lchov talablarga muvofiq sozlanishi va uslublar texnik jihatdan ham o'zgarishi mumkin. Lekin siz qanday qilib sozlashingiz va o'zgartirishingizdan qat'iy nazar, sifat hech qanday o'zgarishsiz o'zgarmaydi.

Laboratoriya xonasining asosiy materiali - bu yog'och, po'latdan yasalgan yog'och, alyuminiy qotishma tuzilishi, barcha po'lat konstruksiyasi va boshqalar. Sizning laboratoriyangizning o'lchamiga mos ravishda moslashtirilishi mumkin, bu sizning laboratoriyangizdan to'liq foydalanishga imkon beradi.

Laboratoriyada ishlash qoidalari

Laboratoriyada ishlash vaqtida quyidagi qoidalarga

rioya qiling:

1. Qo'llanmadagi tegishli nazariy qismni o'qib chiqing va laboratoriya ishining mazmuni bilan tanishing.
2. Tajriba uchun kerak bo'lgan narsalar – idishlar, asboblar, tarozi va uning toshlari, termometr, tekshiriladigan jism borligini aniqlamaguncha tajribani boshlamang.
3. Tajriba o'tkazish vaqtida ishning qo'llanmada ko'rsatilgan tartibi va ketma-ketligiga rioya qiling.
4. Hamma ehtiyot choralarga rioya qiling (shisha idishlar bilan ishlaganda, termometrlar, simob, denaturat va etil spirtlari, elektr tokidan foydalanganda).
5. O'lchashlar tamom bo'lgandan keyin ish o'rnini tartibga soling.

6. Kuzatilgan barcha hodisalarni va natijalarni yozib oling.
7. Daftaringizga ish o'tkazilgan kunni, mavzuning nomini, ishning mazmunini, kuzatish natijalarini yozing.
8. O'lchashlar tamom bo'lgach, o'qituvchi yoki laborantdan olingan narsalarni qaytarib topshirishni unutmang.

Laboratoriyada ishlash vaqtida rioya qilinishi kerak bo'lgan

ehtiyot choralarini

Qo'llanmada keltirilgan laboratoriya ishlarining ko'pchiligida qizdirish asbobi sifatida elektr plita ishlatiladi (200-300Vt). Bu plitalar bilan ishlashdan oldin ularning erga ulanganligini tekshirib ko'rish, metall korpusning qizdirish spiraliga tegmayotganini tekshirib, umuman plitaning biror joyida qisqa tutatish yo'qligini tekshirib ko'rish kerak. Yuqoridagi talablarga rioya qilish bilan birga plitani elektr tarmog'iga o'qituvchi ijozat bergandagina ulash mumkin.

Laboratoriya ishlarini bajarishda har xil termometrlar ishlatilib, ulardan ko'pchiligi simobli va spirtli termometrlardir. Ma'lumki, simob va texnik spirtlar zaharli bo'lib, odam organizmi uchun xatarlidir. SHuning uchun termometrlar sinib, biror laboratoriya ishini bajarayotganda simob to'kilib ketsa, darhol o'qituvchiga yoki laborantga xabar berib, uni yig'ib olish chorasini ko'rish zarur. Har xil zaharli suyuqliklar (denaturat, etil spirti, toluol va boshqalar) bilan ishlaganda ham ehtiyot bo'lish, ya'ni ularning bexosdan to'kilib ketishiga yo'l quymaslik, idishlarning og'zi doimo berk turishi kerak.

Bulardan tashqari, laboratoriya ishlarining ko'pchiligi yupqa shisha idishlarda bajariladi. Bunday shisha temperaturaning birdan o'zgarishiga odatdagi shishaga qaraganda yaxshi chidaydigan bo'ladi. Eng ko'p ishlatiladigan shisha idishlar probirka, stakan, yumaloq tubli kolba, yassi tubli kolba, konussimon kolbalari, har xil voronkalardir. Shisha idishlar qizdirilayotganda sinmasligi uchun ular asbestlangan metall to'rlar ustiga quyiladi. Shisha idishlar va asboblardan keyin ularni yaxshilab yuvib qo'yish kerak. Shisha asbob va idishlar avval vodoprovod suvi, so'ngra distillangan suv bilan yuvib qo'yilgani ma'qul. Agar idish yoki asbob juda iflos bo'lsa, u holda, bu idish ozgina xlorid kislotasi qo'shilgan suv bilan yoki xrom aralashmasi (kaliy bixromatning sulfat kislotadagi eritmasi) bilan yuviladi. Qattiq qizdirilgan shisha idishni darrov sovuq stolga yoki temir shtativ tagligiga qo'yish va sovuq suvga tegizish yaramaydi. Ichida qaynab turgan suvi bor kolbani sovuq suvga botirish yoki vodoprovod jo'mragi ostida sovitish mumkin. Bunda kolbaning suyuqlik tegmay turgan qismiga suv sachramasligi kerak.

1.3. Talabalarning laboratoriya ishini bajarishdan

maqsadi va bajarilish tartibi

Talaba tomonidan laboratoriya mashg'ulotining bajarilishidan ko'zda tutilgan maqsad unga qo'yiladigan qonunlar va ularning ob'ektivligi to'g'risida tasavvur hosil qilish, fan qonunlarining aniqligiga va bu aniqlikning qaysi qonunda qay sharoitda to'g'riligiga ishonch va ko'nikma hosil qildirishdan iboratdir. Ma'ruza jarayonida barcha hodisalarni tajribada ko'rsatish imkoniyati bo'lmaydi, shuning uchun bu hodisalarni faqat laboratoriya sharoitida kuzatish mumkin. Laboratoriyada talaba fizik o'lchashlarning asosiy maqsadlari bilan tanishadi va elementar ko'nikmalar hosil qiladi. Bu esa kelgusida mutaxassislik fanlarini o'zlashtirishda, ishlab chiqarish amaliyotlarida

va mehnat faoliyatlarida olgan bilimlarini tadbiq etishda qo‘l keladi. Talaba laboratoriya mashg‘ulotlari davrida eng ko‘p tarqalgan o‘lchov asboblarning tuzilish va ishlash prinsipi bilan tanishadi; tajribaning son qiymatlari bilan ishlab ularni ishlab chiqib, qonunlar, hodisalarning to‘g‘ri-noto‘g‘riligini aniqlash kabi muhim tekshirishlarni o‘rganadi. Bularning hammasi talabani mustaqil ishlashga, elementar tajribalar o‘tkazishda eng optimal echimlarni topishga o‘rgatadi. Biror amaliy ishning talaba tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishining asosiy garovi talabaning nazariy tayyorgarligining mukammaligiga bog‘liqdir. Talaba o‘ziga topshirilgan individual mashg‘ulotning nazariy qismini uyda tegishli adabiyotlardan puxta o‘zlashtirib, so‘ngra tajribada qo‘llay olsa yaxshi natija beradi. Laboratoriya ishini bajarishga tayyorgarlikning muhim bosqichlaridan biri har bir amaliy ishni bajarishdan avval bu ish bilan tanishib olishdir. Har bir ishni bajarishdan oldin uning tavsifini diqqat bilan o‘qib chiqish, bu ishning maqsadi va asosiy vazifasi nimadan iborat ekanini tushunib olish, ishning hamma bosqichlarini bajarish tartibini yaxshi bilib olish kerak. Tajribada qo‘llaniladigan qurilma va asboblarni mukammal o‘rganib, ular bilan muomala qilishni bilgandan so‘nggina ishga kirishishi zarur. Agar, masalan fizikada elektr o‘lchov asboblari ishlatilsa (ampermetr, voltmeter va boshqalar) ularni ishdan chiqarib qo‘ymaslik uchun avval ularning sistemasini, klassini, shkalalarining o‘lchash qiymatlarini va o‘lchash diapazonlarini mukammal o‘rganish lozim.

Har bir ish bilan tanishgandan so‘ng talaba avval qo‘llanmadan, beriladigan adabiyotdan va vazifadan o‘z daftariga qisqacha konspekt olib qo‘yishi zarur. Konspektga quyidagilarni yozib qo‘yish shart: ishning nomi, zarur asbob-uskunalar, ishning asosiy maqsadi, hisoblash formulalari, qurilmaning sxemasi, ishning bajarilish tartibi, amaliy ishda aniqlangan miqdorlar, yoziladigan jadval, ish natijalarini yakunlash tartibi, xulosalar, nazorat savollar. Ishning mazmuni bilan tanishishda ba‘zan nazariy material yoki ishni o‘tkazishga aloqador ayrim savollar chiqib kelishi mumkin. Bunday savollarni ishni bajarishga kirishishdan oldin o‘qituvchidan so‘rab, qo‘shimcha adabiyotdan o‘qib olish kerak. Amaliy ishni bajarishga kirishishdan oldin qo‘llanmada ko‘rsatilgan zarur vositalar va asboblarning ish stolida bor yo‘qligini tekshirib ko‘rish lozim. SHundan so‘ng asboblarning tuzilishi va ishlashi bilan hamda ularni ishlatish qoidalari bilan yaxshilab tanishish kerak. Har qaysi asbobning vazifasi va texnik xarakteristikasini aniqlangandan keyin amaliy ishga kirishiladi. Ishni osonlashtirish uchun, avval, barcha o‘lchov asboblari va apparatlarni ish stolida sxemaga muvofiq to‘g‘ri joylashtirgan ma‘quldir. Agar sxema elektron sxema bo‘lsa, ularni ketma-ket birikadigan joyidan boshlab, tok manbaining bir klemmasidan ikkinchi klemmasiga tomon boradigan zanjir tartibida tuzgan ma‘qul. Zanjirning ketma-ket keluvchi qismlari (iste‘molchilar, ampermetr, reostatlar va boshqa asboblari) ulanadi. Sxema yig‘ib bo‘lingach, u yana bir marta diqqat bilan tekshirib chiqiladi va o‘qituvchiga ko‘rsatiladi. O‘qituvchi ham tekshirib, ulashga ijozat bergandan so‘ng elektr zanjiriga ulanadi va natijalar olinadi.

Natijalar olish qo‘llanmadagi ishning bajarilish tartibi bo‘yicha olib boriladi. Ish natijalari tajribadan olingan ma‘lumotlarning aniqligiga bojliq bo‘lishini nazarda tutib, ish vaqtida miqdorlarni aniq o‘lchashga erishish lozim. Ishning tajriba qismini tamomlab bo‘lgach, asboblarni darhol yig‘ib qo‘ymasdan avval olingan natijalar o‘qituvchiga ko‘rsatiladi, chunki ba‘zan shunday xato bo‘lishi mumkinki, uni qurilmadan (sxemadan) osongina topsa bo‘ldai. Agar qurilma (sxema) qismlarga ajratib qo‘yilgan bo‘lsa, bunday xatoni topish uchun qurilma (sxema) qaytadan tiklanishi kerak. Tajribada olingan natijalarning son qiymatlari qo‘llanmadan olingan jadvalga yozib qo‘yiladi. Amaliy

ishni tamomlab, natijalar tekshirib chiqilgandan keyin, sxema qismlarga ajratiladi. Barcha asbob-anjomlar ish boshlanmasdan ilgari qanday tartibda turgan bo'lsa, shunday holatga keltiriladi. Laborant yoki o'qituvchidan olingan qo'llanma, kerakli qo'shimcha asboblari (temometr, sekundomer, chizg'ich va boshqalar) qaytarib topshiriladi. Amaliy ishlarni boshqarishda laboratoriya uchun zarur bo'lgan va laboratoriya devoriga yozib osib qo'yilgan havfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish kerak.

Talabalar amaliy ishga kirishganda va butun tajriba davomida o'qituvchi uni kuzatib borishi shart: talaba ishni qanday boshladi, asboblardan qanday foydalandi, olingan natijalari qanoatlanarlimi, havfsizlik qoidalariga amal qilinmoqdami va h.k.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Kasb-hunar kolleji o'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv ustahonalarni jihozlash maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Jihoz turlari va ularning ahamiyatini haqida batafsil ma'lumot bering?
3. O'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv ustaxonalarida jihozlaridan foydalanish qoidalarini tushuntirib bering?
5. Laboratoriya mashg'uloti deganimiz nima uning tuzilishi qanday?
6. Laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish uchun o'quvchi qanday malakalarga ega bo'lishi kerak?
7. Laboratoriya mashg'ulotida o'quvchilar texnika xavfsizligiga rioya qilishi kerakligini tushuntirib bering.

17-mavzu: Kasb-hunar ta'limini boshqarish (2soat).

Reja:

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari.
2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni.
3. Ta'lim muassasasi menejmenti

Tayanch so'z va iboralar: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, boshqaruv, demokratik tamoyili, siyosiy rahbarlik tamoyili, xo'jalikni rejali yuritish tamoyili, ilmiylik tamoyili, kadrlarni to'g'ri tanlash tamoyili, pedagogik boshqaruv, psixologik boshqaruv, menejment, menejer, ta'lim muassasasi menejmenti, normativ-huquqiy baza, pedagogik jamoa, ijtimoiy boshqaruv, boshqarish dasturi, bozoring potentsiali.

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari

O'zbekistonda **boshqarishning ilmiy asoslari** paydo bo'lishi o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega bo'lib, uning asosiy tamoyillari XIII-XIV asrlarga kelib O'rta Osiyo Amir Temur hukmronligi davrida to'la shakllangan edi. Bu davrda yuqori intizom, ijtimoiy himoya va oliy darajadagi boshqarish tizimiga ega bo'lgan davlatning bunyodga

kelishi o'rtta asr davridagi boshqarish uslublari o'zida eng ilg'or g'oyalarni mujassamlashtirilganidan darak beradi. Boshqaruv tizimining samarali tashkil etilishi, uning insonparvarlik, kasbiy va ratsional usul bilan tashkil etilishi, uning negizida inson manfaatlari yotganligi, davlat siyosatining boshqaruvga ijobiy ta'siri dunyoda buyuk davlat paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Ma'lumki, boshqarish deb, ko'zda tutilgan maqsad uchun qilinadigan harakat tushiniladi. Har qanday boshqarish asosida ko'zda tutilgan maqsad yotadi. Boshqarishda boshqaruvchi tizim va boshqariluvchi tizimga amal qilinadi. Shunday ekan boshqarish biror bir tizimni ikkinchi bir tizimaga o'zgartirishga aytiladi. Boshqaruvchi tizim boshqariluvchi tizimga ta'sir ko'rsatishda amal qilishi kerak bo'lgan qonun qoidalarga boshqarish tamoyillari (prinsiplari) deb ataladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda boshqarishning quyidagi tamoyillarini keltirish mumkin va u tamoyillar bozor iqtisodiyoti sharoitida ham amal qiladi:

1. Demokratik tamoyili.
2. Siyosiy rahbarlik tamoyili.
3. Xo'jalikni rejali yuritish tamoyili.
4. Ilmiylik tamoyili.
5. Kadrlarni to'g'ri tanlash tamoyili.

Boshqarishning tamoyillari bilan birga uning vazifalari ham mavjud. Boshqarishning **vazifasi** kishilarning sub'ektiv faoliyatini birinchi navbatda boshqarish sohasidagi faoliyatini ob'ektiv qonunlarning talablariga ana shu qonunlar belgilab beradigan progressiv tendensiyalarning talablariga muvofiqlashtirishdan iborat.

O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish respublika qonunlari belgilaydigan vakolatlar doirasida faoliyat ko'rsatuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bunday davlat organlariga quyidagilar kiradi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirlar kengashi;
- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi (1998 yil martgacha) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi (OO'MTV) (1998 yil martdan);
- Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim Vazirligi;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari (Toshkent shahar viloyatlar hokimiyatlari);
- Xalq ta'limi hududiy boshqarmalari (1998 yil martgacha);
- O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari (1998 yil martdan).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlarga quyidagilar kiradi:

- Ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
- Ta'limini rivojlantirish dasturlarni ishlab chiqarish va amalga oshirish;
- Ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
- Ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalardan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;
- Boshqa davlatning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

- qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risida hujjatlarni tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;
- davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;
- davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
- davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
- davlat oliy ta'lim muassasalari rektorlarini tayinlash;
- ta'lim oluvchilarni akkreditsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Regional boshqaruv organlari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi darajasiga qo'yiladigan talablarga o'quv yurtlari tomonidan rioya qilinishga javob beradilar va ularni nazorat qiladilar, litsey va kollejlarga ularning faoliyatlarini rivojlantirishda kerakli tashkiliy-huquqiy yordam ko'rsatadilar, hudud, ishlab chiqarish va o'quv yurtlarining rivojlanish manfaatlarini muvofiqlashtirishga imqon beradilar.

Shunday qilib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish tuzilmasi uch darajali hisoblanadi (respublika, hududiy va nuqtali-o'quv yurti).

2.O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni.

O'quv yurtlarida birinchi navbatda kadrlar tayyorlash sifatiga javobgar bo'lgan mustaqil bo'linma (tashkiliy shakli va kimga buysunishdan qat'iy nazar) sifatida, o'quv jarayonini boshqarish, xo'jalik-moliyaviy faoliyat va boshqa kasbiy tayorgarlikning zaruriy darajasini ta'minlaydigan faoliyatlarni amalga oshiradi.

O'quv yurtlari darajasida quyidagi vazifalar hal etiladi;

- o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha barcha ishlarni olib borish;
- o'quv rejalari tuzilmalarni va dastur mazmunini belgilash;
- korxonalar, bandlik xizmatchilar, xududiy boshqaruv organlari va boshqalar bilan sharnoma asosida ishchilar tayyorlash hajmlari va kasb-malaka tuzilmalarni belgilash;
- qo'shimcha tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish va boshqa xizmatchilarni amalga oshirish uchun korxonalar, hamda tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish;
- mustaqil ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish;
- o'quv moddiy bazani kelgusida rivojlantirishini hisobga olib, moliyaviy mablag'larni taqsimlash va sarflash masalalarni mustaqil hal qilish.

Barcha sohalaridagi islohotlarni amalga oshirishda **boshqaruv apparatining** roli muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv apparatining tuzilishi deganda, boshqaruv apparati va ular orasidagi bog'lanish tushiniladi. Boshqaruv apparatining tarkibi bir-biri bilan bog'langan teng huquqli birikmalar va bo'g'inlar bilan to'ldirilishi uning tizimi deyiladi.

Tashkiliy qism bu boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, boshqaruvchi tizim, sub'ekti tashkiliy tuzilishining shakli demakdir. U boshqaruv tizimining negizi sifatida maydonga chiqadi va kadrlar bilan boshqarishni tashkil qilish rasmiy qoidalarini tartibga soladi. Ana shuning uchun ham uning boshqaruv tizimidagi roli benihoya kattadir.

Ma'lumki, birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qabul qilingan edi. Ushbu qonunning 10-moddasida ta'lim turlari bayon etilgan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim kabilarni o'z ichiga olishi nazarda tutiladi.

Qonunning 28-moddasida «Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi. Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin» deb takidlangan. Shunday ekan, ushbu ta'lim muassasalarining bir turi bo'lgan kasb-hunar ta'limi ta'lim muassasalarini ham uning rahbari (direktor) boshqarishi belgilab qo'yilgan.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini o'quv yurti rahbari (direktor) bilan birga uning muovnlari boshqaradi. KXX larda direktorning o'quv ishlari bo'yicha, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha va ishlab chiqarish ishlari bo'yicha muovnlari akademik litseydalarida esa direktorning o'quv ishlari bo'yicha, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha muovnlari faoliyat yuritadi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish ;
- ta'lim muassasalarini faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda ularga rahbarlik qilish;
- davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasb tayorgarlikga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;
- o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalari, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayonlariga joriy etish va boshqalar.

Vazirlar Mahkamasi 1998 yilning fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. Ushbu Markazni tashkil etishdan maqsad, kadrlar tayyorlash Miliy dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish hisoblanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish;
- akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarning turlarini va yo'nalishlarini belgilash, ularni respublika regionlarining geografik, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni hisobga olgan holda oqilona joylashuvni ta'minlash va boshqalar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari (hokimiyatlar) quyidagi funksiyalarni bajaradilar:

ta'lim muassasalarini faoliyatining mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;

- ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;
- o'z hududlardagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorini va imtiyozlarini belgilaydilar va boshqalar.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimiyatlari tarkibida

tashkil etiladi va bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi (Markaz)ga bo'ysunadi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o'quv muassasini boshqarashning asosiy ob'ekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

Ijtimoiy boshqaruvning asosiy mohiyati quyidagi ikki masalani yechishga qaratiladi: pedagoglar faoliyatini yo'naltirish va uni faollashtirish. Birinchi masalani hal qilish boshqaruv sub'ekti xodimlar faoliyatini talab etiladigan yo'nalishga soluvchi maxsus dasturni ishlab chiqish orqali amalga oshiradi. Ikkinchi masalani hal etish shaxsning hissiy-ijtimoiy talablari (moddiy va manaviy, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash, mehnatni tashkillashtirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish)ni rag'batlantirishga qaratilgan qulay sharoitlar yaratish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyatni faollashtirishda boshqaruv dasturining sifati, ya'ni, uning aniqligi, real sharoitga asoslanganligi, pirovardida yuqori natija berishi, ishlanganlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Qar bir sohaga oid dasturlar alohida xususiyatlarga ega bo'ladilar, biroq ularning barchasida quyidagi qonuniyat kuzatiladi: bajariladigan ish qay darajada ko'proq ijodiy mehnatni talab qilsa, jamiyat shu darajada insonparvarlashib va demokratlashib boradi, cheklashlar qay darajada kam bo'lsa tashabbuskorlik asosida ishlash darajasi ortib boradi.

Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi. Ushbu qonuniyat o'qituvchilardan tashabbus, mustaqil qaror chiqara olish hamda o'z vazifasiga ijodiy yondashuvni talab qiluvchi pedagogik faoliyatga ham taaluqlidir. Shu sababli bu sohada bajarilishi qat'iy talab etiladigan direktiv dasturlarning kamroq qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bunday dasturlarda ish tartibi, hujjatlarni yuritish va mehnat faoliyatining oxirgi natijasiga aniq talablarni belgilash orqali cheklanish ro'y berishi mumkin. Ta'lim natijasiga nisbatan talab qat'iy belgilanadi va u davlat ta'lim standartlarida rasmiylashtiriladi. Pedagogik faoliyatning sifat ko'rsatkichi esa, mos ravishda ta'lim oluvchilar faoliyatining ushbu talablar darajasiga muvofiqligida o'z aksini topadi. Demak, direktiv boshqaruv dasturlaridan voz kechish pedagoglarga cheklanmagan hajmdagi erkinlikning berilishini anglatmaydi. Ushbu yo'nalishda asosiy e'tibor ta'lim jarayoni mazmuni va usullaridan uning yakuniy natijasiga ko'chirilishiga qaratilgan.

Bajarilishining majburiyiligi nuqtai nazaridan boshqaruv dasturlarini informativ va direktiv turlarga ajratish mumkin. Jumladan, matbuotda nashr etilayotgan turli ilmiy-metodik tavsiyalar informativ dasturlar hisoblanadi va ularning bajarilishi majburiy deb belgilanmaydi. Pedagoglar ulardan faqat o'zlari uchun zarur deb bilgan qismini bajarish huquqiga egalar. Informativ dasturlar talablarining jarishi to'laligicha pedagogning xohishi, ehtiyoj va istaklaridan kelib chiqib belgilanadi. Direktiv hujjatlarning bajarilishi majburiy bo'lib, u tegishli tartibda nazorat qilinadi. Jamiyatimizning demokratlashib borishi natijasiga informativ dasturlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borishi kuzatilmoqda.

Ta'lim muassasini boshqarish konsepsiyasi ko'plab boshqaruv g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan tashkiliy model sifatida tasavvur qilish mumkin.

Faoliyat nuqtai nazaridan yondoshilganda, boshqaruv modelida quyidagi tarkibiy unsurlarni ko'rsatish mumkin: motiv, maqsad, rejalashtirish, joriy axborotlarni tahlil qilish, qabul qilish, harakat, natijalarni baholash va tizimga tegishdi tuzatishlar kiritish. Boshqaruvchanlik faoliyatining mazkur umumpsixologik tuzilmasi boshqaruv sub'ektlarining individual faoliyatiga qaratilgan bo'lib, bu o'rinda boshqaruv jarayoni va

faoliyati hamma vaqt o‘zaro muvofiq holatda bo‘ladi va muomala qonuniyatlari asosida o‘zaro uyg‘unlashib boradi.

Boshqaruv jarayoni davriy xarakterda bo‘lib, bu davrlarning har biri o‘z davomiyligi, tadbiriq etilish sohasi, vazifalari va o‘z yechimiga ega. Boshqaruvning alohida olingan davrini quyidagi jarayonlarni qamrab olgan bo‘g‘in sifatida tasavvur qilish mumkin: axborotlarni qabul qilish va ularning tahlili, boshqaruv qarorining qabul qilinishi, ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish, rejani bajarish uchun ishni tashkil qilish, hisob-kitob, nazorat ishlari va natijalarni tahlil qilish.

Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing. Bugungi kunda kasbiy ta'lim muassasalari ham bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida faoliyat ko‘rsatishi va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlab berishlari talab etiladi. Bunda ta'lim muassasasida yo‘lga qo‘yilgan marketing xizmati muhim o‘rin tutadi. Marketing tadqiqotlari ko‘plab soha masalalarini qamrab oladi:

- qisqa (1 yilgacha) muddatli ijtimoiy-pedagogik bashoratlar;
- uzoq (1 yildan ortiq) muddatli ijtimoiy-pedagogik bashoratlar;
- bozorning joriy va istiqbol potensialini o‘rganish;
- bitiruvchilarning ish joylashish statistikasining tahlili;
- yangi sohalar mutaxassislarning ish o‘rinlarini o‘rganish;
- yangi ish o‘rinlarini yaratish yo‘nalishlarini tadqiq qilish;
- bozor narxlarini belgilanish xususiyatini o‘rganish;
- ta'lim muassasasi ish faoliyati samaradorligini belgilash (teskari aloqa).

Ta'lim muassasasi boshqaruvining pedagogik yo‘naltirilganligi barcha imkoniyatlarni asosiy maqsad - yosh avlodni ijtimoiy ishlab chiqarish sohasiga muvaffaqiyatli kirib borishini taminlashga qaratilgan bo‘ladi. Ta'lim muassasi rahbari tomonidan olg‘a suriladigan rejalar, rejalashtirilayotgan muhim tadbirlar jamoada muhokama qilinishi va muvofiqlashtirilishi lozim. Rahbarning bu boradagi harakatlari qo‘yilgan vazifani amalga oshirishga izchil va qat’iy yondashuvga asoslangan bo‘lsa, jamoa azolari tomonidan qabul qilinadi va qo‘llab-quvvatlanadi. Bilim yurti rahbari jamoa boshqaruvini o‘zaro hurmat va talabchanlik asosida tashkil etishi lozim.

Rahbarlik qiluvchi shaxs o‘z hatti-harakatlari bilan jamoaga ibrat ko‘rsata olishi, amalga oshiriladigan qat’iy choralar mohiyatini tushunishi va ularning ijodiy samarasini taminlashi lozim.

Pedagogik, psixologik boshqaruv to‘g‘risida raa‘lumot Ta‘lim muassasasi menejmenti haqida umumiy tushuncha.

Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o‘ta muhim hisoblanadi.

Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma‘lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta‘sir ko‘rsatish demakdir.

Xo‘sh, menejment va menejer atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi?

Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta‘lim muassasida davlat- jamoa boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor.

«Menejment» va «menejer» atamalari hozirgi talqinda korxon va muassasa egalari

o‘z mulklari va xodimlari o‘zlari boshqarganlaridan ko‘ra tanlangan yo‘nalish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib yetganlaridan so‘ng paydo bo‘ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.

Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta‘sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Ta‘lim muassasasi menejmenti haqida so‘z yuritilganda, O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning 4.6-bandida so‘z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida batafsil to‘xtalib o‘tilganligini alohida ta‘kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilishicha, ta‘lim muassasasi menejmentida quyidagi holatlar nazarda tutiladi:

- uzluksiz ta‘lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta‘lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarib borilishi;

- barcha darajadagi ta‘lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq belgilanadi;

- ta‘limning normativ-huquqiy bazasi rivojlantiriladi;

- moliya-xo‘jalik faoliyatini olib borish hamda ta‘lim jarayonini tashkil etishda o‘quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta‘minlanadi;

- ta‘lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko‘ra ta‘lim sohasida faoliyat ko‘rsatish huquqi beriladi;

- muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarning, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o‘z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta‘lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Ta‘lim tizimini davlat tomonidan boshqarish O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunining (1997-yil) 3-moddasida, belgilangan ta‘lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunida, O‘zbekistonda ta‘lim sohasini boshqarish respublika tasarrufidagi yuqori hukuinat va uning boshqarish organlari hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatilgan.

Pedagogik jamoa - ta‘lim muassasini boshqarishning obyekti

O‘quv-tarbiyaviy jarayonini boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o‘quv muassasini boshqarishning asosiy obyekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

Ijtimoiy boshqaruvning asosiy mohiyati quyidagi ikki masalani yechishga qaratiladi: pedagoglar faoliyatini yo‘naltirish va uni faollashtirish. Birinchi masalani hal qilish boshqaruv subyekti xodimlar faoliyatini talab etiladigan yo‘nalishga soluvchi maxsus

dasturni ishlab chiqish orqali amalga oshiradi. Ikkinchi masalani hal etish shaxsning hissiy-ijtimoiy talablari (moddiy va manaviy, jamoadagi ijtimoiy- psixologik muhitni yaxshilash, mehnatni tashkillashtirishning samarali yo‘llarini ishlab chiqish)ni rag‘batlantirishga qaratilgan qulay sharoitlar yaratish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyatni faollashtirishda boshqaruv dasturining sifati, ya’ni, uning aniqligi, real sharoitga asoslanganligi, pirovardida yuqori natija berishi, ishlanganlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Har bir sohaga oid dasturlar alohida xususiyatlarga ega bo‘ladilar, biroq ulaming barchasida quyidagi qonuniyat kuzatiladi: bajariladigan ish qay darajada ko‘proq ijodiy mehnatni talab qilsa, jamiyat shu darajada insonparvarlashib va demokratlashib boradi, cheklashlar qay darajada kam bo‘lsa tashabbuskorlik asosida ishlash darajasi ortib boradi.

.Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi

Ushbu qonuniyat o‘qituvchilardan tashabbus, mustaqil qaror chiqara olish hamda o‘z vazifasiga ijodiy yondashuvni talab qiluvchi pedagogik faoliyatga ham taalluqlidir. Shu sababli bu sohada bajarilishi qat’iy talab etiladigan direktiv dasturlaming kamroq qo‘llanilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, bunday dasturlarda ish tartibi, hujjatlami yuritish va mehnat faoliyatining oxirgi natijasiga aniq talablami belgilash orqali cheklanish ro‘y berishi mumkin. Ta’lim natijasiga nisbatan talab qat’iy belgilanadi va u davlat ta’lim standartlarida rasmiylashtiriladi. Pedagogik faoliyatning sifat ko‘rsatkichi esa mos ravishda ta’lim oluvchilar faoliyatining ushbu talablar darajasiga muvofiqligida o‘z aksini topadi. Demak, direktiv boshqaruv dasturlaridan voz kechish pedagoglarga cheklanmagan hajmdagi erkinlikning berilishini anglatmaydi. Ushbu yo‘nalishda asosiy e’tibor ta’lim jarayoni mazmuni va usullaridan uning yakuniy natijasiga ko‘chirilishiga qaratilgan.

Bajarilishining majburiyligi nuqtayi nazaridan boshqaruv dasturlarini informativ va direktiv turlarga ajratish mumkin. Jumladan, matbuotda nashr etilayotgan turli ilmiy-metodik tavsiyalar informativ dasturlar hisoblanadi va ulaming bajarilishi majburiy deb belgilanmaydi. Pedagoglar ulardan faqat o‘zlari uchun zarur deb bilgan qismini bajarish huquqiga egalar. Informativ dasturlar talablarining bajarishi to‘laligicha pedagogning xohishi, ehtiyoj va istaklaridan kelib chiqib belgilanadi. Direktiv hujjatlaming bajarilishi majburiy bo‘lib, u tegishli tartibda nazorat qilinadi. Jamiyatimizning demokratlashib borishi natijasiga informativ dasturlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borishi kuzatilmoqda.

Ta’lim muassasini boshqarish konsepsiyasi ko‘plab boshqaruv g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan tashkiliy model sifatida tasavvur qilish mumkin.

Faoliyat nuqtai nazaridan yondoshilganda, boshqaruv modelida quyidagi tarkibiy unsurlami ko‘rsatish mumkin: motiv, maqsad, rejalashtirish, joriy axborotlami tahlil qilish, qabul qilish, harakat, natijalami baholash va tizimga tegishdi tuzatishlar kiritish. Boshqaruvchanlik faoliyatining mazkur umumpsixologik tuzilmasi boshqaruv subyektlarining individual faoliyatiga qaratilgan bo‘lib, bu o‘rinda boshqaruv jarayoni va faoliyati hamma vaqt o‘zaro muvofiq holatda bo‘ladi va muomala qonuniyatlari asosida o‘zaro uyg‘unlashib boradi. Boshqaruv jarayoni davriy xususiyatda bo‘lib, bu davrlaming har biri o‘z davomiyligi, tatbiq etilish sohasi, vazifalari va o‘z yechimiga ega.

Boshqaruvning alohida olingan davrini quyidagi jarayonlarni qamrab olgan bo'lg'in sifatida tasavvur qilish mumkin: axborotlarni qabul qilish va ularning tahlili, boshqaruv qarorining qabul qilinishi, ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish, rejani bajarish uchun ishni tashkil qilish, hisob-kitob, nazorat ishlari va natijalarni tahlil qilish.

4. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing

Bugungi kunda kasbiy ta'lim muassasalari ham bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida faoliyat ko'rsatishi va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlab berishlari talab etiladi. Bunda ta'lim muassasasida yo'lga qo'yilgan marketing xizmati muhim o'rin tutadi. Marketing tadqiqotlari ko'plab soha masalalarini qamrab oladi:

- qisqa (1 yilgacha) muddatli ijtimoiy-pedagogik bashoratlar;
- uzoq (1 yildan ortiq) muddatli ijtimoiy-pedagogik bashoratlar;
- bozorning joriy va istiqbol potensialini o'rganish;
- bitimvchilarning ish joylashish statistikasining tahlili;
- yangi sohalar mutaxassislarning ish o'rinlarini o'rganish;
- yangi ish o'rinlarini yaratish yo'nalishlarini tadqiq qilish;
- bozor narxlarini belgilanish xususiyatini o'rganish;
- ta'lim muassasasi ish faoliyati samaradorligini belgilash (teskari aloqa).

rejimida ishlashi, sifat samaradorlikni kafolatlashiga ishonch hosil qilishi kerak. Pedagogik jamoa esa ijodkor o'qituvchidan ijodkor pedagogik jamoa majmuasiga aylanishiga ishonch hosil qilishi kerak.

Tadqiqotchi olim G.A.Mritigyaning «innovatsion faoliyat» haqidagi fikri diqqatga yanada e'tiborga sazovor: «Pedagogik tajriba- sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin:

- xususiy tajriba;
- tajriba-sinov ishi;
- o'qituvchining innovatsion faoliyati.

Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, o'qituvchi o'zi tashkil etadigan tajriba mohiyatini shunchalik yaxshi tushunadi. Shu bilan birga u o'z innovatsion faoliyatining subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'lash hamda takomillashtirishda faol ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlarni mazmun va mohiyatini tahlil eta bilishga ko'nib boradi.

Bugungi kunga kelib, ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tavsiflamodalar:

- faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi);
- kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan);
- o'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli);
- kelib chiqish manbaiga ko'ra (jamoaga uchun ichki yoki tashqari- dan olingan).

Innovatsion faoliyatning tuzilishini o'rganib chiqqan olimlardan biri V.Slastyoning quyidagi tuzilishga ega deb ko'rsatib o'tadi: «Innovatsion faoliyatning tuzilishi ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyatidan iborat. Innovatsion faoliyatning darajalari reproduktiv, evristik, kreativ bo'lishi mumkin».

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, yangilanishlar, o'zgarishlar, innovatsiyalar tom ma'noda ta'lim tizimiga kirib keladi va u to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljalanilayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Pedagogik innovatsiya ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo'naltirilganligi sababli o'qituvchidan o'quv jarayoniga, uni boshqaruviga yangicha yondashuvni talab etadi.

O'qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishining tahlil qilishga turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan A.Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda amalga oshadi:

- tayyorgarlik;
- rejalashtirish;
- amaliyotga joriy etish.

O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to'siqlar mavjud. Bular: o'qituvchining o'zi ko'nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda kiyinligi, ya'ni o'qituvchilarda ijodkorlikning yetarli emasligi bo'lsa, yana bir sabab yangi va noma'lum bo'lgan narsalar har doim odamlarda cho'chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir.

A.M.Xon o'qituvchilarda innovatsion faoliyatni shakllantirishda uchraydigan psixologik to'siqlarning ikki turini ajratadi:

- kognitiv psixologik to'siqlar;
- muntazam paydo bo'ladigan to'siqlar.

Kognitiv psixologik to'siqlar yangilik haqidagi bilimlarning etishmasligi, yangilikni xis qilmaslik va nafaol xatti-harakatlar hisoblansa, muntazam psixologik to'siqlar yangilikka nisbatan ishonchsizlik, rahbariyatga ishonmaslik, tashabbusni qo'llab-quvvatlamaslik va odatda yangilik kirituvchilarga qarshi kurashish kabi ko'rinishlarda namoyon boiadi.

Zamon talabi shiddat bilan o'zgarib borar ekan, ta'lim sohasi ham u bilan barobar o'zgaradi va o'qituvchidan o'z faoliyatini o'zgartirishni talab etadi. Zamonaviy sharoitda o'qituvchining asosiy vazifasi faqat ta'lim berishdangina emas, balki boshqaruvchilikdan ham iborat bo'lib, u ta'lim jarayonini innovatsiyalar asosida tashkil etishi va boshqarishi talab etiladi.

Innovatsion faoliyat o'qituvchining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat bo'lib, uni shaxsiy, kasbiy, pedagogik, metodik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir.

O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilishni 3 bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Yangilikni pedagogik faoliyatda qo'llashdan oldingi davrdagi faoliyatini tahlil qilish.
2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanishi davrini tahlil qilish.
3. Pedagogik jarayonga yangilik kiritilib bo'lgandan keyingi davrdagi faoliyatini tahlil qilish.

Ma'lumki, shaxsning xislat va fazilatlari pedagogik faoliyat ko'rsatish jarayonida shakllanadi va uning faoliyati natijasi hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchilarda yangilikka intiluvchanlik va tinimsiz mustaqil o'qib-o'rganishga doimiy zaruriyat sezish psixologiyasini hosil qilish lozim. Chunki yangilik - insonga ulug'vorlikdan ko'ra ko'proq zavq bag'ishlaydi.

Hozirgi kunda o'qituvchi pedagogik faoliyatini yangilash va innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritib borish asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, bu sohada o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma, malakalari, ijodiy salohiyati hamda nostandart tafakkurlarida o'z aksini topuvchi kasbiy mahorati bilan belgilanadi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatini tashkil etish, uni shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- 1- bosqich - tayyor metodik tavsiyalar aniq qilib ko'chiriladi va ular amaliyotda bevosita qo'llaniladi.

2- bosqich - mavjud tizimga ayrim yangi moslama (modifikatsiya)lar, metodlar kiritiladi.

3- bosqich - yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to'la ishlab chiqiladi.

4- bosqich - o'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z konsepsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagogik jamoadagi psixologik muhit, jamoa a'zolarining qay darajada dunyo ta'limi bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligi asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. O'qituvchi innovatsion faoliyatining shakllanishida pedagogik jamoada ijodiy muhitning alohida o'mi borligini ko'pchilik olimlar ta'kidlab o'tadilar. O'qituvchilarning novatorlik xususiyatlari va ta'lim jarayonidagi yangiliklarga bo'lgan ijobiy munosabatlariga qarab, K.Rodgers va K.Angelovskiy pedagogik jamoa a'zolarini beshta guruhga ajratishni taklif etadilar.

1. Novatorlar.

2. Eski g'oyalarni amalga oshiruvchilar.

3. Eski g'oyalarni amalga oshirishni ma'qul ko'ruvchilar (ular aksariyat holatlarda ko'pchilikni tashkil etadilar).

4. Yangi g'oyalarni amalga oshirishni ma'qul ko'ruvchilar (bugungi kunda ularning soni ham ortib bormoqda).

5. Ikkilanuvchilar.

Ta'lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilash va farovon turmush kechirishga olib keladi. Yangilikni kiritish ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo'lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta'lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar.

6. Modulli o'qitish texnologiyasi

Modulli o'qitishning tavsifi va o'ziga xosliklari. Modulli o'qitish

XX asming 60-yillarida paydo bo'ldi va ingliz tili mamlakatlarda tez tarqaldi. Modulli o'qitish nazariyasida modul tushunchasi qandaydir bir tizimning aniq funksional vazifasini bajaradigan (yukini ko'taradigan)

mustaqil biror bir qismini bildiradi. Pedagogik tadqiqotlarda modul tushunchasiga quyidagicha ta'riflar berilgan:

Modul - yuqori darajadagi yaxlitlik tizimida o'quv mazmuni va uni o'zlashtirish texnologiyasini birlashtiruvchi maqsadli funksional tanniq

(A.S.Kaldibekova).

Modul - bu o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini majburiy tarzda nazorat qiluvchi o'quv materialining mantiqiy tugallangan qismi(L.D.Stolyarenko).

Modul - bu bilimlarni nazorat qilish bilan hamohanglashgan, qandaydir mantiqiy yaxlitlik va tugallanganlikka ega o'quv axborotidagi mantiqiy belgilangan qism (N.M.Egamberdieva).

Modul deganda, ma'lum o'quv predmeti bo'yicha aniq maqsadni ko'zda tutib, ob'ektlarning muhim jihatlariuni mantiqan tugal va mukammal holda yorituvchi o'quv materialining didaktik birligini tushunamiz (B.S.Nuriddinov).

Modulli o'qitish - bu bilimlarni nazorat qilish bilan hamohanglashgan, qandaydir mantiqiy yaxlitlik va tugallanganlikka ega o'quv axborotlariga tayangan holda, bilimlarning to'liq va samarali o'zlashtirishiga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'limiy modul - unga tegishli metodik materiallar bilan birgalikdagi o'quv kursining mazmunli qismi.

O'quv moduli - har bir o'quv topshiriqlarini bajarish vaqti, nazorat va hisobga olish usullari, o'quv materiallari (paragraf, mavzu, bo'lim, tan, integrallashgan kurs)ni o'rganish bo'yicha ko'rsatmalar. Ko'proq oddiy va o'ziga xos tarzda o'quv moduli uni o'rganishning ko'proq oqilona shakl va metodlari bilan birgalikda odatiy o'quv dasturlari mavzu(bo'lim)larini aks ettiradi. Modulli o'qitishning mohiyati shundani iboratki, o'quvchi o'ziga taqdim etilgan individual o'quv dasturi asosida mustaqil ish olib boradi. Bu o'quv dasturida xarakterlarning rejasi, axborotlar blogi, o'qitish natijalariga erishish bo'yicha metodik tavsiyanomalar bo'lishi kerak.

O'qituvchi bu sharoitda nazorat qilishi, maslahat berish, axborotlarni o'zlashtirish bo'yicha xarakterlarni muvafiq-lashtirish vazifalarini bajaradi.

Modulli o'qitishning umumiy yo'nalishi, uning maqsadi, mazmuni va tashkil etish metodikasi qo'yidagi tamoyillariga asoslanadi:

- 1) modullilik - o'qitish mazmunidan alohida elementlarim bo'lib olish;
- 2) tadrijiylik - bilimlarning amaliy yo'naltirilganligi va jadal o'zlashtirilishiga erishish;
- 3) moslashuvchanlik — ta'lim mazmuni va unga erishi yo'llarini ta'lim oluvchining individual ehtiyojiga qarab moslashtirish;
- 4) metodik maslahatning xarakterlamaligi - ta'lim oluvchining bilish faoliyatida va pedagogik faoliyatda professionallikni ta'limlash;
- 5) interfaollik - ta'lim oluvchi va pedagog o'rtasida ishchan xamkorlikni ta'limlash.

Modul mazmuni invariantlilik vositasida faoliyatli tashkil etish va axborot almashuvini amalga oshirishga imkon beradi. U insonda o'sha vaqtning o'zida yuzaga kelgan ehtiyojlarni qondirishni kafolatlaydi, yangi yo'nalishda yuzaga keluvchi qiziqishlarni aniqlaydi. Modulning asosiy ahamiyati tomoni - inson ongi, fikrlashini rivojlantirishidir.

Maqsadga yo'naltirilganligi:

- maslahatli-muvofiqlashtirish yordamida o'qituvchini to'liq axborot berish vazifasidan ozod etish;
- o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limning qulay yo'llarini birgalikda tanlab olishlari uchun sharoit yaratish;
- mustaqil o'rganish, o'z-o'ziga ta'lim berish konikmalarini shakllantirish;
- o'quvchilarning refleksiv qobiliyatlarini shakllantirish;
- ta'lim oluvchilari uchun moslashuvchan rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish;
- tanqidiy fikrlashini shakllantirish;
- bilimlarni umumlashtirish;
- yaxlitlikda dunyoni idrok etish va voqea-hodisalarni qamrab olishni shakllantirish;
- tizimli ravishda bilimlarga ehtiyojni rivojlantirish;
- bilish va his etishning assotsiativ mexanizmlarini boyitish.

Konseptual qoidalari:

- o'quv faoliyatini algoritmlashtirish;
- modullilik tamoyili - ta'lim mazmunini alohida tugallangan qismlarga joylashtirish;
- bilish barcha bosqichlarining o'zaro uyg'unligi va tugallanganligi;
- nazariy materiallarni bloklarga birlashtirish;
- differensiallashtirish va individuallashtirish tamoyili;
- faoliyatli yondashuv: faoliyatning barcha tarkibiy qismlari (maqsad qo'yish, rejalashtirish, tashkil etish, ishchi jarayon, nazorat va natijalarni baholash)ni amalga oshirish;
- sinergetik yondashuv: o'quvchilarning o'z-o'zini erkin namoyon etishi va rivojlantirishi;
- tizimli yondashuv: o'quv materiallarini ketma-ketlik, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;
- o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligi tamoyili;
- modulda o'quv materialini uzatishning deduktiv mantiqi: butun umumlikdan uimmiylik va alohidalikka o'tish;
- ilgari boruvchi nazariy materiallarni o'rganish;
- o'quv axborotlarini jipslashtirish (umumlashtirish, yiriklashtirish, tizimlashtirish, umumiyashtirish);
- moslashuvchanlik - shaxsiy munosabatini ifoda etish va ijtimoiy pedagogik shart-sharoit bilan bog'liq o'zgarishlariga tezlikda moslasha olish qobiliyati;
- dastur bo'yicha jadallashuvning individual sur'atini tanlab olish va o'z-o'zini yo'naltira olishi;
- anglangan istiqbolli yo'naltirish tamoyili.

Tashkil etish va o'rganish tamoyillari.

Modulni shakllantirish uchun asosning mavjud bo'lishi fan bo'yicha ishchi dasturi tuzishga imkon beradi.

Fanning asosiy mazmuni tushunchasi o'quv moduli tushunchasi bilan chambarchas bog'langan, ya'ni asosiy mazmunli bloklar tizimda mantiqiy bog'liqlikni aks ettiradi.

Asosiy tushunchalar zahirasi - tezaurus (o'quv fani mohiyatini tashkil etuvchi asosiy mazmunli birliklar, atamalar, tushunchalar, qonunlar)ga asoslanib, modul bo'yicha barcha turdagi ishlarni qamrab oluvchi savol va topshiriqlar tuzildi va modul o'rganilganidan so'ng nazorat (odatda test shaklida) o'tkazildi.

Modulni tashkil etishning asosiy nuqtasi fanning ichki mantiqini tashkil etdi.

O'qitish kursini modulli tushuntirish asosida:

- mazmunli tizimlilik, ya'ni zaruriy va etarlicha hajmdagi bilimlarsiz yaxlit fanning o'zi ham, uning modullarining ham mavjud bo'lmasligi;
- kasbiy-bilishga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish algoritmini ta'minlovchi modulning bilish va o'quv-kasbiy qismlarining almashinib turishi; nazoratning tizimlili. egallangan malaka va kasbiy ko'nikmalarning uzatish, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarini shakllantirishga olib keluvchi har bir modulning mantiqiy tugallanishini talab etuvchi tizimlilik tamoyiliga amal qilindi.

Modulda ta'limning maqsadi, mazkur modulni o'rganish vazifalari va darajasi, ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar aniq belgilab beriladi. Modulli ta'limda hammasi oldindan

dasturlashtiriladi: o'quv materialini o'rganishning ketma-ketligi. Asosiy tushunchalar, egallash lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar, o'zlashtirish darajasi va o'zlashtirish sifatini nazorat qilish. Modullarning soni ham fanning o'ziga xosliklari, ham ta'limdagi nazoratning istalgan chastotalari bilan bog'liqlikda o'zlashtiriladi. Modul o'quvchilarga dastlab umumiy faoliyatga kirishish, so'ng qismlar bo'yicha umumiy maqsadlar zonasida

anglangan o'zaro harakatni ishlab chiqishga imkon beradi. Modul tufayli o'quvchilar mazmunni o'zlashtiradi, qanday axborot va qanday maqsadda muhokama qilinayotganligini tushunib etadi, u nimani "qabul qiladi" va nima uchun bu zarurligini anglab etadi. Modul doirasida o'quv axborotlarini tizimlashtirish pedagog va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyatining shakl va turlari tadjirini ajratib olish va aniqlashni talab etadi. Modul mazmunida axborotlarning to'liqligi, o'quv material bloklarining tugallanganligi aks etadi. Kurs:

- o'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi;
- o'quvchilarning o'quv tayyorgarligi uchun zarur mazmunli axborotlar, modullar yig'indisi sifatida tashkil etiladi.

Modul bilish va o'quv-kasbiy qismlardan iborat bo'ladi va quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

- aniq shakllantirilgan o'quv maqsadi (istiqbolli dastur);
- axborotlar jamg'armasi: ta'limiy dastur, matnlar ko'rinishidagi sof o'quv materiallari;
- materialni oiganish bo'yicha metodik raliabarlik (maqsadgaerishish); zamriy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar;
- jihozlar, asbob-uskunalar, materiallar majmuasi;
- mazkur niodulda quyilgan maqsadlar bilan mustahkam bog'liq bo'lgan tashhisli topshiriqlar.

Modulning o'zi kuis mazmunining uch darajasini ifoda etadi: toiiq, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan.

Modulli ta'lim nazariyasi va amaliyotida modulli birliklar sifatida quyidagi elemenlar uyg'unlashadi:

- ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarish;
- o'quvchilarning mustaqil ishlari;
- oigatish;
- ta'limiy modulli birliklar aniq fanni o'zlashtirish sifatini maium darajada oshiradigan psixologik, mantiqiy-metodologik tavsifdagi, o'quv faoliyatining o'zi haqidagi ba'zi bilimlarni ochib beradi.

Modulli o'qilish texnologiyasining tasnifiy tavsifi:

Qo'llanilish darajasi va tavsifi: umumpedagogik

Falsafiy asosi: moslashuvchan.

Individning tuzilishi va soliasiga yo'nalganligi: 1) BKM (bilim, ko'nikma va malaka) + 2) AFU (aqliy faoliyat usullari).

Mazmuni va tuzilish tavsifi: tushunarli, moslashuvli-variativ. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi: ta'limiy.

Qollaniladigan metod: muammoli.

Tashkil etish shakllari: variativ, auditoriya va auditoriyadan tashqari, guruhli, individual.

Modulli o'qitish boshqa o'qitish tizimlaridan (an'anaviy, muammoli, individuallashtirilgan, jadallashtirilgan, tabaqalash-tirilgan, dasturlashgan, konsentrlashtirilgan) qo'yidagi **sifatlari** bilan farqlanadi:

1. O'qitish mazmuni tugallangan mustaqil informatsion bloklarda aks etadi. Ta'lim oluvchi uchun o'zlashtirish kerak boigan o'quv mazmunining hajmi va uni o'zlashtirish darajasi didaktik maqsad qilib belgilanadi. Shuningdek, xai bir ta'lim oluvchi qanday xarakatlanishi, kerakli o'quv materialini qanday topishi xaqida o'qituvchidan yozma maslahat oladi.

2. O'qituvchiligi va ta'lim oluvchi o'rtasida muloqat shakli o'zgarib, sub'ekt-sub'ektga asoslangan modul orqali muloqatda boradi.

3. Ta'lim oluvchi maksimal darajada mustaqil ishlaydi, o'zining faoliyatini rejalashtirishni o'rganadi. Bu unga o'z quruv faoliyatida o'zini bilishga, quruv darajada bilim egallashi kerakligini, bilim vamaalakalaridagi bo'shliqni amqlashga imkon beradi. Albatta, o'qituvchi ham uning o'qish-bilish faoliyatiga boshchilik qiladi, bu modul orqali ancha engil amalga oshiriladi.

4. Bosmadan chiqqan tayyor modullar o'qituvchiga ba'zi bir ta'lim oluvchilarning ishini individuallashtirishga imkoniyat yaratadi. Individual maslahat berish, dozalashtirilgan individual yordam ko'rsatish muammosi bo'lmaydi

Modulli o'qitishga o'tish uchun, eng avvalo, maqsadga erishishni ta'minlaydigan kompleksli didaktik maqsad va modullar yigindisidan iborat modulli dastur ishlab chiqish kerak. Buning uchun o'qituvchi kursning asosiy ilmiy g'oyalarni ajratib olishi kerak. Masalan, pedagogika kursida qo'yidagi g'oyalar ajratib olinadi: pedagogika nazariyasi - pedagogikaning umumiy masalalari, ta'lim nazariyasi, ta'limning metodik asoslari, tarbiya nazariyasi, tarbiyaning metodik asoslari, ta'lim menejmenti, maxsus (korreksion) pedagogika asoslari. Keyin shu g'oyalar asosida o'z quruv mazmunini muayyan bloklarda tuzib chiqish kerak. Bundan so'ng kompleks didaktik maqsad shakllanadi. Maqsadga asoslanib xarakter rejasini ishlab chiqiladi.

Rejada aniq usullar, ijodiy o'yash, o'zini-o'zi nazorat qilish kabi o'quruv elementlarini jamlagan modullar yaratiladi. O'z quruv elementlarini bilish ta'lim oluvchiga maxsus didaktik maqsadlarni ham, avtonom maqsadlarni ham egallashiga yordam beradi.

Modullarni uch tipga bo'lib qarashadi: 1) fan asoslarini o'rganishda qo'llaniladigan bilish modullari; 2) faoliyat usullarini shakllantiradigan va rivojlantiradigan xarakter modullari; 3) aralash. Modulli o'qitish tamoyillariga asoslangan xolda, o'zlashtirish uchun materiallarini shunday tuzish kerakki, xar bir ta'lim oluvchining didaktik maqsadlarga erishishini ta'minlasin. Xar bir modulning mazmuni tugallangan bloklarda berilishi kerak. Bularning barchasi modulli o'qitishni rejalashtirish davrida aniqlashtirilishi lozim. Shundagina ta'lim oluvchi axborotlarni puxta o'zlashtiradi va qo'yilgan didaktik maqsadga erishadi. Shuningdek, modul axborotlarning tugallangan bogliq sifatida o'quruv materialini o'zlashtirish darajasiga sifatli baho beriladi va o'qitishning keyingi bosqichiga o'tishini xal qiladi.

Modulli o'qitishning samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

1. O'quruv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi.
2. O'qituvchilarning tarkibining malakaviy darajasi.
3. Ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi.
4. Ta'lim olganlik darajasini nazorat qilish shakllari.
5. O'quruv adabiyotlari va didaktik materiallar bilan ta'minlanganlik darajasi.
6. Natijalarning tahlili va modullarni muvofiqlashtirish.

Har bir modul bo'yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:

1. O'qitish davrini to'liq qamrab olgan modulli dastur;
2. Har bir modul bo'yicha nazariy materiallar (ma'muz);
3. O'quruv-uslubiy tarqatma materiallar;
4. Har bir modul bo'yicha individual topshiriqlar;
5. O'quruv-ilmiy adabiyotlar ro'yxati;

6. Har bir modul bo'yicha mustaqil ishlar uchun topshiriqlar:

7. Har bir modul bo'yicha nazorat topshiriqlari.

Modul dasturlari mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadidan kelib chiqadigan modul dasturining didaktik maqsadi, o'quvchilarning dars davomida bajaradigan o'quv topshiriqlari, topshiriqlami bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalar, modul dasturini yakunlash qismini o'zida mujassamlashtiradi.

Modul dasturlarini tuzishda o'qituvchi e'tiborini quyidagilarga qaratishi zarur:

1. Modul dasturidan ko'zda tutilgan didaktik maqsadni aniq

Yoritish. An'anaviy ta'limda, dars ishlanmasida o'qituvchi darsning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini o'z zimmasiga yuklaydi, ya'ni o'quvchilarda muayyan tushunchalarni shakllantirish, ilmiy dunyoqaiashni kengaytirish, tarbiya berish va h.k. Modul dasturining didaktik maqsadi darsning yuqorida qayd etilgan maqsadlariga uyg'un holda o'quvchilarning zimmasiga yuklatiladi. SHuni qayd etish kerakki, maqsad aniq bo'lsa, unga muvofiq holda tadbirlar qo'llaniladi va erishish oson bo'ladi.

2. O'quv materialini o'rganishning mantiqiy yo'nalishi (induktiv yoki deduktiv tarzda berilganligi)ni aniqlash. Modulli ta'lim tamoyillari hisobga olingan holda o'quv materialini mazmunan tugallangan mantiqiy ketma-ketlikdagi kichik qism (modul)larga taqsimlash.

3. O'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini har bir moduli yoki qismini o'zlashtirishi uchun tashkil etiladigan o'quv faoliyati usullarini belgilash.

4. O'quv faoliyati usullariga bog'liq holda modul dasturidan olinishi lozim bo'lgan o'quv elementlarini va ularning ketma-ketligini aniqlash.

5. O'quvchilar bilimini aniqlash va nazorat qilish bo'yicha dastlabki joriy nazorat, axborot to'plami, o'qitish mazmunini qayta ishlash, yakuniy nazorat va o'quvchilar bilimidagi tipik kamchiliklar va xatolarni bartaraf etish yo'larini belgilash

6. O'quvchilar uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni taulash. O'quvchilar modul dasturi yordamida o'quv materialini mustaqil va ijodiy oiganish jarayoni mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun dasturda belgilangan vaqt doirasida amalga oshirilishiga e'tibor ishishi lozim. Modul dasturini muvaffaqiyatli qo'lashning muhim sharti, uuda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining o'quv elementlarini to'g'ri tanlashdir. Chunki o'quvchilar modul dasturi bilan ishlaganda, aynan shu o'quv elementlarini bajaradilar.

Modulli o'qitish texnologiyasidan foydalanish yo'llari. Talimtarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish uchun o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

1. O'quv materiallarini modulli rejalashtirish. O'quv yili boshida

qaysi mavzulami modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanib oiganilishini belgilash;

2. Mazkur mavzular bo'yicha modulli dars ishlalnmalarini loyihalash;

3. Mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga muvofiq holda modul dasturlarini tuzish;

Modul dasturlari mazmuni va mohiyatiga ko'ra:

- O'quvchilarning individual tarzda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlari har bir o'quvchining iqtidori, qiziqishi, bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasini aniqlash va orttirish, darslik ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish;

- Ikkita o'quvchi hamkorlikda ishlashiga moijallangan modul dasturlari yuqorida qayd etilganlardan tashqari, o'quvchilarning bir-birini o'qitish, o'zaro hamkorlikda o'quv topshiriqlarini bajarishi va muammolarni hal etishi, o'zaro nazoratni amalga oshirishi;
- O'quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga moijallangan modul dasturlari yuqoridagilar bilan bir qatorda o'quvchilar oltasida muloqot, o'quv bahsi va munozara, o'zaro hamkorlik va yordamni amalga oshirishni nazarda tutadi.

O'qituvchi mazkur modul dasturlaridan avval individual tarzda modul dasturlaridan qo'llab, o'quvchilarning o'quv materiallarini mustaqil va ijodiy o'zlashtirish ko'nikmalari shakllanganligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, ikkita o'quvchi hamkorlikda ishlashiga moijallangan modul dasturlari, tegishli pedagogik shart sharoitlar vujudga kelgandan so'ng, kichik guruhlarda ishlashga moijallangan modul dasturlaridan foydalanishi lozim. Kichik guruhlar uchun tuzilgan modul dasturlaridan foydalanishda ikki xil yondashuv mavjud:

1. Musobaqa usuli.

O'qituvchi o'quvchilarni teng sonli kichik guruhlariga ajratib, modul dasturi vositasida mustaqil ishlatni tashkil etadi. Har bir modul yakunida savol-javob, o'quv bahsi musobaqa tarzida o'tkaziladi. Guruhlar o'rtasida g'oliblar aniqlanadi. Guruh a'zolari o'z faoliyatini hamkorlarining fikrini hisobga olgan holda baholaydi.

2. Kichik konsultantlar usuli.

O'qituvchi o'quvchilarni teng sonli kichik guruhlariga ajratib, modul dasturi vositasida mustaqil ishlatni tashkil etadi. Har bir guruhga kichik konsultantlar tayinlanadi. Kichik konsultantlar guruh ishini boshqaradi, o'quvchilarning faoliyatini nazorat qiladi, tegishli hollarda yordam uyushtiradi. Har bir modul yakunida savol-javob, o'quv bahsi o'tkaziladi. O'zaro nazorat orqali o'quvchilar baliolanadi. Modulli ta'lim texnologiyasiga asoslangan darslarda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati modul dasturlari asosida tashkil etiladi. O'quvchilar o'quv materialini modul dasturidan o'rin olgan o'quv topshiriqlarini sifatli bajarish orqali mustaqil o'zlashtiradilar va o'z o'quv faoliyatining sub'ektiga aylanadilar. Shu tariqa yagona ta'limtarbiya jarayomning ikkita sub'ekti o'qituvchi va o'quvchi o'quv jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishadi.

O'qituvchi o'quv materiallarini modullarga ajratadi va modul dasturini yaratadi. Har bir modulning xususiy didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlarini aniqlaydi. Mashg'ulot yuzasidan nazorat test topshiriqlari va mustaqil ish topshiriqlarini tuzadi. O'quvchilarning mustaqil o'quv bilish faoliyatini tashkil etadi. Modul dasturining didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlari bilan tanishtiradi. O'quvchilarning modul dasturi yordamida mustaqil ishlarini tashkil etadi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi, tegishli hollarda yordam uyushtiradi. Modul dasturidan o'rin olgan har bir modul yakunida o'quv bahsi, savol-javob, munozara, aqliy hujum o'tkazadi. Modul dasturini yakunlaydi. Mashg'ulot yuzasidan test topshiriqlari yordamida o'qituvchi nazoratini amalga oshiradi. Erishilgan natijani talilil qilib o'quvchilarga erishilgan natijasiga muvofiq holda mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini tavsiya etadi. O'quvchilar modul dasturining didaktik maqsadi, modullar, modullarning xususiy didaktik maqsadlari, mashg'ulot davomida bajariladigan o'quv topshiriqlari, topshiriqlar yuzasidan ko'rsatmalarni anglaydi. O'z o'quv bilish faoliyatini tashkil etadi. Mashg'ulot matnini mustaqil o'zlashtiradi, o'quv topshiriqlarini sifatli bajaradi, savollarga javob topadi. Muammoli vaziyatlardan chiqishning optimal variantlarini taklif etadi. O'quv bahsi, savol-javob, munozara va aqliy hujumda faol ishtirok etadi va h.k.

Nazorat savollari:

1. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji, umumta'lim maktablarida o'qitishni tashkil qilishning qanday asosiy shakl va metodlari mavjud, uning mazmuni nimalardan iborat?
2. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji, umumta'lim maktablarida o'qitishni tashkil qilishning shakl va metodlariga qanday zamonaviy talablar qo'yiladi?
3. O'qitishning shakl va metodlarini qanday sinflarga ajratiladi?
4. Pedagogning innovatsion faoliyat mazmuni nimalardan iborat?
5. Pedagogning innovatsion faoliyatning qanday bosqichlari mavjud, uning mazmuni nimalardan iborat?

Mavzu: Kasbiy ta'limda keys ta'lim texnologiyasi.

Reja:

1. Pedagogik faoliyatda muammolarni bartaraf etishda keys texnologiyasining o'ziga hos o'rni.
2. Keyslarning turlari, uslublari.
3. Keys-stadi texnologiyasida turli manbalardan foydalanish yo'llari.
4. Keysning o'ziga hos talablari.

Tayanch tushunchalar: keys-stadi, kalit keyslar (Key cases), notanish keyslar (Outlier cases); tanish keyslar (Local knowledge cases).

Keys-stadi muammoli o'qitish texnologiyalaridan hisoblanadi. Ushbu innovatsion texnologiya asosini talabalarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq vaziyatlar va ularning tahlili tashkil qiladi. Bo'lg'usi kasbiy faoliyat bilan bog'liq vaziyatlarni chuqur o'rganish natijasida nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi ta'minlanadi. Turli vaziyatlarni hamkorlikda yoki mustaqil ravishda tahlil qilish va qayta ishlash davomida qo'shimcha ma'lumotlarga nisbatan zarurat sezadilar, statistik ma'lumotlarni o'rganadilar. Natijada talabalarning bilimlari amaliy jarayon bilan bog'likda mustahkamlanib boriladi. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, nutq mahorati, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Masalaning muammolilik jihatlari aniqlashtiriladi, maqsad va vazifalari, tadqiqot yo'nalishlari belgilaniladi. O'quvchilar muammoli vaziyatlarni hal qilishning turli variyatlarini ilgari suradilar, mulohaza yuritadilar, eng ma'qul hisoblangan g'oyalarni muhokamaga qo'yadilar, qarorlarni qabul qiladilar. O'quvchilar kelgusi mehnat faoliyatini aniq rejalashtirishini o'rganadilar, favqulotda holatlar sodir bo'lsa, eng to'g'ri yechim va qarorlarni qabul qilishga, ta'lim jarayonida to'plangan nazariy ma'lumotlarni rivojlantirgan holda amaliyotga ijodiy tadbir qilishga tayyor bo'ladilar. Keys-stadi texnologiyasi talabaning kelajakda yetuk

mutaxassis sifatida shakllanishida ijtimoiy- psixologik ahamiyati katta. Chunki kasbiy faoliyat bilan bog'liq turli amaliyotlarini, lavozimiy majburiyatlarini bajaruvchi shaxs o'rniga qo'yib ko'radi, voqea-hodisalarni o'rganadi, qanday xulosa yoki qaror qabul qilish mumkinligini va bunda mehnat jamoasi bilan ijodiy hamkorlikni qanday yo'lga qo'yish ma'qulligini o'ylab ko'radi, yakuniy natijalarni oldindan ko'ra bilish, muammolarni oldini olish, ularni hal qilish davomida turli ruhiy zo'riqish holatlariga yo'l qo'yimaslik kerakligini, kasbiy sohada hamkorlik, hamfirlilik, faoliyatini to'g'ri rejalashtirish va amalga oshirish lozimligini, noma'naviy, ruhiy isrofgarchilikka yo'l qo'yish mumkin emasligini bilib oladilar.

Ushbu texnologiyaning yana bir afzaligi shundaki, o'quvchilarda kasbiy axloq me'yorlari haqida tushunchalar shakllanadi va rivojlanadi. Olar o'zlarini bo'lg'usi kasbiy faoliyati qay darajada tayyor ekanliklarini sinab ko'radilar. Ular o'z qobiliyatlarini aniq baholagan holda rivojlanish imkoniyatlari to'g'risida o'ylab ko'radilar. Keys-stadi texnologiyasi ham barcha texnologiyalar kabi tur va manbalarga o'z ichiga oladi. Bular orqali keys-stadi texnologiyasi haqida talabalar to'liq ma'lumotlar oladilar va o'quv mashg'ulotlarida qo'llash imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Keyslarni guruhlashtirishda, ularning mazmun mohiyatiga e'tibor beriladi, ularni guruhlashtirishda asosan maqsad vazifalar inobatga olinadi. Shuning uchun ham keyslarni guruhlashtirish bir muncha qiyin kechadi.

Keyslarni quyidagi turlarga ajratish mumkin

- baholash, tahlilga o'rgatuvchi;
- muammoni yechish, qaror qabul qilishga o'rgatuvchi;
- umumiy tarzda muammoni yechishga o'rgatuvchi keyslar;

Shuningdek ko'pgina adabiyotlarda keyslarni quyidagi turlarga ajratadilar:

- 1) Kalit keyslar(Key cases);
- 2) Notanish keyslar(Outlier cases);
- 3) Tanish keyslar(Local knowledge cases).

Keyslarni turlarga ajratishda N. Fedyaninm, V.Davidenkolarning ham o'z nazariyalari mavjud.

- tizimlashtirilgan (highly structured) keysda kichik hajmdagi qo'chimcha axborotlar beriladi, bunda muammoni vaziyatni yechayotgan talabalar oldindan tuzilgan rejalar asosida vaziyat yechimini izlashlari lozim. Bu turdagi keyslar yuqori darajadagi vaziyat yechimini talab qiladi.

- kichik tasvirlar (short vignettes) keysida muammoli vaziyat hajmi bitta matndan, bir yoki ikkita ilovadan iborat bo'lib, talabalar faqat yechimga xos tushunchalar bilan tanishtiriladi, tahlil davomida talaba bilim zahirasi kengligi alohida o'ringa egadir.

- katta hajmdagi tizimlashmagan keyslar (long unstructured cases) hajmi chegaralanmagandir. Shuningdek ta'lim jarayoning barcha turlarida foydalanish mumkin, ma'lumotlar aniq va to'liq hajmda talabalarga taqdim qilinadi.

- boshlang'inch keyslar (ground breaking cases) qo'llashdan maqsad talabalarni oldin o'zlashtirgan bilimlarini sinovdan o'tkazishdir va mavjud bilimlarni

amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishdir. Bu jarayonda talaba va o'qituvchilar ilmiy izlanuvchilar talab qilinadi.

Keyslar qaysi turi bo'lishidan qat'iy nazar, ular o'rtasida keysning subkeyti va obyekt bo'ladi. Subyekt izlanishning nazariy qarashi ko'rsatilgan amaliy, tarixiy birligi hisoblanadi. Obyekt esa o'sha nazariy qarashning analitik suyagidir.

Keys tadqiqotchilari keyslarni ikki qismga ajaratadilar, ya'ni muammoli vaziyat va yechim. Muammoli vaziyat keysning dastlabki holatidir, bunda tegishli umumiy axborotlar kiritiladi.

Muammoli vaziyatning yechimini izlashda talabalarni axborotlarni topishga yo'naltirish lozim. Bunday yondashish keys jarayonini rivojlantiradi va jarayonga nisbatan talabalarni faolligini taminlaydi.

O'quv jarayonida qo'llaniladigan keyslarning hajmi bir-ikki varaq yoki undan ortiq bo'lishi mumkin. Shuningdek hajm jihatdan katta keyslar, kichik hajmdagi keyslarga qaraganda talabalarda ba'zibir qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday holatlarda muammoli vaziyatni bosqichlarga bo'lib o'rganish tavsiya qilinadi. Keyslardagi muammolar bir yoki bir necha qismlarga bo'g'lanib ketishi jarayoning uzluksiz davom qilinishini ta'minlaydi.

Keyslarni taqdim qilishda qo'lyozmadan yoki elektron variyatlardagi matnlardan foydalanish mumkin. Matndagi su'ratlar, diaograma chizmalar, jadvallar talabalar uchun ko'rgazmali qurol bo'lib xizmat qiladi.

Elektron axborotlar orqali tasvirlangan keyslarni tahlil qilish talabalarga engilik tug'diradi. Keyingi davrlarda keyslardan foydalanishda multimediyalar ommalashib ketmoqda.

Syujet mazmuniga qarab keyslar syujetli (manbalarni ifodalovchi, mazmunli) syujetsiz turlarga ajratiladi. Syujetli keyslar asosan o'tgan voqealar haqida hikoya qiladi, syujetsiz keyslar qoidagi asosan mazmunni yashiradi. Chunki mazmuni to'liq ifodalangan keyslar talabani kengroq fikrlashiga halaqit beradi. Keysdagi muammoli vaziyatlarni tuzishda vaqt tushunchasini ahamiyat berish lozim. Shuningdek muammolar tabiiy holda aks etilgan, sabab-oqibatlarini ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Keyslarni tahlil qilishda talabalarda bashorat qilish ko'nikmasini shakllantirish ham muhim ahamiyat ega. Bashorat qilish muammoli vaziyatda aks etgan hodisalarni yechimini oldindan ko'ra bilishga o'rgatadi va qahromonlarning kelgusidagi xati-harakatlariga nisbatan ijobiy yechimlarni topishga yordam beradi. Muammoli vaziyat mazmunida ma'lum bir shaxslarning, tashkilotlarning faoliyat jarayoni aks etadi. Shunga qarab vaziyatning sub'ektlari quyidagi turlarga ajratiladi.

1. Shaxslarning faoliyat jarayoni aks etgan keyslarda, ma'lum bir shaxsni xarakatlari ifodalanadi, ular menejer, fan arbobi, rahbar, pedagog, talaba yoki boshqa kasb vakillari bo'lishi mumkin.
2. Tashkiliy-institutsional keyslarda tashkilotlar, ta'lim muassalari, ularning bo'limlari ifodalaniladi.
3. Sub'ektlari ko'p keyslar, o'zida turli ob'ektlarni jamlaydi.

Keysning hajmi, uning o'tkazish vaqtini belgilab beradi. Hajmi jihatdan kichik keyslar bir betdan, bir necha betgacha ifodalanib, u ikki soatlik amaliy mashg'ulotlarni bir qismini ajratishga mo'ljalangan bo'ladi. O'rtacha hajmdagi keyslar ikki soatlik mashg'ulotlarga mo'ljalangandir. Hajmi katta keyslar o'n betdan iborat bo'lib, undan bir qancha amaliy mashg'ulotlar davomida foydalanish mumkin. Shuningdek keyslar ilovali keyslar hamda ilovasiz bo'lishi mumkin. Ilovali keyslar maqsadi: statistik axborotlarni hisoblash, tahlil qilish, malakalarni shakllantirishdir. Shuningdek keyslarning tarkibida muammoli vaziyat yechimini topishga yo'naltiruvchi savollar ham mavjud bo'ladi, bu orqali talabalar vaziyat yechimi sari yo'naltiriladi.

Tajribalarni ko'rsatishicha keys-stadi texnologiyasi o'z oldiga qo'yan maqsadlarni amalga oshirishi va samarali texnologiyaga aylanishi uchun uning tarkibiy tuzilishida ilmiy-uslubiy ma'lumotlar bo'lishi lozim. Shundagina keys-stadi texnologiyasi samarali o'quv texnologiyasiga aylana oladi.

Ma'lum bir jarayoni tashkil qilishda biz bevosita shu jarayonga tegishli manbalarni izlab topishga va faoliyatimizda qo'llashga harakat qilamiz. Keys-stadi texnologiyasidan, o'quv jarayonida foydalanishda biz turli-xil manbalarga murojaat qilamiz, aynan muammoli vaziyatlarni tashkil qilishda, ko'pgina manbalardan foydalanamiz. Keys-stadi texnologiyasi orqali dars o'tishda, o'qituvchining tajribasi, ilmiy-uslubiy faoliyatining o'ri kattadir.

Barcha texnologiyalar kabi keys-stadi texnologiyasi o'z manbalariga ega. Ba'zi fikrlarga ko'ra keysning asosiy manbasi hayotiy vaziyatlar hisoblanadi. Hayotiy hodisalar baxslarga sabab bo'ladi, muammoni yechish jarayonini jadallashtiradi. Ijtimoiy hayotning barcha ko'rinishlari keysning faktologik va muammoviy bazasi bo'lib xizmat qiladi, shuningdek keys tarkibining asosini tashkil qiladi.

Keyslarning yana bir muhim manbasi ta'lim-tarbiya hisoblanadi. Uning yordamida keys texnologiyasining maqsadi, vazifasilar, ta'lim tizimida tutgan o'ri belgilanadi.

Keysning uchinchi manbasi - bu fandır. U o'zida keys-stadi texnologiyasining ikkita metodologiyasini ifodalaydi va boshqa uslublar qatorida keys uslubini tahliliy sur'atini belgilaydi.

Amaliy jarayonlarda keys -stadi texnologiyasi qo'llashda yuqorida keltirib o'tilgan manbalardan bittasi asosiy o'ri egalaydi. Bitta vaziyatda uchta manbadan foydalanilsa ham bittasi baribir asosiy o'ringa chiqib oladi. Bu holatda keysning asosiy manbalaridan foydalanilishida, ularning ahamiyatini esdan chiqarmaslik kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda keys-stadi texnologiyasi quyidagi turlarga ajratiladi: Amaliy keyslar (real hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi); ta'lim - tarbiyaga yo'naltiruvchi keyslar (asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya berish hisoblanadi); ilmiy-izlanish keyslari (ilmiy izlanishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan).

Amaliy keysni asosiy maqsadi: hayotiy muammoli vaziyatlarni to'liq, izchilikda, navbatma-navbat ifodalashdir. Bu kabi keyslar eng yuqori darajada tuzilgan va ko'rgazmali vositalarga boy bo'lishi kerak. Amaliy keysning asosiy vazifasi hayotni bilishga, shaxs hayotida uchraydigan muammolarga nisbatan oldindan yechim

topishga o'rgatishdir. Amaliy keys vaziyatning asosiy harakatlantiruvchi modelidir. Ushbu keysning ta'lim sohasidagi vazifalari quyidagilardan iborat: bilimlarni mustahkamlash, vaziyatlarning yechimlarni ishlab chiqish va boshqalar. Ta'lim-tarbiya beruvchi keyslar: Har bir keys ta'lim-tarbiya beruvchi vazifasiga egadir. Ta'lim-tarbiya beruvchi keyslar quyidagi asosiy vazifalarni ifodalaydi.

Birinchi, bunday keyslar ta'lim-tarbiya jarayonidagi turli-xil muammolarni o'zida jamlaydi, ya'ni mutaxassislarining o'z faoliyatida duch kelgan muammolar aks etadi;

Ikkinchi, ta'lim-tarbiya beruvchi keyslarda birinchi o'rinda o'quv jarayoni turadi. Bu kabi keyslardagi vaziyatlar o'quv jarayonlarda yuzaga keladigan muammolar, munosabatlar asosida tuziladi. Vaziyatlarni tuzishda aynan shu muammo emas, balki ularga o'xshash maketlaridan foydalaniladi.

Ilmiy tadqiqot, ilmiy izlanuvchanlik keyslar: asosiy mazmuni, ilmiy tadqiqot, ilmiy izlanuvchanlik ishlarida namoyon bo'ladi. Tahlil qilayotgan vaziyatlar asosida yangi ilmiy-ijodiy g'oyalarni ishlab chiqish keys oldida turgan asosiy maqsadlardan biridir. Bu turdagi keyslarni barcha o'quv guruhlarida qo'llab bo'lmaydi va ular ilmiy-tadqiqot tamoyili moduli asosida tizimlashtiriladi. Shuning uchun ham bu kabi keyslarni o'quv uslubi sifatida emas, oliy va kasbiy ta'lim mutaxassislarini ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida qo'llash to'g'ri keladi.

Keysning yuqorida belgilab o'tilgan manbalari boshlang'ich yoki fundamental manbalar hisoblanadi. Keyslarni shakllantirishda ikkinchi darajali manbalar ham mavjuddir.

Keys-stadi texnologiyasida muammoli vaziyatlarni yaratishda qo'shimcha manbalar bu adabiyotlardir, ya'ni barcha keyslarning zahiraviy manbasi u foydalangan adabiyotlari hisoblanadi. Ular quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Badiiy, ommaviy (publistik) adabiyotlar. Turli hil muammoli vaziyatlarni ifodalashda, ijtimoiy-gummanitar fanlarga tegishli ma'lumotlarni keltirish, ommaviy (publistik) adabiyotlardan foydalanish, jarayoni ma'lum darajada dolzarblashtiradi va keyslarga nisbatan qiziqishni talabalarda kuchaytiradi. Badiiy adabiyotlardan foydalanishning o'ziga xosliklaridan biri bu muallifning iqtidori va asarlarining go'zalligi yordamida keyslarni yanada mazmundor bo'lishi ta'minlashdir. Publistik maqola xos aniqlik keysni tizimlashtirishda yordam beradi. Badiiy, ommaviy (publistik) adabiyotlardan foydalanish keys tarkibini estetik jihatdan bezaydi, talaba faoliyati ijtimoriy hayot bilan bog'laydi va ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantiradi.

2. Hayotiy voqealarni keyslarda shakllantirish tahlil qilish jarayoning qiziqarli bo'lib o'tishiga olib keladi. P. Sherement va G. Kanishenkolarning ta'kidlashicha turli kompaniyalar faoliyati to'g'risida tuzilgan keyslar talabalarda katta qiziqish uyg'otadi. Agarda talabalar ichida o'qishni tamomlagandan keyin ma'lum korxonalar, tashkilotlarda ishlashni rejalashtirgan talabalar bo'lsa, o'sha kompaniya, tashkilotlar faoliyati haqida keys tuzish maqsadga muvofiqdir. Yoki masalan "SAMSUNG" firmasi faoliyati to'g'risida tuzilgan keys o'z uyida ushbu kompaniyada ishlab chiqarilgan maxsulot (texnika) mavjud bo'lgan talabalarning

qiziqishiga sabab bo'ladi. Yana bir misol, mamlakatimizda futbolni rivojlantirish haqida tuzilgan keys futbolga qiziquvchilar orasida iliq kutib olinadi. Agarda keyslar talabalarning qiziqishlaridan kelib chiqmagan holda tuzilsa uning mazmuni tushunarsiz bo'ladi, talabani fikrlashga undamaydi. Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki keyslarda real voqealik aks etsagina talabalar ongiga tez va oson yetib boradi.

Bir so'z bilan aytganda keysdagi vaziyatlar mavjud holatlar asosida tuziladi, ya'ni keysdagi holatlar imkon qadar atrofda sodir bo'layotgan muammolar asosida vujudga keladi. Qanchalik kundalik turmushdan uzoqlashilsa keys samaradorligi shuncha kamayadi. Real voqealik va kundalik turmushdagi vaziyatlarni o'z ichiga olgan, ya'ni asos qilib olgan keyslardan foydalanish o'qituvchiga ham engilik tug'diradi. Shuningdek bunday keyslarda vaziyatda ko'rsatilgan kompaniya, tashkilot, ta'lim muasasalari, ijodiyot markazlari a'zolari yoki keys qahramonlari bevosita ishtirok qilishi mumkin.

3. Keysni ilmiylik va ko'rgazmali vositalar bezaydi. Keysni tuzishda uning har bir qismiga e'tibor berish kerak. Keysning tarkibida ko'rgazmali vositalar, ilovalar, statistik ma'lumotlar kabi manbalarning aks etishi uning mukammaligini belgilab beradi.

4. Keysni tuzishda ilmiy manbalar, ilmiy maqolalar, ilmiy risollar foydalanish lozim, bu o'z-o'zidan keysda ilmiy manbalarning bo'lishini talab qiladi. Keyslarni ishlab chiqish davomida ilmiy adabiyotlardan foydalanish unga katta talabchanlik va aniqlikni kiritadi, keysning ilmiylikini belgilab beradi.

5. Keyslar uchun to'ldiruvchi manba sifatida internet va uning resuslari kiritilgan. Internet o'zining keng doiradali, o'zgaruvchanligiva tezkorligi bilan farq qiladi. Shuning uchun ham keys tarkibida internet asosiy o'rida turadi.

Xulosa

Keys-stadi texnologiyasining asosiy maqsadi o'quv guruh o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ularning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek texnologiya talabalarning bilim, ko'nikma, malakalarini hamkorlikda qo'llashga, taklif qilingan yechimlarni tahlil qilish orqali muqobil yechimini izlashga o'rgatuvchi ta'lim texnologiyasidir.

Birinchi bobda keys-stadi texnologiyasining vujudga kelish tarixi to'laqonli ochib berilgan. Shuningdek keys-stadi texnologiyasining vujudga kelishida Suqrot maktabining ahamiyati kattaligi ko'rsatilib o'tilgan.

Umuman olganda keys-stadi texnologiyasi texnologiyasi ilk marotaba 1870 yilda Garvard biznes maktabida qo'llanila boshlangan. "Muammo" (situatsiya) atamasiga keladigan bo'lsak, ushbu so'z ko'proq tibbiyot va huquqshunoslik sohalarda qo'llanilib kelingan, ta'lim tizimida bu so'z yangicha talqin qilinadi.

Keys-stadi texnologiyasi asosan iqtisod fanlarini o'qitishda qo'llanilib kelingan. Amaliy iqtisodiy masalalarni yechishda qo'llaniluvchi bu texnologiya keyinchalik barcha sohalarda foydalanilib borilgan. Shuningdek hozirda dunyo bo'yicha maxsus keyslar ishlab chiquvchi Garvard biznes maktabi, Virjiniya universitetining Darden maktabi, Michigan universitetidagi Ross biznes maktabi, Richard Ivey

biznes maktabi, Osiyo menejment instituti, Hindiston menejment instituti, Ahmedobod va Kong universitetidagi Osiyo keys tadqiqot markazlari mavjud.

Dissertatsiya ishining birinchi bobida shuningdek keyslarning o'rganilish manbalari, turlari ham tahlil qilingan. Keys-stadi texnologiyasining tarixi va nazariy ahamiyati to'liq ochib berilgan.

Keys-stadi texnologiyasi hozirgi kunda o'zining innovatsion texnologiya sifatida ta'lim tizimida samarali qo'llanilib kelinmoqda. Aynan birinchi bobning ikkinchi rejasida texnologiyani qo'llashning maqsad va vazifalari tahlil qilingan.

1. Keys-stadi texnologiyasining o'quv didaktik vazifalari

Keys-stadi texnologiyasi nazariy bilimlarni amaliy vazifalarda hal qilishga yo'naltirilgan tizimdir. Bu texnologiya talabalarni mustaqil fikrlash, tinglay bilish ko'nikmasi va fikriga mos nuqtai nazarlarni hisobga olish hamda o'z fikrini aniq manbalarga asoslagan holda ifodalab bilishga o'rgatadi. Bu uslub asosida talabalar bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, ko'rsatmalar asosida ishlashga, qo'yilgan masalani hal qilishda foydali jihatlarini topishga o'rganadilar.

Keys –stadi texnologiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Muayyan fanlar yuzasidan bilimlarni egallash davomida muammoli vaziyatning yechimi bir javobga ega emasligi bilan ajralib turadi. Muammoning yechimini topishda bir qator muqobil variantlarni topishni talab qilinadi.

Bunda o'quv jarayonining vazifasi ma'lum bo'lib qolgan an'anaviy tizimdan chetga chiqish va bitta aniq qarorni qabul qilmasdan mantiqiy fikrlagan holda turli-xil javoblar variatini topish bilan ifodalanadi.

2. Ta'limning maqsadi tayyor bilimlarni egallashga emas, balki mustaqil o'rganishga, talaba bilan o'qituvchini hamkorligini ta'minlashga qaratilgan.

3. Keys -stadi texnologiyasi orqali nafaqat bilim olinadi, balki kasbiy ko'nikma va malakalar ham egalaniladi.

4. Ushbu jarayonda hayotda sodir bo'ladigina voqealar asosida modul ishlab chiqiladi. Muammoni hal qilish davomida o'qituvchi yordamchi, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

5. Texnologiyasining mohiyati nafaqat bilim egallash, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, hayotiy vaziyatlarni o'rganish, olingan bilimlarni tadbiq qilishdan iboratdir.

6. Keys- stadi texnologiyasida an'anaviy ta'limdagi kamchiliklar bartaraf qilinadi, yani quruq izohlashlar o'rnini, ijodiy tortishuvlar egalaydi, dars jarayonini xuddi teatr tomashasini eslatadi.

Keys-stadi texnologiyasi ta'limda interfaol uslub bo'lib talabalarda darsga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, nazariy materiallarni amaliy tadbiq qilishni ko'zlaydi, ta'lim jarayoniga nisbatan ijodiy motivlarni shakllantiradi. Shu bilan birgalikda bu uslub o'qituvchi siymosini yangicha talqin qiladi, uni ijodiy izlanishga, fikrlashga yangilik yaratishga undaydi.

Har bir o'quv jarayonida qo'laniladigan keys quyidagi talablarga javob berishi zarur.

- ijro qilishda maqsadning aniqligi;

- vaziyatning yechimlari mantiqiy o‘ziga xos murakkab bo‘lishi;
- vaziyatda hayotning bir qancha qirralarini tasvirlash;
- bugungi kunga nisbatan dolzarb bo‘lishi;
- tipik vaziyatlarni tasvirlash;
- analitik (analiz-sintez...) hayolni rivojlantirish;
- munozarani tashkil qilish;
- bir qancha yechimlarning mavjudligi;

Ta’limda keys-stadi texnologiyasi mohiyati: mutaxassis o‘z tajribasidan kelib chiqib o‘z varianlarini yaratishida, o‘zida mavjud bo‘lgan bilimlarni, amaliy, ijodiy, munozarali faoliyatga aylantira olishida ifodalaniladi.

Keys-stadi texnologiyasining o‘ziga xos texnologik xususiyatlari mavjud bo‘lib ular orqali texnologiya boshqa uslublardan farq qiladi.

Keys-stadi texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning mavjudligi moduli, ularda aks etgan holat ma’lum bir vaqt jarayonida ifodalanishi;
2. Jamoa asosida qarorlarni ishlab chiqishi;
3. Muammo yechimida ko‘p o‘xshashliklar bo‘lib, aniq qa’tiy yechimini mavjud emasligi;
4. Bilim faoliyatini baholashda guruh tizimida yondashishni mavjudligi;
5. Ta’lim oluvchilarning emotsional holatlarini e’tiborga olinishi;

Keys-stadi texnologiyasi quyidagi vazifalarni o‘zida jamlaydi.

1. Uslub izlanuvchanlik, analitik texnologiyalarga ega bo‘lib, jarayon ichida izlanuvchanlik va analitik (o‘xshashlik) operatsiyalar yo‘nalishini boshqaradi.
2. Keys –stadi ta’limda jamoa texnologiyasi sifatida qo‘llanilib, asosiy vazifasi guruhda axborotlarning almashuvini amalga oshiradi.
3. Keys-stadi texnologiyasining mazmuni guruhni o‘zora birlashtirish, bilimlarni ijodiy fikrlash orqali yuzaga chiqarish kabi vazifalarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi.
4. Keys-stadi texnologiyasi o‘zida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasini birlashtirib, yakka tartibda, guruh va jamoa rivojlanishlarini inobatga olib ta’lim oluvchilarni ilmiy –ijodiy, shahsiy-axloqiy sifatlarni shakllantiradi.
5. Keys-stadi uslubini qo‘llashda uni loyhalashtirish muhimdir, har qanday texnologiyani dars jarayonida qo‘llashdan oldin, uning texnologik xaritasi tuziladi. Oldindan rejalashtirilgan texnologik xaritada faoliyat maqsadlari, bosqichlari ko‘rsatiladi. Loyhalashtirish jarayoni texnologiyani qo‘llashda muhim bosqichdir, negaki oldindan rejalashtirilmagan jarayon o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarni to‘liq ifodalay olmaydi. Aynan bugungi kunda ta’lim jarayonini oldindan loyhalashtirish mavzusi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Loyhalashtirish orqali biz jarayoni oldindan bashorat qilish ko‘nikmasini o‘zimizda shakllantiramiz.
6. Keys –stadi texnologiyasi o‘zida oldindan samarali faoliyatga erish yo‘llarini rejalashtiradi, ma’lum bir yutuqlarga ega bo‘lish jarayonini oldindan faraz qiladi. Bu jarayonda talabalar faoliyatini faollashtirish, ularni rag‘batlantirish ham nazarda tutiladi.

Keys-stadi texnologiyasi asosiy vazifasi talabalarni analitik faoliyat bilan yechib bo'lmaydigan muammolarni tizimlashgan murakkab uslub bilan yechishga o'rgatishdir. Keys-stadi talabalarining analitik va kommunikativ imkoniyatlarini faollashtiradi va rivojlantiradi.

Keys-stadilarga 2 ta turli xil yondashuv mavjud:

1. Analitik yondashuv: keys-stadi nima sodir bo'lgan va nima sababdan sodir bo'lgan degan savollarga javob topish uchun ham o'rganiladi. Bunda muammolarni aniqlab, ularga yechim topish shart emas.

2. Muammoga qaratilgan uslub: keys-stadi mavjud bo'lgan asosiy muammolarni aniqlash va ularga yechim taklif qilish uchun tahlil qilinadi.

Keys –stadi muammoga nisbatan yechim talab qiladigan texnologiyadir. Keys-stadi yozishda birinchi esda tutish lozim bo'lgan narsa bu uning muammoga ega bo'lishidir. Keys- stadi texnologiyasini qo'llashda yetarlicha ma'lumotlar keltirilish o'rinlidir, bu uni o'rganuvchilar uchun juda muhimdir. Ma'lumotlarning ko'pligi vaziyatni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Qiziqarli keys-stadi yozish detektiv hikoya yozishga o'xshab ketadi, bu orqali talabalarni vaziyatga qiziqtirib, fikrlashga undash mumkin. [36, 35 b]

Mukammal tuzilgan keys- stadi bu faqatgina tavsiflashdan iborat bo'lmaydi. Keys-stadi bilan tanishayotganda talaba o'zini huddi keysning yozuvchisidek his qilib, sodir bo'layotgan voqealarni o'z boshidan o'takazayotgandek harakat qilishi kerak. Shundagina keys samarali faoliyatga aylana oladi. Keys tavsifida hamma ma'lumotlar yig'iladi, xulosalar qilinadi, o'quvchilarga vaziyat bilan tanishtiriladi va o'qituvchi bu jarayonda boshqaruvchi vazifasini boshqaradi.

Keysni tuzayayotgan paytdagi qanday qilib talabalarni qiziqishini ortirish mumkin, u qanday yozilsa talaba o'zini uning qahromonidek his qiladi, izlanadi va jarayonga bo'lgan munosabati oshadi.

Keys yozishda uchta asosiy bosqich mavjud: ma'lumot yig'ish, tahlil va yozish. Jarayon ma'lumot yig'ishdan boshlanadi, yakunlash bosqichiga yetib borganda ham yana orqaga qaytib ko'proq ma'lumot yig'iladi.

Tadqiqot bosqichi:

1. Kutubxona va internet ma'lumotlari. Mavzu borasida oldin yozilgan ma'lumotlarni toping va keysiningiz to'grisidagi muhim maqolalarni o'qing. Shu jarayonni amalga oshirsangiz, yechim talab qiladigan muammoning javobiga duch kelishingiz yoki siz shunaqa qiziqarli g'oyalarni o'zingizni keys tuzilmangizda qo'llashingiz mumkin. Misol qilib oladigan bo'lsak, sizning keysingiz innovatsion pedagogik texnologiyalarni dars jarayonlarida qo'llash mavzusida bo'lsa, siz shu mavzu asosida ma'lumotlar yig'asiz, afzaliklari, kamchiliklarni tahlil qilasiz. Birinchi navbatda dars jarayonlarini kuzatasiz, mavjud iqlimni o'rganasiz, anketa, so'rovnoma metodlaridan foydalanib talabalarining darsga bo'lgan munosabatini tahlil qilasiz. Shundagina sizning keysingiz mavzusi bo'yicha ma'lumotlarni yig'iladi. Ma'lumotlarni o'rganish jarayonida shu soha vakillari bilan ham suhbatlar olib boriladi, ularning mulohazalarini ham keysda aks etadi, shuningdek siz tuzayotgan keys o'zining aniqligi dolzarbligi bilan ajralib turishi kerak,

shundagina uning o'quvchisida keskin, bahslashishga sabab bo'luvchi fikrlar paydo bo'ladi.

2. Yana bir misol ta'lim sohasida doimo yuzaga keluvchi bir muammo mavjud. Bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kelishmovchiliklar, buni yo'qotish yoki oldini olish har bir davrda ta'lim oldida turgan muammo bo'lgan, bo'lip keliyapti. Hamisha ikki savol tug'iladi, yomon o'qituvchilar bo'ladimi yoki yomon o'quvchilarmi? Bu kabi muammolarni yechishda o'qituvchi faoliyatini, uning shaxsiy-kasbiy kasb malakalarini o'rganishdan boshlash kerak, shuningdek o'quvchining shaxs sifatida shakllanish bosqichlarini tahlil qilish lozim. Bu holatlarning yakuni keysning mukammal tuzilmasiga olib boradi

3. Keys vaziyatidagi holatlarga duch kelgan o'qituvchi, o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish.

Keysdagi vaziyat holatlaridan kelib chiqib, jarayoni o'rganish maqsadida biror bir ta'lim muasasasi tanlab olinadi va shu yerdagi o'qituvchi, o'quvchi o'rtasidagi pedagogik munosabatlar o'rganiladi. O'rganish uchun asosiy vosita sifatida so'rovnomalardan foydalanish mumkin. So'rovnomalarda o'qituvchi va o'quvchilarga alohida tayyorlanadi. (1-ilova)

So'rovnomalarning javoblari keys uchun asosiy ma'lumot bazasi bo'ladi, bu orqali o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining sabablarini tahlil qilish mumkin. Tahlil bosqichi.

1. Hamma ma'lumotlarni bitta joyga yig'ish. Tahlilning bu bosqichida barcha ma'lumotlar yig'iladi, ya'ni so'rovnoma javoblari, mavzuga tegishli maqolalar, kitoblar va h.k Ularda keltirilgan ma'lumotlarning vaziyatga tegishlilari tanlab olinadi. Ma'lumotlar asosida keysdagi vaziyat tuziladi, uning talabalar uchun tushunarli, qiziqarli bo'lishi undagi ma'lumotlarning aniqligiga bog'liq bo'ladi.

2. Materialni har hil odamlarga bo'lib berish. Har bir talaba yoki guruh nima haqiqatdan ham muhimligini, nima bo'layotganini va keysni o'rganuvchi uni tushunish uchun nimalarni bilishlari shartligini aniqlab olishi kerak. Masalan, o'qituvchi va o'quvchilar haqidagi ma'lumotlarni bitta jadvalga kirgizish mumkin.

3. Keys muammosining xulosasini shakllantirish. Bu jarayon amalga oshirishda, ko'proq ma'lumot talab qilinadi. Muammoni shakllantirib bo'lganingizdan so'ng, siz talabalarni muammo tog'risida fikrlashlarini, uni qismlarga bo'lib o'rganishlarini rejalashtirasiz. Har bir qism jumboqning bir bo'laki bo'lib, ularni har biri muhokamani talab qiladi.

Keys–stadi uslubi talabalarda quyidagi ko'nikma, malakalarni rivojlantiradi:

- muammoli ta'lim tamoyillaridan foydalanishni, vaziyatni yechish malakasini egallashni, muammoni yechish jarayonida guruh bilan hamkorlikda ishlashni, o'z fikrini asoslab berishni;

- jamoada ishlash malakasini egallashni;

- taqdimot tayyorlash malakasini egallashni;

- jamiyatda sodir bo'layotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy yangiliklaridan xabardor bo'lishni;

Keysni tahlil qilishga o'rgatishda talabalarga sabab va oqibat aks etgan tayyor keyslar umumiy tarzda beriladi. Bu orqali talabalar keys bilan ishlash

ko'nikmalarini egallaydilar. Talabalar tajribasida tahlil qilingan keyslarning ko'payib borishi, yangi vaziyatlarni hal qilinishida katta yordam beradi [19,28b]. Kasb-hunar kollejlari ta'lim tizimida keys-stadi texnologiyasidan foydalanish o'quv jarayoni faollashtiradi, talabalarning bilim olish imkoniyatlari kengaytiradi. Keys-stadi texnologiyasini qo'llashdan oldin, texnologiya metodik jihatdan tasdiqlangan bo'lishi, ta'lim dasturiga nisbatan umumlashgan, o'qituvchining ish rejasiga kiritilgan bo'lishi lozim. O'qituvchi ish rejasida o'quv fanlarining qaysi bo'lim, mavzularida keys-stadi uslubidan foydalanishi ko'rsatilib o'tilishi kerak. Bu masalalarni tahlil qilish metod birlashmalarining zimmasiga yuklanadi.

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. Asqarova O'. "Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar" - T., "Istiqlol", 2008, 111b.
2. Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" –T., "Adabiyot", 2006, 158 b.
3. Azizxo'jayeva N.N. "Педагогические технологии в подготовке учителя" - T., "Adabiyot", 2010. 210 b.
4. Беспалко В.Р. "Слагаемые педагогической технологии" – М., 1989, 192 b.
5. Bent Flyvbjerg, Norman K, Denzin and Yvonna. S Lineoln, eds, «Case Study» 2011y, 318 b.
6. Bozorov A.Sh, Usmonov H.A, Bo'stonov A.R. ("Yoshlar yetakchilari uchun qo'llanma") 2009, 220 b.
7. Farberman B. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar" -T., "O'qituvchi", 2001y, 217 b.
8. Farberman L.B, Musina R.G, Jumaboeva F.A. "Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari" - T., "O'qituvchi", 2002 y, 228 b.
9. Давлетшин М.Г. Davletshin "Модульная технология обучения" -T., "ТТПУ", 200 b.
10. Декач А.М. "Кейс –метод в обучении органической химии: составление и исполное образование" 2010 й. 145 b.
11. Декач А.М. "Кейс-метод в обучении" Специалист 2010 й №4
12. Долгоруков А. "Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения"- М., "Владос", 2008 й, 22 б
13. Farberman B. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar" -T., "O'qituvchi", 2001y, 217 b.
14. Farberman L.B, Musina R.G, Jumaboeva F.A. "Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari"- T., "O'qituvchi", 2002 y, 228 b.
15. Fozilov I, Sul'tonov R, Saidov X. "O'qituvchi ma'naviyatini shakllantirish" -T., "Sharq", 2000 y, 118 b.
16. Harvard Business Publishers for educators resurs Garvard keysov 2001, 217b.
17. Ismoilova Sh.Q. "Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning shartlar" –Ur., "Urganch", 2011y, 176 b.
18. Ishmuhammedov. R, Abduqodirov.A, Pardayev.A "Tarbiyada innovatsion texnologiyalar"- T., 2010y, 180 b.

19. Козина И. “Casestudy: некоторые методические проблемы” Рубеж. 1997, 189 б.

Mavzu: Kasbiy ta’limda loyihaviy ta’lim texnologiyasi.

Reja:

1. O‘quv maqsadlarini shakllantirish.
2. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash va rejalashtirish.
3. Bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish konsepsiyasi.
4. O‘quv maqsadlariga erishilganlikni baholash.

1.

Maqsad – oldindan anglangan va rejalashtirilayotgan natija. Uni yutug‘i insonni ongli, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini talab etadi. Maqsad va maqsadni belgilovchi faoliyat – faqat bir jarayonning, ya’ni belgilangan natijaga erishish jarayonini elemen-ti hisoblanadi. U o‘ylab chiqilmaydi, balki rivojlanayotgan jamiyat talablaridan kelib chiqadi. Asosiy maqsadni tanlashni unga erishish vositalari aniqlaydi: metodlar, ish uslublari, o‘qituvchilar.

O‘quv maqsadiga erishilganligini tekshirish uchun ishonchli usul bo‘lgandagina, pedagogda uni baholash imkoniyati bo‘ladi. Aynan shu bilan, ya’ni aniq qo‘yilgan maqsad va maqsadga erishilganligini baholashning ishonchli usul mavjudligi bilan, pedagogik texnologiya an’anaviy pedagogikadan ajralib turadi. O‘quv fanlarining an’anaviy o‘quv dasturlarda maqsadlar odatda «tushunmoq», «o‘zlashtirmoq» kabi fe’llarni qo‘llab umumiy ifodalanadi. Aniq qo‘yilmagan maqsadlarga erishilganligini baholash imkoniyati bo‘lmaydi. Pedagoglar maqsadlarni odatda qo‘yidagicha qo‘yadilar (M.V.Klarin bo‘yicha):

O‘quv maqsadini o‘rganiladigan mazmun orqali aniqlash. O‘quv maqsadini bu usulda qo‘yish bilimning fan mazmuniga yo‘naltirilganligidan darak beradi. Masalan: beshinchi mavzu mazmunini o‘rganing! O‘quv maqsadi bunday qo‘yilganda, maqsadga erishganligini tekshirish imkoniyati bo‘lmaydi!

O‘quv maqsadini pedagog faoliyati orqali aniqlash, o‘quv maqsadini bu usulda qo‘yilganida, pedagog diqqat markaziga o‘z faoliyatini qo‘yadi. Masalan: talabalarni avtomobilning pnevmatik tormozlarning ishlash prinsiplari bilan tanishtirish. Maqsadni ifodalashidan ko‘rinib turibdiki, bu maqsad haqiqiy o‘qitish natijasi bilan bog‘liq emas. O‘quv maqsadi bunday qo‘yilganida, maqsadga erishganligini baholash umuman hisobga olinmagan.

O‘quv maqsadlarini talabaning ichki rivojlanish (aqliy, hissiy, shaxsiy...) jarayonlari orqali aniqlash. Ushbu usulda bir necha fanlar (masalan: umumta’lim fanlari) yoki alohida fan bo‘yicha umumlashgan ta’lim maqsadlari aniqlanadi. Masalan: korxonaning moliya faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Bu usul bir mavzu yoki mavzuning tayanch tushunchalari doirasiga mutlaqo to‘g‘ri

kelmaydi. Bu usulda alohida bir mashg'ulot bo'yicha aniq maqsad qo'yib bo'lmaydi, demak o'qitish natijalarini baholash imkoniyati ham bo'lmaydi.

O'quv maqsadini talabalar faoliyati asosida belgilash. O'quv maqsadini bunday qo'yganda, darsni rejalashtirish va aniqligi nazarda tutiladi. Ammo bunda ham eng muhim narsa, kutilajak natija hisobga olinmaydi. Masalan: dars maqsadi – korxonada balans daromadini aniqlash bo'yicha masalalarni echish. Bu holatda qo'yilgan maqsadga erishishni belgilovchi mexanizm nazarda tutilmagan.

Pedagogik texnologiya negizida aniq qo'yilgan maqsadlarga ketma-ket yo'naltirish, yaxlit o'quv jarayonini qamrab olgan tezkor aloqa va talaba xatti-harakati orqali o'qitish yotadi.

Talabalar xatti-harakati orqali o'qitish – pedagogik texnologiyalar falsafasining negizidir.

Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlarni qo'yish usuli, bu o'quv maqsadlarining talaba xatti-harakatlari bilan ifodalangan o'quv natijalari orqali shakllan-tirishdan iboratdir.

Bunda pedagog yoki boshqa ekspert talaba xatti-harakatini aniq ko'rishi yoki o'lchashi mumkin. Talabalar xatti-harakatlari orqali ifodalangan rejalashtirilgan o'quv natijalarini to'la tashxislash va o'qitishni qayta takrorlanish imkoniyat yaratish uchun, o'quv maqsadlari shundan aniq qo'yilishi kerakki, unga erishilganligini ikkilanmasdan aniqlash mumkin bo'lsin.

Ba'zan ularni identifikatsion o'quv maqsadlari deb ham ataydilar. Maqsadni to'la identifikatsiya qilish g'oyasi asosida, talabalar faoliyatini an'anaviy umumiy qilib emas, balki aniq kuzatiladigan, o'lchamli qilib ifodalash nazarda tutiladi.

O'quv maqsadi tushunarli, aniq, identifikatsiyaga moyil bo'lishi kerak.

Identifikatsiyalangan o'quv maqsadini ifodalashda ishlatiladigan fe'llar, o'rgatilgan talaba xatti-harakatini aks ettirishni kerak: *belgilamoq, guruhlamoq, tuzmoq, ajratmoq, hisoblamoq, isbotlamoq, soddalashtirmoq, qismlarga ajratmoq, taqqoslamoq, tizimga solmoq va boshqalar.*

Bunda o'quv maqsadlarni to'la tashxislash o'qitishda esa qayta takrorlanish imkoniyati paydo bo'ladi. Qayta takrorlanish - bu pedagogik texnologiyaning asosiy majburiy talablaridan biridir.

Maqsadni identifikatsiyalash g'oyasi o'quv faoliyatini aniq, kuzatiladigan o'lchanadigan xatti-harajatlar atamalari orqali izohlashni talab qiladi. Bunday texnologiya va bunday yondashish Amerikada eng rivojlangan psixologiyaning yo'nalishi – bixeviorizm (Behavior- xulq) ta'sirida rivojlandi. Psixologiyaning bu yo'nalishi psixikani (ruhiyatni) faqat uning tashqi ko'rinishlari (harakat va nutq), ya'ni kuzatiladigan xatti-harakatlari asosida o'rganadi. Aniq maqsadlarni shakllantirish uchun har bir bilim sohasi (tabiiy fanlar, matematika va boshqalar) bo'yichai alohida fe'llar ro'yxatini tuzish lozim.

Maqsadlarni aniqlashtirishda, ularni ifodalashda xatti-harakatni va uning natijasini belgilaydigan fe'llarni qo'llash lozim.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, identifikatsion maqsad, kutilajak natijani mutlaqo, to'liq tavsifini bermaydi, ammo mazkur vositalar yordamida erishilish mumkin bo'lgan maksimal natijani belgilaydi. O'qitish natijalarini qanday qilib xatti-harakatlar tiliga aylantirish mumkin? Bunga quyidagicha erishish mumkin:

- ◆ O'quv fani bo'yicha toifalarga va ketma-ket darajalarga bo'lingan o'quv maqsad-lari tizimini yaratish. O'quv maqsadlarining bunday tizimlari pedagogik taksonomiya nomini olgan (yunoncha taxis – tartib bilan joylashtirmoq, nomos - qonun).

- ◆ Pedagog noaniq, umumiy ta'riflarni almashtirishi uchun, o'quv maqsadlarini izohlashning aniq ravshan tilini yaratish.

Bugungi kunda eng rivojlangan taksonomiyalardan biri amerikalik pedagog olim B.Blumning tizimi hisoblanadi. B.Blumning taksonomiyasi o'quv maqsadlarining aniqlashtiribgina qo'ymay, balki ularni tartibga ham soladi. O'quv maqsadlarini aniq toifalash pedagogga o'z harakatini bosh maqsadga yo'naltirishga va o'quv materialini aniq tushuntirishga imkon yaratadi. B.Blum bo'yicha o'quv maqsadlarining asosiy toifalari: bilish, tushunish, qo'llash, analiz (tahlil), sintez va baholash (2.1-jadval).

2.1-jadval

<i>№</i>	<i>O'quv maqsadlarning asosiy toifalari</i>	<i>Umumlashtirilgan o'quv maqsadlar turi namunalari-talaba</i>
I	<i>Bilish</i> Bu toifa o'rganilgan materialni konkret faktordan boshlab butun bir nazariyagacha esda saqlash va qayta tiklashni anglatadi.	Ishlatiladigan terminlarni biladi, konkret faktorni biladi, uslublar va jarayon-larni biladi, asosiy tushunchalarni biladi, qoida va tamoyillarni biladi
II	<i>Tushunish</i> Uning ko'rsatkichi, materialni bir shakl-dan boshqa shaklga o'tkazilishi (ifodaga), materialni interpretatsiyasi (tushunti-rish, qisqa bayoni) yoki hodisa va voqea-larning kelajagini oqibatlarini (na-tijalarni) bashorat qilish.	Og'zaki materialni interpretatsiya qiladi, sxema, grafik diagrammalarni interpre-tatsiya qiladi, og'zaki materialini mate-rialni matematik ifodaga o'tkazadi, mav-jud materialga asoslanib kelajagini taxminan bashorat qiladi.
III	<i>Qo'llash.</i> Bu toifa o'rganilgan materialni konkret sharoitlarda va yangi vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarani anglatadi. Bunga qoida-lar, usullar, tushunchalar, qonunlar, ta-moyillar, nazariyalarni qo'llash kiradi.	Tushunchalar va tamoyillardan yangi va-ziyatda foydalanadi. Qonun va nazariya-larni konkret amaliy vaziyatda ishlatadi, usullar va jarayonlarni to'g'ri qo'llashni namoyish etadi
IV	<i>Tahlil</i>	

	Bu toifa o'rganilgan material tarkibini bo'laklarga bo'lib, uning tuzilmasini yaqqol ko'rsatish ko'nikmalarini angla-tadi. Bunga butun qismlarini hisoblash, ular orasidagi bog'liqlikni aniqlash yaxshilik tamoyillarini anglash kiradi.	YAshirin tahminlarni belgilaydi. Mantiqiy xatolar va kamchiliklarni ko'radi, fakt va natija o'rtasida farqni aniqlaydi, olingan natijalar ahamiyatini baholaydi.
V	<i>Sintez.</i> Bu toifa elementlardan, bo'laklardan yangilikka ega bo'lgan yaxlitlikni yaratish ko'nikmasini anglatadi. Bunday yangi mahsulot: ma'ruza ish rejasi, umumlash-tirilgan majmuasi bo'lishi mumkin. Te-gishli o'quv natijalari sxema va tizim-larni tuzishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatni taqozo etadi.	Hajmi katta bo'lmagan ijodiy ishlar yozadi. Eksperiment rejasini tuzishni taklif etadi. Bu yoki u muammoni echish rejasini tuzish uchun turli sohalardagi bilimlarini qo'llaydi.
VI	<i>Baholash.</i> Ushbu toifa bu yoki u o'rganilgan materialni konkret maqsad uchun baholash malakasini anglatadi. Baholash aniq mezonlarga tayanishi lozim.	YOzma matn shaklida tuzilgan materialning mantiqiylikini baholaydi, xulosalar-ning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, u yoki bu faoliyat natijasining muhimligini baholaydi

Pedagogik texnologiyada B.Blumning taksonomiyasi o'quv maqsadlari toifalariga mos fe'llar yordamida qo'llaniladi.

2.2-jadval

B.Blum taksonomiyasi bo'yicha o'quv maqsadlari toifalariga mos keluvchi fe'llar namunalarini

№	O'quv maqsadlari	Fe'llar	
1.	Bilish	Qaytarib aytish Qayd qilish Xabar berish Nomlamoq, atamoq YOzmoq	ifodalash farqlash tanib olish aytib berish takrorlash
2.	Tushunish	Dalillar keltirmoq Almashtirmoq Aniqlamoq, belgilamoq Tushuntirmoq	o'tkazish, aylantirish o'zgartirib berish surat bilan ko'rsatish izoh berish, ochib tashlash.
3.	Qo'llash	Tadbiq etish Hisoblab chiqarish	aniqlash bajarish

		Namoyish etish Foydalanish, o'rganish.	hisoblash amalga oshirish, echish
4.	Analiz	Keltirib chiqarish Ajratib ko'rsatish Differensiyalash Tasniflash Taklif etish	oldindan aytish qismlarga ajratish taqsimlash tekshirish guruhlash
5.	Sintez	Kashf etish Umumiylashtirish Rejalashtirish Ishlab chiqish	tizimga solish, qo'shish ulamoq tuzish loyihalash
6.	Baholash	Diagnostikalash Isbotlash Asoslash O'lchash Ma'qullash	baholash, tekshirish nazorat qilish, taqqoslash, solishtirish, qiyoslash

O'quv fani bo'yicha o'quv maqsadlarni aniqlashtirish bu taksonomiya asosida uch bosqichda o'tkazish tavsiya etiladi:

Birinchi bosqichda har bir mavzu bo'yicha tayanch iboralarni aniqlash lozim. Odatda bu 3...5 tayanch iboralar yoki atamadan iborat. Tayanch iboralar, atamalar, tushunchalar yig'indichi mavzuning asosiy mazmunini, uning mohiyatini belgilaydi. Bir fan bo'yicha tayanch iboralar, atamalar, tushunchalarning umumiy soni bir necha o'nlikdan, bir necha yuztagacha bo'lishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda fan, bo'lim, mavzu bo'yicha o'quv maqsadlar toifasini aniqlash lozim.

O'quv maqsadlarning bunday bo'linishi, ishlab chiqarishda texnologik jarayonni bosqichma-bosqich, operatsiyalarga, bo'linmalarga bo'lib bajarilishiga o'xshaydi.

O'quv maqsadlar toifalari o'quv materialining o'zlashtirilishi darajasini belgi-laydi. Masalan: ba'zi tayanch tushunchalarni (usul, tamoyil, ko'rsatkich, koeffitsient, ata-ma, ta'rif, qonun, teorema) talaba bilishi darajasida (materialni esda tutish) o'zlashtirish kifoya, boshqarini qo'llash – darajasida (o'quv materialini muayyan vaziyatda qo'llash malakasi), uchinchilarini baholash – darajasida (o'quv materialini ahamiyatini muayyan maqsadlar uchun baholash, xulosalash malakasi) va boshqalar.

Uchinchi bosqich o'quv maqsadlarga erishilish mezonlarini belgilash lozim, ya'ni maqsadni shunday ifodalash kerakki, unga erishilganligini adashmasdan aniqlash mumkin bo'lsin. Bu qaysi sohada (o'quv jarayonida yoki ishlab chiqarishda) qo'llanilishidan qat'iy nazar, «texnologiya» atamasining mazmunidan kelib chiqadigan asosiy talablardan biridir.

Bunday aniq tasniflash o‘quv jarayonini maqbul rejalashtirish va rejalashtirilgan o‘quv natijasiga erishishni ta’minlaydi.

Rejalashtirilgan natijaga erishganlikni, ya’ni o‘quv maqsadini amalga oshirishni faqat tashqi ko‘rinishlarga qarab baholash mumkin – savollarga javob, masalalarni echish va boshqalar, shuni alohida ta’kidlash kerakki tashqi belgilarga ko‘ra baholashda talabaning ichki holatidagi o‘zgarishlar uning intellektual rivojlanishi hisobga olinmaydi. Bu esa o‘qitish maqsadlaridan biridir.

2.

Loyihalashtirish - («loyiha» so‘zidan) – real natijaga olib keluvchi, qat’iy tar-tibga solingan harakatlar izchilligini o‘z ichiga oluvchi muammoni o‘zgartiruvchi faoli-yatni anglatadi.

Pedagogik loyihalashtirish o‘qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo‘yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mus-taqil harakat qilishini ta’minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o‘quv faoliyati-dir.

Loyihalash – oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o‘rnatilgan vaqt mobaynida yo‘l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajra-tish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o‘quv axboroti va qaytar aloqani etkazish vositasi va yo‘llarini aniqlash.

Rejalashtirish – oldindagi o‘zaro bog‘liq pedagogik va o‘quv faoliyatining rejasi-ni ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi. U texnologik xarita ko‘rinishida rasmiylash-tiriladi.

Olima L.V.Golish pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish uchun uning qoidalariga amal qilish kerak deydi va pedagogik texnologiyalarni loyiha-lashtirish va rejalashtirishning qo‘yidagi qoidalarini ko‘rsatadi:

1. O‘quv fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasini ishlab chiqish qoidasi.

O‘quv fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasi quyidagilardan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi:

- 1) ta’lim texnologiyasini ishlab chiqish qoidalari;
- 2) maqsadni belgilash; o‘quv fanining tuzilishi va mazmuni; fan bo‘yicha o‘quv axbo-rotining hajmi va murakkabligi;
- 3) DTS tomonidan belgilangan, berilgan sharoitda, o‘quv rejada belgilangan vaqtda ta’lim maqsadlariga erishishni kafolatlovchi o‘qitish, kommunikatsiya, axborot va boshqa-ruvning yo‘l va vositalarini tanlashga konse-p-tual yondashuv.

Ta’lim texnologiyasining tuzilishi:

a) kirish

- jamiyatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyoti tamoyillarining chuqurla-shuvi sharoitida ta’limni texnologiyalashtirishning dolzarbligi asoslanadi;

- o‘quv fani bo‘yicha ta‘lim texnologiyasining tuzilishi bayon etiladi va ma‘ruza amaliy, seminar mashg‘ulotlarida tanlangan ta‘lim modellariga tavsif beriladi.

b) ta‘lim texnologiyasining konseptual asoslari

- o‘quv fanining maqsadi, vazifalari va dolzarbligi, o‘quv fani bo‘yicha o‘quv das-turiga mos auditoriya soatlarining hajmi va faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi;

- o‘quv fanining mazmuni: o‘quv fanining o‘quv dasturiga mos ravishda o‘quv fani-ning mavzuiy mazmuni izchil bayoni yoritiladi;

- o‘quv mashg‘ulotlarida ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari: bunda o‘qitish, kommunikatsiya, axborot va boshqaruvning yo‘l va vositalarini tanlash ishini amalga oshirish asosida yotuvchi ta‘lim texnologiyasini loyihalashtirish-ga konseptual yondashuv belgilanadi

v) ma‘ruza, seminar va amaliy (laboratoriya) mashg‘ulotlarda ta‘lim texnolo-giyasi.

2. O‘quv mashg‘ulotida ta‘lim texnologiyasini loyihalashva rejalashtirish qoidalari.

Ta‘lim texnologiyasini ishlab chiqishda o‘qituvchi harakatining ketma-ketligi	Natija
1. Ta‘lim texnologiyasini loyihalash-tirish	Ta‘lim texnologiyasi modeli
2. O‘quv mashg‘ulotida talabalar bilan hamkorlikdagi faoliyatini bosqichma-bosqich rejalashtirish	O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi
3. O‘quv jarayonining tashkiliy-didaktik ta‘minotini ishlab chiqish	O‘quv mashg‘uloti texnologik xaritasiga ilovalar: o‘quv-uslubiy, tarqatma va ko‘rgazmali materiallar

Ta‘lim texnologiyasining modeli:

1. O‘quv mashg‘ulotini tuzilishini aniqlaydi.

2. O‘quv mashg‘ulotining maqsadini shakllantiradi, o‘quv faoliyatining kutilajak natijalarini aniqlaydi va pedagogik vazifalarni belgilaydi.

O‘quv faoliyatining kutilajak natijalari – bu o‘qitish natijasida talaba egallashi va bajarishi lozim bo‘lgan harakatlar.

Ular tomondan erishilgan natijalarni ob‘ektiv baholash va belgilangan maqsadga mosligini aniqlash imkonini beradi, aniq, lo‘nda va fe‘l shak-lida shakllantiriladi, tugallangan harakatni bildiradi (.....gapirib beradi,sanab beradi,tavsiflaydi,echimini topadi va hokozo).

Pedagogik vazifalar – talabaning o‘quv faoliyatini belgilangan natijasiga qarab harakatlanishini tashkil etishda o‘qituvchi tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan hara-katlari.

3. Maqbul ta'lim modelini loyihalashtiradi (tanlaydi).

Ta'lim modeli – bu belgilangan vaqtda va mavjud sharoitda belgilangan maqsadni amalga oshirish va bashorat qilingan o'quv natijalariga eri-shishni kafolatlaydigan ta'limning eng maqbul shakllari, usullari va vositalari majmuidir.

4. Qaytar aloqa yo'l va vositalarini tanlaydi: tezkor so'rov, savol-javob, o'quv topshirig'i natijalarini taqdimotini baholash va boshqalar.

5. Loyihaviy faoliyat natijasini jadval – o'quv jarayoni ta'lim texnologiyasi modeli ko'rinishida rasmiylashtiradi.

O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Mavzu (raqami)(nomi).....

Vaqt: ...soat	Talabalar soni:...
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Ma'ruza (axborotli/birlashgan dars va boshq.), seminar (bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish bo'yicha), amaliy mashg'ulot
Ma'ruza rejasi / o'quv mashg'ulotining tuzilishi	1. ... 2. ...
O'quv mashg'uloti maqsadi:	SHakllantirish / bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
Pedagogik vazifalar: ...bilan tanishtirish; ...tasnifini berish; ...tushuntirish; ... ochib berish va boshq.	O'quv faoliyati natijalari: ...ko'rsatadilar; ...tasniflaydilar; ...aytib beradilar; ...tartibli ravishda ochib beradilar
Ta'lim usullari	Ma'ruza, insert, aqliy hujum va boshq.
Ta'lim shakli	Ommaviy, jamoaviy, guruhlarda ishlash
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, texnika vositalari va boshq.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhlarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
Monitoring va baholash	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq. YOzma so'rov: referat, test va boshq.

6. O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasini rejalashtirishni texnologik xarita ko'rinishida amalga oshiradi.

O'quv mashg'uloti texnologik xaritasi – o'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi tuzilishining jarayonli (protsessual) bayoni aks etgan hujjat. O'quv mashg'ulotini o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich faoliyat ketma-ketligining mazmunini yoritadi

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (____ daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni, mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar
2. Asosiy bosqich (____ daq.)	2.1. Tezkor-so'rov (savol-javob, aqliy xu-jum) orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Ma'ruza (seminar, amaliy mashg'ulot) ning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha xara-katlar tartibini bayon etadi.	Javob beradilar, yozadilar Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va h.
3. YAkuniy bosqich (____ daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha xulosa qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talaba-lar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish daraja-sini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini etkazadi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar Savol beradilar Topshiriqni bajaradilar

7. O'quv jarayonini tashkiliy-didaktik ta'minotini ishlab chiqadi va uni texnologik xaritaga ilova ko'rinishida rasmiylashtiradi

Texnologik xaritaga ilova o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- talabalar bilimni faollashtirish maqsadida qo'llaniladigan savollar ro'yxati;
- guruhlarda ishlash uchun yo'riqnoma, o'quv faoliyati natijasida talabalar tayanishi mumkin bo'lgan qoidalar (aqliy xujum qoidasi, guruhlarda ishlash qoidasi, munozara ishtirokchilariga eslatma);
- o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonida foydalaniladigan slaydlar, jadvallar, va boshqa vizual materiallar;
- munozara o'tkazish uchun qo'shimcha savollar;

- guruhlarda va yakka holdagi faoliyatni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari.

3.

To'liq o'zlashtirish texnologiyasiga asoslangan o'qitishning asosiy xususiyatlari-dan biri, deyarli barcha o'quvchilarda erisha oladigan yuqori darajadagi o'quv natijalarining belgilanishidir. Fan bo'yicha o'quv materialini to'liq o'zlashtirish etalonini aniq ifodalash, bu tizimda ishlashning muhim jihatlaridan biridir.

O'quv maqsadlarini aniqlashtirish bo'yicha harakat tartibi va o'quv maqsadlari taksonomiyasidan foydalangan holda, o'qituvchi o'z fani bo'yicha o'quv maqsadlarini mumkin bo'lgan darajagacha mayda bo'laklarga aniq aniqlashtiradi.

Ushbu texnologiya mualliflari amerikalik olimlar Dj.Keroll va B.Blyum hisoblanadi. An'anaviy o'qitish texnologiyasidan yakuniy natija, ya'ni o'quvchilardagi bilimni o'zlashtirish darajasi bilan farq qiladi.

Asosiy xususiyatlari:

- har bir o'quvchi uchun individual vaqt, uslub va o'zlashtirish shakli sharoitida yagona belgilangan darajadagi bilim, uquv va malakaga erishish vazifasi quyiladi;

- barcha ta'lim oluvchilar uchun o'qitishning rejali natijasi (to'liq o'zlashtirish etaloni)ni belgilaydi;

- o'quv materallari mazmuni alohida bo'limlarga bo'linadi («o'quv elementlari», «mazmun birligi », «kichik bloklar» va b.);

- har bir o'zlashtirish birligi bo'yicha ikki balli shkala (sinovdan o'tdi, o'tmadi) asosida test (nazorat topshirig'i) tayyorlanadi;

- har bir o'quv birligi bo'yicha o'zlashtirilmagan o'quv materialni qo'shimcha qayta ishlash uchun korreksion didaktik material tayyorlanadi.

- to'liq o'zlashtirish etaloni fikriy, hissiy va ruhiy sohalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o'zaro ierarxik bog'langan pedagogik tizim maqsad ko'rinishida belgilanadi;

- o'quv mavzusini to'liq o'zlashtirish etaloni ishlab chiqiladi.

Bilish faoliyati maqsadlari:

- bilim (o'quvchi esda saqladi, qayta rivojlantirdi, biladi);

- tushunish (tushuntira oladi, misollar bilan izohlaydi va sharhlaydi);

- amalda qo'llash (o'rganilgan materiallarni aniq, standart sharoitlar va yangi vaziyatlarda qo'llay oladi);

- umumlashtirish va tizimlashtirish (butunlikni qismlarga ajrata biladi va yangi butunlikni tashkil qila oladi);

- baholash (o'quv ob'ektining qimmati va ahamiyatini aniqlaydi).

O'qituvchi faoliyati:

- o'quv maqsadi bilan tanishtiradi;

- o‘qishning umumiy rejasini tushuntiradi;
- yangi materialni bayon etadi (an’anaviy usulda);
- oraliq nazoratni tashkil etadi;
- oraliq natijalarni baholaydi;
- to‘liq o‘zlashtirilmagan o‘quv materiallar bo‘yicha o‘quvchilar bilan qo‘shimcha ishlaydi;
- o‘zaro yordam kichik guruhlarini tashkil etadi;
- qo‘shimcha ishlash tashkil etilgach, o‘quvchilarni qayta sinovdan o‘tkazadi.

M. V. Klarin materiallari asosida fanni to‘liq o‘zlashtirish metodikasi yoki texnologiyasi. Muammo:

1. O‘quvchilarning ta’lim mazmunini egallashlaridagi o‘zlashtirish darajalarining xilma-xilligi ularning qobiliyat va qobiliyatsizligida emas, aksincha, bizning idrok etish va o‘zlashtirishni individual o‘ziga xosliklar bilan bog‘liqlikda ta’lim jarayonini tashkil etishni bilmasligimizda, deb tushuntiradi.

2. An’anaviy o‘quv jarayonida har doim ikki jihat: ta’lim sur’ati va o‘quv materialini bayon qilish usuli belgilab qo‘yiladi. Biz esa xuddi oldimizda o‘nlab idrok etishi, anglash, eslab qolish qobiliyatlari turlicha bolalar emas, bita o‘quvchi turgandek, tushuntiramiz va shunday talab qilamiz.

3. Faqatgina ta’lim olganlikning natijalari belgilanmasdan qoladi. O‘quvchilarning ta’lim mazmunini o‘zlashtirganliklari uchun qo‘yiladigan ko‘klarga ko‘tarib maqtalgan «uch», «to‘rt», «besh» baho belgilangani bo‘yicha tabaqalashgan bo‘lishi mumkin emas, bundan tashqari hamma to‘liq o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim.

4. O‘quvchi qobiliyati uni o‘rganish sur’atining o‘rtacha emas, mazkur bola uchun qulay, batartib shart-sharoitlarda aniqlanadi.

Bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish texnologiyasining asosiy tavsifi:

1. O‘qituvchining umumiy maqsadi: hamma o‘quvchilar biror o‘quv materialini egallab olishlari zarur.

2. Kurs, bo‘lim yoki kata mavzularni to‘liq o‘zlashtirish me’zonlarini ishlab chiqish.

3. Butun o‘quv mazmuni belgilangan o‘quv birliklari asosida rivojlanadi.

4. Har bir o‘quv birligi bo‘yicha tashxisli testlar va korreksion didaktik material ishlab chiqiladi.

Ta’limdagi qadamlarning ketma-ketligi:

1. O‘quvchilarni yo‘naltirish:

- Sinf(guruh) uning kata qismining emas, butun o‘quvchilarning yaxshi natijalarga erishishlariga yordam beruvchi yangi metod asosida o‘qiydi.

- Har bir o‘quvchi faqat butun kurs yakunlari bo‘yicha so‘ngii tekshirish natijalari asosida baho oladi.

- Har bir o‘quvchining bahosi boshqa o‘quvchilarning natijalari bilan taqqoslangan holda emas, aksincha, oldindan belgilangan mezonlar orqali aniqlanadi.

- Har bir o‘quvchi belgilangan mezonga erishsa, «a’lo» baho oladi.

- «A'lo» baholarning soni cheklanmaydi.
- Har bir o'quvchi istalgan zaruriy yordamni oladi, shuning uchun agar u biror usul bilan materialni o'zlashtira olmasa, unga boshqa muqobil imkoniyatlar beriladi.

- Ta'limning butun kursi davomida xar bir o'quvchi uning jadallashishiga rahbarlik qilish uchun mo'ljallangan seriyali «tashxisli» nazorat ishlari(testlar)ni oladi, bunday nazorat natijalari baholanmaydi. Mazkur nazorat asosida olingan ma'lumot o'quvchining tushunmovchiliklarni yoki xatolarini va ularni to'g'rilashni oson egallashlari uchun imkon beradi.

- Oraliq nazorat ishlarini bajarishda qiyinchilik sezilgan holda, har bir o'quvchiga qiyinchiliklarni, tushunmovchiliklarini engib o'tish va xatolarini tuzatish uchun muqobil o'quv protsedurasi (bajariladigan ish tartibi) olish imkoniyati taqdim etiladi.

- Bunday tanlash imkoniyatini kechiktirmasdan foydalanish zarur.

Ko'rinib turibdiki, ishning boshlang'ich bosqichidayoq butun tizimning asosiy jihati – butun o'quv jarayonining rejalashtirilgan yakuniy natijalarga yo'nalti-rilganligi aniq kuzatiladi.

2. O'quv jarayoni oldindan belgilangan o'quv birliklari(oddiy holda uning ket-ma-ketligi o'kituvchilarning o'quv qo'llanmasidagi tanlangan materialini bayon etilishiga bog'liq bo'ladi.) bilan bog'liqlikda qismlarga bo'linadi.

3. YAngi materialni bayon etish va uni o'quvchilarning qayta ishlashi an'naviy ke-chadi.

4. O'quvchilar nazorat ishlarini bajarib bo'lganlaridan so'ng ikki guruhga ajra-tiladi: bilim va ko'nikmalarni to'liq o'zlashtirganlar va to'liq o'zlashtira olmaganlar. YOrdamchi(korreksiyali) o'quv faoliyati tashkil etiladi. Material bayoni qaytadan tak-rorlanadi, shu bilan birga bayon etish usuli ham o'zgaradi. Kamchilik va qiyinchiliklarni bartaraf etishda ba'zan o'qituvchining o'quvchilar bilan individual ishi qo'llaniladi.

5. YOrdamchi ish nazorat o'tkazish (tashxisli testlar) bilan tugallanadi. Sinf(guruh) hamma yokm deyarli barcha o'quvchilar oldingi o'quv birligi mazmunini belgilangan darajada o'zlashtirganlaridan so'ng YAngi o'quv birligini o'rganishga o'tadi.

Bir nechta o'quv birliklarini o'z ichiga qamrab oluvchi ham katta bo'lim, ham butun kursga oid nazorat ishlari natijalari bo'yicha baho an'anaviy tarzda qo'yiladi.

Bajarilishi shart bo'lgan qoidalar:

Ekvivalentli amaliyot qoidasi – ta'lim sharti va ta'lim jarayonida kutilgan harakatlar aniq test yoki nazoratni vaqtida o'tkazilishiga bog'liq bo'ladi.

Anologli amaliyot qoidasi – imkoniyat o'xshash tabiatli hatti-harakatlarda mashq qilinadi, lekin bir xil natija bilan tugamaydi.

Natijalarni to'xtovsiz e'lon qilinishi qoidasi – har bir harakat natijalari o'quvchilarga to'xtovsiz e'lon qilinadi.

4.

Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadi shakllantirilganidan so'ng, ularni nazorat topshiriqlariga ko'chirishga o'tiladi. Bu holda pirovard natijaga erishishga vazifasi qo'yiladi, u ma'ruza matnlari tayyorlashda va mashg'ulotlar o'tkazishdagi o'quv maqsadlari bilan chambarchas bog'lanadi.

Rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun o'quv jarayonini tezkor baholash kerak, u esa teskari aloqa vazifasini bajaradi. Quyilgan natijalarga erishilmasa tezkor ba-holash o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritilishi lozimligini ko'rsatadi. O'quv materialini tezkor baholash test asosida o'tkazadi. Aniq o'quv maqsadlar ifodalari, ularning toi-falari testlarni tuzish uchun asos bo'ladi. O'quv jarayonida ishlatiladigan testlar diag-nostik (tashxislash) xususiyatga ega, chunki bu testlar natijasiga ko'ra keyingi o'quv jarayon rejalashtiriladi.

O'qitish jarayonida testlarni muntazam ishlatish pedagogik texnologiya-larning xususiyatlaridan biri hisoblanadi. O'quv jarayonini baholashda ishlatiladigan testlar diagnostik testlar deb ataladi.

O'quv jarayonini testlar orqali baholash, uni ko'zlangan maqsadga ketma-ket yunal-tirilishini ta'minlaydi. Testlarning standartlashtirilganligi ularni oldindan tayyorlab qo'yishga imkon yaratadi. SHuning uchun pedagogik texnologiyalarning yutuqla-ridan biri butun o'qitish jarayonini qamrab oluvchi testlar jamg'armasi - topshiriqlar to'plamini yaratilishidir.

Test topshiriqlari orqali o'quv materialini turli o'zlashtirish darajasini tekshirish mumkin.

Bu belgiga ko'ra to'rtta o'zlashtirish darajasi farqlanadi.

◆ axborotni tanish, eslash, qayta takrorlash. Bu qo'yidagi o'quv maqsadi toifalariga mos keladi – bilish, tushunish;

◆ reproduktiv fikrlash. Bu qo'llash o'quv maqsadi toifasiga mos keladi.

◆ produktiv fikrlash. Bu – tahlil, sintez, o'quv maqsadi toifalariga mos keladi.

◆ izlanish - ijodiy fikrlash. Bu ko'proq baholash o'quv maqsadi toifasiga mos keladi.

O'quv materialini o'zlashtirishning ma'lumotni tanish, eslash, qayta takrorlash darajasini tekshirish uchun test topshiriqlari, xotira faoliyati bilan bog'liq bilimlarni tekshirishda ishlatiladi. Bu topshiriqlar talabdan formula, ta'rif, qoida va boshqani beshta berilgan variantlardan farqlash, tanib olish yoki eslashni talab qiladi. Bu eng sodda, past darajadagi o'zlashtirishni tekshiruv bo'lsada, o'quv jarayoni shu darajaga asoslanadi.

Reproduktiv o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun test topshiriqlari talabdan oldin o'rganilgan namuna asosida mustaqil faoliyat ko'rsatishni talab qiladi. Bu holda oldin o'zlashtirilgan formula, qonun, qoidani qo'llab, oldingilarga o'xshash berilgan masalani echishdan iborat. Bunday testlarni echishda, odatda, hisob-kitob talab qilinadi.

Produktiv o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun test topshiriqlari talabdan o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil ishlatib, boshqa turdagi masalalarni

echishni talab qiladi. Bu faoliyat talabning o'zi masalani echish algoritmini tuzishi bilan xarakterlanadi. Odatda bu ma'lum qoida va formulalar majmuasini nostandart masalalarni echishda qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Produktiv o'zlashtirish darajasini tekshirish topshiriqlari eng katta diagnostik va didaktik ahamiyatga ega. Ularni bajarish mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Bu testlar o'z mohiyatiga ko'ra ko'nikmalarni baholaydi.

Bunday testlar o'quv fanning o'zlashtirilishini yakuniy baholash bosqichida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Produktiv o'zlashtirish darajasini tekshirish test topshiriqlari murakkab hisob-kitoblardan iborat bo'lishi shart emas.

Bunday topshiriqlar bosh xususiyatlaridan biri mantiqiy asoslangan xulosalar zanjirini yasashdan ibratligidir.

Izlanish ijodiy darajadagi testlar talabdan nostandart yondashuv, tasavvur, ijod, fantaziya, intuitsiyani talab etadi. Bu eng murakkab oliy darajadagi testlar. Bunday testlar fan olimpiadalarida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiyalarda testlar ishlab chiqarish jarayonidagi o'lchov asboblari rolini bajaradi. Ishlab chiqarishda texnologik jarayon natijasida ishlab chiqarilgan mahsulot o'lchov asboblari orqali nazorat qilinganidek, o'qitish jarayonida testlar rejalashtirilgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Test topshiriqlarini turli shakllarda tuzish mumkin. Eng ko'p ishlatiladigan shakllar: yopiq, ochiq, muvofiqdligini o'rganish, ketma-ketlikni tartibga solish va h. k.

Savollar va o'zini-o'zi tekshiriga topshiriqlar:

1. Maqsad nima?
2. O'quv maqsadlarini shakllantirishning qanday turlari mavjud?
3. Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlarni qanday qo'yiladi?
4. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalashga ta'rif bering.
5. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotlarini rejalashti-rishga ta'rif bering.
6. Bilimni to'liq o'zlashtirish texnologiyasining asosiy ta'rifini tahlil qiling.
7. Bilimni to'liq o'zlashtirish texnologiyasining qanday qoidalarini bilasiz?
8. O'quv maqsadlariga erishilganlikni tezkor baholash nima uchun kerak?

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.

2. Azizxo‘jaeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T., 2000 y.
3. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O‘quv qo‘llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
4. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
5. Yo‘ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 102 b.
6. Golish L. V. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
7. Faberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO‘MMMI, 1999 y.
8. Faberman B.L., Musina R.G., Jumabaeva F,A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari. – T.: OO‘MMMI, 2002 y.

Qo‘shimcha adabiyotlar

9. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse.- M.: "Znanie" 1989.
10. Guzeev V.V. Leksii po pedagogicheskoy texnologii. - M.: Znanie, 1992.
- Zyazyun YU.V. Основы педагогического мастерства. – M., 1988.
11. Подласыу I.P. Педагогика. Новыу курс v 2-x kn. – M.: Vados, 1999.
12. Беспалко V.P. Слагаемые педагогической технологии. – M.: “Педагогика”, 1989. – 190 s.

AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-amaliy mashg'ulot: "Kasbiy pedagogika" fan sifatida. (2soat)

Reja:

- 1.Kasbiy pedagogikasi fanining maqsadi.
- 2.Kasbiy pedagogikasi fanining vazifalari

Tayanch so'z va iboralar:kasb ta'limi, pedagogika, ta'lim-tarbiya, kasb hunar kolleji, akademik litsey, ma'lumot, madaniyat, mentalitet, insonning rivojlanishi, o'qitish, pedagogik faoliyat, muhit, axloqiy tarbiya, xuquqiy tarbiya.

Blits savollar:

- 1.Kasbiy pedagogika fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat
- 2.Sinf-dars tizimi kim tomonidan ishlab chiqilgan?
- 3.O'zbekiston tarixida ta'lim-tarbiyaga oid qanday ijtimoiy-siyosiy voqealar amalga oshirilgan?
- 4.Kasb ta'limi pedagogikasi fanining asosiy vazifasi?
- 5.O'rta Osiyoda xonliklar davrida qanday ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatgan?
- 6.O'rta Osiyoda xonliklar davrida qurilgan qanday madrasalarni bilasiz?
